

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
O'ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYaSI**

**S. RUSTAMIY, M. NOSIROVA, A. AKMALXONOV**

**MUTAXASSISLIKNING NAZARIY MASALALARI**

**DARSLIK**

5A 120102 – Lingvistika (arab tili) mutaxassisligi bo'yicha o'qiyotgan talabalar  
uchun

TOSHKENT – 2021

Rustamiy Salima, Nosirova Malika, Akmalxonov Akmalxon.  
Mutaxassislikning nazariy masalalari, darslik. 245-b.

Mazkur darslik arab tilining nazariy masalariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda klassik davr tilshunoslarining ilmiy qarashlari zamonaviy tilshunoslarning nazariy fikrlari bilan muqoyasa qilingan. Darslik mutaxassislik masalalarini nazariy jihatdan chuqur o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Darslik lingvistika mutaxassisligida (5A120102–Lingvistika (arab tili)) tahsil olayotgan magistrant talabalarga mo‘ljallangan.

Учебник посвящен теоретическим вопросам грамматики арабского языка. Он содержит научные взгляды ученых-классиков и современных лингвистов.

Учебник предназначен магистрантам-лингвистам (5A120102–Лингвистика (арабский язык)) для углубленного теоретического изучения вопросов специализации.

The textbook is devoted to the theoretical issues of the grammar of the Arabic language. It contains the scientific views of classical scholars and modern linguists.

The textbook is designed for master’s degree linguists (5A120102 – Linguistics (Arabic)) for in-depth theoretical study of specialization issues.

Mas’ul muharrir:

Y.Ismailova filol.f.d., prof.

Taqrizchilar:

Z.Islomov filol.f.d., prof.

Sh.Shomusarov filol.f.d., prof.

## KIRISH

Jahonda ilm-fan sohasida va ijtimoiy-siyosiy hayotda yuz berayotgan o‘zgarishlar ota-bobolarning beba ho mero sigma yangicha qarash, o‘tmish yozma yodgorliklarini ilmiy asosda kuchliroq o‘rganishga zarurat tug‘dirmoqda. O‘tmishda islom olamida yaratilgan yozma mero sigma e’tibor tobora oshib borayotir. O‘sha davrlardagi ilm-fan rivojini islom olamida yaratilgan asarlarsiz tasavvur qilish qiyin. Ilk va o‘rta asrlarda islom olamida misli ko‘rilmagan darajada yuksalish yuz berdi. Qur’on ilmlari, xususan, tafsir, fiqh, aqoid ilmida yirik asarlar yaratildi. Islom davri diniy-falsafiy bilimlargagina emas, ilmiy bilimlarning rivojiga ham keng yo‘l ochib berdi. Arab tilidagi manbalar barcha fan sohalarini qamrab olganligi bilan ham ajralib turadi. Bu davrda, ayniqsa, tilshunoslik sohasida katta kashfiyotlar qilindi. O‘sha davrlarda yaratilgan tilshunoslikka oid manbalar ko‘pchilikni tashkil qiladi.

Klassik arab tilshunosligi rivojida Movarounnahr diyoridan yetishib chiqqan olimlarning ham xizmati katta. Ular arab tili sarf va nahv ilmlariga oid fundamental asarlar yozganlar. Jahonda ushbu fundamental asarlarni o‘rganish, ularni amalda joriy etish bo‘yicha ko‘plab taqdijotlar olib borildi va olib borilmoqda.

Dunyoda o‘rta asr olimlari tomonidan yozilgan arab tili grammatikasiga oid asarlarni chuqur tadqiq qilish va ommalashtirishga olib boradigan say-harakatlar ko‘paydi.

“Mutaxassislikning nazariy masalalari” fani arab tili nazariy asoslarini o‘rgatgani uchun klassik davr tilshunosligi masalalarini chuqurroq o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. darslik nazariy va amaliy mashg‘ulotlardan iborat to‘qqiz mavzuni o‘z ichiga olgan. Unda harflarning fonetik jihatdan tasniflanishi, so‘z, so‘z yasalishi, ishtiqoq, asl va ziyoda harflar bayon qilingan. Yordamchi so‘zlar va ularning sintaktik va semantik xususiyatlari yoritilgan.

Mazkur darslikda klassik davr tilshunoslarning qarashlari batafsил tadqiq qilinganligi uning ahamiyati, manfaati katta ekanligini ko‘rsatadi. Arab tili

grammatikasining dastlabki va qolgan barcha asarlarga asos vazifasini o‘tagan manba Abu Bishr Amr ibn Usmon ibn Qanbarning (765–796) «Sibavayhi kitobi» (كتاب سبويه) asaridagi ilmiy qarashlar shular jumlasidan. Shuningdek, arab tili grammatikasi arab bo‘lmagan olimlar tomonidan ko‘proq yoritilgan. Shunday mukammal asarlardan biri Mahmud ibn Umar ibn Muhammad ibn Ahmad Zamaxshariyning (1075–1144) «E’rob hosil qilish bo‘yicha mufassal [kitob] (المفصل في صنعة الإِعْرَاب)» asari hisoblanib, darslikda Mahmud Zamaxshariyning yuqoridagi mavzularga oid chuqur ilmiy qarashlari yoritilgan.

Darslikda asos manbalardan bo‘lgan, XIII asrda arab tilshunosligi bo‘yicha buyuk iz qoldirgan, Abdulqohir Jurjoniy (1009–1078), Mahmud Zamaxshariylarning (1075–1144) munosib izdoshi Sirojiddin Abu Ya’qub Yusuf ibn Bakr ibn Muhammad ibn Ali Sakkokiy Xorazmiy Hanafiyning «Miftahu-l-ulum» asaridagi soha bo‘yicha o‘zgacha qarashlar qiyoslab, bayon qilingan.

Darslikda S.Rustamiyning “Tarixiy fonologiya”, M.Nosirova va A.Abdujabborovlarning “Gap sintaksisi” o‘quv qo‘llanmasi, M.Nosirova va A.Akmalxonovning “Mutaxassisliknong nazariy masalalari” va S.Qosimovaning shu nomli o‘quv qo‘llanmalari materiallaridan istefoda etildi.

Mazkur darslikdan o‘rin olgan fonetika, sarf va nahv ilmi atamalarining qisqacha izohli lug‘ati talabalarning bilimlarini yanada boyitishga xizmat qilsa, test savol va topshiriqlari bilimlarini sinashga yordam beradi.

# I bob. ARAB TILINING DUNYo TILLARI ORASIDA TUTGAN O'RNI

## 1.1. ARAB TILIDA YARATILGAN ASOSIY YOZMA MANBALAR (MOVAROUNNAHR)

**Reja:**

1. O'rta asr madrasalarida o'quv jarayonida foydalanilgan o'quv adabiyotlari.

2. O'rta asr madrasalarida o'quv jarayonida foydalanilgan o'quv adabiyotlarining mazmuni.

**Tayanch so'z va iboralar:** grammatik risola, o'rta asrlar an'anasi, «Alfiya», «Kofiya», «Misbah», «Miat al-omil», so'z turkumlari, sintaksis, tasrif, morfologiya, gap bo'laklari, fe'llarning tuslanishi, fonetika, orfografiya, madrasa, darslik, sharh, nahv qoidalari, omil, ma'mul, simo'iy va qiyosiy omillar.

O'rta asrlar Sharqida madrasalar uchun qisqa grammatik risolalar yozish an'anasi bo'lgan. Bunday asarlar tilining ravonligi, soddaligi, fikrlarning aniq va lo'nda ifodalanishi bilan ajralib turgan. Biror bir fikrni yoki grammatik qoidani ikki – uch so'z bilan aniq va barcha uchun tushunarli qilib ifodalash mualliflardan zo'r bilim va mahorat talab etgan. Bu risolalar ilk o'rta asrlardan boshlab, to madrasa tizimi mavjud bo'lgan XX asrning 1-choragigacha keng qo'llanildi. Ular aynan klassik manbalar tilini o'rganishga qaratilgan edi. Tabiiy, bu risolalar asosida ta'lim olgan talabalar arab tilidagi ilmiy matnni yaxshi tushunib, o'zlashtira olish darajasiga kelgan.

Sharqda shu kungacha mashhur bo'lib ilm dargohlarida asosiy darslik sifatida ishlatilib kelinayotgan asarlar borki, ular bevosita biz o'rganayot-gan fanga aloqador bo'lganligi uchun ular haqida ma'lumotga ega bo'lishimiz kerak.

Shunday asar mualliflaridan biri Abu Abdulloh Jamoliddin ibn Abdulloh ibn Molik at-To'iy Jayyoniy Shofi'iy Nahviy bo'lib, u 600/ 1203 yilda Markaziy Andalus, hozirgi Ispaniyaning go'zal shaharlaridan biri Jayyonda tavallud topgan. Bu haqida Andalus olimi Yoqut Hamaviy (1179-1229) o'zining «Mu'jamu-l-buldan» asarida zikr qilgan. Ibn Molik bir umr Damashqda yashagan va 673/1274 yili vafot etgan. Uning ota-onasi, oilasi haqida hech narsa ma'lum emas, chunki bu

haqida biror ma'lumot qolmagan. Ba'zi taxminlarga ko'ra uning ota-onasi yoshligida vafot etgan. Boshlang'ich ta'limni o'z ona shahri Jayyonda olgan. Bu haqida Muqriy shunday deydi: «U Jayyonda arab tilini bir necha ustozlardan o'rghanadi. Ular Abu-l-Muzaffar va Abu-l-Hasan Sobit ibn Xoyyardir. Qiroat ilmini esa Abu al-Abbos, Ahmad ibn Novardan o'rgangan».

Ibn Molikning yigitlik davrida ilm olishga imkoniyat bo'lmaydi. Chunki o'zaro taxt uchun kurashlar mamlakat osoyishtaligini buzgan edi. Shu bois Ibn Molik ilm istab 625-630 yillar orasida Damashqqa safar qiladi va shundan keyin uning uchun ilm eshiklari ochiladi. Damashqda Abu Sodiq al-Hasan ibn Sabahdan, Abu-l-Hasan Ilmuddin Saxoviy va boshqalardan ilm olgan. Shu bilan birga Damashq masjidida talabalarga qiroatdan dars beradi. «Ibn Molik juda ko'p mutolaa qiladigan, yod olgan narsalarini yozmaydigan kishi edi. Uni doim yo namoz o'qiyotgan, yo tilovat qilayotgan yoki ilg'or o'qiyotgan holda ko'rish mumkin edi», – deyishadi roviylar.

Sabahiy: «Ibn Molik qiroat ilmining imomi va uning sharhlovchisi edi, uning metindek qattiq, kuchli va mustahkam dini bor edi», – deb yozadi. Imom Shahobiddin Ahmad ibn Sulaymon al-Katibning yozishicha, Ibn Molik 673/1274 y. Damashqda vafot etgan. Ummaviylar masjidida janoza o'qilib, Safxi Kosiyon degan joyga dafn etilgan.

Ibn Molik arab tilining sarfu nahviga oid 90ga yaqin ilmiy asarlar yozgan. Ibn Molikning dong'i bir qancha vaqt Sibavayhining shuhratiga soya solgan. Unga bu qadar katta shuhrat keltirgan asosiy asari 1000 baytli arab tilining grammatikasiga oid didaktik she'riy poema «Alfiya» – (rus tilida «Тысыачница») dir. Bu asarni Ibn Molik o'zining 2754 baytdan iborat «Al-kofiy ash-shofiya» asaridan qisqartirib olgan. «Alfiya» – urjuza, ya'ni 6 marta mustaf'ilun vaznidagi, rajaz bahridan iborat she'riy usulda yozilgan nahviy asardir. «Alfiya» muqaddima va xotimadan tashqari 89 ta katta-kichik boblarni va fasllarni o'z ichiga olgan. Bu boblarning birinchisi «Kalom va unga aloqador gaplar bo'limi» bobi bo'lib, oxirgi bob «Idg'om» bobi. Shulardan 10 bobi fe'llarga aloqador boblar. 94 bayt fe'llarga bag'ishlab aytilgan baytlardir. Ibn Molik bu asarida til faktorlarining (ism, fe'l,

harf) xususiyatlarini juda qisqa ta’riflab, asosiy e’tiborni e’robga qaratadi. Bu boblarning barchasini asosiy mavzu – gap bo‘laklarining munosabatlarga kirish deb bilsa bo‘ladi. Bu munosabatlarning barcha ko‘rinishlari va turlari, ba’zi turkum o‘zlarning ifodalanishi to‘liq, batafsil sharhlanadi. «Alfiya» arab grammatikasini bayon qilishda sintaktik printsiplarni qo‘llashga bo‘lgan dastlabki urinishlardan biri. Bu urinish juda muvaffaqiyali chiqqan-ligidan o‘zidan oldin o‘tgan grammatiklarning asarlarini madrasalardan siqib chiqargan. Ibn Molik «Alfiya» risolasida Sibavayhining bayon qilish usulini qo‘llagan. U asar boshida e’rob, ya’ni turlanish haqida umumiyl tushuncha beradi; ega va kesimdan iborat bo‘lgan ismiy jumlalarni va gapning bir yoki ikki bo‘lagiga ta’sir qiluvchi grammatik boshqaru masalasini ko‘rib chiqadi. 16-bobdan 27-bobgacha fe’l va boshqaruvchilardan iborat bo‘lgan fe’liy jumlalarni, hamda turli fe’llar ta’sirida tushum kelishigida turgan to‘ldiruvchilarni tahlil qiladi. 28-bobdan 35-bobgacha ismning boshqa ismdan grammatik va mantiqiy tobelligini ifodalovchi qaratqich kelishigining ishlatilishini tushuntiradi. 36-bobdan 43-bobgacha turli izohlovchilarning moslashuvini; 44-bobdan 50 bobgacha turli ko‘rinishdagi tushum kelishigini va 51-bobdan 79-bobgacha oldingi boblar tarkibiga kir-magan tovushlar haqidagi qonuniyatlar va etimologiya masalalarini bayon qiladi.

Ibn Molik o‘z risolasida Kufa grammatiklarining fikrlarini eslatib o‘tgani holda ko‘pincha Basra grammatika maktabi vakillarining fikrlariga ergashadi. Ibn Molikdan keyingi yirik tilshunos olimlar «Alfiya»ni turli usullarda sharhlab tushunishga oson qilib bergenlar. Natijada «Alfiya» yanada mashhur asarga aylangan. Bu asarga birinchi bo‘lib Ibn Molikning o‘g’li Badriddin ibn Molik, keyin Bahovudin ibn Aqiyil va boshqalar sharh yozganlar. Asar Sharqda ham, G’arbda ham qayta- qayta nashr qilingan. Ingliz, nemis va frantsuz tillariga she’riy usulda tarjima qilingan. «Alfiya»ning sharhlariga bir qancha she’riy hoshiyalar, ya’ni suprokommentariylar ham yozilgan.

«Alfiya» ham boshqa nahvchilarning asarlari kabi so‘z va uning turkumlaridan boshlanadi. Boshida ism, fe’l, harfni grammatik talqin qiladi. Ammo Ibn Molik bu so‘z turkumlarining xususiyatlarini juda qisqa ta’riflab asosiy e’tiborni

e'robga qaratadi. Bu boblarning barchasini asosiy mavzu – so'z turkumlarinig sintaktik munosabatlarini bayon qilishga kirish deb qarash mumkin. Bu sintaktik munosabatlarning barcha mumkin bo'lgan ko'rinishlarini (variantlarini) va ayrim bir turkum so'zlarning ifoda qilinishidagi o'ziga xos xususiyatlarini to'liq, batafsil bayon etadi. Asarning xotima qismida muallif tildagi morfologik va fonetik ko'rinishlarni sintaksis bilan aralashtirib beradi. «Alfiya» arab grammatikasini bayon qilishda sintaktik printsiplarni qo'llashga bo'lgan dastlabki urinishlardan biridir. Bu urinish juda muvaffaqiyatli chiqqanligidan o'zidan oldin o'tgan grammatiklarning asarlarini madrasa-lardan siqib chiqargan.

XIII asrning yana bir mashhur tilshunos olimi Jamoliddin Abu Amr Usmon ibn Umar Abu Bakr ibn al-Hojibdir. U 571/ 1175 y. Yuqori Misrning Qana muhofazasiga qarashli Yasna degan shaharchada tavallud topgan. Yoshligida Qohiraga ko'chib kelgach, Qur'oni Karimni o'rganishga berishgan. Shatibiydan ba'zi qiroat turlarini o'rgangan. Imom Molik mazhabining fikh ilmini Abu Mansur Ibyariy va boshqalarda o'rgangan. Shatibiy bilan Ibn Binoiyda tarbiyalangan. Nahv ilmini esa Radiy Qanstantiniydan olgan va bu ilmni mukammal egallagan. So'ngra Damashqqa ko'chib o'tib u yerda Damashq jome' masjidida Imom Molik ta'limotidan dars berishga kirishadi va tezda bu ishga butunday sho'ng'ib ketadi. Odamlar uchun darsni, ya'ni ilm olishni muhim deb biladi, ilm dengizida suzadi. Amo barcha ilmlar ichida nahv ilmi g'oliblik qiladi. Ibn Hojib umri davomida juda ko'p asarlar yozgan. Ular ichida nahv, sarf, aruz va fiqhga oid qimmatli asarlar bor. Masalan:

- الكافية في النحو و شرحها و نظمها .2. الوافية في النحو و سرحها .
- الشافية في التصريف و شرحها .4. الايضاح في شرح مفصل الزمخشري .
- المتنهى في اصول الفقه .6. مختصر في اصول الفقه المالكي .
- قصيدة في العروض .8. مختصر في اصول الفقه .
- الامالي النحوية .9. va boshqalar.

Ibn Hojibning «Kofiya» qisqa grammatik risolasi juda mashhur bo'lib Sharq madrasalarida darslik sifatida qabul qilingan va Ibn Molikning «Alfiya»si kabi o'zidan oldingi grammatikaga oid darslik-larni siqib chiqargan. Ibn Hojib bu

risolasida Mahmud Zamaxshariyning bayon qilish usulini qo'llagan. Avval arab tilidagi so'z turkumlariga va ba'zi grammatik terminlarga qisqacha ta'rif beradi. So'ngra kelishiklarning (bosh, qaratqich, tushum) funktsiyalarini, turlanmaydigan ismlar, ismiy jumla, boshqa fe'llar bilan bog'lovchisiz bog'lanib birikma hosil qiluvchi bir guruh fe'llar, birikma olmoshlar, jumladagi so'zlarni bog'lashga xizmat qiluvchi yordamchi so'zlar va h. k. z. lar sharhlanadi.

Ibn Hojib 646 /1249 yilning shavvol oyining 26-kuni payshanbada kechga tomon Iskandariyada vafot etgan. Shayx as-Solih ibn Abu Shama qabri yoniga, dengiz eshigining tashqarisiga dafn etilgan.

Suyutiy Ibn Hojib haqida: «U muftiyaga raqib bo'ladigan faqih edi. Bir necha ilmlarda mashhur olim edi; ishonchli, diyonatli, xudojo'y, xokisor, yolg'ondan takalluf qilmaydigan inson edi», – deb yozgan.

Ilk grammatiklar materialni tilning ichki mohiyatidan kelib chiqib emas, balki so'zlarning tashqi xususiyatlariga, (ya'ni masalan, so'zlarning turlanishi yoki turlanmasligi) asoslangan holda bayon etar edilar. Mahmud Zamaxshariy davridan boshlab grammatika so'zlarning turkumga bo'linishi asosida, (ya'ni ism-fe'l-harf) talqin qilinadigan bo'ldi. Bu har ikki bayon qilish usulinig yutuqlarini inobatga olgan holda kamchiliklarini ham ko'rsatish kerak. Ibn Molik o'quvchining esida (yodda) olib qolishini osonlashtiruvchi bиринчи usulning formal belgilaridan orientir olib, ikkinchi usulning mantiqiyligini, ayrim hollarda o'ta aniqligini ta'kidlaydi.

Etimologik (o'quvchi tushunchasidagi) nuqtai nazardan so'zlarning ism-fe'l-harfga bo'linishi har bir til hodisasini alohida-alohida o'rganish chog'ida o'z asosiga ega. Amo ularning o'zaro munosabatida, sintaktik munosabatlarga kirishayotganda ular bo'linib qoladi. Bu uch turkumga bo'linish til hodisalarini yaxlitligicha, butunligicha o'rganishni tashkil qilish o'rniga ko'pincha bir-biridan ajratib qo'yadi, nazarda tutilgan butunlikni yo'qotadi. Tildagi jamiki sintaktik munosabatlar uch bo'limning (turkum) bittasida, ya'ni «mu'rab – turlanish» deb ataluvchi «Ism» bo'limida ko'rildi. Shunday qilib ism-fe'l-harf sxemasi eng turli-

tuman grammatik hodisalarni o‘zida jamlagan o‘ziga xos «doshqozon» ga aylanadi.....

Abu Bakr Abdu-l-Qohir ibn Abdurahmon Jurjoniy (vaf. 1078-1079 y). «Miat al-omil» asarida arab grammatika ilmining asoschilaridan biri Xalil ibn Ahmad Farahidiy (100 – 164/ 718 – 780 y.) uslubini qo‘llagan. Bu usulga ko‘ra barcha nahv qoidalari, tildagi barcha grammatik ko‘rinishlar boshqaruvchi so‘zlar yordamida tushuntiriladi, ya’ni «omil» va «ma’mul» – boshqaruvchi so‘z va boshqarilayotgan so‘z - tushunchasi asos bo‘ladi. Jurjoniy o‘z risolasida barcha boshqaruvchi so‘zlarni ikki guruhga bo‘ladi:

1. Grammatik boshqaruvchi so‘zlar.
2. Mantiqiy boshqaruvchi so‘zlar.

Grammatik boshqaruvchi so‘zlarni o‘z navbatida yana ikki guruhga bo‘ladi:

- A) Simo‘iy, ya’ni naqliy omillar.
- B) Qiyosiy, ya’ni aqliy omillar.

Simo‘iy, ya’ni umumiylar qoidadan tashqari so‘zlar 31 holatda uchraydi. Aqliy, ya’ni umumiylar qoidaga bo‘ysunuvchi so‘zlar esa 7 xil holatda uchraydi.

Jurjoniy birinchi guruhga 91ta so‘zni kiritadi va ularni 13 bobga ajratadi. Masalan, qaratqich kelishigini talab qiluvchi yuklamalar; hozirgi zamon fe’lini nasb holatiga, ya’ni istak mayli formasiga qo‘yuvchi yuklama; ismni tushum kelishigiga qo‘yuvchi yuklama; hozirgi zamon fe’lini jazm holatiga «kana» kabi yetishmovchi fe’llar; «Kada» kabi yaqinlikni ifodalovchi fe’llar va boshqalar.

Ikkinci guruhnini, ya’ni qiyosiy, 7 turkumga ajratadi. Masalan, fe’llar; aniq daraja sifatdoshlar; majhul daraja sifatdoshlar; fe’ldan yasalgan sifatlar; sonlar va boshqalar.

Jurjoniy mantiqiy boshqaruvchi so‘zlar o‘z ta’sirini ikki xil holatda ko‘rsatadi, deydi. Ular:

1. Boshqaruvchi so‘zlarga bog’liq bo‘lmagan bosh kelishikda turgan mutbado va uning xabari (ismiy gapning egasi va kesimi)
2. Ism o‘rnini bosuvchi (vazifasini bajara oluvchi) hozirgi zamon darak (xabar) maylida turgan fe’l.

Abdu-l-Qohir Jurjoniy yuqoridagi barcha grammatik qoidalarni misollar bilan tasdiqlagan (mustahkamlagan).

Yuqoridagi qisqacha sharhdan bu uslubning barcha erkinligi va biryoqlamaligi ko‘rinib turibdi. Lekin yutuq tomoni shundaki, grammatikaning butun mohiyatini aniq va lo‘nda taqdim etadi. Shuning uchun ko‘pchilik olimlar shu uslubga ergashganlar. Bu asar bir necha asr mobaynida munaqqid-lar etiborida bo‘lgan. K. Brokkelmanning yozishicha, bu asarga 40dan ortiq sharh yozilgan.

Mahmud Zamaxshariyning «Al-Unmuzaj fi-n-nahv» risolasi ham shun-day asarlar sirasidan bo‘lib, u muqaddima va 3 bobdan iborat. Bir jumladan iborat qisqa muqaddimadan so‘ng «so‘z» va «gap»ga ta’rif berilgan. So‘ngra 1-bobda «ism»so‘z turkumi, 2-bobda «fe’l» so‘z turkumi va 3-bobda «harf» so‘z turkumi bayon qilingan. Sintaksis masalalari esa 1-bobning 3-faslida «turlanish kategoriyasi»da tushuntirilgan. Arab tili sintaksisiga oid masalalar arab tilida mavjud bo‘lgan 3 ta kelishik orqali izohlangan .

Toshkentdagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida «Al-Unmuzaj fi-n-nahv»ning 7ta qo‘lyozmasi (№ 7151, 12858, 12474, 8589, 12888, 8107, 8642) saqlanmoqda. Ularning barchasi Jamo-luddin Ardabiliyning sharhi bilan birga ko‘chirilgan.

Mutarriziy – «Sadru-l-afodil» nomi bilan mashhur bo‘lgan Markaziy Osiyolik mashhur tilshunos olimning to‘liq nomi Abu-l-Fath Nosir ibn Abu-l-Makarim Abdu Sayid ibn Ali bo‘lib, «Mutarriziy» uning nisbasi.

Ibn Xallikon: «Bu nisba unga kiyimlarga zar ipdan bezak (gullar, naqshlar) tikkani uchun berilgan. Biroq bu ish bilan uning o‘z shug’ullan-ganmi yoki ota - bobosimi, bunisi noma'lum», – deydi. Suyutiy esa «Ota tomondan katta buvasi zardo‘z bo‘lgan», – deb yozadi.

Abu-l-Fath Mutarriziy 538/1143y. Xorazmda dunyoga kelgan. Unga «Xalif Zamaxshariy» – «Zamaxshariyning o‘rinbosari» laqabini berishgan. Chunki u Zamaxshariy vafot etgan yili o‘sha joyda tavallud topgan.

Sadrul afodil birinchi tahsilni Xorazmda o‘z otasidan, Xorazm xatibi Ali Abu Muyiddin al-Muvaffaq ibn Ahmad Makkiy va boshqalardan olgan. Hadislarni

Abu Abdulloh Muhammad ibn Abu Sa'd tojirda tinglagan, u esa hanafiy faqihlaridan edi. Mutarriziy 601/1204 y. xajga ketayotganida Bag'dodga kiradi. U yerda Bag'dod faqihlari jamoasi bilan babs - munozara o'tkazadi.

Mutarriziy nahv, lug'at va adabga oid juda ko'p foydali asarlar qoldirgan. Ulardan ba'zilari:

1. al-Misbah fi an-nahv.
2. al-Muqaddimat al-mutarriziy
3. al - Iqnau fi an-nahv
4. Muxtasar al-iqnau fi al-lug'at.
5. al- Mug'rib
6. al-Mu'rib fi sharhi al-mug'rib.
7. Sharh maqomat al-Hariri.

Mutarriziyning «Misbah» asari ikki bobdan iborat qisqa grammatik risola bo'lib, olim unda original, boshqa risolalarda uchramagan usulni qo'llagan. Birinchi bobda nahv qoidalarini Mahmud Zamaxshariy ijod qilgan «ism-fe'l-harf» usuliga ko'ra bayon qilgan, ya'ni arab tilining barcha qoidalari so'z turkumlari orqali tushuntirilgan. Ikkinci bobda esa arab nahvi an'anaviy usulda, ya'ni morfologiya va sintaksisga ajratib taqdim etilgan. Mahoratlil tilshunos bir asarda arab tili grammatikasini bayon qilishning har ikki usulini qo'llagan. Bu risola juda mashhur bo'lib ketgan. Uzoq vaqt madrasalarning asosiy darsligiga aylangan.

Mutarriziy 610/1213 y. Xorazmda vafot etgan. O'zidan keyin arab va fors tilidagi 300 ta qasidani meros qilib qoldirgan.

O'rta Osiyolik tilshunos olimlardan biri Muhammad ibn Abi al-Qosim Mu'izziy bo'lib, u arab tili grammatikasi tarixida o'z mavqeiga ega tasrif-shunos olim sifatida qolgan. Mu'izziyning ijodiga nazar tashlaydigan bo'lsak, arab tili grammatikasida uning o'rni ahamiyatli ekanligini ko'ramiz. Uning bizgacha yetib kelgan mashhur «Kitabu at-tasrifi al-Mu'izziy» asari xalq orasida «al-Mu'izziy fi at-tasrif», «al-Mu'izziy», «Tasrif al-Mu'izziy» nomlari bilan dong taratgan. Bu asar arab tilidagi fe'l kategoriyasiga bag'ishlangan qisqa grammatik risola hisoblanadi. V. Girgas u haqida shunday ma'lumot beradi: «Tasrif bo'yicha

alohida risolalar yozgan nahvchilardan biri Muhammad Mu’izziy bo‘lib, u XIII asrning 2-yarmida vafot etgan. Olim o‘zining «Kitab at-tasrifi al-arabiyy» risolasida to‘g’ri va noto‘g’ri fe’llarning kelib chiqishi va yasalishi, fe’ldan yasalgan ot va sifatlar haqida so‘z yuritadi» .

«Tasrif al-af’ol» asarining tuzilishiga to‘xtaladigan bo‘lsak, Mu’iz-ziy asarni tasniflash usulida yozgan bo‘lib, uni to‘rtta katta bobga bo‘ladi. Boblarni esa fasllarga, ba’zi fasllarni esa guruhlarga bo‘ladi. Ular quyidagicha:

1-bob «Fe’llarning tuzilish, yasalish tafsilotlari» deb nomlangan bo‘lib, o‘z ichiga 4 faslni oladi. Boshqa bob yoki fasllarga nisbatan bu bobdagi 2-fasl o‘z ichiga 4ta guruhni ajratib olgan.

2-bob «Fe’llarning o‘zgarishlardagi ko‘rinishlari» deb nomlanadi va 6 fasldan iborat. 3-bob «Fe’l suffikslarining xususiyatlari» deb nomlangan. Mazkur bob o‘z ichiga 4 ta faslni oladi. 4-bob «Suffikslarning bog’lanish tafsilotlari» deb nomlangan bo‘lib, 8 ta bobdan iborat.

Asarda to‘g’ri va noto‘g’ri fe’llarning qoliplari va ularidan tashqari fe’l turlariga aloqador bo‘lgan buyruq, idg’om (ikkita bir xil harfning tashdidlanishi), qalb (illatli o‘zak harfning boshqa zaif harfga aylanishi, almashishi), taskin (harakatsizlantirish) va hazf (illatli o‘zakning tushib qolishi) qoidalari keltirilgan. Asarda «Hamzali» fe’llardan tashqari barcha fe’l turlarining ta’rifi berilgan bo‘lsada, hamzali fe’llarga oid misollar uchrab turadi.

Toshkentda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida mazkur asarning 7 qo‘lyozma nusxasi (№ 10455, 12018; 10461; 12214; 12147; 10326; 11743) saqlanib kelmoqda.

Ibn Molikning «Alfiya», Ibn Hojibning «Kofiya», Mahmud Zamaxshariyning «al-Unmuzaj» va «Harakot», Mu’izziyning «Tasrif», Mutarriziyning «Misbah», Abdul Qohir Jurjoniyning «Miat al-omil», Abdurahmon Jomiyning «Sharhi Mullo»si kabi qisqa grammatik risolalar bugungi kunimizga qadar Sharq madrasalarida, oliy bilim dargohlarida asrlar o‘tsada o‘z ilmiy qiymatini zarracha yo‘qotmagan holda asosiy darslik sifatida qadrlanadi.

Tarixiy qisqa davr ichida nahv olimlari arab tilini to‘liq o‘rganib, uning mustahkam va barqaror qoidalarini ishlab chiqdilar. Xijriy 3-asrga kelib nahv ilmi mukammal ilm darajasiga yetdi. Nahv ilmining rivojlanishiga nafaqat arab, balki forsiy, turkiy va boshqa xalqlarning ichidan yetishib chiqqan arab bo‘lmagan musulmon olimlari o‘zlarining samarali hissalarini qo‘shdilar. Chunki milodiy IX asrga kelib arab tili faqat arab xalqining o‘ziga tegishli til bo‘lib qolmasdan, balki butun islom olamidagi barcha xalqlar uchun boshqaruv va ilm-fan tiliga aylangan.

### **Savollar:**

1. O‘rta asrlarda nima sababdan qisqa risolalar yozilgan?
2. Mutarriziy kim va uning qaysi asarini bilasiz?
3. «Miat al-omil» qanday asar va uning muallifi kim?
4. Arab fe’llariga bag’ishlangan mustaqil asarni kim yozgan va u qanday nomlanadi?
5. Ibn Hojibning risolasida qaysi uslubdan foydalanilgan?
6. Ibn Molikni mashhur qilgan asar haqida gapirib bering.
7. Simo‘iy omil nima, qiyosiy omil nima?
8. «Sharhi mullo»ning muallifi kim va u kimga atalgan?
9. «Alfiya» qaysi asarning muxtasar shakli hisoblanadi?
10. «al-Misbah fi-n-nahv» asari qaysi uslubda yozilgan?

## **1.2. UMUMXALQ TILINING ADABIY TILGA MUNOSABATI**

### **Reja:**

1. Adabiy til.
2. Umumxalq tilining adabiy tilga munosabati.

**Tayanch so‘z va iboralar:** adabiy til, umumxalq tili, dialekt, lug‘at, grammatika.

Adabiy til – muayyan umumxalq tilining qayta ishlangan va me’yorlash-tirilgan, mazkur tilda so‘zlashuvchi xalqning madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi shakli. "Qayta ishlangan" tushunchasi nisbiy (tarixan turli davrlarda, turli xalqlarda Adabiy til o‘zgarib turgan). Hatto ayrim bir xalqqa ham adabiy til turli davrda turlicha bo‘lgan (mas, qadimgi turkiy adabiy til, hozirgi o‘zbek adabiy tili). Ba’zi davrlarda bir xalq uchun boshqa bir xalq tili adabiy til vazifasini o‘tagan. Mas., fors va turkiylar uchun mumtoz arab tili, yaponlar uchun mumtoz xitoy tili; ba’zi Yevropa xalqlari uchun lotin tili va boshqa adabiy til bo‘lgan. Adabiy til ning ikki – og‘zaki ham yozma ko‘rinishi mavjud. Har qanday adabiy til xalq og‘zaki nutqi asosida shakllanib, shu xalq tiliga xos shevalarni umumlashtiradi va barcha sheva vakillari uchun tushunarli shakl oladi. Rivojlangan adabiy tilsiz boy madaniyatga ega xalq bo‘lishi mumkin emas. Shu ma’noda adabiy til jamiyatning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Adabiy til deganda ba’zan uni turli ko‘rinishlari bilan qorishtirib yuboradilar. Xususan, yozma adabiy til va og‘zaki adabiy til hamda badiiy adabiyot tili bilan adabiy tilni ayni bir deb bo‘lmaydi. Adabiy til o‘z mezonlarini egallagan shu tilda so‘zlashuvchilar barchasi uchun birdekdir. U ham yozma, ham og‘zaki shakllarda amalda qo‘llanadi. Badiiy asar (yozuvchi) tili ham adabiy til me’yorlariga bo‘ysunsada, ko‘plab xususiylik hamda umum e’tirof etmagan jihatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Turli xalqlarda hamma davrlarda ham adabiy til bilan badiiy asar tili bir taxlitda bo‘lmagan. Adabiy til bilan milliy til o‘rtasida ham farq bor. Milliy til shu tilning egasi bo‘lgan xalq millat bo‘lib shakllanganda yuzaga keladi. Milliy til adabiy til vazifasini o‘taydi, lekin har qanday adabiy til darhol milliy tilga aylana olmaydi. Adabiy til bilan shevalar o‘rtasidagi munosabat alohida muammoni tashkil etadi (qarang Shevalar). Shevalar tarixan qanchalik barqaror bo‘lsa, adabiy til uchun shevalarning vakillarini lingistik nuqtai nazardan umumlashtirish shunchalik murakkablashadi. Hozirgi kunda ko‘pgina mamlakatlar (mas., Italiya, Indoneziya va boshqalar)da shevalar adabiy til bilan teng suratda qo‘llanmoqda. Adabiy til tushunchasi odatda til uslublari tushunchasi bilan bog‘lanadi. Ammo bu bog‘lanish bir tomonlama. Chunki til uslubiyatlarining o‘zi adabiy til ko‘rinishlari hisoblanadi. Ular tarixan

shakllangan, muayyan belgilar majmuidan iborat bo‘ladi. Mazkur belgilarning bir qismi boshqa uslublarda takrorlanishi mumkin. Lekin, bu takroriy belgilarning ma’lum shaklda birikishi va vazifasining o‘ziga xosligi bir uslubning ikkinchi uslubdan farqini belgilaydi

Umumxalq tili. Dialekt (qadimgi yunon, gapirish, ekspress) - bu bir hududda bog‘langan odamlar o‘rtasidagi aloqa vositasi sifatida ishlatiladigan til.

Dialekt - bu o‘z lug‘ati va grammatikasiga ega bo‘lgan og‘zaki muloqotning to‘liq tizimi (og‘zaki yoki ramziy, ammo majburiy emas).

An'anaga ko‘ra, lajhalar asosan qishloq hududiy dialektlari deb tushunilgan. So‘nggi paytlarda shahar shevalarida ko‘plab asarlar mavjud; xususan, ular Amerika Qo‘shma Shtatlarining Negro shahar aholisining nutqini o‘z ichiga oladi, ularning ingliz tili Amerika inglizlarining boshqa turlaridan sezilarli darajada farq qiladi. Frantsuz tilshunoslari "dialekt" (frantsuzcha dialekta) atamasi bilan bir qatorda "patois" (patois) atamasini ishlatadilar, bu shuningdek aholining ma’lum guruhlari, asosan qishloq joylarida cheklangan nutqni anglatadi.

Funktsional tushunish. Sotsiologikologiyada va kundalik darajada, dialektlar odatiy yoki adabiy tilga qarshi. Shu nuqtai nazardan, dialekt quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi.

leksemaning notiqlari doirasining ijtimoiy, yoshi va qisman jinsiy cheklanishi (bu asosan katta avlod qishloqlari aholisidir);

lahjani oilaviy va maishiy holatlar bo‘yicha qo‘llash doirasini cheklash;

turli dialektlarning o‘zaro ta’siri va o‘zaro ta’siri va dialekt tizimlari elementlari o‘rtasidagi munosabatlarni qayta qurish natijasida yarim dialektlarning shakllanishi;

adabiy til (ommaviy axborot vositalari, kitoblar, ta’lim tizimi va boshqalar) ta’siri ostida dialekt nutqining o‘ziga xosligini tekislash va oraliq shakllarning paydo bo‘lishi - masalan, dialektik rangdagi adabiy nutq.

Lingvistik tushunish. Shu bilan birga, yana bir tendentsiya mavjud: dialekt bu boshqa navlardan biroz farq qiladigan har qanday til. Ya'ni, har bir kishi biron bir dialektni, ma'lum bir holatda odatiy adabiy lahjani gapiradi.

Ushbu tushuncha doirasida standart dialektlar (yoki adabiy tillar) va an'anaviy (yoki nostandard) lahjalar mavjud. Ularning asosiy farqi shundaki, avvalgilarining yozma ravishda ishlatilishi, maxsus institutlar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, maktablarda o'qitilishi va tilning "to'g'ri" ("asosiy") shakli deb hisoblanishi. Ba'zi tillarda bir nechta standart lahjalar mavjud. Bunday holda, ular politsentrik til yoki diasistem haqida gapirishadi.

Tilshunos uchun endi tilning "to'g'ri" shakli yo'q, bundan tashqari, ko'pincha an'anaviy qishloq lahjasidan olingan ma'lumotlar adabiy versiya asosida olingan ma'lumotlarga qaraganda qimmatroqdir.

Taksonomik foydalanish. Lingvistik tushunish ayniqsa tilshunoslik sistematikasi uchun juda muhimdir, uning doirasida dialekt atamasi to'rt darajali yaqinlik darajasi bilan shkala bo'yicha taksonomik maqomga ega: til - ravish - dialekt - dialekt. Ishlab chiqilgan ta'rifga ko'ra, ikkita idioma bir xil lahjaning dialektidir, agar ular o'rtasida deyarli to'liq o'zaro tushunish mavjud bo'lsa-da, tashuvchilar har bir dialektning xususiyatlarini ta'kidlaydilar, odatda talaffuzda (aksent) va ma'lum so'zlardan foydalanadilar. Qoidaga ko'ra, ushbu yaqinlik darajasi Swadesh ro'yxatidagi o'yinlarning 97 yoki undan ko'p foiziga to'g'ri keladi.

Bir tomondan, dialektlar dialektlar yoki dialektlar guruhiga birlashtirilishi mumkin, boshqa tomondan ularni dialektlarga bo'lish mumkin. Idiomaning taksonomik holatini aniqlash ma'lum tilshunoslik jamoasidagi umumiylialtinchalishga bog'liq va har bir til uchun alohida belgilanadi.

### Savollar:

1. Adabiy til xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Umumxalq tilining adabiy tilga munosabati qanday izohlanadi?

### **1.3. ARAB TILINING YUZAGA KELISHI VA TARIHIY TAKOMILI**

#### **Reja:**

1. Arab tilining paydo bo‘lishi.
2. Arab tilshunosligi oldidagi dolzarb muammolar.

**Tayanch iboralar:** kufiy xati, Somiy-Homiy tillar oilasi, klassik va zamonaviy arab tili, arab grammatikasi, Kahtan qabilasi.

Arab sahrosining “arab” deb nom olgan xalqlari to‘g‘risidagi ilk ma’lumotlarni miloddan avvalgi VII-VIII asrlardagi Ossuriya harbiy yozma yodgorliklarida, miloddan avvalgi IX asrdagi Injil matnlarida, qadimgi Janubiy Arabiston epigrafik matnlarida, Gerodot singari antik davr mualliflari asarlarida, ilk o‘rta asr Vizantiya va Suriya manbalarida uchratishimiz mumkin. Tilga nisbatan “arab” atamasining ilk bora qo‘llanilishi miloddan avvalgi 3 asrdagi qadimiylar manbalarida kuzatiladi. Arablarda esa mazkur atamaning qo‘llanilishi Islom dinining paydo bo‘lishi va tarqalishi bilan bog‘liq. Arab manbalarida keltirilishicha, “arab tili” atamasi ilk bora Qur’oni Karimda “*lisanum arabiyyun mubinun*” (XVI-sura,103-105-oyatlar) tariqasida uchragan. Ma’lumotlarga ko‘ra, milodiy I asrlarda arab tili Arabiston yarim orolining shimoliy va markaziy hududlarida tarqalgan qardosh qabila shevalari asosida vujudga kelgan. Qabilaviy va hududiy shevalar bilan bir qatorda nazmiy (poetik) tilning yagona shakli mavjud bo‘lgan. Qabila shoirlarining asarlari – “*muallaqotlar*” yig‘ilib , o‘g‘zaki ravishda qabiladan qabilaga, avloddan avlodga o‘tib borgan. Shu bilan bir qatorda kohinlar va bashoratchilarning og‘zaki yagona tili ham mana shu davrda shakllangan.

Arablarni yashagan hududiga ko‘ra ikki turga bo‘lsak bo‘ladi. Janubiy arablar - ximyoriylar, yani, yamanda yashaydigan kaxtan qabilasining tili. Ular asosan janubiy arab tilida ,ya’ni somiy tarmog‘ining janubiy chet guruhchasiga kiruvchi tilda so‘zlashganlar. Shimoliy arablar- mudoriylar, ya’ni,hijozda

yashaydigan adnon qabilasi tili. Ular somiy tarmog‘ining janubiy markaziy guruhchasiga kiruvchi klassik arab tilida so‘zlashganlar. Hijoz va mudoriy tili juda ko‘p boshqa tillarga qo‘shilib chatishgan holda bizgacha yetib kelgan.

Hijoz, mudoriy tili juda ko‘p boshqa tillarga qo‘shilib, chatishgan holda bizgacha yetib kelgan. Birinchi bo‘lib bu tilda islomgacha bo‘lgan arab adabiyoti va Qur’oni Karim yozildi. Arabiston yarim orolining shimolida yashovchi adnon qabilasi bilan janubda yashovchi kaxtan qabilasi o‘rtasida savdo-sotiq ishlari orqali ikki til vakillari o‘rtasida bir-birini tushunib o‘tish jarayoni bo‘lib o‘tdi va rivojlandi. Besh asr davomida mudoriy tili hukmron bo‘ldi. Mazkur til asosida arab adabiy tili paydo bo‘ldi.

Arab tilining paydo bo‘lishiga ximyoriylar va mudoriylar tilining qo‘shilib ketishini asosiy shart-sharoit sifatida keltirishimiz mumkin. Qabila lahjalarining bir kalimadan, bir o‘zakdan chiqqanligini ko‘rish mumkin. Ular turli lahjalarda gaplashsalar ham, bir-birini tushunar edilar.

Qabilaviy dialektlar bilan bir qatorda noaniqliklar va buzilishlardan holi bo‘lgan arab adabiy tili yaratildi. Bu til ilmlı odamlarning tili edi. U vaqtda shoir va xattoqlar ilmlı kishilar sanalardi. Bu tilda barcha arab lahjalaridagi eng yaxshi atamalar, so‘zlar olinib qolinib, q’opollari tashlab yuborildi. Tilning keyingi rivojida Qur’oni Karimni ahamiyati katta bo‘ldi.

Umumarab tilining ilk yozma VII asrga oid yodgorligi Qur’oni Karimda hozirga qadar arab tilining xususiyatlari hech qanday o‘zgarishlarsiz yetib kelgan. VIII-IX asrlarda o‘gzaki qabilaviy she’riyatning yodgorliklari ham bitik shakliga keltirilgan.

Yirik arabshunos olim K. Brokkelman shunday deydi: “Arab poeziyasining tili o‘zining tunganmas grammatik formalari bilan ajralib turadi. Va jumlalarning ifodalaniishi, fikrlarning aniqligi jihatidan somiy tillar ichida rivojlangani hisoblanadi. Arab tili leksikasi juda katta so‘z boyligiga ega”<sup>1</sup>.

Ko‘rinib turibdiki, somiy tillar oilasiga oid bo‘lgan arab tilining adabiy til normasi johiliyat davrida shakllangan, uning grammatik normalari esa milodiy

<sup>1</sup> Ханна ал-Фахури. История арабской литературы. – М., 1950. – С. 26.

VIII-IX asrlarda ishlab chiqilgan ekan. Qur’oni Karimning nozil bo‘lishi, payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) hadislarining yuzaga kelishi arab adabiy tilining yanada rivojlanishi , ta’sir doirasining kengayishi , arab bo‘lmagan boshqa xalqlar tomonidan ham arab tilini keng o‘rganiliahiga keng yo‘l ochib berdi.Ayniqsa, Bag‘dod xalifaligida tashkil etilgan ilmiy markaz va unda arab olimlari bilan bir safda ko‘plab musulmon o‘lkalaridan kelgan ajam olimlarining tadqiqot ishlari olib borishgani arab tilining ilm-fan sohasidagi mavqeini yanada yuqori ko‘tardi. Natijada bu til butun musulmon sharqi hududida Yevropaning lotin tili kabi fan tiliga aylandi. Bundan tashqari, u ko‘plab musulmon sharq mamalakatlari uzoq vaqt davlatlararo muomala tili bo‘lib ham xizmat qildi.

Arablarning ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti VII asr boshlarida arab qabilalarining birlashuviga olib keldi. Islom dini bu birlashuvni mafkuraviy jihatdan mustahkamladi. Hamma uchun barobar qonunlar, millatlarning etnik kelib chiqishiga qaramay din oldida hammaning huquqiy tengligi arablarga katta imkoniyat tug‘dirdi. Islom din sifatida shakllangan davrda arablar yarim badaviy elatlardan iborat xalq edi. Tabiiyki, ular zabit etilgan xalqlar madaniyatini zudlikda o‘zlashtirdilar. “Arab madaniyati” deb nomlangan madaniyat xalifalikni tashkl etgan xalqlar madaniyati asosida islomga moslashtirib mujasssamlashtirilgan madaniyat edi. Arab tili orqali qadimiylar madaniyati va O‘rta asr arab madaniyati orasidagi tushunchalar almashinuvi yo‘lga qo‘yilgan. Bu borada biz buyuk olim Abu Rayhon al-Beruniyning quyidagi fikrini esga olamiz: “Arab tili butun jahondagi ilmiy asarlarning yozilishiga asos bo‘ldi. Bu til har bir tilga yoqimli his-tuyg‘u bahsh etdi va uni bezadi. Garchi har bir xalq o‘z ona tilini go‘zal hisoblasada, arab tilining go‘zalligi insonning qon tomirlarida oqa boshladi”<sup>2</sup>.

Hozirgi zamon lingvist olimi A.D.Shvayser shunday deydi: “Til komponent sifatida madaniyat tarkibiga kiradi. Til xarakteri har qanday madaniyat tarkibida ta’riflangan bo‘lishi kerak. U madanyat quroli bo‘lib,madaniyatning har xil jabhalariga tegishli bo‘ladi, ammo shu bilan birga u uning tarkibiga kirmasligi ham

---

<sup>2</sup> Современная лингвистика. Теория, проблемы и методы. – М., 1979. –С. 21.

mumkin.”<sup>3</sup> Arab tili rivojlanishida klassik arab tili madaniyatining faqatgina ustki qatlami bo‘lib xizmat qilmay,balki unga o‘ziga xos xususiyatlar berdi,o‘zi uning asosiy tashkilotchisi bo‘ldi.Shu bilan birga tarixiy chegaralarni aniqladi va uning birligini bildirdi. Uning yordamida odamlar o‘zaro bir-birlarini tushunadilar, birga harakat qiladilar, fikrlashadilar.

VII asr boshlarida arab istilosи til jamoalarining oldingi til turg‘unligiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi, an’analarni ushlab turgan byurokratiya va sig‘inuvchilarning ijtimoiy qatlamlarini ustuvorlikdan mahrum etdi. Arab tilidan foydalanganlarga ustuvorlik ta’min etti. Islomga o‘tish bilan hech bo‘lmaganda ibodatlarni arab tilida talaffuz etish majburiyatları qo‘yilgan. Arab tili butun xalifalik hududlarigacha tarqaldi va o‘z yo‘lidan ko‘pgia jonli so‘zlashuv tillarini siqib chiqardi.

Ilk islom davrida Arabiston yarim orolida va arab fathlarida yagona arab so‘zlashuv tili paydo bo‘ldi. Arab tilining xalifalikda mustahkam o‘rin egallashida Ummaviylar xalifidan biri bo‘lgan Xalif Abdul Malik (685-705) davri katta ahamiyatga ega. U o‘zining hukmronlik davrida davlat ishlaridagi hujjatlarni yuritishni arab tilida olib borgan, boshqa tillarda yozishni man etgan.

Akademik I.Y.Krachkovskiy fikricha: “VIII asrning birinchi yarmida arab tili butun Xuroson va Movarounnahrda davlat boshqaruv tili sifatida ishlatildi, hattoki, undan yerlik aholi ham foydalandi.”<sup>4</sup> Masalan: Xorazmlik matematik Muso al-Xorazmiy, farg‘onalik olim astronom Ahmad al-Farg‘oniy, O‘rta Osiyolik faylasuf olim al-Farobiy, tilshunos olim Mahmud Qoshg‘ariy, al-Beruniy, Ibn Sino o‘z asarlarini aynan arab tilida yozganlar.

Orta Osiyoda arxeologik tadqiqotlar natijasida arab yozuvida bitilgan VIII asrga oid 2 ta yozma yodgorlik topilgan: birinchisi, qo‘yning kurak suyagiga yozilgan arab yozuvi. Unda faqat arab alifbosida harflar bitilgan. Ikkinchisi esa, qadimgi arab hujjati bo‘lib sug‘d shohi Devashtichning Xuroson hokimi Amir al-Jarroh ibn Abdullohga yozilgan maktubidir (718-719).<sup>5</sup>

<sup>3</sup> Современная лингвистика. Там же.

<sup>4</sup> Оранский И.М. Введение в иранскую филологию. – М., 1960., –С. 60.

<sup>5</sup> Оранский И.М. Там же. В -64

Ba’zi ishonchli manbalarda ko‘rsatilishicha, arab tilining paydo bo‘lishi va uning rivojlanish davri uchga bo‘linadi:

1. Qadimgi (klassik arab tiligacha bo‘lgan davr).
2. Klassik arab tili.
3. Zamonaviy arab adabiy tili.

Eng qadimgi arab yozuvi haqida bizgacha yetib kelgan lixyan, semud, saf, an-nimar, zabad yozuvlari hisoblanadi. Uning adabiy formasi islom dini paydo bo‘lmashdan shakllangan.

Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, ko‘plab saqlangan adabiy yodgorliklar klassik davrga to‘g‘ri keladi. Bu davrda yaratilgan ko‘plab asarlar asosan islomgacha poeziya hisoblanib, u uzoq vaqt og‘zaki shaklda saqlangan va faqat VIII-IX asrlarda arab filologlari tomonidan yozib olingan.

Zamonaviy arab tili hozirgi paytda yigirma ikkitadan oshiq arab davlatlarida davlat tili hisoblanadi. Bundan tashqari Isroil davlatining arab aholisi, Baxrayn, Efiopiya, Somalidagi xalqlar, Amerika, Eron va O‘rta Osiyolik arablar bu tilda gaplashadilar.<sup>6</sup> Zamonaviy arab tili klassik arab tilining rivojlanishi natijasida paydo bo‘ldi.zamonaviy arab tili XIX asrning ikkinchi yarmida milliy ozodlik harakatlari natijasida yuzaga keldi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab , ijod etgan yirik yozuvchilar , shoirlar, jurnalistlar zamonaviy arab tilini yaratishda o‘zlarining katta hissalarini qo‘shdilar. Bular misrlik Ahmad Shavqiy, Hofiz Ibrohim, Abdulloh Nodim, Mustafo Komil, Jurji Zaydon, livanlik Nasif al-Yaziyjiy, iroqlik Abu Tamma ash-Shiroziy, Mahdi al- Xolis va boshqalardir.<sup>7</sup>

Hozirgi vaqtida arab tilining iste’molda mavjud bo‘lgan 4 shakli mavjud bo‘lib, ular klassik arab tili, zamonaviy arab tili, kundalik so‘zlashuv tili va dialektlar.

Arab adabiy tili klassik arab tili bilan zamonaviy arab tilini o‘z ichiga oladi. Klassik va hozirgi adabiy til har xil tushunchalardir., ulari farqlash kerak.<sup>8</sup>

<sup>6</sup> Mamatoxunova D.K. Arab filologiyasiga kirish., –Т.2002., –В. 35

<sup>7</sup> Шарбатов Г.Ш. Современный арабский язык. –М., 1961. –С. 9.

<sup>8</sup> Швайсер А.Д. Социальнач дифференциация английского языка. – М., 1983. –С. 22.

Hozirgi arab tili klassik arab tilidan farqli ravishda ko‘p funksiyalikdir. U ilm-fanda, badiiy adabiyotda, ijtimoiy-siyosiy, ommaviy xabarlarda, ta’lim–tarbiya muassasalarida qo‘llaniladi. Yuqoridagi fikrlarga ko‘ra ingliz olimi T.F. Mitchell shunday deydi: “Yozma klassik adabiy til Qur’on hamda ilk adabiyot tilidir. Zamonaviy arab tili esa adabiyot, jurnalistika, radio, televideniye,, rasmiy muhokama tilidir. Ozmi-ko‘pmi butun arab dunyosi uchun umumiyyidir”.<sup>9</sup>

Ammo klassik til va zamonaniy arab tili o‘rtasida farqlar bor. Garchi zamonaviy arab adabiy tilini biladigan kishilar arab madaniy merosining oltin fondiga kirgan , klassik arab tilida yozilgan asarlarni o‘qib tushunsalarda, shu ikki til o‘rtasida leksika va ma;lum darajada sintaksisda farq borligini ko‘radilar. Zamonaviy arab adabiy tili o‘zining uzoq tarixiy rivojlanish davrida bir qancha o‘zgarishlarni boshidan kechirdi. Sezilarli farqlar nafaqat klassik zamonaviy til o‘rtasida, balki johiliya (VII asrning o‘rtalari), Ummaviya va Abbosiylar davrida (VIII–XII asrgacha) yaratilgan asarlarning o‘rtasida ham ko‘rinishi mumkin.

Hozirgi zamon arab jamiyati zamonaviy arab tilini rivojlantirish , boyitish, hozirgi zamon siyosiy vaziyatiga javob berishga intiladi. Zamonaviy arab tili leksik, stilistik va sintaktik yangilashga muhtoj va ayniqsa, ilmiy-texnik atamalar va yangi so‘zlar bilan boyishi kerak. Bu ayni bir mamlakat uchun emas, balki har bir arab mamlakatlari uchun kerakli vazifadir.

Hozirgi zamon arab tilshunosligi oldidagi dolzarb muammolar:

1. Arab tilini nazariy va amaliy jihatdan egallash;
2. Arab tili tuzilishining o‘ziga xos xususiyatlarini baholash;
3. Arabshunoslikka oid tadqiqotlarni belgilash;
4. Sharq tilshunosligining yo‘nalishini aniqlashdan iboratdir.

Hozirgi kunda mamlakatlarda zamonaviy arab tili va lahjalar xalq og‘zaki ijodini namoyon etadi. Misol tariqasida Misr, Suriya, Iroq dialektlarida yozilgan ko‘pgina asarlarni uchratishimiz mumkin, adabiy asarlardagi so‘zlashuv ko‘pincha lahjalarda yoziladi. Ba’zi bir yozuvchilar o‘z asarlarini ham adabiy, ham dialektda

---

<sup>9</sup> Шагаль В.Е. Языковой аспект национальных процессов в арабских странах. – М., 1987. –С. 136.

yozadilalar. Misr yozuvchisi Mahmud Teymurning asarlari adabiy til va Misr lahjasida yozilgan.<sup>10</sup>

Arab adabiy tiliga eng yaqini Suriya dialekti hisoblanadi. Arab adabiy tilida katta farq qiluvchi dialect- bu Mag‘rib dialektidir. Har bir dialect o‘z navbatida bir necha shevalarga bo‘linadi. Lahjalar arab adabiy tiliga qaraganda tor mahalliy, hududiy ahamiyatga egadir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, “arab tili” tushunchasi hozirgi kunda bir – biridan farqli bo‘lgan kamida uchta tilni qamrab oladi:

1. Klassik arab tili-Qur’oni karim, hadisi shariflar, Islomgacha bo‘lgan “johiliya” va ilk Islom davri adabiyoti tili;
2. Hozirgi zamon arab adabiy tili- klassik til asosida rivojlangan, zamonaviy taraqqiyotni o‘zida aks ettirgan , hamma arab davlatlari tomonidan rasmiy til sifatida e’tirof etilgan til;
3. Har bir mintaqaning o‘ziga xos jonli so‘zlashuv tili- lahjalar va shevalar.

Ikki ming yildan beri rivojlanib kelayotgan bu til hozirda ham rivojlanishda davom etmoqda.

### **Savollar:**

1. “Arab” deb nom olgan xalq ilk bor qaysi matnlarda qayd etilgan?
2. Arablar yashagan hududiga ko‘ra nechtaga bo‘lingan ?
3. Arab tili qaysi asrda davlat boshqaruv tili sifatida ishlatildi ?
4. Arab tilining paydo bo‘lishi va uning rivojlanish davri nechtaga bo‘linadi?
5. Hozirgi vaqtida arab tilining iste’molda mavjud bo‘lgan nechta shakli mavjud ?

Arab adabiy tiliga eng yaqini bo‘lib qaysi arab davlat dialekti hisoblanadi ?

---

<sup>10</sup> Шарбатов Г.Ш. Современный арабский язык. –М., 1961. –С. 11.

## **II bob. FONETIKANING NAZARIY MASALALARI**

### **2.1. ARAB TILI FONETIKASINING SEGMENT BIRLIKLARI**

#### **Reja:**

1. Arab tili fonetikasining segment birliklari.
2. Jumla (fraz). Rukn (takt).
3. Enklitika. Proklitika.
4. Bo‘g‘in.
5. Tovush va fonema.

**Tayanch so‘zlar:** segment, tovush, harf, fraza, takt, enklitikafraza, proklitika.

Fonetika tarixiga e’tibor berilsa, bo‘g‘inlarning tavsifi tovushlarnikidek to‘la va mufassal bo‘lmagani ko‘rinadi. Masalan, hamma tovushlar bir ro‘yxatga kiritilgan, ammo bo‘g‘inlarning miqdori o‘sha paytdan hanuzgacha noma’lum, xatto bo‘g‘inlarning alomatini tavsiflaydigan qonunning o‘zi ham mavjud emas. Shu bois, yunon tilida cho‘ziq va qisqa unlilar mavjudligi sababli she’riyat sohasida tovush va bo‘g‘in ikki moradan iborat. Qisqa unlisi bor bo‘g‘in bir moradan iborat. Mora tushunchasi, asosan, qadimgi yunon va lotin tillarigagina taalluqlidir.

Hozirgi davr fonetikasida bo‘g‘in deb takting nafasning bir zarbi bilan talaffuz qilinadigan bo‘lagiga aytildi. Misol: - كتاب - ki-ta:-bun.

Arab adabiy tilida bo‘g‘in hosil qiluvchi tovushlar unlilardir. Bo‘g‘in unli bilan boshlanishi, ya’ni to‘siqsiz bo‘lishi mumkin, lekin bu holat arab adabiy tilida yo‘q. Bu tilda bo‘g‘in undosh bilan boshlanib, to‘siqli bo‘ladi. Arab adabiy tilida bo‘g‘in boshida ikki undosh qator kelmaydi, ya’ni bo‘g‘in faqat bir undosh bilan to‘siladi. Bo‘g‘in yana unli bilan tugashi, ya’ni ochiq bo‘lishi, yohud undosh bilan tugashi, ya’ni yopiq bo‘lishi mumkin. Mana shu to‘siqli va ochiq-yopiqlilik nuqtai nazaridan arab tilida bo‘g‘inning quyidagi shakllari bor:

1. To‘siqli ochiq bo‘g‘in. Bu shaklga undosh va unlidan tashkil topgan

bo‘g‘inlar (CV) kiradi. Misol:

va - و ، darasa - درس

2. To‘siqli yopiq bo‘g‘in 1. Bu shaklga undosh, unli va undoshdan tuzilgan bo‘g‘inlar (CVC) kiradi. Misol:

bal - بل kul - كل qul - قل

3. To‘siqli yopiq bo‘g‘in 2. Bu shakl vaqf holatidagi so‘zlarda uchraydi. Unga undosh, unli va ikki undoshdan iborat bo‘g‘inlar (CVCC) kiradi. Misol:

‘ilm - علم dars - درس ward - ورد

Bo‘g‘in esa bir yoki bir necha tovushdan iborat bo‘ladi. Lekin arab tilida bo‘g‘in unli tovushdan boshlanmagani uchun hech qachon bir tovushli bo‘lmaydi.

Arab tilida bo‘g‘in unlilarning sifatiga ko‘ra (qisqa va cho‘ziq unlilar) uch turga ajratiladi:

1. Qisqa bo‘g‘in. Bir undosh va bir qisqa unlidan iborat bo‘lgan bo‘g‘in (CV(qisqa)) qisqa bo‘g‘in deyiladi. Masalan:

هو – hu-wa، هي – hi-ya

2. Cho‘ziq bo‘g‘in. Bir undosh va bir cho‘ziq unlidan yoki undosh + qisqa + unli + undosh shaklidagi bo‘g‘in (CV(cho‘ziq), CV(qisqa)C) cho‘ziq bo‘g‘in deyiladi. Masalan:

قلب – qal-bun، ماء - ‘un، تين - ti:-nun

3. O‘ta cho‘ziq bo‘g‘in. Undosh + cho‘ziq unli + undosh shaklidagi bo‘g‘in (CV(cho‘ziq)C) o‘ta cho‘ziq bo‘g‘in deyiladi. Masalan:

حاد - xa:d-dun، مادة - ma:d-da-tun

Arab tilida bo‘g‘in unli tovush bilan boshlanmaydi. Shuningdek, bo‘g‘in boshida ikki undosh yonma-yon kelmaydi.

Arab tilida bo‘g‘inlarni bilish alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ko‘pchilik so‘zlardagi, xususan noto‘g‘ri fe’llardagi tovush o‘zgarishlari asosan bo‘g‘inlarning turiga qarab aniqlanadi.

Fonetika fani rivojida barcha maktablarda fonetika yuzasidan olib boriladigan tadqiqotlarga, xususan, asosiy va ikkinchi darajali fonetik birliklarni aniqlashda umumiy yondashish ham har xil bo‘lgan. Qadim zamonlardan boshlab

Yevropa maktabi boshlang‘ich birliklar sifatida uncha ko‘p bo‘lmagan minimal elementlar tovushlarni (harflarni) olgan. Mazkur harflar o‘sha paytda ham undosh va unlilarga ajratilgan, ularning xususiyatlari har xil, deb tushunilgan, ammo mazmuni bir xil navda, deb hisoblangan.

Arab maktabida fonetik birlik deb tovush tan olingan bo‘lsa ham mazkur masala bir mucha boshqacha talqin qilingan edi.

Arab maktabida fonema va uning so‘z tarkibidagi joyi o‘rtasida qattiq bog‘lanish mavjud: o‘zak unlilar bilan bo‘linadigan undoshlardan iborat, o‘zakka qo‘yiladigan unlilar (harakatlar) grammatik ma’noga egadir. Arab yozuvidagi unli va undosh tovushlarning bunday farqli vazifalari (o‘zakda undoshlarning doimo yozilishi va harakatlarni aks ettirmaslik) undosh va unli tovushlarning (aniqrog‘i, qisqa unlilarni) o‘rnini umuman boshqacha talqin qilishga olib keldi. Arab maktabining tartibiga binoan, birlikni tahlil qilish uchun boshlang‘ich va elementar narsa tovush emas, balki faqat undosh va cho‘ziq unlillardir. Qisqa unlilar esa hech qanday ma’noga ega emas, deb topilgan. Keyingi birlik – bo‘g‘in harakatlar vositasida bir va kamdan-kam ikki undoshdan tashkil topadi. Bunda bo‘g‘in va harakatlarning o‘zaro chegaralari belgilanmagan.

Hozirgi davrga kelib tovushga quyidagicha ta’rif beriladi:

Tovush – bo‘g‘inning bir artikulyatsiya bilan talaffuz qilinadigan bo‘lagidir. Tovush nutqning eng kichik fonetik bo‘lagidir. Tildagi so‘z ma’nolarini ifodalash va farqlash uchun xizmat qiladigan tovush fonema /lotincha-Phonema «tovush»/ deyiladi.

Tilning tarixiy taraqqiyoti jarayonida to‘plangan ma’lum fonemalar yig‘indisi fonemalar sistemasidir. Har bir tilning, shu jumladan, arab tilining ham o‘ziga xos fonemalar sistemasi bor.

So‘zdagi biror fonema o‘zgarsa, so‘zning ma’nosи ham, shakli ham o‘zgaradi. Bu hodisa arab tilida quyidagi hollarda sodir bo‘ladi:

a) jarangli undoshni jarangsizlantirganda, masalan:

ضـ dalla - adashmoq

طـ talla - maydalab yog‘moq

b) cho‘ziq unlilar qisqa talaffuz qilinganda, masalan:

بَكْرٌ ba:kara - erta kelmoq

بَكْرٌ bakara - erta turmoq

Eshitilishi bir-biridan farq qiladigan hamma tovushlar ham fonema bo‘lavermaydi. Fonemaning variantlari bir-biridan sezilarli farq qiladi. Har qaysi fonemaning variantlari unga yondosh tovushlar ta’sirida paydo bo‘ladi.

Har bir tilning o‘ziga xos fonemalar tizimi ma’lum tarixiy sistemadan iborat bo‘lib, boshqa tillardagi fonemalar tizimidan farq qiladi.

### Savollar:

1. Arab tilida rukn (takt)ning xususiyatlari qanday?
2. Enklitika va. Proklitikaning farqi nimada?
3. Arab tilida bo‘g‘in qanday xususiyatlarga ega?
4. Tovush va fonema farqi nimadan iborat?

## 2.2. ARAB TILIDA URG‘U VA OHANG

### Reja:

1. Arab tili fonetikasi.
2. Arab tili fonetikasining supersegment birliklari.
3. Urg‘u.
4. Ohang.

**Tayanch so‘zlar:** Fonetika, til, yozuv, tovush, segment birlik, supersegment birlik, urg‘u, ohang.

Til fonetikasidagi supersegment belgilarga urg‘u, ohang (ton, intonatsiya) kiradi.

**Urg‘u.** “So‘z ichidagi bo‘g‘inlardan birining boshqa bo‘laklarga qaraganda kuchliroq aytilishi, ya’ni so‘z bo‘g‘inlarining bittasidaun (ovoz) kuchayib, nisbatan

kuchliroq aytish hodisasi urg‘u deb ataladi.”<sup>11</sup>

Urg‘u tushgan bo‘g‘in – urg‘uli bo‘g‘in, qolganlari esa urg‘usiz bo‘g‘in deyiladi. So‘z bo‘g‘inlariga urg‘u tushish tartibi turli tillarda turlichadir. Masalan: o‘zbek tilida urg‘u ko‘pincha so‘zning oxirigi bo‘g‘iniga tushsa, rus va ingliz tillarida urg‘uning muayyan o‘rni yo‘q.

Arab tilidagi urg‘uning quyidagi xususiyatlari bor:

1. Arab tilida urg‘u dinamik xarakterga ega, ya’ni urg‘uli bo‘g‘in ovozni ko‘taribroq talaffuz qilinadi.

2. Arab tilida urg‘u hech qachon oxirgi bo‘g‘inga tushmaydi, oxiridan avvalgi cho‘ziq bo‘g‘inga tushadi. So‘z tarkibida cho‘ziq bo‘g‘in bo‘lmasa, urg‘u so‘z oxiridan uchinchi bo‘g‘inga tushadi. Masalan: ﻙتاب[ki-ta:-bun]

Bog‘lovchi, ko‘makchi, yuklamalar odatda urg‘usiz bo‘ladi. Masalan: مِنْ [min], وَ [wa], كِـ[ka-].

Urg‘u quyidagicha tavsiflanadi:

-Arab tilida urg‘uning joyi va xarakteri bo‘g‘inning turi va soniga bevosita bog‘liq.

-So‘z bosh va ikkinchi darajali urg‘uga ega bo‘lishi mumkin. Ular o‘z musiqiylik xossasi, ya’ni ohangining yuqoriligiga ko‘ra farqlanadi. Bosh urg‘u ohangning ko‘tarilishi, ikkinchi darajali urg‘u ohangning pasayishi bilan xarakterlanadi<sup>12</sup>.

Arab tilida urg‘uning asosiy qoidalari quyidagilardan iborat:

1. Bosh urg‘u hech qachon oxirgi bo‘g‘inga tushmaydi. U odatda, agar ikkinchi bo‘g‘in qisqa bo‘lsa, oxiridan uchinchi bo‘g‘inga qo‘yiladi. Bunda birinchi va oxirgi bo‘g‘inning xarakteri ahamiyatga ega emas. Masalan: (sa-ba-ta) - osuda bo‘lmoq, dam olmoq; (sa:-di-sun) - oltinchi; (dab-ba) - sekin harakat qilmoq, sudralmoq.

<sup>11</sup> Решетов. В.В., Решетова Л.В. Рус тили грамматикаси. – Т.: Ўқитувчи. 1979. – Б. 12.

<sup>12</sup> Араб сўзларининг транскрипциясида бош ургуни белгилаш учун “....” белгиси, иккинчи даржали ургуни белгилаш учун “....” белгиси қўйилади.

2. Agar ikkinchi bo‘g‘in cho‘ziq bo‘lsa, asosiy urg‘u unga tushadi. Masalan: (tam-mu:-zu) - iyul, (mu-fi:-dun) - foydali, (mum-tad-dun) - cho‘ziluvchi, kengayuvchi; (na-dim-tu) - afsuslandim.

3. Ikki bo‘g‘inli so‘zlarda asosiy urg‘u bo‘g‘inning cho‘ziqligi yoki qisqaligidan qat’iy nazar doimo birinchi bo‘g‘inda turadi. Masalan: (ba:-bun) - eshik; (bin-tun) - qiz; (sa-ma:) - yuqori bo‘lmoq, ko‘tarilmoq; (fa:-da) - foydali bo‘lmoq.

4. Arab so‘zlarida ikkinchi darajali urg‘u faqat cho‘ziq bo‘g‘inga tushadi (ochiq va yopiq). U oxirgi cho‘ziq bo‘g‘inga va bosh urg‘uli bo‘g‘indan avvalgi, yaqinroqdagi cho‘ziq bo‘g‘inga tushadi. Shu tariqa, arab so‘zlarida bosh urg‘u bilan bir qatorda ikkita ikkinchi darajali urg‘u bo‘lishi mumkin. Masalan: (dab-ba:-ba-tun) - tanklar; (fan-nun) - san’at; (ma-di:-na-tun) -shahar; (sa-na-tun) - yil; (na-fa) - rad etmoq; (na-mu-sun) - or-nomus, vijdon.

Bosh va ikkinchi darajali urg‘uning grafik tasviri uchun shartli belgilardan foydalilanildi: \_\_ – bosh urg‘uli bo‘g‘inning ko‘tariluvchi musiqaviy ohangi uchun; \_\_ – ikkinchi darajali urg‘u bilan bo‘g‘inning pasayuvchi musiqaviy ohangi uchun; \_\_\_\_\_ – urg‘usiz bo‘g‘in uchun. Masalan: ma-di:-na-tun – \_\_\_\_\_, na-mu:-sun – \_\_\_\_\_, sa-na-tun – \_\_\_\_\_ musiqiy ohang tasvirlarini oladi. Arab so‘zida urg‘u odatda yuqorida belgilangan me’yorlarga muvofiq holda bitta bo‘g‘inga mustahkamlangan, biroq ma’lum vaziyatlarda, bo‘g‘inlar miqdorining o‘zgarishi tufayli u surilishi mumkin.

Muzakkar jinsdagi ismlar muannaslik qo‘sishimchasini olgach urg‘uning o‘rni ham o‘zgaradi va muannas jinsdagi ismlarda urg‘uning ko‘chishi quyidagi qoidalarga muvofiq amalga oshadi:

Muzakkar jinsdagi ismlardan muannas jinsdagi ismlar yasalishida so‘zga yangi bo‘g‘in – muannas jinsining qo‘sishimchasi qo‘shiladi. Bu o‘z navbatida muzakkar jinsdagi ismlar bo‘g‘inlari nisbatidan farqli ravishda muannas jinsdagi ismlarda bo‘g‘inlarning yangi nisbati paydo bo‘ladi. Bo‘g‘inlarning yangi uyg‘unligi ba’zi hollarda arab so‘zidagi urg‘u me’yorlariga mos holda urg‘uning ko‘chishiga olib keladi. Urg‘uning ko‘chishi oxiridan uchinchi bo‘g‘in cho‘ziq,

ikkinchi bo‘g‘in esa qisqa bo‘lgan (yopiq yoki ochiq bo‘g‘in) so‘zlarda kuzatiladi. Bosh urg‘u ikkinchi (qisqa) bo‘g‘inga ko‘chadi, avvaliga bosh urg‘uli bo‘lgan bo‘g‘in ikkinchi darajali urg‘uni oladi. Masalan:

(ka:tibun) – yozuvchi	- (ka:tibatun) – yozuvchi ayol, adiba
(mudarrisun) – o‘qituvchi	- (mudarrisatun) – o‘qituvchi ayol
(mura:silun) – muxbir	- (mura:silatun) – muxbir ayol
(murshidun) – ustoz	- (murshidatun) – ustoz ayol
(maktabun) – bo‘lim	- (maktabatun) – kutubxona
(muslimun) – musulmon	- (muslimatun) – muslima

Egalik (birikma) olmoshlar yordamida so‘z yasalganda ham urg‘uning ko‘chish holati kuzatiladi: Ot va fe’llarga birikma olmoshlar qo‘shilganida ular o‘zi qo‘shilgan so‘z bilan ritmik guruhni tashkil qilgan holda enklitika rolini bajaradi.

So‘zga birikma olmoshlar qo‘shilib, yangi bo‘g‘in yasalganligi sabab, bir qator holatlarda urg‘u ko‘chishi kuzatiladi. So‘zning oxiridan uchinchi bo‘g‘in cho‘ziq (yopiq yoki ochiq) bo‘lgan hollarda urg‘uning ko‘chishi xarakterlidir. Masalan:

(mak-ta-bun) – (mak-ta-bu-hu)
(zav-ja-tun) – (zav-ja-tu-ka)
(mu-’al-li-mun) – (mu-’al-li-mu-hu)
(ash-ku-ru) – (ash-ku-ru-kum)
(nak-tu-bu) – (nak-tu-bu-hu)
(hu-ku:-ma-tun) – (hu-ku:-ma-tu-na).

Urg‘uning ko‘chishi o‘tgan zamon fe’lining quyidagi shakllarida ham kuzatiladi, bunda bu shakllar cho‘ziq (yopiq yoki ochiq) bo‘g‘in bilan tugaydi:

Birlikda: muannas, III shaxs (fa-hi-mat) – (fa-hi-mat-hu).

Ikkilikda: II shaxs (fa-him-tu-ma:) – (fa-him-tu-ma:-hu);

muzakkar, III shaxs (fa-hi-ma:) – (fa-hi-ma:-hu);

muannas, III shaxs (fa-hi-ma-ta:) – (fa-hi-ma-ta:-hu).

Ko‘plikda: I shaxs (fa-him-na:) – (fa-him-na:-hu);

muzakkar, II shaxs (fa-him-tum) – (fa-him-tu-mu-hu);

muzakkar, III shaxs (fa-hi-mu) – (fa-hi-mu-hu).

Fe'llarning kelasi zamon shakllariga birikma olmoshlar qo'shilganda urg'u quyidagicha bo'ladi: hozirgi-kelasi zamon fe'l shakliga ﺱ (sa) prefiksi/oldko'makchisi qo'shilganda,u o'zidan keyingi fe'l bilan ritmik guruhni tashkil qilgan holda proklitika (urg'usiz prefiks) rolini bajaradi. Masalan: (sa-aktubu), (sa-yaqra'na)

Ikki bo'g'indan tashkil topgan (savfa) prefiksi/oldko'makchisi o'zining bosh urg'usini birinchi bo'g'inda oladi. Masalan: (savfa-aktubu), (savfa-yaqra'na).

**Ohang (ton, intonatsiya).** Nutqda so'z yoki jumlaning mazmunini ochib berishda ohangning alohida o'rni bor. Dunyo tillari ichida bitta so'zga uni turli tonlarda talaffuz qilib, turlichcha ma'no berish imkonи mavjud bo'lgan tillar bor (masalan, xitoy tili).

Tinglovchi uchun jumlaning mazmunini tushunishda so'zlarning ma'nosi, ular o'rtasidagi sintaktik bog'lanishlarning to'g'riligidan tashqari jumlaning qanday ohangda aytilgani ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jumlalar darak, so'roq, undov mazmunlariga ega bo'ladi.

Boshqa tillarda bo'lgani kabi arab tilida ham yozuvda gaplarning oxiriga ularning mazmunini anglatuvchi o'ziga xos belgililar (darak mazmunidagi gapga nuqta, so'roq mazmunidagi gapga so'roq, his-hayajonni anglatgan gaplarga undov belgilari) qo'llansa, nutqda jumlalar mazmuni ohang bilan farqlanadi. Darak mazmunini anglatgan jumlalarda ohang jumlaning oxirida pasayishi bilan xarakterlanadi. Masalan:

أنت طالب.




Umumiy so'roq mazmunini anglatgan jumlalarda ohang jumla oxiriga kelib ko'tariladi<sup>13</sup>. Masalan:

<sup>13</sup> Каранг: Ковалев А.А., Шарбатов Г. Учебник арабского языка. – М. Восточная литература. 1998. – С. 96.


أ أنت

طالب؟



Maxsus so‘roq gaplarda ohang pasayib boradi. Masalan:


أين طالب؟



Alternativ so‘rov gaplarda ham ohangning pasayib borishi kuzatiladi. Bunda so‘roqning birinchi qismida ohang ko‘tariladi, ikkinchi qismida pasayadi. Masalan:

أ أنت طالب أم

معلم؟



Jumlalarning ohangi qo‘shma gaplarda, ayniqsa, ergash gapli qo‘shma gaplarda o‘ziga xosdir. Bulardan to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gapda: bunday gaplarda butun jumla miqyosida ohang pasayib boradi. Bosh va ergash gap turli ohangda bo‘ladi. Bosh gapning ohangi gapning oxirida ko‘tarilishi, ergash gapning ohangi esa gap oxirida pasayishi bilan xarakterlanadi<sup>14</sup>. Masalan:

قال صديقي أن معلمنا وصل من مصر.

Do‘stim o‘qituvchimiz Misrdan kelganini aytdi.

أعرف أن صديقي رجع من

المكتبة.

Men do‘stim kutubxonadan qaytganini bilaman.

Aniqlovchi ergash gapli qo‘shma ergash gapda ohang butun jumla bo‘yicha pasayib borish xarakteriga ega. Bunda bosh va ergash gap turli ohangda bo‘ladi. Bosh gapning ohangi gapning oxirida ko‘tarilishi, ergash gapning ohangi esa gap oxirida pasayadi<sup>15</sup>. Nisbiy olmosh vasla bilan ham, vaslasiz ham talaffuz qilinishi mumkin. Vaslasiz talaffuz ko‘proq ishlatiladi. Agarda nisbiy olmosh proklitiklar

<sup>14</sup> Карапг: Ковалев А.А., Шарбатов Г. Учебник арабского языка. – М. Восточная литература. 1998. – С. 223.

<sup>15</sup> Карапг: Ўша асар. –С. 263.

bilan ritmik guruhni tashkil qilsa, vaslalashtirish shartdir. Aniqlovchi ergash gapning ohang tasviri quyidagichadir:

وصلنا الى القرية التي تعيش أسرة  
صديقنا.

Biz do'stimning oilasi istiqomat qiladigan qishloqqa keldik.

Demak, arab tilining segment birliklarini boshqa tillardagi kabi jumla (fraza), sintagma, takt, bo'g'in va tovush tashkil qilsa, supersegment birliklarni urg'u hamda ohang tashkil qiladi. Bularning barchasi so'zlarning ma'nosi, jumla va umuman nutqning mazmunini to'g'ri ifodalashda va tinglovchiga yetkazishda muhim bo'lgan fonetik vositalardir.

### Savollar:

1. Supersegment birlik nima?
2. Urg'u va uning turlari haqida nima bilasiz?
3. Urg'uning o'ziga xosliklari?

## 2.3. ARAB TILINING FONETIK XUSUSIYATI

### Reja:

1. Arab tili fonemalari.
2. Arab tilida unli fonemalar va ularning differensial belgilari.
3. Arab tilida undosh fonemalar va ularning differensial belgilari.

**Tayanch so'zlar:** fonema, tovush, harf, harfun savtiyyun, harfun s:akinun, hurufun sahihatun qa:siyatun, hurufun 'illatun.

O'rta asr arab tilshunoslari tovushlarni unli va undoshlarga ajratib, undosh – mohiyat bo'lsa, unli – o'tkinchi hodisa deb ta'riflashlaridan ko'rindaniki, ular arab o'zaklarida undosh tovushlarning muhim rol o'ynashini yaxshi bilganlar. Tovushlarni tasniflashda qisman akustik tomonga e'tibor berilgan bo'lsa ham, asosan fiziologik printsipga amal qilingan. Ular tovushlarni shunday klassifikatsiya

qilganlar:

1) unli (harfun savtiyyun) va unsiz tovushlar (harfun s:akinun), 2) qattiq tovushlar (hurufun sahihatun qa:siyatun) va kuchsiz tovushlar (hurufun ‘illatun), 3) yopiq va ochiq tovushlar, 4) tilning ko‘tarilishiga ko‘ra yuqorilar va quyilar.

Sibavayhi ayrim tovushlar artikulyatsiyasi va kombinator o‘zgarishlarning aniq tasvirini bergan. Keyinchalik Ibn Sino o‘zining fonetikaga bag‘ishlangan asarining to‘rtinchi va beshinchi fasllarida bir qancha arab va arab tiliga xos bo‘lмаган tovushlarning artikulyatsiyasi va akustikasi haqida to‘liq ma’lumot beradi.

Hozirgi zamon arab tilida talaffuzning asosan to‘rt uslubi mavjud:

1. Klassik uslubdagi talaffuz. Bunda gapdagi har bir so‘z o‘zining barcha morfologik qo‘shimchalari bilan to‘la talaffuz qilinadi. Qur’on tilovatidagi talaffuz, hadislarning o‘qilishi bunga misol bo‘la oladi.

2. Adabiy tilga to‘la mos bo‘lgan orfoepik uslub. Bu uslubda so‘z oxiridagi grammatik qo‘shimchalar, xususan, nutq birligi oxiridagi qisqa unlilar tushirib qoldiriladi. Radio-televiedeniedagi nutq, jome masjidlarda olib boriladigan ma’ruzalar, ko‘pchilik oldida o‘qiladigan dokladlar va shunga o‘xshashlar shu uslubda talaffuz qilinadi.

3. Adabiy tilga to‘la mos bo‘lмаган norasmiy muloqtlardagi talaffuz uslubi. Bunga arablarning umumiyligi muomaladagi talaffuzi kiradi.

4. Oddiy so‘zlashuv uslubi. Bu uslub adabiy tildan ko‘ra ko‘proq u yoki bu mahalliy sheva asosiga qurilgan bo‘ladi. Arablarning oddiy muomaladagi so‘zlashuvi shu uslubni tashkil etadi.

Arab adabiy tili talaffuzi klassik uslubga to‘g‘ri keladi.

Nutq tovushlari artikulyatsion-akustik xususiyatlariga ko‘ra bir necha turlarga bo‘linadi.

“Dastlab tovushlar unli va undoshlarga ajratiladi. Bularning miqdori turli tillarda turlichadir. Masalan, rus tilida undoshlar 43ta, unlilar 6ta; frantsuz tilida 21-13; arman tilida 3-64 gruzin tilida 28-5; eston tilida 16-9; arab tilida esa 28-6. Artikulyatsion-akustik va eshitib his etilishi hamda tildagi funktsional xizmati

jihatidan unli va undosh tovushlar o‘rtasida katta farq bor.”<sup>16</sup>

Arab adabiy tilida 34ta fonema bo‘lib, ularning 28tasi undosh, 6tasi unlidir.

**Unli fonemalar va ularning differentialsial belgilari.** Artikulyatsion jihatdan unli tovushlarning hosil bo‘lishida o‘pkadan chiqib kelayotgan havo oqimi og‘iz bo‘shlig‘ida hech qanday to‘siqqa uchramaydi.

Akustik xususiyatiga ko‘ra unlilar talaffuzida havo oqimi kuchsiz tebranadi. Unlilar musiqa ohangiga jo‘r bo‘la oluvchi mayin ohangga egadir. Unlilarning bir-biridan farqi rezonator vazifasini o‘tovchi og‘iz bo‘shlig‘ining shakliga bog‘liq. Og‘iz bo‘shlig‘ining shakli esa til, lab va paski jag‘ning holatiga bog‘liq bo‘ladi. Shunday qilib, unli tovushlar:

- 1) tilning muayyan tovushni hosil qiladigan qismi (gorizontal harakatiga);
- 2) tilning tovush hosil qiladigan qismining ko‘tarilish darajasi (vertikal harakatiga);
- 3) labning holatiga qarab bir-biridan farq qiladi.

Bulardan:

1. Tilning gorizontal harakatiga ko‘ra unlilar tiloldi, tilo‘rta, tilorqa qator unlilarga bo‘linadi. Masalan: tiloldi unlisi [i]
2. Tilning vertikal harakatiga ko‘ra yuqori, o‘rta, quyi ko‘tarilish yoki yopiq, yarim yopiq, yarim ochiq, ochiq unlilari bilan farqlanadi. Masalan: yuqori ko‘tarilish unlisi [u:]
3. Unlilarning talaffuzida lab ishtirok etsa, lablangan ishtirok etmasa, lablanmagan unlilar deyiladi. Masalan: lablangan [u].

Unlilarning yuqoridagi klassifikatsiyasi ularning sifat belgilaridir. Unlilar yana miqdor belgisi bilan, ya’ni unlilarning talaffuz vaqtini bilan o‘lchanadigan qisqalik va cho‘ziqlik belgilari bilan ham farqlanadi. Bunday unlilar arab tili uchun harakterli hisoblanadi va ular ma’no farqlash uchun xizmat qiladi.

Arab tilida 6 ta unli fonema bor bo‘lib, ularning 3 tasi qisqa [i:], [i], [u]) va 3 tasi cho‘ziq ([a:], [i:], [u:]) unlilardir.

Arab tilidagi qisqa unlilar [a], [i], [u] o‘zbek tilidagi [a], [i], [u] fonemalariga

---

<sup>16</sup> Рустамова С. Араб тили фонетикаси. – Т.: ТошДШИ. – Б. 8.

o‘xshashdir. Cho‘ziq fonemalar esa qisqalariga sifat jihatdan mos keladi, ulardan artikulyatsiyani ko‘proq cho‘zish bilan farq qiladi. Masalan: **رسالة نادر، معلوم، كتاب**,

Arab tilidagi [a], [a:] unli fonemalari o‘rta qator, quyi ko‘tarilish, lablanmagan unlillardir; [i], [i:] fonemalari yuqori ko‘tarilish, old qator lablanmagan tovushlardir; [u], [u:] fonemalari yuqori ko‘tarilish, orqa qator lablangan unlilar.

Arab unilari tasniifi quyidagi jadvalda berilgan:

Labning ishtiroti	Lablanmagan			Lablangan		
Ko‘tarilish/ Qator	Yuqori	O‘rta	Quyi	Yuqori	O‘rta	Quyi
old	[i], [i:]					
o‘rta			[a], [a:]			
orqa				[u], [u:]		

Arab tilida undoshlar unli tovushlarning talaffuziga ta’sir qiladi. Shuning uchun unli fonemalar undoshlarning xususiyatigi qarab yoki o‘zgarishsiz, ya’ni fonema sifatida yoki vaziyatga qarab fonemaning varianti sifatida talaffuz qilinadi. Masalan: **حكيم غالب، قلب، طالب**, kabi so‘zlarda itboq, chuqur tilorqa va xalqum tovushlari ta’sirida unlilar yo‘g‘onroq talaffuz qilinadi.

**Undosh fonemalar va ularning differentsial belgilari.** Nutq tovushlari ikki asosiy guruhga bo‘linadi: undoshlar va unlilar. Arab tilshunoslari bu guruhlarni turli atamalar bilan nomlaydilar – nutq tovushlari til sistemasining mustaqil fonetik birlik sifatida harakterlanganda samita (undosh) va musawwita (unli), so‘z qismlari tarkibida funktsional tavsiflanganda harf va haraka kabi.

Oxirgi muammolarda hech qanday o‘zgarishlarsiz qaytarilib kelinayotgan Sibavayhining holatiga ko‘ra, undoshlar artikulyatsiya o‘rniga ko‘ra 16 guruhga bo‘linadi .

Nutq organlarida uchraydigan havo yo‘llarida artikulyatsiyaning turli to‘siqlari 16 nuqtada uchraydi, natijada undoshning uch guruhi namoyon bo‘ladi : kuchli - portlovchi (sadida), zaif - sirg‘aluvchi (rihwa) i kuchli va zaif - portlovchi

va sirg‘aluvchilar oralig‘idagi (bajna as-sadida wa ar-rihwa) undoshlar. Ba’zi olimlar, jumladan, Zamaxshariy va Ibn Sinoda uchinchi guruh yo‘q. Zamaxshariyning tasnifi quyidagicha: kuchlilar – ’, ǵ, d, t, t̄, b, q, k; zaiflar – ș, x, h, ҳ, z, ڙ, s, sh, ʂ, d̄, ڙ, j, f<sup>17</sup>.

“Ibn Sino uchinchi bu guruhdagi undoshlarni ham ikki guruhga joylashtiradi. Portlovchi undoshlar 12 ta: ’, q, k, ǵ, d̄, d, t, ǵ, b, m, n, l; sirg‘aluvchilar 16 ta: h, ‘, ҳ, x, j, sh, s, ʂ, z, ڙ, ڙ, f, w, y, r.

Boshqa alomatlariga ko‘ra undoshlar majhura va mahmusarga ajratiladi. Bu atamalarning ma’nolari hozirgi kunga kelib ham bahsda. Risolalardagi ba’zi ma’lumotlarda bu undoshlar qattiq yoki yumshoq deb berilgan. Axvlediani bu atamalarni “jarangli va jarangsiz” deb qabul qiladigan fikrlarga (Fleisch H. Traite de philologie arabe, I, p. 217-223.) qo‘shilishini ta’kidlaydi. Jarangli undoshlar guruhiga ’, alif, ‘, ǵ, g, g, j, d, l, n, r, d, d, z, d, b, m, w; jarangsizlarsi - h, ҳ, h, k, s, ʂ, t, s, t, f.”<sup>18</sup>

Undoshlar “ochiq” va “yopiq” bo‘lishi mumkin; yopiq guruhga (mutbaqa) 4 ta undosh kiradi - s, d, d, d (boshqa manbalarga ko‘ra – s, t, d, z). Sibavayhining aniqlashicha, bu undoshlarning ikkita ishtirok o‘rinlari mavjud: til uchi va til orqa qismining tanglayga ko‘tarilgan o‘rni.

Arab tilshunoslari arab adabiy tilida mayjud bo‘lgan tovushlarni hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra quyidagicha tasniflanaydilar:

Arab alifbosidagi harflar kishi nutq a’zolarining 17 maxrajidan chiqariladi. Bu maxrajlar quyidagilar:

1. Og‘iz bo‘shlig‘i. Buning arabchasi – “javf”. Og‘iz bo‘shlig‘ida maddli harflar, ya’ni cho‘ziq alif bo‘ladi. Bularni nahviylar al-hurufu-l-javfiyya, ya’ni og‘iz bo‘shlig‘i harflari deb atashgan.

2. Bo‘g‘izning tagi, negizi bo‘lib, uning ko‘krakka tutashgan ichkari qismi. Hamza va hoyi havvaz harflarini ifodalovchi [‘] va [h] tovushlari shu yerdan chiqadi.

<sup>17</sup> زمخشري. مفصل، ص. 189.

<sup>18</sup> Ахвlediani B.Г. Фонетический трактат Авиценны. – Тбилиси: Мецниереба, 1966. – С. 40-41.

3. Bo‘g‘izning o‘rtasi, ‘ayn va hoyi huttiy harflarini ifodalovchi [‘] va [h] tovushlari shu yerda hosil bo‘ladi.

4. Bo‘g‘izning og‘izga yaqin qismi - old bo‘g‘iz. G‘ayn va nuqtali xo harflarini ifodalaydigan [ǵ] va [x] tovushlari shu yerda hosil bo‘ladi.

5. Tilning eng orqa qismi. Bu o‘rin qofni ifodalovchi [q] tovushining maxrajidir.

6. Kofni ifodalovchi [k] tovushi [q] hosil bo‘ladigan yerdan bir barmoq, ya’ni bir enlik miqdoricha pastroqdan chiqadi.

7. [j], [sh] va [y] tovushlari chiqadigan o‘rin. Bu maxraj til o‘rtasi va tanglaydir.

8. Til orqasining yonlari va ular yaqinida joylashgan oziq tishlar. Bu yerda zod harfini ifodalovchi [p] tovushi hosil bo‘ladi.

9. Lom harfi bilan ifodalanuvchi [l] tovushining chiqish o‘rni. Bu o‘rin tilning o‘rtasidan uchigacha va oldingi sakkiz tishdir.

10. Til uchi va oldingi uch tish. Bu maxrajda g‘unnasiz nun [n] hosil bo‘ladi.

11. Tilning eng uchi va tanglay. Bu - ro harfini ifodalovchi [r] tovushining talaffuz o‘rni.

12. Til uchi va oldingi ikki tishning milki. YOnlariga yaqin yerdan to, biroz pastroqdan dol, yarmiga yaqin bo‘lgan yerda te harflarini bildiradigan [t’], [d], va [t] tovushlari hosil bo‘ladi.

13. Tilning usti bilan ikki old yuqori tishning usti. Shu old ustki tishning yarmisiga yaqin yeridan sod harfi bilan ifodalanuvi [c], sod chiqqan yerning yuqorirog‘idan sin, boshlanishida esa zoy harflarini ifodalovchi [s] va [z] tovushlari hosil bo‘ladi.

14. Til uchi bilan yuqori va quyi old tishlarning oralari. Til uchining eng orqasida zo (izg‘i), biroz yuqorirog‘idan zol, bir oz keyinrog‘idan se (soyi musallasa) harflarini ifodalovchi [ž], [z] va [s] tovushlari chiqadi.

15. Ikki old ustki tish bilan ostki labning ichi. Bu yerda fo harfini ifodalovchi [f] hosil bo‘ladi.

16. Ostki va ustki lablarning orasi. Bu maxrajdan bo, mim va vov harflarini

bildiruvchi [b], [m] va [w] tovushlari chiqadi. Bo bilan mimning talaffuzida lablar to‘la yopiladi. Ammo vovning aytilishida lablar bir oz ochiq qoladi.

17. Burun bo‘shlig‘i. Buni arablar xayshum deyishadi. Xayshumdan tanvinning nun va mim harflarini bildiradigan [n] va [m] tovushlari chiqadi.

Demak, undosh tovushlarning hosil bo‘lishi uchun muhim bo‘lgan hodisa nutq organlarining bir-biriga tegishi natijasida o‘pkadan kelayotgan havoning to‘sinqqa uchrashidir. Undosh tovushni talaffuz qilganda havo oqimi unlilarga qaraganda kuchli tebranadi va shovqin yordamida hosil bo‘ladi.

Eshitib his etilishi jihatidan ham undoshlar kuchli shovqin bilan unlilardan farq qiladi. Jahon tillarining deyarli hammasida undosh tovushlar unlilardan ko‘p. Shu tufayli ularning funktsional xizmati ham kattadir.

Hozigi zamon arab adabiy tilida 28 ta undosh fonema bor.

Arab adabiy tili fonetik jihatdan undosh fonemalar sistemasining, ayniqsa, bo‘g‘iz, itboq va tish undoshlarining keng qo‘llanishi bilan xarakterlanadi.

Arab tilida undosh tovushlar hozirgi zamon arabshunoslari tomonidan quyidagicha tasniflanadi:

1. Hosil bo‘lish usuliga ko‘ra quyidagilarga ajratiladi:

a) portlovchilar. Ularning hosil bo‘lishida talaffuz organlarining to‘la jipslashuvi natijasida havo oqimi to‘sinqqa uchraydi va tovush kuchli portlash bilan chiqadi. Masalan:

ط ت ك

b) sirg‘aluvchilar yoki sizg‘iruvchi (frikativ) undoshlar. Bunday undoshlarning hosil bo‘lishida talaffuz organlari to‘liq yaqinlashmaydi, lekin havo oqimi ular orasidan kuch bilan o‘tadi va sirg‘alish hosil bo‘ladi. Bu sirg‘alish shovqinli bo‘ladi. Masalan:

س ف

2. Tovushlarning ishtirokiga ko‘ra jarangsiz va jarangli undoshlarga bo‘linadi. Jarangsiz undoshlarning talaffuzida tovush paychalari titramaydi. Masalan:

ف ت

Jarangli undoshlarning talaffuzida esa tovush paychalarini titraydi. Masalan: ڏ

ڏ

3. Hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra quyidagicha tasnif qilinadi:

a) lab undoshlari. Ular qatoriga ikkala labning jipslashuvidan hosil bo‘luvchi lab-lab (bilabial) undoshlari (ڦ ڻ) va pastki lab va yuqori tishlarning orasida hosil bo‘ladigan lab-tish (labiodental) undoshlari (ڦ ڻ) kiradi;

b) yumshoq yoki palatal undoshlar. Ular til o‘rtasi qismining qattiq tanglayga yaqinlashuvi bilan hosil bo‘ladi (ڦ ڻ);

v) tilorqa yoki velyar undoshlar. Ular tilorqa qismining yumshoq tanglayga tegishi yoki yaqinlashishi bilan hosil bo‘ladi (ڦ ڻ);

g) bo‘g‘iz yoki tomoq, xalqum (laringal) undosh tovushlar. Ularning hosil bo‘lish o‘rni bo‘g‘izdadir (ع).

d) burun (sonor) tovushlar. Tovushlarning talaffuzida yumshoq tanglay pastka tushib, havo burun bo‘shlig‘i orqali o‘tsa, sonor tovushlar hosil bo‘ladi. Bunday tovushlar lab-burun (ڻ) va tish-burun (ڻ) sonorlariga ajratiladi.

4. Itboq (emfatik) tovushlarning talaffuzida til uchi tishga yaqinlashadi yoki tish bilan birikadi, til o‘rtasi esa yumshoq tanglayga yaqinlashadi va tovush kuch bilan chiqadi (ص ض ط).

5. Yana shunday tovushlar borki, ular boshqa tovushlardan talaffuz vaqtida tovush paychalarining ajratilishidan hosil bo‘luvchi portlashning qo‘shilishi bilan ajralib turadi (ء). Bunday tovushlar “bo‘g‘iz portlovchisi” deb ataladi.

“Bu tovushlar ichidan quyidagilarning talaffuzi o‘zbek tilidagidan qisman farq qiladi:

1. «V» tovushi o‘zbek tilidagi «v» tovushidan hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra farq qiladi. O‘zbek tilidagi «v» lab-tish tovushidir, arab tilidagi esa ikki labning o‘zaro yaqinlashishidan hosil bo‘luvchi lab-lab tovushi hisoblanadi.

2. «L» tovushi arab tilida yumshoq talaffuz qilinadi («Allahu» so‘zi bundan mustasno).

3. «H» tovushi o‘zbek tilidagi «h» tovushidan yengilroq talaffuz

qilinadi”<sup>19</sup>.

Arab tiliga xos bo‘lgan undosh tovushlar 8 ta:

1. [z] undoshi. Bu tovush hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra til oldi, hosil bo‘lish usuliga ko‘ra sirg‘aluvchi, ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra jaranglidir. Bu tovushni to‘g‘ri talaffuz qilish uchun tilning uchini yuqori va pastki tishlar orasidan tashqariga bir oz chiqarish kerak. Bu tovush yozuvda ҳ harfi bilan ifodalanadi.

2. [s] - undoshi. Bu tovush hosil bo‘lish o‘rniga va usuliga ko‘ra . [z] tovushi bilan bir xildir. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra esa, jarangsiz tovush hisoblanadi. Boshqacha aytganda, u [z] tovushining jarangsiz varintidir. Bu tovush yozuvda ҹ yordamida ifodalanadi.

3. [x] undoshi.Bu tovush hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra chuqur bo‘g‘iz tovushi, hosil bo‘lish usuliga ko‘ra sirg‘aluvchi, ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra jarangsiz tovushdir. Bu tovush talaffuzi davomidan o‘pkadan chiqayotgan havo bo‘g‘izdan tiqilib, kuch bilan chiqadi va bo‘g‘iz devorlariga qattiq ishqladidi. YOzuvda u ҹ harfi yordamida ifodaladi.

4. [’] undoshi. Bu tovush hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra chuqur bo‘g‘iz tovushi, hosil bo‘lish usuliga ko‘ra portlovchi , ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra jaranglidir.Bu tovush talaffuzi davomida chuqur bo‘g‘iz devorlari bir-biriga tegadi va o‘pkadan kelayotgan havo shu yerda portlab o‘tadi. [x] va [’] tovushlarining talaffuzi ancha qiyin bo‘lib, o‘rganuvchidan ko‘p mashq talab qiladi. Bu tovush yozuvda Ҳ harfi yordamida ifodalanadi.

5. [ќ] undoshi. Bu tovush hosil bo‘lish o‘rnila ko‘ra til oldi, hosil bo‘lish usuliga ko‘ra portlovchi, ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra jarangsiz tovushdir. Bu tovushni to‘g‘ri talaffuz qilish uchun tilning uchini emas ([t] tovushi kabi), balki tilning oldingi yarmi qismini to‘laligicha tanglayga tegizish kerak. Shu sharoitdagi havoning portlashidan mazkur tovush hosil bo‘ladi. Bu tovush zarb bilan aytuvchi (emfatik) tovush hisoblanadi va u zidan keyingi, qisman o‘zidan oldingi [a], [a:] tovushini o‘zbek tilidagi [o], [o:] tovushiga, [i], [i:] tovushlarini rus tilidagi [ы], [ы:] tovushlariga o‘zgartiradi. [u] hamda [u:] tovushiga esa ta’sir

<sup>19</sup> Иброхимов Н.И., Юсупов М.М. Араб тили грамматикаси. 1-ж. – Т., 1997. – Б. 8.

qilmaydi. [қ] tovushi yozuvda қ harfi yordamida ifodalanadi.

6. [p] tovushi. Bu tovush hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra til oldi, hosil bo‘lish usuliga ko‘ra portlovchi, ovoz va shovqinning intirokiga ko‘ra esa jaranglidir. Boshqacha aytganda, bu harf [қ] tovushining jarangli varianti bo‘lib, uni talaffuz qilish uchun tilning oldingi qismini yuqori tanglayga qattiq tirash lozim. Bu tovush ham zarb bilan aytiluvchi undosh hisoblanadi va [қ] tovushi atrofidagi unli tovushlarda bo‘ladigan sifat o‘zgarishlari bu tovush yaqinida ham sodir bo‘ladi. [p] tovushini yozuvda қ harfi ifodalaydi.

7. [c] undoshi. Bu tovush hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra til oldi, hosil bo‘lish usuliga ko‘ra sirg‘aluvchi, ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra jarangsizdir. Bu tovushning [s] tovushidan farqi shuki, [s] tovushi talaffuzida havo sirg‘alib chiquvchi tirqish til uchi bilan oldingi tishlar orasida hosil bo‘lsa, [s] undoshi talaffuzida bu tirqish tilning oldingi qismi bilan yuqori tanglay orasida hosil bo‘ladi.

Arab tovushlarining hosil bo‘lishi haqida Ibn Sino o‘zining fonetikaga oid risolasining to‘rtinchi bobida maxsus to‘xtaladi. U hamzaning talaffuzi haqida shunday deydi:

اما الهمزة، فانها تحدث من حفز قوى من الحجاب و عضل الصدر لهواء كثير و من مقاومة الطرجهالى الحاصر زمانا قليلا لحفر الهواء، ثم اندفاعه الى الانقلاع بالعضل الفاتحة و ضغط الهواء معا.

Hamzaning talaffuzida ko‘krak va diafragma mushaklari havoning katta hajmini kuch bilan itarib yuboradi va u bo‘g‘izda bir oz to‘xtab, keyin otilib chiqadi va shu bilan bir paytda mushaklar havoni qisadi.

[‘] haqida:

و اما العين، فيفعلها حفر الهواء مع فتح الطرجهالى مطاقة و فتح الذى لا اسم له متوسطا، و ارسال الهواء الى فوق ليترد فى وسط رطوبة يتدرج فيها من غير ان يكون قبل الحفر خاصا بجانب.

“ع” havoning bo‘g‘iz to‘liq ochilishi tufayli itarib chiqarilganligi sababli paydo bo‘ladi. Bunda havo yuqoriga yuboriladi va namlik o‘rtasida tebranadi.

[H] haqida:

و الحاء مثلها الا ان فتح الذى لا اسم له اضيق و الهواء ليس يحفر على الاستقامة حفزا، بل يميل الى خارج حتى يكسر الرطوبة و يهزها الى فدام، فتحدث من انزعاج اجزائها الى قدام هيئة الحاء.

“ح” ham unga o‘xshash. Faqat bunda bo‘g‘iz torroq va havo to‘g‘riga emas, balki tashqariga itarib chiqariladi va namlik oldinga suriladi va u namlik bo‘laklarini oldinga surish natijasida paydo bo‘ladi.

#### [X] haqida:

و اما الخاء فانها تحدث عن ضغط الهواء الى الحد المشترك بين الهاء و الحنك ضغطا قويا مع اطلاق يهتز فيما بين ذلك رطوبات يعنف عليها التحرير الى قدام، فكلما كادت ان تحبس الهواء زوحمت و قسرت الى الخارج في ذلك الموضع بقوه.

“خ” havoning sifati va soni bo‘yicha xuddi shunday itarib chiqarish natijasida paydo bo‘ladi, biroq bunda to‘siq to‘liq emas, bu to‘siqni artikulyatsiya joylarining chetlari tashkil qiladi. Yo‘l ochiq va siqib chiqarilayotgan havo o‘rtaga kelmasdan uning chetlariga tegadi.

#### [F] haqida

و القاف تحدث حيث تحدث الخاء ، و لكن بحبس تام، و اما الهواء فمقداره و موضعه بذلك بعينه.

Havo to‘sig‘i labning yumshoq qismlarida tashkil topsa va havoni tish uchlari orqali chiqarsa، “ف” paydo bo‘ladi.

و اما الغين، فهو أخرج من ذلك يسيرا و بيسرت تجد من الرطوبة و لا من قوة انحفاظ الهواء ما تجده الخاء، و الحركة فيه الى قرار الرطوبة اميل منها الى دفعها الى خارج، لان الحركة فيها اضعف و هو انها تحدث في الرطوبة الحنكية كالغليان و الاهتزاز.

“ه” ga nisbatan oldinroqda paydo bo‘ladi, unda “ه” dagi namlik va havoni itarib chiqishdagi kuch yo‘q. Undagi harakat namlikni tashqariga olib chiqmaydi, balki joyida qoladi. Undagi harakat kuchsizroq va tebranishga o‘xshab qattiq tanglay namligida paydo bo‘ladi.

و اما الكاف فانها تحدث حيث تحدث العين و بمثل سببه الا ان حبسه حبس تام و نسبة الكاف الى العين هي نسبة القاف الى الخاء، و اما الكاف التي تستعملها العرب في عصرنا هذا بدل القاف فهي تحدث حيث تحدث الكاف الا انها أدخل قليلا و الحبس أضعف.

“ڭ” ham tashkil topgan joyda paydo bo‘ladi. Ammo da to‘siq to‘liqdir. “ڭ” ni “غ” ga nisbati “ق” ni “ه” ga nisbatiga o‘xshashdir. Hozirgi paytda arablar “ق” ning o‘rniga qo‘llaydigan “ڭ” ga kelsak, u “ڭ” paydo bo‘lgan joyda paydo bo‘ladi, faqat u chuqurroq va unda birlashuv kuchsizroqdir.

و أما الجيم فيحدث من حبس بطرف اللسان تام و بتقريب الجزء المقدم من اللسان من سطح الحنك المختلف الأجزاء في النتو و الانخفاض مع سعة في ذات اليمين و اليسار و اعداد رطوبة حتى اذا اطلق نفذ الهواء في ذلك المضيق نفوا يصر لضيق المسلك. الا انه يتذبذب لاستعراضه و يتم صفيره خلل الاسنان يتقص من صفيره و يرده الى الفرقعة الرطوبة المندفعه فيما بين ذلك متقطعة ثم يتتفقا للا انها لا يمتد بها التتفق الى بعيد و لا يتسع بل تتفوهها في المكان الذي يطلق فيه الحبس.

“ج” til uchining to‘liq to‘siq bo‘lishi va tilning old qismining qattiq tanglay yuziga yaqinlashuvi natijasida paydo bo‘ladi. Bunda tilning qismlari o‘ngga, chapga kengayishi bilan birga ko‘tarilish va pasayish bo‘yicha hamda namlikning mavjudligi bilan farqlanadi. Ajralish bo‘lganida bu oraliqqa kirgan havo yo‘l torligi sabab shovqin chiqaradi. Keyin bu shovqin tishlar o‘rtasidagi oraliqda yakunlanadi. Shovqin pasayib, tishlar o‘rtasidagi joyga namlikning otilishiga olib keladi va bu namlik portlaydi. Ammo bu namlikdagi portlash uzoqqa cho‘zilmaydi va eni bo‘yicha tarqalmaydi, ajralish paydo bo‘lgan joyda portlaydi.

واما الشين فهي حادثة حيث يحدث الجيم بعينه ولكن بلا حبس البته، فكان الشين جيم لم يحبس و كان الجيم شين ابتدات بحبس ثم اطلق.

“ش” ga kelsak, u “ج” paydo bo‘lgan joyda paydo bo‘ladi, ammo bunda birlashuv yo‘q. bu birlashmagan “ش” ج” dir. esa birlashuv bilan boshlanib, keyin bo‘lingan “ش” dir.

واما الضاد فانها تحدث عن حبس تام عندما تتقدم موضع الجيم و تقع في الجزء، الامثل اذا اطلق اقيم في مسلك الهواء رطوبة واحدة او رطوبات تتتفق من الهواء الفاعل للصوت و تمتد عليها فتح حبس ثانية و يتتفقا فيحدث شكل الضاد.

“ض” paydo bo‘ladigan joyning oldidagi joyda to‘liq to‘siq paydo bo‘lganidan vujudga keladi va u tanglayning eng tekis joyiga to‘g‘ri keladi. Bo‘linganda havo yo‘lida namliklar bo‘ladi. Ular tovushni paydo qilayotgan havo tufayli yoriladi, namlik cho‘ziladi va ikkilamchi birlashish va yorilish bo‘ladi va natijada “ض” paydo bo‘ladi.

واما الصاد فيفعله حبس غير تام أضيق من حبس السين و أليس و أكثر اجزاء حابس طولا الى داخل مخرج السين و الى خارجه حتى يطبق اللسان او يكاد يطبق على ثلثي السطح المفروش تحت الحنك و الشجر و يتسرب الهواء عن ذلك المضيق بعد حصر شئ كثير منه من وراء و يخرج في خلل الاسنان.

“س” “ص” to’sig‘idan ko‘ra ensiz, to‘liqsiz to‘siq tufayli paydo bo‘ladi. Artikulyatsiya joyi “س” artikulyatsiya joyining ichida va tashqarisida uzunligi kattaroq va quruq jism qismlari bilan birlashuvda paydo bo‘ladi. Bunda til qattiq tanglay yuzining 2/3 qismini yopadi va bu oraliqdan havo orqada to‘siq bo‘lganligi sabab tishlar orasidan chiqadi.

و اما السين فتحث عن مثل حدوث الصاد الا ان الجزء الحabis من اللسان فيه اقل طولا و عرضا.

و كأنها تحبس العضلات التي في طرف اللسان لا بكليتها بل باطرافها.

“ص” kabi tashkil topadi. Faqat bunda birlashuvda qo‘llangan tilning qismi eni va uzunligi bo‘yicha kichikroq, ya’ni tilning uchida joylashgan mushaklar birlashuvni to‘liq emas, faqatgina cheti bilan hosil qiladi.

و اما الزاي فانها تحدث عن الاسباب المصفورة التي ذكرناها، الا ان الجزء الحabis فيها من اللسان يكون ما يلي وسطه و يكون طرف اللسان غير ساكن سكته الذي كان في السين، بل يمكن من الاهتزاز، فإذا انفلت الهواء الصافر عن المحبس اهتز له طرف اللسان و اهتزت رطوبات تكون عليه و عنده و نقص من الصفير ، للا انه باهتزازه يحدث في الهواء الصافر المنفلت شبيه التدحرج في منافذة الضيقه بين خل الاسنان. فيكاد ان يكون فيه شبيه التكرير الذي يعرض للراء، سبب ذلك التكرير اهتزاز جزء من سطح طرف اللسان خفي الاهتزاز.

“ز” xushtakni paydo qiluvchi sabablarga ko‘ra tashkil topadi. Bundan tashqari to‘siqni vujudga keltiruvchi tilning qismi o‘rta til bilan birlashadi. Til “س” dek harakatsiz emas, u tebranib turadi. To‘siq joyidagi havo ozod bo‘lganida tilning uchi va shu yerdagi namlik tebranadi. Xushtak kamayadi. Xushtakning tebranishi natijasida tishlar o‘rtasidagi tor oraliqdan chiqib ketayotgan havo tufayli gumburlash paydo bo‘ladi. “ر” uchun xos bo‘lgan belgilarga o‘xshaydi. Bularning sababi til uchi yuzasi qismining tebranishidir.

و اما الطاء، فهي من الحروف الحادثة عن القلع دون القرع او مع القرع. و انما تحدث عن انطاب سطح اللسان اكثره مع سطح الحنك و شجر و قد ييرا شيئا منها عن صاحبه و بينهما رطوبة. فإذا انطلق عنه و انضغط الهواء الكثير سمع الطاء.

و ان كان بحبس بجزء اقل و لكن مثله في الشدة سمع الناء.

“ت” bu to‘qnashuv (qar‘)siz uzilish (qal‘) yoki to‘qnashuv (qar‘)li uzilish (qal‘) natijasida paydo bo‘ladigan nutq tovushlariga mansub. Biroq bunda til yuzasining aksariyat qismi qattiq tanglay yuzasini yopadi. Ularning qismlari

qarama-qarshi qismlari bilan birlashmaydi. Ular o'rtasida namlik bo'ladi. Til tanglaydan uzilganda havoning ko'p qismi siqiladi va "ت" eshitiladi.

و ان كان حبس كالاشمام بجزء صغير من طرف اللسان و اصرار للهواء المطلق بعد الحبس على  
سائر سطح اللسان على رطوبته و حفظ له جملة سمع الظاء.

Agarda to'siq ishmam kabi bo'lsa, ya'ni tilning kichik uchi va birlashuvdan so'ng ozod bo'lgan havo namlik bilan tilning qolgan yuzasi bo'yi sirg'alib to'liq chiqarib yuborilsa, "ظ" eshitiladi.

و ان كان الحبس بالطرف أشد و لكن لم يستعن بسائر سطح اللسان و لكن ينقل الهواء عند الحبس بما  
يلى طرف اللسان من الرطوبة حتى يحركها و يهزها هزا يسيرا و بنفذ فيها و في اعلى خلل الاسنان قبل  
الاطلاق ثم يطلق كلن منه الذال. و الذال يقصر به عن الزاء ما يقصر به الثاء عن السين، و هو انه لا يمكن  
هواء حتى يستمر جيدا فى خلل الاسنان بل يسد مجرى من تحت و يمكن من شم من اعالية و لكن يكون في  
الذال قريبا من الانتظار الذى يكون في الزاء.

Agarda to'siq kuchli bo'lsa va u tilning butun yuzasini jalb etmasdan til uchidan iborat bo'lsa, havo til uchiga birlashgan qismda namlik bilan chiqarilsa, va harakatga keltirilganda tebransa, bunda havo namlikka kirib, tishlarning tepasidagi oraliqdan bo'linguncha chiqib kelsa, "د" paydo bo'ladi. Bu "د"da "ز" ga dagi "س" gacha yetmagan hodisani uchratamiz. Bu hodisa tishlar o'rtasidagi orliqdan havo to'g'ri chiqib keta olmasligi, uni pastdan chiqadigan joyi ham to'silganidadir. Tishlarning tepalarida ham qo'shimcha havo paydo bo'lishi mumkin, ammo "د"da "ز" ga yaqin bo'lgan tebranish mavjud.

و اما اذا كان حبس الهواء باجزاء لينة من الشفة و تسربيه في آخر الثنية من غير حبس تام حدث  
الفاء.

Havo to'sig'i labning yumshoq qismlarida tashkil topsa va havoni tish uchlari orqali chiqarsa, "ف" paydo bo'ladi.

فان كان في ذلك الموضع بعينه مع حبس تام و الاطلاق في تلك الجهة بعينها حدث الباء و نسبة الباء  
إلى الفاء عند الشفة نسبة الهمزة إلى الهاء عند الحنجرة.

Agarda xuddi shu joyda to'liq birlashuv bo'lib va shu turdag'i bo'linish bo'lsa "ب" paydo bo'ladi. Lablarda "ب" ni "ف" ga paydo bo'lish nisbati hamzani bo'g'iz "ه" ga nisbati kabidir.

و اما اذا كان حبس تام غير قوي و كان ليس الحبس كله عند المخرج بين الشفتين و لكن بعضه الى ما هناك و بعضه الى ناحية الخيشوم، حتى يحدث الهواء عند اجتيازه بالخישوم. و الفضاء الذى فى داخله دويا حدث الميم.

Birlashuv to'liq, ammo kuchsiz va bu birlashuv lablar o'rtasidagi artikulyatsiya joyida,ya'ni birlashuvning bir qismi shu yerda, bir qismi esa havo burun bo'shlig'idan va ichidagi makondan o'tayotganda sado paydo bo'lishi uchun burun bo'shlig'ida bo'lsa "م" vujudga keladi.

و ان كان بدل الشفتين طرف اللسان و عضو اخر حتى يكون عضو رطب ارطب من الشفة يقاوم الهواء بالحبس ثم يسرب أكثره الى ناحية الخيشوم كانت النون.

Agarda lablar o'rniga tilning uchi va boshqa a'zo birlashsa, va bu organ lablardan ko'ra namroq bo'lsa va havoga birlashuv orqali qarshi chiqsa,havo esa burun bo'shlig'iga oqsa "ن" paydo bo'ladi.

و اما الواو الصامتة فانها تحدث حيث تحدث الفاء و لكن بضغط و حفز للهواء ضعيف لا يبلغ ان يمانعه في انضغاطه بسطح الفة.

"ف" undoshiga kelsak, u "ف" paydo bo'lgan joyda paydo bo'ladi. Ammo bunda lablar yuzi to'sqinlik qila olmaydi va havo sustroq kuch bilan chiqariladi.  
و الياء الصامتة فانها تحدث حيث تحدث السين و الزاي و لكن بضغط و حفز للهواء ضعيف لا يبلغ ان يحدث صفيرا.

"س" undoshi "س" va "ز" paydo bo'lgan joyda paydo bo'ladi.biroq bunda havoni chiqarilish kuchi sust va xushtak yo'q.

و اما الالف المصوتة و اختها الفتحة، فاظن ان مخرجهما مع اطلاق الهواء سلسا غير مزاحم.

"ي" unlisi va uning singlisi "ي" ga kelsak, o'ylaymanki ularning paydo bo'lish joyi bu – bemalol ochilish bilan havo chiqarishdir.

و الواو المصوتة و اختها الضمة، فاظن ان مخرجهما مع اطلاق الهواء مع ادنى تضييق للمخرج و ميل به سلس الى فوق.

"و" unlisi va uning singlisi "و" ning artikulyatsiya joyi izchil tepaga ketgan tor oraliqdan xavoni bemalol chiqarishdir.

و الياء المصوتة و اخاها الكسرة فاظن ان مخرجهما مع اطلاق الهواء ادنى تضييق للمخرج و ميل به سلس الى اسفل.

“ى” unli va uning singlisi “ঁ” ning artikulyatsiya joyi izchil pastga ketgan tor oraliqdan xavoni bemalol chiqarishdir.

ثم امر هذه الثلاثة على مشكل و لكنى أعلم يقينا ان الالف الممدودة المصوتة تقع في ضعف او اضعاف زمان الفتحة . و ان الفتحة تقع في اصغر الا زمنة التي يصح فيما الانتقال من حرف الى حرف.

Keyingi bu uchta tovush men uchun qiyinchilikdir, ammo men aniq bilaman alif mAMDuda unli, u fathadan ko‘ra ikki barobar va undanda ortiq vaqtda mavjud, fatha esa nutqning bir tovushidan boshqa tovushga o‘tish paytidan ko‘ra kichikroq vaqtda mavjud.

و كذلك نسبة الواو المصوتة الى الضمة و الياء المصوتة الى الكسرة.

“ى” unlisining dammaga va “ى” unlisining kasraga nisbati ham xuddi shundaydir.

Ibn Sino shu tariqa fonologiya tarixida birinchi bor arab tovushlarining artikulyatsion va akustik xususiyatlarini katta ilmiy aniqlikda batafsil bayon qiladi.

## 2.4. IBN SINONING «MAXORIJU-L-HURUF» RISOLASIDA дастурда борми ??? UMUMFONOLOGIK QONUNIYATLAR

### Reja:

1. Arab tili fonologiyasi
2. Ibn Sinoning “Maxoriju-l-huruf” risolasi
3. “Maxoriju-l-lhuruf” risolasidagi umumfonologik qonuniyatlar

**Tayanch so‘zlar:** fonetika, xarf, fonologiya, tovush, qar’, qal’.

Arab tili tovushlari sharq tilshunoslari tomonidan amaliy nuqtai nazardan o‘ziga xos bir uslub bilan ishlangan. Arab tili fonologiyasi tarixida sof fonetik masalalarga bag‘ishlangan birinchi asar Ibn Sinoning fonetikaga oid risolasidir. Bu asarda fonetik hodisalar birinchi bor fonema darajasida tadqiq qilingan bo‘lib, bunga zamonaviy sharqshunoslar yuksak baho bergenlar.

Gurjiston olimi V.G. Axvediani 1966 yil Ibn Sinoning fonetikaga oid risolasiga bag‘ishlangan tadqiqini chop qildirdi. Bu nashrda ikkita qo‘lyozma va

uning rus tilidagi tarjimasi ham berilgan.

Ibn Sino bu asarini, ya’ni fonetikaga oid risolasini tasodifan yozmagan. Ibn Sinoning musiqa sohasida qilgan mehnati fonetika - akustika savollariga javob bergen.

Qadimgi arab grammatik adabiyotida Ibn Sinoning bu izlanishlari grammatik struktura savollaridan holi bo‘lgan mustaqil fonetik muammolarga bag‘ishlangan yagona asar hisoblanadi. Bu muallifga bir qator savollarga mufassal ko‘rib chiqish imkoniyatini beradi. Bir so‘z bilan aytganda, Ibn Sinoning bu izlanishi artikulyatsiya va akustika masalalarini o‘z ichiga oladi.

Ibn Sino tovush paydo bo‘lishining jismoniy sabablari va uni eshitish organlari orqali idrok etish texnikasi haqida o‘zining “ash-Shifo” asarida ham bayon qilgan. Mazkur holatda ko‘rsatilgan asarlarning muvofiq bo‘limlarini qiyoslashda katta o‘xshashlik uchraydi.

Ibn Sinoning ba’zi boshqa tillar (fors, xorazmiy, turkiy, yunon va b.) bilan tanishligini ham hisobga olish lozim. Bu tillardan misollarni Ibn Sino u yoki bu holatni ko‘rsatish uchun keltiradi.

Asarga undoshlar tavsifini bayon etish uslubi hamda boshqa arab filologlarga noma’lum bo‘lgan fonemalar definitsiyasining ba’zi bir uslublari, jumladan undoshlarning korrelyatsiya tamoyilini masalalarini ham kiritgan.

Asar olti fasldan iborat:

آ فى حدوث الصوت.

ب فى سبب الحروف.

ج فى تشريح الحنجرة و اللسان.

د فى اسباب حرف حرف من حروف العرب.

ه فى حروف شبيهة بهذه الحروف.

و فى ان هذه الحروف لا تسمع من دون حركات اطيفه.<sup>20</sup>

1. Tovushning paydo bo‘lishi haqida.

2. Nutq tovushlarining paydo bo‘lish sababi haqida.

---

<sup>20</sup> Ахвледиани В.Г. Фонетический трактат Авиценны. Приложение. Тбилиси. Мецниереба. 1966 - Ибн Сино асари матнидан иктибослар шу нашрдан олинди. . –Б.33-39.

3. Bo‘g‘iz va tilning anatomiyasi haqida.
4. Alovida arab tovushlarining paydo bo‘lish sababi haqida.
5. Bu tovushlarga o‘xhash nutq tovushlari haqida.
6. Bu tovushlarning nutqdan tashqari harakatlarda eshitilishi haqida.

Darhaqiqat, uning mundarijasi bu asarning fonetika masalalarini yoritishda o‘ziga xos original tadqiqot ekanini ko‘rsatadi.

Bu asarning eng qadimgi qo‘lyozmasi 1173 yilda, eng oxirgisi 1768 yilda yozilgan. Hozirgi kunda risolaning ikkita nashri bor.

Ibn Sino o‘z asarida nutq tovushlarining hosil bo‘lishini ta’milaydigan omillarni ko‘rsatadi. Bular:

- 1) Havo to‘lqini; 2) To‘sıqlar; 3) Rezonator.

Ibn Sino tovushlarni 28 undosh va 3 unliga bo‘ladi.

Ibn Sino tovushning paydo bo‘lish sababi haqidagi birinchi bobda tovushning fizik hodisa sifatida vujudga kelishi uchun zarur sabablar haqida fikr yuritib shunday deydi:

تقديرى ان السبب القريب الصوت تموج الهواء دفعه بسرعة و قوة من اى سبب كان، و اشتراط امر القرع فيه ممكن ان لا يكون سببا كليا للصوت بل سببا اكثريا . و ان كان سببا كليا فهو سبب بعيد لا ملاصدق وجود الصوت.

Mening taxminim tovushning eng asosiy sababi havoning tebranishidir, unga kuchli va tezkor turtki sababdir. Tovushning hosil bo‘lishida to‘qnashuvning (qar‘) roli mutlaq sabab bo‘lmasa-da, ustuvor sababdir. Agarda mutlaq sabab bo‘lsa, u uzoq sabab, u tovushning mavjudligi bilan bevosita bog‘liq emas.

و الدليل على هذا ان الصوت يحصل من مقابلة القرع، و ذلك قلع. لأن القرع هو قرب جرم من جرم مقاوم له، فربما تابعا له تاليا مماسة عنيفة بسرعة حركة التقارب و قوته:

Tovush to‘qnashuvning (qar‘) ziddiyatida paydo bo‘ladi, bu esa ajralish (qal‘)dir. To‘qnashuv (qar‘) - bir jismning boshqa qarshi jism bilan yaqinlashuvi, keyin esa yaqinlashuvdagи harakat tezligi va kuchi tufayli keskin tegishidir.

و مقابل هذا بعد جرم من جرم مماس له منطقة احدهما على الاخرى بعدا يتفرق من مماسته تفرقا بقوة و سرعة حركة في التبعيد و هاهنا يظهر صوت من غير ان يكون قرع.

Buning ziddi esa bir jismning unga tegib qoplab turgan boshqa jismdan ajralishidir, jismning ajralishi unga tegib turgan jismdan uzilayotgandagi harakatning kuchi va tezligi bilan yuzaga keladi. Shunda to‘qnashuv (qar‘)siz tovush paydo bo‘ladi.

و اما تموج الهواء لازم فى كليهما بسرعة و قوة اما فى القرع فباضطرار ان الهواء اذا صار منضغطا من القارع وقد وجد مخلصا فى تلك المسافة التى تجرى فيها القارع بقوة و سرعة.

Havoning to‘lqinsimon harakatiga kelsak, u ikkala holatda kuchli va tezkor bo‘lishi zarurdir. To‘qnashuv (qar‘)da to‘qnashayotgan jism o‘zi harakatlanayotgan makonda havoni shiddat bilan siqib, joyni bo‘shatishga majbur qiladi.

و اما فى القلع فباضطرار القالع الهواء الذى يدفعه من المكان الذى يخلو من الهواء من القالع، و فى كليهما يلزم انقياد الهواء بعيد التموج و شكل القالع فى ذلك المكان .

Ajralishda (qal‘) uzoqlashayotgan jism havoni boshqa bir ajralayotgan jism shiddat bilan bo‘shatgan joyga majburan chiqaradi. Har ikki holatda bu uzoqdagi havo mazkur joydagi uzilayotgan jismning (qal‘) to‘lqinsimon harakati va shakliga bo‘ysunishi zarur.

و يكون الانبساط فى القرعى أكثر منه و فى القاعى اقل. ثم يصل ذلك التموج الى الهواء الساكن فى الصماخ الى ذلك العصب المفروش فى سطحه .

To‘lqinning tarqalishi to‘qnashuv (qar‘)da uzunroq, ajralishda (qal‘) esa qisqaroqdir. Keyin bu to‘lqinsimon harakat eshitish kanalidagi havoni tebratadi va uni kanal yuzasidagi parda qabul qiladi.

ثم العلة القريبة فيما احسب هو التموج. و للتموج علتان: القرع و القلع. و ان ادعى مدع انه يحصل من القلع فى الهواء قرع و يظهر، فان ضعف هذا القول ليس مما نتكلف بيانه.

So‘ngra asosiy sabab, fikrimcha, to‘lqinsimon harakatdir, to‘lqinsimon harakat esa ikkita sababga ega: to‘qnashuv (qar‘) va ajralish (qal‘). Agar kimdir havoda to‘qnashuv (qar‘) ajralish (qal‘) tufayli paydo bo‘ladi desa, bu so‘z shunchalik asossizki, uni tushuntirishga hojat yo‘q.

Demak, Ibn Sino havoda tovushning paydo bo‘lishida ikki qarama-qarshi harakat to‘qnashuv va ajralishni asosiy sabablardan qilib ko‘rsatdi va bu fikrni nazariy jihatdan asaoslab berdi.

Bevosita nutq tovushlarining paydo bo‘lishi haqida Ibn Sino shunday deydi:

اما نفس التموج يظهر الصوت. و اما حال التموج فى نفسه فانه من اتصال اجزائه و ملاسته و بسطته و شدته تكون الحدة و الثقل. و الحدة يفعلاها الاول و الثقل يفعلاه الثاني.

To‘lqinsimon harakatga kelsak, u tovushni vujudga keltiradi, to‘lqinsimon harakatning holati uning qismlarining uzluksizligi va raxonligi yoki uzunligi va kuchi bilan belgilanadi, ulardan ohangning balandligi va og‘irligi paydo bo‘ladi. Balandligi birinchisi, og‘irligi ikkinchisi orqali hosil bo‘ladi.

و اما التموج من جهة الهيئة التى تستفيدها من المخارج و المحابس فى طريقة فمنه يظهر الحروف. و الحرف هيئة للصوت تظهر فيه تميزه من صوت آخر مثله فى الحدة و الثقل، اذ اظهر فى المسموع تميز من غيره.

O‘rni nuqtai nazaridan to‘lqinsimon harakat artikulyatsiya o‘rnidan va uning yo‘lidagi to‘sqlilardan paydo bo‘ladi. Nutq tovushlari shulardan hosil bo‘ladi.

Nutq tovushi unda ohangning balandligi va og‘irligiga ko‘ra o‘xshash bo‘lgan tovushdan farq qiluvchi jihatlar namoyon bo‘lganda tovush turi hisoblanadi, bu farqlar eshitilganda oshkor bo‘ladi.

و الحروف ال مفردة البا و الجيم و الضاد ايضا من وجه و الطاء و القاف و الكاف و اللام و الميم والنون ايضا من وجه. ثم الحروف الآخر كلها مركبة، فانها تظهر من احتجاس غير تام بل اذا اطلق الحبس.

Nutqning sodda tovushlari ba, ta, djim, dad hamda ta, qaf, kaf, lam, mim va nun. So‘ngra qolgan barcha tovushlar murakkabdir. Ular to‘liqsiz to‘siq natijasida jipslik bo‘lmaganda paydo bo‘ladi.

و هذه الحروف المفردة حدوثها فى ذلك الفاصل بين زمان الحبس و زمان الاطلاق. لان فى زمان الحبس التام لا يمكن فيه حدوث صوت من الهواء و هو ساكن من جهة الحبس. و فى زمان الاطلاق لا يسمع شيئاً من هذه الحروف من اجل انه لا امتداد فيه الا مع ازالة الحبس فحسب.

Nutqning sodda tovushlari birlashuv va ajralish orasidagi paytda paydo bo‘ladi, chunki to‘liq birlashganda birlashganligi sabab harakatlanayotgan havodan tovush paydo bo‘lishi mumkin emas, ajralgan paytda esa birlashuv yo‘q bo‘lganligi sababiga ko‘ra nutq tovushlaridan hech biri eshitilmaydi.

و بعد اشتراك كل واحد من الطبقتين فى العلة العامة يختلف بسبب اختلاف اجرام يقرب منها و بها يقع الحبس و الاطلاق. فربما كانت ألين و ربما كانت أشد وأييس و أرطب و ربما كان حبس النفس فى ذات رطوبة يتبعها ثم يتفرقأ إما مع اتصال و امتداد و إما فى مكانهما.

Bu har bir tur asosiy belgilarga ko‘ra umumlashtirilganidan so‘ng ularni ishtirok etuvchi a’zolarning ishtirokiga ko‘ra: paydo bo‘ladigan to‘siq va ajralish sabablariga ko‘ra farqlaymiz. Ba’zida ular yumshoq, ba’zida kuchli, ba’zida qururq, ba’zida nam, ba’zida esa chiqayotgan nafasga to‘siq namlikning o‘zida paydo bo‘ladi, bu namlik tebranadi, keyin esa yoriladi yoki cho‘zilishi va o‘sha joyning o‘zida turib qolishi natijasida paydo bo‘ladi.

و يكون الحاسب أصغر و أعظم و المحبوس أكثر و أقل و المخرج أضيق و أوسع و مستدير الشكل و متعرص الشكل مع الدقة و الحسب أشد و ألين و الضغط بعد الاطلاق أحفظ و أساس.

To‘siqni hosil qilayotgan narsa kichik va katta, to‘silayotan narsa keng yoki torqamrovli bo‘lishi mumkin. Artikulyatsiya o‘rni tor va keng, dumaloq yoki cho‘zinchoq shaklda, to‘siq kuchli yoki kuchsiz, ajralgandan so‘ng bosim keskin yoki yumshoq bo‘lishi mumkin.

### **Savollar:**

1. Ibn Sinoning «Maxoriju-l-huruf» risolasi nechta fasldan iborat?
2. Ibn Sino o‘z asarida nutq tovushlarining hosil bo‘lishini ta’minlaydigan omillarni ko‘rsatadi. Bular qaysilar?
3. Arab tili fonologiyasi tarixida Ibn Sinoning o‘rni qanday?

## **2.5. TAJVID QOIDALARI**

### **Reja:**

1. Arab tilining nahv va tajvid risolalari
2. Tajvid ilmi
3. Tajvid qoidalari tasnifi

**Tayanch so‘zlar:** nahv, sarf, tajvid, tajvid ilmi, harf.

Arab tilining nahv va tajvid risolalarida ham tovushlarning talaffuz qilinishidagi xususiyatlar, belgi va sifatlari o‘ziga xos uslubda bayon qilingan. Tajvid ilmi Qur’oni Karim ilmlaridan biridir. Tajvid so‘zining lug‘aviy ma’nosi

“biror narsani yaxshi, ko‘rkam qilmoq”dir. Ilmi qiroatda tajvid so‘zining istilohiy ma’nosi “harflarni ularning o‘zlariga xos va kerakli sifatlari bilan talaffuz qilmoq” bo‘ladi. Tajvid ilmi qiroat ilmi bilan birga Qur’on o‘qishda harflarni to‘g‘ri va chiroyli talaffuz qilishga qaratilgan.

Tajvid ilmi bo‘yicha arab alifbosida 29 harf bor. Har bir harf alifboda o‘z o‘rniga ega. Alifbodagi harflar o‘z o‘rni bilan quyidagi tartibda keladi:

ء ا ب ت ث ج ح خ د ز س ش ص ض ط ظ ع غ ف ق ك ل م ن ه و ي

Mahmud Zamaxshariyy o‘zining Muafassal kitobida harflarning ushbu qabul qilingan bo‘linishini keltirar ekan “Kitabul a’yn” lug‘atining muallifi tovushlar talaffuzining bundaan boshqacha bo‘linishini qo‘llagani haqida gapirib o‘tadi. Jumladan, mazkur lug‘atning muallifi Xalil ibni Ahmad qof va kof harflarini ifodalovchi q va k tovushlarini lahaviyya, ya’ni kichik til tovushlari deb ataydi, chunki bu ikki tovush kichik til oldida hosil bo‘ladi. Bo, fo, mim va vov harflarini ifodalovchi b, f, m va v tovushlarini lab tovushlari deb atagan. U qolgan harflarni ham talaffuz qilishda nutq a’zolarining ishtirokiga qarab atagan. Ammo harflarning nutq a’zolari bo‘yicha bo‘linishini nahviylar qabul qilmadilar. Bu usul harflarning ketma-ketligidagi ayrim o‘zgarishlari bilan “al-Bori’ fi-l-lug‘a” kabi keyinroq tuzilgan bir necha mu’jamlardagina saqlanib qoldi.

Tajvid ilmi, odatda, o‘zigagina tegishli ayrim risolalarda bayon qilingan. Bu risolalar “Tajvid”, “Tajvidu-l-Qur’on”, “Ilmu-t-tajvid” nomlari bilan mashhurdir. Biroq tajvid ilmidagi harflarning talaffuzlari va turlarga bo‘linishlariga bag‘ishlangan qismlari nahv kitoblari ichida ham uchraydi. Buni nahv kitoblarining maxraji bir xil, yoki talaffuzi yaqin harflarning biri ikkinchisiga qo‘silib ketishi, ya’ni idg‘om deb atalmish boblarida topish mumkin. Jumladan, arab nahvining birinchi tadqiqotchi mualliflaridan Sibavayhi o‘zining “al-Kitob” asarida arab alifbosidagi asosiy harflarning soni yigirma to‘qqizta deydi. U alifboni bo‘g‘izdan chiqadigan harflardan boshlab, lablar ishtirokida aytildigan harflar bilan tugatadi. Sibavayhi mazkur 29 harfga Qur’oni Karimni o‘qishda qo‘llanilishi xato bo‘lmagan harflarni qo‘shib alifbo harflari sonini o‘ttiz beshtaga yetkazadi. Bular yengil nun, kuchsiz hamza, kuchli imolali alif, jim kabi aytildigan sod va

hijoziylarning salot, zakot va hayot so‘zlarida keluvchi alifu-t-tafhim harflaridir. Sibavayhining yozishicha, bu sanalgan 35 harfga yana arab lajhalaridagi Qur’oni Karim qiroati va she’r o‘qishda qo‘llanishi durust topilmagan 7 harfni qo‘shib alifbo harflari sonini qirq ikkitaga yetkazish mumkin. Ammo hamma nahv va tajvid aimmalari alifboni yuqorida keltirilgan 29 harfdan iborat deb hisoblashni to‘g‘ri topganlar.

Ushbu sanalgan 29 harfni ifodalovchi tovushlarning xususiyatini belgilashda bu 29 harfning har biri kishining nutq a’zolaridagi o‘zining talaffuz o‘rniga, ya’ni tovush hosil bo‘ladigan maxrajiga ega bo‘ladi.

Tajvid mualliflari tovushlarning talaffuz belgilarini sifoti huruf deb atashadi. Sifoti huruf o‘z navbatida sifoti lozima va sifoti oriziy (ko‘rinib turgan, oshkor) turlariga bo‘linadi.

Bulardan sifoti lozimayi huruf harflarning talaffuzlari uchun zarur bo‘lgan xususiyat, belgilardir. Alifbodagi 29 harfning lozim sifatlaridan ahamiyatli va mashhurroqlari jahr, hamas, shiddat, rihovat, bayniyya, itboq, iftihoh, iste’lo, istifola, inhilof, takrir va g‘unna va boshqalar. Bulardan:

Jahr deb harf talaffuz qilinganda, uning maxrajida ochiq oraliq qolmayin, nafasning hammasi yoki ko‘prog‘i tutilib, hosil bo‘lgan tovushning jarangli bo‘lishiga aytiladi. Bu sifat bilan talaffuz qilinadigan harflarga al-huruful-majhu:ra, ya’ni jarangli harflar deyiladi. Jarangli harflar quyidagi harflardir:

### ب ج د ذ ر ز ض ظ ع غ ل م ن و ي

Hamas jahrning aksidir. Hamas deb harfning aytilishida uning maxrajida ochiq oraliq qolib nafasning erkin oqib chiqishi bilan hosil bo‘lgan tovushning jaransiz bo‘lishiga aytiladi. Shuning uchun bu sifatga ega harflarni al-huruful-mahmu:sa, ya’ni jarangsiz tovushlar deb ataymiz. Bunday harflar o‘nta:

### ه ح خ ك س ش ث ت ف ق

Shiddat harfning talaffuzida tovush to‘sinqqa uchrab kuchli, shiddatli bo‘lishiga aytiladi<sup>21</sup>. Bu sifatga ega harflar al-hurufu-sh- shadi:da, ya’ni shiddatli harflar deyiladi. Bular 8 harfdir:

<sup>21</sup> Ҳасан Б. Қуръон илмлари: Қуръони Карим. Қироат илми. Тажвид илми. – Т., 2000. – Б. 14.

Rixovat shiddatning aksi. Rixovat deb harf aytilganda tovushning erkin oqib chiqishiga aytiladi. Rixovatni o'zbekchasiga zaiflik, kuchsizlik deyish mumkin. Shunda huru:fu-r-raxvi o'zbekchasiga zaif, sirg'aluvchi harflar degani bo'ladi. Rixovatli harflar quyidagi harflardir:

### ٿ ح ح د ز س ش ص ض ظ غ ق ه و ي

Bayniyya harflar shiddatli va zaif harflar oralig'idagi harflardir. Zero, al-hurufu-l-bayniyya - oraliq, ya'ni sonor harflar degani. Oraliq harflar talaffuzidagi sifat shiddat bilan zaiflik o'rtasidadir. Bular manna bu so'zlardagi 5 harfdir:

### ل ن ع م ر

Itboq deb harf talaffuz qilinganda tilning orqa tanglay bilan tutashib kelishiga aytiladi. Bu sifat bilan aytiladiga harflar al-hurufu-l-mutbaqa, ya'ni yopiq harflar deyiladi:

### ص ض ط ظ

Iftitoh itboqning aksidir. Shuning uchun iftitoh deb harf aytilganda til bilan orqa tanglay bir-biridan ajralib oralaridan havo oqimining erkin chiqishiga aytiladi. Bu sifatga ega harflar al-hurufu-l-munfatiha, ya'ni ochiq harflar deyiladi. Alifbodagi yopiq harflardan qolgan 25 harfning hammasi iftitoh, ya'ni ochiqlik sifatiga ega harflardir.

Iste'lo deb harf aytilganda tilning orqa tanglay oxiri tomon ko'tarilishiga aytiladi. Shuning uchun bu sifatga ega harflar al-hurufu-l-musta'liya, ya'ni baland talaffuzli harflar yeyiladi. Bular quyidagi harflardir:

### ا خ ص ق ض ف ط ظ

Istifola deb harf aytilganda til pastki jag' tomon tushib, til orqasining orqa tanglay tomon ko'tarilishiga aytiladi. Uning boshqacha nomi inhifozdir. Bu sifatli harflarning talaffuzi past bo'ladi. Shuning uchun bunday harflar al-hurufu-l-munhafiza, ya'ni past tovushli harflar deyiladi. Alifbodagi 29 harfning baland talaffuzli 7 harfidan boshqa hammasi istifolali harflardir. Mana bular:

### ا ب ت ث ج ح د ز س ش ف ك ل م ن ه و ي

Arab nahviylari lom harfini harfini harfu-l-inhirof, ya'ni og'uvchi harf deb

atashgan. Shunga ko‘ra lom harfini ifodalovchi 1 tovushini yon tovush deyiladi.Uning aytishicha tilning uchi milkka tegib, ikki yoni salgina pasayadi va bo‘shliq qoladi, havo oqimi shu yerdan sirg‘alib chiqadi.

Takrir – ro harfining sifati, uning aytishidagi titrashdir. Shuning uchun roni harfu-t-takrir, ya’ni tiroq harf deyishadi. R tovushining aytishida havo oqimining ta’siri bilan til uchi titraydi, ayni vaqtda nutq a’zolari tez-tez jipslashadi. Ana shu jipslashuvarlар oralig‘ida havo oqimi chiqadi. Ro harfining talaffuzidagi titrashni to‘xtatib-to‘xtatib aytishdan saqlanmoq kerak.

G‘unna harfning talaffuzida tovushning burundan chiqishidir. Burun tovushlarining talaffuzida kichik til salgina pastga tushib, havo oqimi burun bo‘shlig‘idan o‘tadi. Shuning uchun bu sifatga ega harf harful-g‘unna, ya’ni burun tovushi deyiladi. Mi:m va nu:n harflari g‘unnali harflardir.

Qalqala shiddat bilan jahrning qo‘shilib tebranish hosil qilishdan iborat sifatdir.Bundats sifat mana bu 5 harfdan birining so‘z o‘rtasi , yoki oxirida sokinli bo‘lgan holatida bo‘ladi: قطب جد

يجلون. أحد. بالحق. مطمئن. و جدكم. مقدار. و اضرب . ألم يجعل. Bunga misollar:

Harfning talaffuzida hutakka o‘xhash tovushning hosil bo‘lishi safir deyiladi. Sa:d, si:n va za:y harflari shu sifatga egadir. Shuning uchun bu harflarni ifodalagan tovushlarni sirg‘aluvchi tovushlar deymiz. Sirg‘aluvchi tovushlarning talaffuzida nutq a’zolari bir-biriga juda yaqinlashadi va havo oqimi shu a’zolarga ishqalanib chiqadi.

Tafashshiy deb harfning qattiq, kuchli, shovqin bilan talaffuz qilinishiga aytildi. Shunga ko‘ra bu sifat ham tafxim sifati kabitdir.Tafashshiy shin harfiga xosdir.Bu sifat harfning , ya’ni Shi:nning talaffuzida tovush og‘iz ichida to‘xtalib Zo ninig maxrajiga yetib borganiga qadar uzayishi bilan ifodalanadi.

Harfning harakatsiz holatiga sukun deyiladi. Sukun harf ustiga yoziladi. Belgisi to‘garakchadir.

Haraka - sukunning ziddi. Harf osti va ustiga qo‘yiladigan fatha, kasra va damma belgilariga harakatlar deyiladi.

Alif, vov va yo harflarini, ya’ni a, u, va i tovushlarini cho‘zib o‘qishga madd

deyiladi. Vov, yo va alif harflari madd harflaridir. Vov harfi sukunli bo‘lib oldida zammali harf kelsa, vov maddli bo‘ladi. Yo harfi maddli bo‘lishi bo‘lishi uchun uning o‘zi sokin bo‘lib oldidagi harf kasrali bo‘lishi kerak. Alif doim sokin va oldi maftuh, ya’ni fathali bo‘lgani uchun hamma vaqtmaddli bo‘ladi. Bularning hammasini mana bu so‘zda ko‘rish mumkin:

أوتينا

Sababi madd, ya’ni madd harflarining maddli bo‘lib kelishining sababi ikkita: biri-hamza, ikkinchisi- sukun. Hamza deb harakasi bor alifga aytiladi. Sukun esa harfning harakasiz ekanini bildiradi. Sukun ikki xil bo‘ladi: sukuni lozim va sukuni oriz.

Sukuni lozim deb to‘xtash va ulanib kelish bilan hosil bo‘lgan sukunga aytiladi. Masalan: ق ضالا va so‘zlaridagi fo va lom harflarining sukunlari kabi. Sukuni oriz deb to‘xtashda turib qoluvchi, ulanishda esa tushib qoluvchi sukunga aytiladi. نستعين so‘zidagi nun harfining sukuni sununi orizdir<sup>22</sup>.

Harf maddli bo‘lib, o‘zi maddning sababchisi bo‘lmagan holda uni tabiiy madd yoki maddi tabiiy deyiladi. Mana bu misollardagi aliflarning maddi tabiiydir:

أبداً. تواباً. طه. الراء.

Maddi tabiiyning cho‘ziqligi bir alifning cho‘zilishi miqdorichadir. Bir alif cho‘ziqligi esa alifni bir barmoqni to‘g‘ri holatidan bukib, yoki buzik holatidan to‘g‘ri holatiga qo‘yishgacha vaqt ichida aytish uchun ketgan vaqt bilan o‘lchanadi.

Maddli harfdan keyin maddning hosil bo‘lishi sababi hamza bo‘lib, har ikkisi bir so‘zda voqe bo‘lsa, bu maddga maddi muttasil deyiladi. Mana bu misollardagi kabi:

أول عك. إذا جاء، سوء سينت. جي هؤلاء . و النساء جاءت.

Maddi muttasilning madd bilan o‘qilishi vojibdir. Chunki bu xususda qorilar o‘rtasida ixtilof yo‘q. Maddi muttasil 4 alif miqdoricha cho‘ziladi.

Maddli harfdan so‘ng keladigan hamza maddning sababchisi bo‘lib bu ikkisi

<sup>22</sup> Ҳасан Б. Қуръон илмлари: Қуръони Карим. Қироат илми. Тажвид илми. – Т., 2000. – Б. 19-23.

boshqa-boshqa so‘zda voqe bo‘lsa, bu maddga maddi munfasil, ya’ni ayrilgan madd deyiladi. Buning misollari:

توبوا إلى الله إني أخاف. يا أيها الذي أطعمهم. و لا أنتم. تبت يداً أني لهب

Ba’zan harfi madd vovi muqadara, ya’ni vov madli bo‘ladi. Misol:

أَنْ مَالَهُ أَخْلَدَهُ. عَنْهُ إِلَّا بِإِذْنِهِ

Goho yoyi muqaddara, ya’ni yo maddli bo‘lib keladi. Misol:

وَمَا يَكْنِبُ بِهِ عِلْمٌ إِلَّا بِمَا شَاءَ

Maddi munfasilning o‘qilishida ixtiloflar bor. Ba’zi qorilar madd bilan cho‘zib o‘qiydilar, ba’zilari qasr qildilar, ya’ni maddni cho‘zmadilar. Shuning uchun maddni cho‘zib o‘qishni joiz hisob qildilar. Maddi munfasilning cho‘zilishi ham 4 alif darajasidadir.

Maddli harfdan so‘ng maddning sababchisi bo‘lmish sukun sukuni lozim sifatida sodir bo‘lsa, maddi lozim bo‘ladi. Sukuni lozim deb yuqorida ta’riflaganimizdek, to‘xtash va ulanib kelish bilan hosil bo‘lgan sukunga aytildi. Maddi lozim 4 turli bo‘ladi. Biri-maddi lozimi kalimayi musaqqala, ya’ni hamza yoki tashdid bilan og‘irlashgan so‘zning maddi lozimi. Bunga misol:

الضالين. الحاقة. تاعمروني

Ikkinchisi-maddi lozimi kalimayi muxaffafa, ya’ni yengil so‘zning maddi lozimi. Bunga misol: ، ان اـ

Uchinchisi-maddi lozimi harfi musaqqaladir. Misol:

الم، المـصـ، طـسـ

Bu misollardagi alif lom mimning lomi, keyingi iboroaning lomi va uchinchi iboraning sini maddi lozimli bo‘ladi.

To‘rtinchisi-maddi lozimi harfi muxaffafdir. Bunga misol:

الم، المـصـ، السـاـ ، حـ

Bu misollarda esa birinchi iboraning mi:mi, ikkinchi iboraning mimi va sodi, uchinchisining lomi va to‘rtinchisining mimi maddi lozimli bo‘ladi.

Maddi lozimning cho‘zib aytilishi vojibdir. Chunki qorilar bu xususda kelishdilar, ixtilof qilmadilar. Hamma qorilar maddi lozimning darajasini 4 alif miqdorida cho‘zishni lozim bildilar.

Maddli harfdan so‘ng maddning sababchisi bo‘lib sukuni oriz voqe bo‘lsa, bu ravishdan hosil bo‘lgan madd maddi oriz bo‘ladi. Sukuni oriz deb yuqorida ta’riflaganimizdek, to‘xtashda turib qoluvchi, ulanishda esa tushib qoluvchi sukunga aytildi. Misol:

يعلمون. يوم الدين . نستعين. مستقيم.

Maddi oriz maddining cho‘zib aytlishi joiz, chunki bunda qorilar o‘rtasida ixtilof bo‘ldi. Ammo maddi orizning darajasi mana bunday:

1) oxiri maftuh, ya’ni fathali bo‘lsa, uch vajh joiz bo‘ladi: cho‘ziq, o‘rtacha va qisqa;

2) agar maksur, ya’ni kasrali bo‘lsa, to‘rt vajh joiz bo‘ladi: cho‘ziq, o‘rtacha, qisqa va o‘ta qisqa;

3) agar mazmum, ya’ni zammali bo‘lsa, yetti vajh joizdir: cho‘ziq, o‘rta, qisqa, cho‘ziq bilan ishmom (talaffuzda lablarni yumish), o‘rta bilan ishmom, qisqa bilan ishmom va o‘ta qisqadir.

Ravm deb past tovush bilan haraka talab qilmoqqa aytildi. Ishmom esa sukundan so‘ng lablarni yumishdir.

Harfi liyn, ya’ni vov yoki yo harflaridan keyin maddning sababchisi sukul bo‘lsa, bu ikki harfda madd sodir bo‘ladi. Mana bu misollardagi kabi:

و الصيف. عليه من حوف و لا نوم.

Shuning uchun buni maddi liyn deyiladi. Maddi liynni cho‘zib yoki qisqa aytishda qorilar ixtilof qildilar<sup>23</sup>. Shunga ko‘ra maddi liynning madini cho‘zish joiz hisoblanadi. Maddi liynning darajasi mana bunday:

1) agar bu yerda sababi madd sukulni lozim bo‘lsa, ikki vajh joiz bo‘ladi: cho‘ziq va o‘rta. Buni mana bu qavli shariflardagi ayn so‘zida ko‘rish mumkin:

كھیص حمعسق

1) agar sukulni oriz bo‘lsa, maddi orizda bo‘lganidek uch, to‘rt yoki besh vajh joiz bo‘ladi. YUqorida keltirilgan misollardagi kabi.

كتاب. دار. جار: ikki fatha, ikki kasra, ikki zammaga tanvin deyiladi:

من عاقرا. رزقا: Ammo nuni sokin deb jazmli nunga aytildi:

<sup>23</sup> Ҳасан Б. Қуръон илмлари: Қуръони Карим. Қироат илми. Тажвид илми. – Т., 2000. – Б. 27.

Tajvidga oid adabiyotlarda muhim fonetik hodisalardan biri hisoblangan vaqf (pauza) masalasiga ham alohida e'tibor berilgan va bu haqda shunday deyiladi: "Vaqf deb qiroatda oyatlar orasida to'xtashga aytildi. Qur'onda tinishni bildiruvchi maxsus belgilar bor. Bular:

1) so'zning oxirgi harfi ustida kichik mim harfi yozilgan bo'lsa, o'sha so'zdan so'ng to'xtash lozim bo'ladi;

2) so'zning so'nggi harfi ustida yozuvi turgan bo'lgan bo'lsa, o'sha so'zdan keyin to'xtash mumkin emas;

3) so'zning oxirgi harfi ustidagi jumla harfi o'sha yerda tinish joizligini bildiradi;

4) sod lom yo harflarining birikmasi, ya'ni صلي orasida turgan ikki so'zni qo'shib o'qish qulayligiga qaqramat, tinish joizligini bildiradi;

5) qof lom yo harflarining birikmasi, ya'ni قلـي orasiga yozilgan ikki so'zni to'xtamay o'qish qulay bo'lishiga qaramay, o'sha yerda tinish joizligini bildiradi;

6) uchburchak shaklidagi uch nuqta qo'shaloq to'xtash sodir bo'lgan holda, birida to'xtalsa, ikkinchisida ham to'xtash to'g'ri emasligini bildiradi."<sup>24</sup>

Arab adabiy tili, jumladan, qur'on qiroatida [r] ning talaffuzi quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

الرحمن. الرحمن. الرحمن. الرحمن. الرحمن. الرحمن.  
الروح. نصر الله. نصر الله.

Agar ro maksur bo'lsa, ingichka, yumshoq o'qiladi: برجالكم. برجالكم.

Agar ro harfi sokin bo'lib oldidan kelgan harf maftuh yoki mazmum bo'lsa, و انحر. من شكر. بالذر. يرفع. مرسلون. مرسلون.

Ro sokin bo'lib oldidagi harf maksur bo'lsa, ro yumshoq o'qiladi: واستغفره. واصطبر. واغفر لنا.

Lekin roning bu so'nggi holatida ekanida ketidan kelgan harf hurufi iste'lodan biri bo'lsa, unda ro qalin o'qiladi. Misol: مرصاد. فرقة. فرقـة. قـرطـاس.

Ushbu holatda rodan so'ng iste'lo harflardan biri kelsa-yu o'zi kasrali bo'lsa, unda roni yumshoq ham, qalin ham o'qish joiz bo'ladi. Misol: كل فـرقـة.

<sup>24</sup> Ҳасан Б. Қуръон илмлари: Қуръони Карим. Қироат илми. Тажвид илми. – Т., 2000. – Б.

Agar ro sokin bo‘lib oldidan kelgan harfning kasrasi oriz bo‘lsa ham ro qalin o‘qiladi. Misol:

ارجعي. لمن ارتضي. ألم ارتا بوا

Roning o‘zi va oldidagi harf ham sokin bo‘lsa, uning sokiniga e’tibor berilmay, o‘sha harfdan avvalgisiga qaraladi. Shunda mazkur harf maftuh, yoki mazmum bo‘lsa, ro qalin aytiladi. Misol: من كل أمر. في الصدور. شهر. الفجر.

بصیر، قدیر، جیبر: Misol: مازکر هر کسی کی ایجاد می کنے والے شہر اور فجر۔

Ro harfi sokin bo‘lib oldidan liyn harf kelsa, bu holda ro yumshoq aytiladi. Misol: Misol: جیبر، سیر:

Demak, arab tili fonetikasi bo‘yicha yaratilgan asarlar tajvid kabi Qur’on o‘qish bilan bog‘liq tovush hodisalariga hamda Ibn Sino asari kabi umumfonologik masalalarga bag‘ishlangan ekan.

### Savollar:

1. Tajvid nima?
2. Tajvid qoidalari haqida nima bilasiz?
3. Ibn Sinoning tajvid qoidalari haqidagi qarashlarini bayon qiling.

## 2.6. ARAB TILIDA NUTQ TOVUSHLARINIG O‘ZGARISHI IDG‘OM (ASSIMILYATSIYA)

### Reja:

1. Arab tili fonolofiyasi qonuniyatları
2. Tovushlarning bir-biriga ta’siri
3. Idg‘om (assimilyasiya)

**Tayanch so‘zlar:** fonetika, assimilyatsiya, dissimilyatsiya, undosh tovush, unli tovush.

Tildagi tovushlar, jumladan, undosh tovushlar turli o‘zgarishlarga uchrashi mumkin.

Maxraji yoki talaffuz usuli jihatidan bir-biriga yaqin bo‘lgan ikki undosh nutqda ketma-ket kelsa, o‘zaro ta’sir natijasida bir tovush ikkinchisiga to‘liq yo qisman o‘xshab qolishi mumkin. Bunday hodisa “assisilyatsiya-idg‘om (qo‘shilib, singib ketish)” deb ataladi. Masalan: مُنْبَرٌ - مُدَّتٌ - أَخْذَتْ - أَذْتَ - oldim, cho‘zdim, مِنْبَرٌ - مُمْبَرٌ - minbar.

Idg‘om hodisasi sonor va yarimunlilarda ko‘proq kuzatiladi. Masalan, “م”, “ر” sonorlari va “و”, “ي” yarimunlilari oldin kelgan “ن”, “ل” sonorlarini “أَزْلَارِيْغا o‘xshatib” - idg‘om qilib oladilar:

Kim aytayapti? من يقول؟ میقول؟

Ayrim hollarda idg‘om yozuvda ham aks etadi:

مِنْ = من + من ، عَمَّا = عن + ما، إِلَّا = إلا + لا

Bunday tovush o‘zgarishlarini arab nahvchilari quyidagicha tasniflaydilar:

Tovushlar sifatlarining ikkinchi xili alifbo harflarining ba’zilarida uchraydigan juz’iy sifatlarni ifodalaydi. Nu hotlar bunday sifatlarni sifoti oriza deb ataganlar. Quyida mazkur sifatlarning nomlari va ta’riflarini keltiriladi. Bular:

Tafxim deb biror harfni ifodalagan tovushning qalin, yo‘g‘on talaffuz qilinishiga aytiladi. Harfning talaffuzda ingichka aytilishiga tarqiq deyiladi. Tarqiq harflari 10 ta. Bu 10 harfning ichiga iste’lo harflari va lom, ro, alif kiradi. Iste’lo harflarida tafxim vojibdir. Inxifoz yoki istifola harflarining lom, ro va alifdan boshqalarida tarqiq vojibdir.

Ikkita o‘xshash yoki bir-biriga yaqin harfning birining ikkinchisiga kirishib – singib ketishiga idg‘om deyiladi. Bu zamonaviy tilshunoslikda assimilyatsiya deb ataladi. Idg‘omning g‘unnali va g‘unnasiz, mislays, mutajonisayn, mutaqoribayn va idg‘omi shamsiyya kabi turlari bor.

G‘unnali idg‘om harflari 4 tadir. Bular يَنْمُو so‘zida yig‘ilgan. Tanvin yoki nuni sokin bu 4 harfdan biri bilan yonma-yon kelsa, g‘unnali idg‘om sodir bo‘ladi, ya’ni tanvin yoki nuni sokin yonma-yon kelgan mazkur 4 harfga singib ketadi. Mana bu iboralardagi kabi:

خیرا يره. فضلا من الله. من يعمل. من الء.

Ammo nuni sokin bilan vov, yoxud yo bir so‘zda voqe bo‘lsa, unda izhor

بنان. قتوان. sodir, bo'ladi, ya'ni nuni sokin ochiq aytiladi. Mana bu misollardagi kabi: صنوان.

G'unnasiz idg'om harflari lom va ro harflaridir. Tanvin, yoki nuni sokin bu ikki harfdan biri bilan yonma-yon kelib qolsa, g'unnasiz idg'om hosil bo'ladi, ya'ni ushbu ikki harfga singib ketadi, ammo talaffuzda burun ishtirok etmaydi, g'unnasiz bo'ladi. Misol:

غفور رحيم. هدي للمنقين.

Ikki harfning maxrajda va sifatda bir bo'lib kelishiga idg'a:mi mislayn deyiladi. Idg'omi mislayn sokin harfning yana o'ziga o'xshashi bilan yonma-yon kelishida voqe bo'ladi. Masalan:

فما ربحت تجارتكم . اضرر بعصاك. بل لهم.

Nuni sokin nun bilan yonma-yon kelsa ham idg'omi mislayn va yana g'unnali idg'om bo'ladi. Masalan:

حن نارو

Mimi sokonning qaysi harf bilan yonma-yon kelishiga ko'ra, uch hol yuz beradi: Misol: موصدة اطعمهم من جوع عليهم

1) mimi sokin mim bilan yonma-yon kelsa, g'unnali idg'omi mislayn bo'ladi.

2) Mimi sokin bo bilan yonma-yon kelsa, ixfo bo'ladi. Masalan: لا ان ربهم بهم. ترمهم بحجلة.

3) Mimi sokin bo harfidan boshqa harflar bilan yonma-yon kelsa, izhor bo'ladi. Misol: لكم دينكم. هم فيه.

Maxrajlari bir xil, ammo sifatlari har xil bo'lgan harflarning yonma-yon kelishidan sodir bo'ladigan holatiga idg'omi mutajonisayn deyiladi. Bunday idg'omning harflari uch maxrajdadir:

1) to (itqi), dol va te harflarining maxrajlari: و قالت طائفة. اثقلب دعوا.

2) zo (izg'i) , zol va se harfflarining maxrajlari: اذا ظلموا. يلهث ذلك.

3) bo va mim harflarining maxraji: يا بنئ اركب معنا.

Maxraj yoki sifatda yaqinligi bor harflar yonma-yon kelsa, idg'omi mutaqoribayn holati vujudga keladi. Idg'omi mutaqoribayn harflari ikki maxrajdan

chiqadi:

1) lom va ro maxraji:<sup>25</sup> قل رب بل رفعه الله.

2) qof va kof maxraji: ألم نجلقكم.

Idg‘omi shamsiyya harflari 14 tadir:

ت ث د ذ ر ز س ش ص ض ط ظ ل ن

Alifu lom, ya’ni ali ta’rif idg‘omi shamsiyya harflarining biri bilan yonmayon kelsa, idg‘omi shamsiyya hodisasi ro‘y beradi, ya’ni lom harfi ketidan aytildi, ammo alif ta’rif yoziladi.

Lomi ta’rif nun bilan yonma-yon kelsa, g‘unnali idg‘omi shamsiyya ro‘y beradi. و الناس . و الشمس . و التين iboralaridagi kabi.

Lomi ta’rif shamsiyya harflarining nundan qolganlari bilan yonma-yon kelsa, hosil bo‘lgan idg‘omi shamsiyyada g‘unna bo‘lmaydi.

Idg‘om bilan izhor orasidagi tashdidsiz kelgan holatga ixfo deyiladi. Ixfo harflari mana bu 15 harfdir:

ت ث ج د ذ ز س ش ص ض ط ظ ف ق ك

Tanvin va nuni sokin bu 15 harfning biri bilan to‘qnash kelib qolsa, unga qo‘silib singib ketadi, ya’ni assimilyatsiya bo‘ladi. Arab nahviylari ana shu fonetik hodisani ixfo deyishadi. Ixfoga misollar:

غذی کریم.فتح قریب. عن صلوتهم.

Zamonaviy tilshunoslar arab tildidagi assimilyatsiyani quyidagicha tasniflaydilar:

Assimilyatsiya to‘liq va to‘liqsiz bo‘lish mumkin. To‘liq assimilyatsiya bir tovush ikkinchi tovushga ta’sir qilib, uni aynan o‘ziga o‘xshatib qo‘yishidir. Masalan, arab tilida [l] tovushi [n] ning ta’sirida [n] ga, [s] ning ta’sirida [s] ga aylanadi.

To‘liqsiz assimilyatsiyada esa bir tovush ikkinchi tovushga ta’sir qilib, uni biror jihatdangina o‘ziga o‘xshatadi. Masalan, arab tilida itboq [s] itboq bo‘lmagan [t] ga ta’sir qilib, uni itboq [t] ga aylantirishi mumkin. Bunda assimilyatsiya faqat itboqlik jihatdan bo‘ladi.

<sup>25</sup> Ҳасан Б. Қуръон илмлари: Қуръони Карим. Қироат илми. Тажвид илми. – Т., 2000. – Б. 22-23.

Yana assimilyatsiya progressiv va regressiv bo‘lishi mumkin. Agar oldindagi tovush keyingi tovushga ta’sir qilsa, uni progressiv assimilyatsiya deb ataydilar. Agar keyingi tovush oldingi tovushga ta’sir qilsa, pregressiv assimilyatsiya deyiladi.

Assimilyatsiya kontakt va distant bo‘lishi mumkin. Agar bir-biriga ta’sir qiluvchi tovushlar yonma-yon bo‘lsa, uni kontakt assimilyatsiya, agar ularning orasida boshqa tovush bo‘lsa, distant assimilyatsiya deb ataladi.

Arab tilida asosan kontakt regressiv assimilyatsiyaning to‘liq va to‘liqsiz turlari uchraydi. Aniqlik artikli al ning [l] si (الشمسيّةُ الْخُرُوفُ ) deb atalgan tiloldi undoshlari oldida kelganda to‘liq regressiv assimilyatsiyaga uchraydi:

النَّعْبُ at-ta’abu (charchash)

الثَّلْبُ as-sa’labu (tulki)

Yana ko‘makchilardan n tovushi ham to‘liq regressiv assimilyatsiyaga uchraydi:

إِنْ + لَا = لَا illa (yo‘qsa)

مِنْ + مَا = مَا mimma (nimadandir)

أَنْ + لَا = لَا alla (-ki, yo‘q)

To‘liqsiz progressiv assimilyatsiya arab tilida itboqlik jihatdan bo‘lishi mumkin, sakkizinchi bobning infeksi [t] ga aylanadi. Masalan, صلح o‘zagidan emas, اضطرار bo‘ladi: ضرر o‘zagidan emas, اصطلاح bo‘ladi va hokazo. To‘liq assimilyatsiya, regressiv va progressiv kabi faqatgina kontaktli bo‘lishi mumkin:

a) progressiv assimilyatsiya : b) regressiv assimilyatsiya:

r + n = rr              l + r = rr

t + t = tt              t + d = dd

s + t = ss              t + d = dd

z + t = zz              t + z = zz

d + t = dd

t + t = tt

$$d + t = dd^{26}$$

To‘liq kontakt assimilyatsiyaga misol tariqasida, shuninglek, [l] (al artikli) ning upodobleniesi, 13 shamsiy undoshsi hisoblanadi.

To‘liqsiz assimilyatsiya ham kontakt va ham distant bo‘lishi mumkin:

kontakt progressiv	distant (faqat regressiv)	regressiv
s + t =st	s – q = s – q	s+d=zd
z+ t = zd	s – g = s – g	s+q= sq
z + t = zt	s – h = s – h	s+d=zd
g + t = gd		s+d=zd s+d=gd

Unli va undoshlarning o‘zaro aloqasida Sibavayhi unli, ayniqsa  $\cup$  ning assimilyatsiya kuchini sezgan. (Ammo Ibn Jinni unli va undoshning o‘zaro aloqasini aniq ko‘rsatmagan). Kimdir undoshni aniq talaffuz qilishni xohlasa, u holda o‘sha undoshni unlisiz talaffuz qilishi kerak, aks holda, unlilar undoshlarning artikulyatsiya o‘rnini yo‘q qiladi. Shuningdek, Ibn Jinniy unli va undoshlarning, ayniqsa, unli va illatli undoshlarning o‘zaro aloqasini tahlil qiladi<sup>20</sup>.

Geminatsiya sabablarini shakllantirib, Sibavayhi Xalilning bu xususdagi so‘zlarini keltiradi: “Xalil ikki undosh bitta joyning o‘zida hosil qilinishini taxmin qilgan, ularga (gapiruvchilarga) undoshning hosil bo‘ladigan o‘rnidan tilni ko‘tarish mushkul, keyin esa yana uni ikkinchi shunga o‘xhash undosh hosil bo‘lishi uchun aynan o‘sha joyiga qaytarish qiyin. Vaholanki, bu mushkul ekan, ular tilni bir marotaba ko‘tarishni afzal ko‘radilar, masalan, ruddi va hokazo”<sup>21</sup>.

Shunga ko‘ra, arablar geminatsiyani undoshlarning bir birlik sifatida, bir harakatda talaffuz qilinishida ko‘radir.

### Savollar:

1. Arab tilida qanday fonetik qonuniyatlar bor?

<sup>26</sup> История Лингвистических Учений. Средневековый Восток. Институт Языкоznания. – Ленинград: Наука, 1981. – С. 90.

<sup>20</sup> Ibn – Ginni. Sirr as-sina‘a al-I ‘rab, II. – Qahira, 1914, 1956. – P. 7.

<sup>21</sup> Kitab Sibawayhi, II. – P. 158.

## 2. Idg‘om nima?

### 2.7. HAMLAFLIK (AKKOMADATSIYA)

#### TOVUSH ALMASHISHI (METATEZA)

##### Savollar:

1. Arab tilida hamlafzlik (akkomadatsiya)
2. Tovush alamashishi (metateza)
3. Arab tiliga xos bo‘lmagan fonemalarning o‘zgarishi

**Tayanch so‘zlar:** akkomadatsiya, fonetika, tovush, harf, metateza, al-qalbu min sunani-l-‘arabi

**Metateza.** Talaffuzda so‘z tarkibidagi tovushlarning o‘rin almashishi metateza hodisasi deb aytildi. Ba’zi tillarda so‘z tarkibidagi tovushlar umuman o‘zgarmasdan, bir-birlari bilan o‘rin almashtiradi. Masalan, arabcha (oqvot) so‘zi o‘zbek tiliga ovqat tarzida, q va v tovushlarining o‘rni almashtirilib qabul qilingan<sup>22</sup>.

Metateza haqida arablar tomonidan qimmatli fikrlar aytilgan (qalb): Sokin nuni yoki tanvinni bo harfidan avval kelganda mim harfiga aylantirib o‘qishga iqlob deyiladi. Harfi iqlob bitta, u ham bo‘lsa, bo harfidir. Tanvin yoki nuni sokin iqlob harfi bo bilan to‘qnash kelsa, iqlob sodir bo‘ladi.

Ibn Faris metatezani arablar odati deb hisoblaydi (al-qalbu min sunani-l-‘arabi.) Metateza borasida grammatiklar va leksikologlar o‘rtasida qarama-qarashliklar yuzaga keldi. Bu qarama-qarshiliklarga nisbatan Ibn Durayd aytadiki: “leksikologlar metatezani risola qilganlaridek, masalan, ḡadaba → qabada, grammatiklar alohida so‘zlar deb hisoblaydilar, ammo bu haqiqatga yaqin.” Suyutiying ishlarida metatezaning detal analizlari bor.

Fonetik hodisalardan yana biri o‘tish hodisasi bo‘lib, bu bir tovushning ikkinchi tovushga aylanishidir. Arablar asosli tarzda undoshlarni almashtirish

<sup>22</sup> Азизов О. Тилшуносликка кириш. – Т.: Ўрта ва Олий Мактаб, 1963. – Б. 33-34.

masalasini ishlab chiqdilar (ibdal). Sibavayhi aytadiki, “so‘zdagi undosh yaqinroqdagi undosh bilan almashtiriladi”. Lekin u ibdal atamasini keng ma’noda ishlatadi.

Boshqa tillardagi kabi arab tilida ham o‘zlashma so‘zlar bor. Ma’lumki, bir tilning o‘ziga xos fonemalari boshqa tilga o‘zlashma so‘zlar tarkibida o‘tganda, ular o‘zlashtiruvchi tilning fonetik qonunlariga bo‘ysunadi. Arab tiliga xos bo‘lмаган fonemalar quyidagi o‘zgarishlarga uchraydi:

[P] fonemasi arab tilida ۋ yoki ف ga o‘tadi:

Papa (diniy unvon) بابا , Po‘lat فولاذ

[V] fonemasi arab tilida ف o‘tadi:

Viza، فیزیکان Vatikan

[G] fonemasi خ yoki غ ga o‘tadi:

Gavhar، جوهر gaz

Demak, arab tilining tovush o‘zgarishi doirasida o‘ziga xos xususiyatlari, birinchidan, ba’zi xususiyatlarning arab tilida borligi va ikkinchidan, ba’zi xususiyatlarining unda yo‘qligi bilan belgilanadi.

Mazkur tadqiqotda arab tilining fonetik masalalari o‘rganilda va tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari quyidagilardan iborat:

Fonetik masalalrini ishlab chiqish bo‘yicha arab tilshunoslari VIII asrdayoq katta yutuqlarga erishganlar. Xalil ibn Ahmad fonetika masalalarini ishlab chiqish bo‘yicha asoschisi hisoblanadi. Xalil ibn Ahmad va Sibavayhilarning ishlarida bu xususda ikki asosiy yo‘nalishga asos solingan. Xalil ibn Ahmad sistemasining asosini tovushlarni hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra 8 guruhga bo‘lingani tashkil qiladi.

Arab tili grammatikasiga oid asarlarda fonetika yuzasidan ikki xil bayonga duch kelinadi, bulardan biri – mustaqil izlanishlar, ya’ni arab tili tovushlari artikulyatsiyasini tashkil etgan fonetika yuzasidan umumiy masalalar, ikkinchisi esa arab tili grammatikasining umumiy sistemasini qamrab olgan va tovush artikulyatsiyasi tasnifida kombinator analizlari o‘z ichiga olgan va boshqa fonetik o‘zgarishlardir. Bulardan birinchi turiga Xalil ibn Ahmad, Sibavayhi, Zamaxshariy asarlarining maxsus fasllari, ikkinchi turiga Abu Ali ibn Sinoning fonetikaga oid

risolasi kiradi.

Ibn Sino fonologiya tarixida birinchi bor arab tovushlarining artikulyatsion va akustik xususiyatlarini katta ilmiy aniqlikda batafsil bayon qiladi.

Arab tilining segment birliklarini boshqa tillardagi kabi jumla (fraz), sintagma, takt, bo‘g‘in va tovush tashkil qilsa, suparsegment birliklarni urg‘u hamda ohang tao‘kil qiladi. Bularning barchasi so‘zlarning ma’nosи, jumla va umuman nutqning mazmunini to‘g‘ri ifodalashda va tinglovchiga yetkazishda muhim bo‘lgan fonetik vositalardir. Lekin bularning barchasida arab tilining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o‘ziga xos jihatlar ham mavjud. Masalan: bo‘g‘inning doim undosh bilan boshlanishi, bo‘g‘in boshida ikki yoki undan ortiq undosh tovushning yonma-yon kelmasligi.

Arab tilining fonologik xususiyatlarini aniqlashda ularning hosil bo‘dish o‘rni va hosil bo‘dish usuli (artikulyatsiya) muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham ular sharq tilshunoslari tomonidan ana shu ikki xususiyatga ko‘ra tasniflanadi va bu an‘anani hizirgi zamon tilshunoslari ham davom ettirid kelmoqdalar. Arab tili fonetik tizimining ishlab chiqilishiga asos bo‘lgan tajvidda nutq a’zolari soni 17ta deb belgilangan (istisno: V.F. Girgas “Ocherk grammaticheskix sistem arabov” kitobida 169 ta deb ko‘rsatgan). Arab tovushlariga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotida Ibn Sino ham, zamonaviy arabshunos olimlar ham shu fikrni tasdiqlaganlar.

Tovushlar undosh va unlilarga bo‘linadi. Arab tili tovushlari tizimidagi fonemalarni ko‘rsatishda olimlar o‘rtasida ixtiloflar mavjud. Ibn Sino 28 undosh va 3 unlini ko‘rsatadi. U cho‘ziq unlilarni qisqalarining miqdor o‘zgarishiga uchrashi, deb ta’kidlaydi. Ibn Sinogacha undoshlar Mubarraddan boshqa arab-filologlar tomonidan laringal tovushlarga hamza, ha va alif kiritilgan holda 29 ta deb belgilab kelingan edi. Undosh fonemalar soni nuqtai nazaridan Ibn Sinoning fikri hozirgi zamon arabshunoslari fikriga mos tushadi va bu to‘g‘ridir. Chunki hamza undosh deb hisoblansa, alifning undoshlar orasida o‘rni qolmaydi.

Undosh tovushlarning hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra tasnifi turli olimlarda turlichay. Xalil ibn Ahmad 8 gurhga, Ibn Sino 9 guruhga, zamonaviy olimlardan

arab olimlari 15 guruhga, rus olimlari 3 guruhga ajratadilar ya’ni, lab (lab-lab, lab-tish), tanglay (old tanglay, o’rta tanglay, chuqur tanglay orti), bo‘g‘iz (tovush paychalari joylashgan soha, halqum). Bu tasniflardan klassik tilshunoslarning tasnifida aniqlik kattaligini ko‘ramiz.

Undoshlar hosil bo‘lish usuliga ko‘ra Ibn Sino tomonidan ikki guruhga tasniflanadi: to‘liq to‘sinq orqali hosil bo‘luvchilar, ya’ni portlovchilar; to‘liqsiz to‘sinqdan hosil bo‘luvchilar, ya’ni, sirg‘aluvchilar, boshqa olimlarda ham ikki guruh, lekin nomlanishi boshqacha. Bular shadi:da – kuchlilar, ya’ni portlovchilar, rixva – zaif, ya’ni sirg‘aluvchilar; zamonaviy rus arabshunos olimlari 3 guruhga bo‘ladilar (portlovchi; sirg‘aluvchi (frikativ), portlovchi-sirg‘aluvchi (afrikativlar)).

Arabshunos olimlarning arab tili undoshlarining hosil bo‘lish o‘rni va usuliga ko‘ra tasnifini qiyosiy o‘rganish natijasida quyidagi xulosaga kelindi:

- Itboqlik tovush hosil bo‘lish o‘rni (maxraji) emas, usuliga kiradi. Tajvid qoidalariga oid barcha asarlarda bunday sifat hosil bo‘lish usuliga tegishlidir.
- Itboq, tishorqa, tanglayoldi hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra tish orasi undoshi kabidir, chunki barcha xususiyatlar shunga olib keladi.

Arab adabiy tilida fonetik o‘zgarishlardan assimilyatsiya va metateza ko‘p uchraydi. Arab tilida asosankontakt reressiv assimilyatsiyaning to‘liq va to‘liqsiz turlari mavjud.

Tovush o‘zgarish hodisasi asosan morfologik hodisalar jarayonida o‘zakdan fonemaning boshqa fonemaga aylanishida kuzatiladi (masalan, qwl-qa:la-qultu).

Arab tili tovushlar sistemasini yanada chuchqur tadqiq qilish uning bir tomonidan umumiyl tilshnoslik qonuniyatları bilan aloqador jihatlarini, ikkinchi tomonidan tilning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Savollar:**

1. Metateza nima?
2. Akkomadatsiya haqida nima bilasiz?
3. Arab tilidagi fonetik hodisalarining o‘ziga xosligi haqida nima deya olasiz?

### III bob. LEKSIKANING NAZARIY TUGUNLARI

## SO'Z TUSHUNCHASI. ARAB TILSHUNOSLIGI TARIXIDA SO'Z

### YASALISHI HAQIDAGI QARASHLAR

#### **Savollar:**

1. So'z (kalima) haqida ta'riflar va ular o'rtasidagi farqlar.
2. Ta'riflarda qo'llangan so'zlarning semalari.
3. Lafz va qavl so'zlarining umumiy va xos jihatlari.

**Tayanch so'z va iboralar:** kalima, qavl, lafz, mavdu, muhmal, mufrad.

Insonlarning o'zaro aloqa almashinuvida, fikr-mulohazasida eng muhim vazifani gap bajaradi. Fikr gaplardan, gap esa so'zlardan tashkil topadi. Demak, so'z grammatik qurilishning masdari bo'lib, u fikr almashinuvida, o'zaro so'zlashuvda umuman olganda, tilda zaruriy birlamchi vositadir.

So'z ob'ektiv borliqdagi predmet yoki hodisalar haqidagi tushunchaning tovush vositasi bilan ifodalanishidir. Bu tushuncha predmet yoki hodisaning ongda aks etishidir.

So'z til birligi sifatida ma'no ifodalash xususiyatiga ega bo'lib, so'zning ma'nosi narsa-hodisalar bilan uzviy aloqadan kelib chiqadi. Bu uzviy aloqa borliqning inson ongida aks etishi orqali paydo bo'ladi. O'z tovushlar tizimiga ega bo'lgan, biror bir ma'no anglatuvchi turli grammatik ma'no va vazifalarda qo'llanadigan eng kichik nutq birligi so'zdir.

So'z va uning gapdagi vazifasi haqida klassik arab tilshunoslida ilmiy fikrlar bildirilgan. Bu borada, ayniqsa, alloma Sirojiddin abu Yaqub Sakkociyning qarashlari ahamiyatlidir. Sakkociy so'z haqida quyidagi ma'lumotni keltiradi: الكلمة هي اللفظة الموضوعة للمعنى مفردة

Ya'ni, "So'z – ma'lum bir ma'no ustiga qo'yilgan yaxlit lafzdir".

Arab tilida ning uch xil o'qilishi bor. گلەمە deb o'qilishi adabiy tilga xos bo'lib, Hijoz ahli ham shunday talaffuz qiladi. Qur'on karimda ham huddi shu holatda keladi. Bu so'z Tamim lahjasida گلەمە va گلەمە tarzida talaffuz qilinadi.

كلمة so'zi گلەم ning birligi bo'lib, "aniq bir so'z" ma'nosini anglatadi. گلەم ning كلمة dan farqli jihatlaridan biri, گلەم ma'no tugallamagan uchta so'zdan iborat birlikni ifodalaydi. Agar Zayd tursa (ان قام زيد) كلمة shu uchta so'zning bittasini ifodalaydi.

لفظ so'zi – asl ma'nosi talaffuz qilingan tovush yoki tovushlar yig'idisini ifodalaydi. Klassik tilshunoslar lafzni ikkiga bo'ladilar:

1. Ma'no anglatuvchi lafz (موضوع).
2. Ma'no anglatmaydigan lafz (مهم).

Yuqoridagi ta'rifda lafzni ham umumiylid dan xususiylikka chiqarib, undan keyin so'zlarining ishlatilishi aynan ma'no anglatuvchi lafzga ishora qilib keldi (لفظ umumiy lafz bo'lsa, لفظة bitta lafz).

so'zining ta'rifdagagi ma'nosi so'zning harflari so'zni anglatmasligini bildirib kelyapti. Ya'ni so'zining ز harfi Zaydni ifodalamaydi. Uch harfning bitta bo'lib berilishi shu so'zni ifodalab keladi.

Demak, so'z – shunday lafzki, uni tashkil qilgan harflar birgalikda ma'no anglatib, so'z hosil qiladi.

Mahmud Zamaxshariy "Unmuzaj fi nahv" asarida so'zga، "So'z ma'no anglatuvchi birlikdir"，deya ta'rif bergandi.

الكلمة لفظ - مفرد "So'z" : الكلمة مفرد لفظ "Unmuzaj fi nahv" : موضوع مفرد لمعنی مفرد.

Ta'rifdagagi "لفظ" so'zi unda tushunilishi mumkin bo'lgan xat, bitim, ishora, belgi tushunchalarini chiqarib yuboradi. "موضوع" ma'noni anglatmaydigan tovushlar yig'indisini ta'rifdan chiqarib yuboradi. "مفرد" so'zi esa birikma emas, yaxlit birlik ma'nosini ifodalab keladi. Demak, so'z birikma bo'limgan ma'no anglatuvchi tovushlar yig'indisidan iborat birlikdir.

"Unmuzaj fi nahv" ning keng bayoni hisoblanuvchi "Mufassal fi san'ati I'rob" asarida so'zga avvalgisiga nisbatan kengroq ta'rif berilgan :

"So'z ma'no anglatuvchi (ishora, xat, belgilardan boshqa) murakkab bo'limgan lafzdir" (الكلمة هي لفظة الدالة على معنى مفرد بالوضع) deyiladi unda.

Arab tilshunosi Muhammad ibn Umar Shalavbin so'zga nisbatan boshqacharoq yondashgan. U so'zni bilan emas, لفظة so'zi bilan ifodalab, unga

فاللفظ المفرد هو الدال على معنى بشرط الا يكون جزء من أجزاء ذلك quyidagicha ta'rif beradi: “اللفظ يدل على جزء من أجزاء ذلك المعنى” Mufrad lafz ma'noga dalolat qilib, bu so'zning bo'laklaridan biri bo'lmasligi sharti bilan o'zi ifodalayotgan ma'noning bo'laklaridan birini ifodalaydi”.

Ta'rif misol bilan osonroq tushuniladi. Mana uning misoli, degan so'z murakkab emas, mufrad lafz. Mufrad bir so'zni ifodalab, uning qismlari shu so'zni to'lig'icha ifodalamaydi.

Shalavbin so'zning birikmaga aylanish holatini ham yaxshi bergen. Uning yozishicha:

فان كان اللفظ دالا على معنى و كان جزء منه يدل على جزء من ذلك المعنى كان مركبا.

Ya'ni, “Agar lafz ma'noni ifodalab, bu ma'noning bir bo'lagini ifodalab kelsa, bu birikma hisoblanadi”.

Yuqoridagi gapda بيت صاحب ( uy va sohib) alohida murakkab bo'limgan so'zlardir. Agar “sohib” so'zi “uyning sohibi” ma'nosini ifodalaganda edi, bu birikma holatida bo'lardi صاحب بيت.

Yuqoridagi fikrlardan so'zning shunday xususiyati kelib chiqadiki, so'z tilning mustaqil bo'lgan, ma'lum ma'noga ega, fonetik jihatdan to'la shakllangan, tugallikka ega bo'lgan birligidir.

So'z tovushlardan tashkil topadi va bu tovushlar albatta ma'noni anglatib keladi. Tovushning yolg'iz o'zi so'zni tashkil qilmaydi. So'zning ma'nosini shu tovush bilan ifodalangan mundarijadir. So'z ma'no va tovushning – ichki (semantik) va tashqi (formal) tomonlarining ajralmas birligidan iborat, shu bilan birga, so'z ma'lum grammatik xususiyatlarga ham ega.

XIV asr arab tilshunosi Abu Muhammad ibn Hishom Ansoriy so'zga quyidagicha ta'rif beradi: “So'z ma'no anglatuvchi qavldir” (الكلمة قولٌ مفردٌ).

Bu olim so'zga anchayin aniq va qisqa ta'rif bergen. Ma'lumki, so'zi arab tilida gapga nisbatan ham ishlatiladi. Jumladan, Mo'minlar surasining 99-100-oyatlarida o'qiyimiz:

قَالَ رَبُّ ارْجُونَ لَعَلَّى أَعْمَلُ صَالِحَا فِيمَا تَرَكْتُ كَلَّا إِنَّهَا كَلِمَةٌ هُوَ قَاتِلُهَا

(“Ey robbim, meni (hayotga) qaytargin. Shoyad tark qilgan narsamda solih amal qilsam”, der. Albatta bu (quruq) so‘z bo‘lib, u aytguvchi xolos.)

Shuningdek, hadisi sharifda ham **كلمة** so‘zi **جملة** ma’nosida keladi. Masalan,  
قال محمد صلى الله عليه و سلم، أَفْضَلُ كَلِمَةٍ قَالَهَا شَاعِرٌ كَلِمَةً لَّبِيَدْ.

Rosululloh sollalohu alayhi va sallam aytdilar, “Eng afzal gap shoir Labid gapi”. Labid ibn Robiyaning quyidagicha boshlanuvchi she’ri edi:

أَلَا كُلُّ شَيْءٍ مَا خَلَقَ اللَّهُ بَاطِلٌ  
وَ كُلُّ نَعِيمٍ لَا مَحَالَةَ زَائِلٌ

“Ogoh bo‘linglar, Allohdan boshqa hamma narsa o‘tguvchi.

Hamma baxt-saodat, shubhasiz, zavol topguvchi”.

Istilohda **كلمة** yaxlit ma’noli so‘zdir. Bu ta’rifda keltirilgan **قول** so‘zining lafz so‘zidan farqli jihat, u faqatgina ma’no anglatuvchi so‘zni ifodalaydi. **لفظ** so‘z ma’no jihat **كلمة** so‘zidan **قول** so‘ziga nisbatan uzoqroqdir. Agar **لفظ** so‘zi qo‘llanilsa, albatta degan so‘zlar keltirish lozim bo‘lar edi. Olim muxtasarlikni afzal bilib, ta’rifda **قول** so‘zini keltirdi. **مفرد** so‘zi yuqoridagi so‘zi bilan bir xil ma’no va vazifada kelgan.

Jamolliddin ibni Molik o‘z qarashlarini she’riy tarzda bayon qilgan:

كلامنا لفظ مفيد, كاستقم  
و اسم و فعل ثم حرف  
الكلم واحده كلمة و القول عم  
و كلمة بها كلام قد يؤم

“Gapimiz foydali lafzdir, to‘g‘rilan kabi

Va ism, fe’l so‘ngra harfdir.

Kalim so‘zining birligi kalima so‘zidir.

Qavl umumiy bo‘ldi.

Va so‘z birla kalom so‘zlandi,” deya gap va so‘zni ta’riflaydi.

Bu ta’rif avvalgi ikki ta’rifni jamlab keladi. Bitta so‘z gap ham bo‘lib kelishi mumkin. Nahviylar gapni ikki xil tavsiflaydilar: biri ifoda, ikkinchisi tarkib. Ifoda orqali gap ta’riflansa, u ikki yoki undan ko‘p so‘zdan tashkil topib, tugallangan ma’no anglatadi. Tarkib – bir so‘zdan iborat bo‘lib, egasi yashirinib keladi.

استقىم Yuqoridagi ta’riflarda kalima ma’no anglatuvchi yaxlit lafz deb aytildi. to‘g‘rilan kabi yaxlit ma’no anglatuvchi so‘z kelib qolsa, bu so‘z emas, balki gap bo‘ladi.

Ibn Molik yuqoridagi misralarda **كَلَامٌ، كَلْمَةٌ، قُولٌ، كِلْمَةٌ، قَوْلٌ** so‘zlarini keltirdi. Bu so‘zlarning bir-biridan farqli jihatlari bor, - **كَلْمَمٌ** - **كَلْمَهٌ** ma’nodagi so‘z; bir so‘z, **قَوْلٌ** so‘zi birmuncha umumiylib, gap va so‘zni ifodalaydi. **كَلْمَهٌ** bilan bir-biriga yaqin ma’noli so‘zlardir. Bular o‘rtasidagi farq yuqirida aytildi. Nahviylarda **اللَّفْظُ الْمُفِيدُ فَائِدَةٌ يَحْسُنُ السُّكُوتُ عَلَيْهَا** «**كَلَامٌ**» atamasi tugallangan ma’noga ega bo‘lgan foydali *lafz* deya ta’riflanadi. Bu ta’rifda *lafz* so‘zi gap, *qavl* tushunchalarini ham qamrab oladi.

### Savollar:

1. Abu Ya’qub Sakkokiyning so‘zga bergan ta’rifi haqida ma’lumot bering.
2. Qavl va lafz o‘rtasidagi farqlar nimalar?
3. Jaloliddin ibn Molik ta’rifi qanday va o‘zgachaliklari nimalar hisoblanadi?
4. «Kalimun» so‘zi ma’nosini va qo‘llanish o‘rnini haqida ma’lumot bering.
5. «Kalimatun» so‘zi «gap» ma’nosida qo‘llanadimi?

## 3.2. SO’ZLARNING MA’NO MUNOSABATIGA KO’RA TURLARI

### Reja:

1. Morfologik jihatdan o‘zgarib, yangi grammatik ma’nolarga ega bo‘luvchi ismlar va fe’llar.
2. Morfologik nuqtai nazardan o‘z shaklini o‘zgartiruvchi so‘zlar.

**Tayanch s o ‘ z va iboralar:** bog‘lovchi, predlog, yaxlit bo‘laklar, negiz, noo‘zak harflar.

Hozirgi kunda tadqiqot olib borayotgan mualliflar bu masalani, ya’ni so‘zning asosini aniqlashda o‘z nuqtai nazarlarini batafsil asoslagan holda qaramaqarshi xulosalarga kelmoqdalar. Bir tarafdan teng bog‘lovchi "و" va old ko‘makchi "بـ" (bi) kabi til elementlari, imlo qoidalariiga qaramasdan, shubhasiz so‘z

hisoblanadi, chunki ular fonetik jihatdan ancha muammoliroq teng bog‘lovchi ئۇ va old ko‘makchi على bilan bir xil vazifani bajarishlari aniq. Bunday yordamchi bo‘laklar faqat boshqa so‘zlar va so‘z birikmalari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarnigina ko‘rsatadi. Ammo B.M.Grande masalaga boshqacha yondoshib, ular “o‘z mohiyatiga ko‘ra morfema” (so‘zning o‘zagi), “yaxlit (qo‘shib yoziladigan) bo‘laklar hisoblanadi” degan xulosaga kelgan. U nafaqt imlo nuqtai nazaridan, balki mazkur bo‘laklar haqiqatan ham o‘zidan keyin keladigan so‘z bilan (old qo‘shimcha hisoblanganliklari uchun) birikishi sababli shunday xulosaga keladi.

Yuqorida aytilganlardan ma’lumki, yordamchi leksik elementlar so‘zning morfologik elementlari bilan bir xil grammatik vazifani bajarganliklari sababli ular bilan tenglashadi, degan xulosa chiqishi mumkin. Bu qoida mazkur holatda faqat zikr qilingan vazifalarni bajara oladigan elementlarning tor doirasiga taalluqlidir.

Old ko‘makchilar esa alohida so‘z hisoblanadi va ularga alohida tashqi belgilar sifatida qaraladi.

So‘z bilan morfemani farqlash muammosi odatda o‘quv amaliyotida kishilik olmoshlarining bosh kelishikdan boshqa kelishiklari sifatida tushuntirilganda birikma olmoshlarini tatbiq etish paytida yuzaga keladi. Bu xususda B.M.Grande ularni mustaqil ravishda mayjud bo‘la olmasliklarini va ular faqat u yoki bu so‘zning bir qismini tashkil qiluvchi so‘z yasovchi qo‘shimchalardangina iborat ekanligini ta’kidlaydi. Shuningdek, olim boshqa bir o‘rinda, ular o‘zidan oldin keluvchi fe’l, ot, old ko‘makchi bilan kishilik olmoshi ob’ekt mazmunida alohida so‘z ko‘rinishida ajralib turgan hollarda ”إياد“ yuklamasi qo‘llaniladi deb hisoblaydi.

So‘zlarning o‘zgarishi natijasida yuzaga keladigan yangi formalari Ma’lum bir so‘zning “o‘sha so‘zdan boshqa ma’noni anglatuvchi o‘zga so‘zdan farqi nimada” ekanligini aniqlashga qaratilgan, so‘z o‘xhashligi muammosi asosiy nazariy muammolardan biri hisoblanadi. Bu muammoni o‘rganishda, “so‘zning grammatik jihatdan o‘zgarishi uning asliga salbiy ta’sir ko‘rsatmaydi degan fikr so‘zning grammatik tuzilishiga taalluqli va aniq bir so‘zga dahli yo‘q, mazkur so‘z

*o‘zining har qanday grammatik shaklida ham, lug‘at birligi (ya’ni leksik) sifatida o‘sha so‘zning o‘zi bo‘lib qolaveradi”.*

So‘zni fikrning elementi sifatida tushunish, odatda so‘zning negizi bilan bog‘liqdir. So‘zning negizini aniqlashda o‘sha so‘zning grammatik va so‘z yasovchi elementlari hisobga olinadi.

So‘zning negizini aniqlash deganda, negiz so‘zning asosiy bo‘lagi ekanligi sifatida qaraladi.

Arab tilida so‘zning o‘zagi kelishik qo‘sishimchalarini tushirish, agar u noaniq holatda bo‘lib, uch kelishikli bo‘lsa “tanvin”ni tushirish bilan amalga oshiriladi.

Masalan: kitabun-“kitob” so‘zining negizi kitab, uning ko‘plik shakli kutubun-“kitoblar”, uning negizi esa kutubdir.

Fe’llarning negiziga kelsak, u shaxs, son, jins qo‘sishimchalarini (ya’ni affikslarni) tushirish bilan ajratiladi. Jumladan, كتب – “yozmoq” fe’lining o‘tgan zamon negizi “katab” bo‘lsa, uning hozirgi-kelasi zamon shakli bo‘lmish يكتب – “u yozyapti” fe’lining negizi – “kutub” dir. Arabshunos olimlar G.M.Gabuchan va A.A.Kovalyovning fikrlaricha, agar tadqiq qilinayotgan til birligi har-xil negizlarga ega bo‘lsa, u holda bunday til birliklari har-xil so‘zlar hisoblanadi va har xil negizlarning soni har xil so‘zlarning sonini aniqlashi mumkin.

Boshqa nuqtai nazarga ko‘ra, birlik sondagi negiz “kitab” bilan ko‘plik sonidagi negiz “kutub” parallel holda mavjud bo‘lishi mumkin. Xuddi shuningdek “katab” bilan “ktub” (hozirgi-kelasi zamon negizlari)ning negizlari parallel mavjud bo‘lib, ulardagи qisqa unlilar so‘zning grammatik shakliga ko‘ra o‘zgarishi mumkin. So‘zga grammatik va leksik jihatdan qiyosiy yondoshib, B.M.Grande quyidagi fikrni bildiradi. Lug‘atchilik nuqtai nazaridan so‘z alohida bo‘lmagan grammatik forma emas (masalan: ismning kelishigi, fe’lning shaxs qo‘sishimchalari va hokazolar), balki leksik birlik bu o‘zining barcha grammatik shakllari, barcha ma’nolarini o‘z ichiga olgan to‘liq paradigma – so‘zdir.

Arabcha so‘zlarning ikki sinfga ajralishi Barcha arabcha so‘zlarni ikki katta sinfga ajratish mumkin.

1) Morfologik jihatdan o‘zgarib , yangi grammatic ma’nolarga ega bo‘luvchi ismlar va fe’llar; 2) Morfologik nuqtai nazardan o‘z shaklini o‘zgartiruvchi so‘zlar – bu asosan old ko‘makchilar (predloglar), bog‘lovchilar, yuklamalar, shuningdek ba’zi ismlar va fe’llardir. Bunda kelishik va ko‘rsatish olmoshlari morfemali birliklari bilan jins va sonni ifodalaydilar.

Arab tilida so‘z tarkibiy – grammatic jihatdan rivojlangan, zero undagi grammatic o‘zgarishlar negizi tashqi affikslarni qo‘shish bilan, shuningdek so‘zning ichki tarkibini o‘zgartirish yordamida amalga oshishi mumkin. Jumladan quyidagi so‘zlarning ko‘plik sonini hosil bo‘lishiga e’tibor bering:

قطارات – قطار – “poezd” → قطار

مشكلات – مشاكل – “muammo” → مشكلة

محل – محلات – “joy” → محل

Yana siniq ko‘plikni hosil qilishda so‘zlar bir necha shakllarga ega bo‘lishi mumkinligi e’tibordan chetda qolmasligi kerak. Masalan:

أبحاث بحوث – بحث “tadqiq qilish”, uning ko‘pliklari – بحث

أماكن أمكنة – مكان “joy”, uning ko‘plik shakllari – مكان

Ushbu misollar bitta grammatic kategoriyani (ya’ni ko‘plik kategoriyasini) har xil uslublarda hosil bo‘lishini ko‘rsatadi.

Arab tilida yana shunday so‘z turlari borki, ular bir paytda ham alohida so‘z, ayni paytda qo‘shimchaga aylangan bo‘lishi ham mumkin. Masalan:

الأخ ابن – ”ابن“ – ”اب“، ”أم“، ”أم“، ”أبو“، ”أبو“، ”أبو“، ”أبو“، ”أبو“ kabi so‘zlar shular jumlasidandir. Masalan: أبو sfinks – الـيـقـظـانـ أـبـوـ ”xo‘roz“, الجزـيرـةـ شـبـهـ ”hujum jiyan“, الـبـيـتـ صـاحـبـ ”uy egasi“, الـأـعـتـدـاءـ عـدـ ”yarim orol“, النـجـومـ أـمـ ”somon yo‘li“ birikmalarida yuqoridagi so‘zlar qo‘shimcha sifatida qo‘llanilayapti.

Arab tilida shuningdek qo‘shma so‘z bilan so‘z birikmasini ajratish oson ko‘chmaydi. Chunki yozilishda bir xil, aytilganda esa farq qilishi mumkin.

Masalan, مال رأس bunday so‘zlar gohida boshqa grammatic vositalar qo‘shilganda aniqlanadi. Masalan, الـمالـ رـأـسـ kabi so‘z birikmasi yoki الرـأسـمـالـيـ kabi qo‘shma so‘zga aylanishi mumkin.

### Savollar:

1. Morfologik jihatdan o‘zgarib , yangi grammatik ma’nolarga ega bo‘luvchi ismlar va fe’llarni izohlang.
2. Morfologik nuqtai nazardan o‘z shaklini o‘zgartiruvchi so‘zlar?

### 3.3. O‘Z VA O‘ZLAHSGAN QATLAM

#### Reja:

1. O‘zlashgan so‘zlar.
2. So‘zlarning o‘zlashishi va rayonidagi morfologik moslashuv.

**Tayanch so‘z va iboralar:** islom atamalariga oid so‘zlar, mo‘g‘ilchadan o‘zlashgan so‘zlar, iqtibos.

Arab tiliga efiop tilidan, qadimgi yahud va boshqa tillardan kirgan o‘zlashmalar mavjud, ular Qur’on va islom atamalariga oid so‘zlardir. Masalan:

مِنْبَر – va’zxon so‘zlaydigan minbar, مُحراب – (ka’baga) qaragan masjidning mehrobi, مِصْنَف – Qur’onning to‘liq nusxasi, بِرْحَان – sharhlash, dalil keltirish, سِكَّة – dasturxon, طَهْرَة = تُورَة – yo‘l. Qadimgi yahudiy tilidan o‘zlashtirilgan so‘zlar quyidagilar: تَلْمِود – Tavrot, خَاتَمٌ – ravvin, فِصْحٌ ro‘za, مَجَلَّة – kitob.

Boshqa tillar orqali arab tiliga kirgan so‘zlar quyidagilar: mo‘g‘ilchadan – qahramon, xitoychadan گُرْسِى – taxt, sanskritchadan مِسْك – muskus, qadimiylar misrchedan كَعْك – pirojka (gumma) va بَطْرَخ – ikra, kopt tilidan قُطْنَان – paxta kabi so‘zlar.

Qur’oni Karimda arabcha bo‘la turib boshqa tillardan kirgan so‘zlarining ishlatilishi diqqatni o‘ziga tortadi deb yozadi V.M. Belkin: يَم uning arabcha ekvivalenti طَرِيق – dengiz, yoki صِرَاطٍ uning shu ma’nodagi sinonimlari yoki بَحْر – yohud uning arabcha sinonimi طَوْر – tog‘, shuningdek, قُسْتاَسْ – yo‘l, yohud جَبَل – tog‘, shuningdek, سَبَيل – tarozi uning arabcha sinonimi مَيزَان – tarozi va boshqalar.

Iqtibos – o‘zlashtirilgan so‘zлами aniqlashda turlicha usullar mavjud bo‘lib, ulardan biri oronetik qonuniyatdir. Unga ko‘ra, arab so‘zlarining o‘zagini tashkil

qiluvchi undoshlardan ba’zilari birin-ketin kela olmaydi. Masalan: “s” va “j” ; “t” va “j” ; “n” va “r” kabi.

**Yevropa tillaridan o’zlashgan leksika haqida.** Shunga ko‘ra, “nargis”, “ijjos”, “sanj” va boshqa so‘zlar arabcha so‘z bo‘lmaydi. Qadimdan arablashgan so‘zlar bilan bir qatorda yangi o’zlashayotgan so‘zlar ham talaygina. Masalan:

كُبْرِىٰ, يَدْرُوْم, بُويَة, كَبَاب, سُجُوقْ, فُرْشَة, جَزْمَة, تَنْكَة, وُجَاقْ, دَمْعَة, سَنْجَاقْ, بُوْغَازْ, عَرَبَة, بُورْجَى, كَلَاوُزْ, صَمْوَلَة, كُرْبَاجْ

Shuningdek “jiy” (“chi”) suffiksli so‘zlar ham ko‘p uchraydi. Masalan:

نُوبَّحِي – izvoshchi, عَطَشِّي – o’t yoquvchi, مَخْرَنْجِي – omborchi, عَرَبِّي – navbatchi, shuningdek fors tilidagi “سَرْ” bosh so‘zi bilan boshlangan bir necha so‘zlar arab tiliga o’zlashgan. Masalan: مُهَنْدِسْ سَرْ – bosh muhandis, عَسْكَرِي سَرْ – qo‘mondon kabilar.

Turk tili orqali yangi mazmun kasb etgan asl arabcha so‘zlar ham shu qatordan joy olishi mumkin. Masalan: ”ق أُورا“ – imzo, ”مَرْسُنْ“ – boj, ”إِمْضَا“ – hujjatlar, ”شَمَاعَا“ – nafaqa, maosh, ”إِفَادَة“ – guvohning ko‘rsatmasi, ”لَتَّحْصِي“ – ta’lim olish, ”دَائِرَة“ – fanatizm, ”نُفُوذ“ – ta’sir, ”بَثَعَصْ“ – departament, bo‘lim, viloyat, ”لِوا“ – qishloq, ”مُلَازِر“ – leytenant, ”رَمْشَى“ – marshal, ”رَسْمِي“ – rasmiy, ”شَرِيفَات“ – protokol, marosim. Shuningdek, italyancha, fransuzcha, inglizcha bilan bir qatorda rus tilidan kirgan so‘zlar ham bor. Masalan: ”شاي“ – choy va boshqalar. Bunda harflarning o‘zgarishi qonuniyatlari alohida ahamiyatga molikdir.

### Savollar:

1. Qaysi so‘zlar yevropa tillaridan o’zlashgan?
2. Qaysi so‘zlar mo‘g‘il tilidan o’zlashgan
3. Qaysi so‘zlar yahudiy tilidan o’zlashgan?

## 3.4. ARAB TILIDA SO‘Z YASALISHI MASALASI (الاشتقاق).

### Reja:

1. Sarfning keng tarmog‘i ishtiqoq va undagi xosliklar.

2. Ishtiqoqdagi fonetik hodisalar va ularning yoritilishi.

3. Ishtiqoq qonunlari va ulardagি ilmiy yangilik.

4. Ishtiqoqning birinchi qonunidagi qoidalar.

**Tayanch so‘z va iboralar:** so‘z, o‘zak, asl va ziyoda harf, ishtiqoq va unga oid qoidalar.

Ishtiqoq arab tilshunosligida keng o‘rganilgan bo‘lib, so‘z yasalishining bu turi bo‘yicha ko‘plab ilmiy bahslar yuritilgan. Sakkokiy tildagi bu hodisa haqida o‘z qarashlariga ega. Bu qarashlar ilmiy jihatdan mukammalligi bois, ular olim tomonidan «ishtiqoq qonunlari» (قوانين الاشتقاق) deb nomlangan [MU, 5b]. Bu qonunlar boshqa tilshunoslar bildirgan fikrlardan keskin farq qilmasa-da, muhim yangi qarashlarni qamrab olgani bilan xarakterlidir. Bu qonunlar mashhur arab tilshunosligi maktablarining vakillari xulosalari bilan bog‘liq bo‘lib, ular qonunlarga asos hisoblanadi.

**Arab tilshunosligida so‘z yasalish hodisasi ishtiqoq (الاشتقاق) deb yuritiladi. So‘z yasalishining eng unumli usuli ishtiqoqdir. Bu istiloh شق o‘zagidan olingan bo‘lib, اشتقاء «yasash», «paydo qilish», «kelib chiqish» ma’nolarini anglatadi.**

Zamonamizning mashhur tilshunoslardan Muhammad Ibrohim bu so‘zga quyidagicha ta’rif bergan: «Bir so‘zdan boshqa so‘zni olish bo‘lib, u ikki so‘zga bog‘liq ma’no va tuzilish qoidalariga movofiq holda, ma’lum morfologik qolip asosida amalga oshuvchi hodisadir» [47: 169]. Arab tilshunosligi tarixida bu hodisa IV hijriy asr o‘rtalarigacha «kichik yoki eng kichik ishtiqoq (الاشتقاق)، deb yuritilgan. IV hijriy asrning oxirlariga kelib, Ibn Jinniy bunga yangi bir bob qo‘shdi. Bu bob umumiyligi ma’no doirasidagi yasalgan so‘zlar bobini bo‘lib, u «katta yoki eng katta ishtiqoq (الاشتقاق الكبير أو الأكبر)، deb nomlandi [31: 140].

Abu Ya’qub Sakkokiy tilning bu hodisasi haqida shunday bahs yuritadi: وإذا تمهد هذا فنقول الطريق على ذلك هو أن تبتدئ فيما يحتمل التنويع من حيث انتهى الواقع في تنويعه وهي الأوضاع الجزئية. فترجم من هنا القهقرى في التجنيس و هو التعميم إلى حيث ابتدأ منه وهو

وضعه الكلي لتلك الجزئية كنحو أن تبتدئ من مثل لفظ المتبادر وهو موضع التبادر فترده إلى معنى أعم في لفظ التبادر وهو المبادنة من الجانبيين ثم ترد التبادر إلى أعم وهو المبادنة من جانب في لفظ باب ثم ترده إلى أعم وهو حصول البينونة في لفظ باب ثم ترده إلى أعم وهو مجرد البين وهذا هو الذي يعنيه أصحابنا في هذا النوع بالاشتقاق.

Mazmuni: «Bunga kirishiladigan bo‘lsa, biz bu haqda shunday deymiz: bunga olib boradigan yo‘l – biror bir shakl oxirigacha turli shakllarga solinadi. Bu turli shakllar juz’iy shakllar bo‘lib, o‘quvchi shakllarni boshqa holga keltirishda shakl ortidan orqaga qaytadi. Boshlangan joyga qaytish تعميم, ya’ni umumlashishdir. Umumi shakl avvalgi juz’iy shaklga, albatta, oiddir. Misol uchun: «ajralib turuvchi», bu تبادر «ajralib turish» so‘zidan olingan bo‘lib umumi ma’noga qaytarilsa, ikki hosil qilingan so‘z umumi shakl «farq qilish» so‘ziga borib taqaladi. تبادر so‘zi umumiylukka qaytarilsa, so‘zi e’tiboridan «farq qilish» bo‘ladi. باين va باين so‘zlarini umumiylukka qaytarilsa, boshlang‘ich shakl hisoblanuvchi masdar بين «ajralish»ga borib taqaladi. Bu sohiblarimiz aytgan fikrdir» [MU, 4b].

Arab tilshunosligi so‘z yasalish sohasida morfologik qolip yetakchi o‘rin egallashini yuqoridaq berilgan ta’rifdan ham bilib olish mumkin. Yasalgan so‘zning morfologik birlamchi o‘zagini topish ushbu ta’rifda keltirilganidek, darajama-daraja amalga oshiriladi. Bundan o‘quvchi uchun soddalashtirish maqsad qilingan. Ta’rifdagi yasalgan so‘zning birlamchi shakli, o‘zagi morfologik qolipiga solinishi natijasida «ajralib turuvchi» so‘ziga olib bordi. Birlamchi o‘zak so‘z ma’nosi semantik jihatdan yasalgan yangi so‘zlar ma’nosi bilan, fonetik jihatdan o‘zak tovushlar bir xilligi bilan uzviy bog‘liq. «ajralib turuvchi», bu تبادر «ajralib turish», «farq qilish», بين «ajralish» hamma so‘zlarning o‘zak harflarini ب ي ن tashkil qilgan).

Arab tilshunoslari o‘rtasida ishtiqoq o‘zagi borasida tortishuv bor, bu tortishuv ikkita katta arab tilshunoslik maktablari o‘rtasida kechadi. Sakkokiylaragi ta’rifidagi «Bu sohiblarimiz aytgan fikrdir» degan qayd Basra tilshunoslik maktabi vakillariga ishoradir.

*Ishtiqoq* asli ism yoki fe’l ekanligi haqidagi fikr ham munozarali.

Basralik va kufalik arab tilshunoslari bu borada keng ilmiy munozara qilgan. Bunga ko‘ra basralik olimlar: «Ishtiqoq asli masdar (harakat nomi) dir, chunki fe’l harakat nomidan olingan». Kufalik olimlar esa bu fikrning aksini aytadi, ya’ni ishtiqoq asli fe’l. Har ikkala tomon ham o‘z qarashlarini quvvatlovchi dalillariga ega.

### **Basralik olimlarning dalillari:**

1. Masdar zamonni ifodalamaydi. Fe’l esa ma’lum bir zamonni ifodalaydi. Shuningdek, masdarning zamonni ifodalamasligi asl unga bog‘langanidan. Shuning uchun masdar fe’lning aslidir.

2. Masdar ism hisoblanadi. Ism o‘zi fe’l bilan bog‘lanmagani holda ma’no anglatadi, lekin fe’lning o‘zi ismsiz ma’no anglata olmaydi. Ma’no anglatishda fe’lga muhtoj bo‘ladi. Asl faqatgina o‘zi ma’no anglata oladi.

3. Darhaqiqat, masdar fe’lning asli bo‘lgani uchun shunday nomlangan.

4. Masdar bir narsaning ma’nosini ifoda etadi va u voqealikdir. Fe’l esa voqelik bilan zamonni ifoda etadi. Shuningdek, bir narsa ikkita narsaning asli bo‘lganidek, fe’lning asli masdardir.

5. Masdar bir ma’noni anglatadi, fe’l esa turli xil ma’nolarni anglatadi. Shuning uchun oltinning bir turi bor, uning ko‘rinishlari, xillari yo‘q.

### **Kufalik tilshunos olimlarning dalillari:**

1. Fe’l illatli harflardan xoli bo‘lsa, masdar ham shunday bo‘ladi. Illatli harfi bo‘lsa, masdarda ham shunday bo‘ladi.

2. Masdar fe’lning ma’nosini ta’kidlash uchun qo‘llanadi. Ta’kidlanuvchi ta’kidlovchidan ustun turadi.

3. Shunday fe’llar ham borki, ularning masdarlari yo‘q (نعم و بئس و عسى) (وليس و حبذا و إلخ). Agar masdar asl bo‘lsa, nega bu fe’llarning masdari yo‘q?!

4. Fe’l masdar qo‘llanishida sabab hisoblanadi. Shuning uchun masdar fe’lning bir qismidir.

5. Ish-harakat bajaruvchisining harakati bo‘lmasa, masdar ma’no anglatmaydi. Masdar fe’l bilan ma’no anglatgani uchun ham uning asli fe’ldir [36: 235-245].

Yuqoridagi ilmiy bahsning eng muhim qismlari keltirildi. Arab tilida fe'l bilan ham, masdar bilan ham bog'liq bo'lмаган со'злар бор. Улар yordamchi со'з түркменилердири. Bundan bilib olish mumkinki, hech bir morfologik qolip asosida yasalmagan tub со'злар ham mavjud. Ishtiqoq hodisasi keng doirada ism (ot, sifat, son, olmosh, son) va fe'lga bog'liq til hodisaside. Shuningdek, arab tiliga о'злашган со'zlarda, taqlid со'zlarda, sintaktik vazifalarda о'згартмайдиган со'zlarda ham ishtiqoq hodisasi kuzatilmaydi.

Arab tilshunosligida katta mavqega ega bo'lgan Ibn Jinniy ishtiqoqqa quyidagicha ta'rif beradi: «Ishtiqoq, mening fikrimcha, ikki xil bo'ladi: kichik ishtiqoq va katta ishtiqoq. **Kichik ishtiqoq** - со'зning о'зак undoshlarini olib, olingan harflarni sinchiklab о'рганиб, ularni ma'lum ma'nolar atrofida birlashtiriladi va, albatta, bu birlashtirishda со'zlarning qurilish tizimi va ma'nolari bir-biridan farqli bo'ladi» [11: 133-134]. Misol uchun: سلم (sog'-salomat bo'lmoq) о'зак harflari, bundan سلامه (sog'-salomat bo'lish) hosil qilindi. Bu о'зак harflarini ma'lum morfologik qolipga solish orqali: سليم «sog'lom», سلم «tinchlik», «sog'lom bo'ladi» سلمان «Salmon» со'zlari hosil bo'ladi. Mana shu hodisa kichik ishtiqoq (الاشتقاق الصغير) hisoblanadi.

**Katta ishtiqoq** esa, faqat uch о'зак undoshda kuzatiladi. Bu ishtiqoqda uch о'зак undosh о'rinlari almashtirib, oltita variant hosil qilinadi va bir ma'no atrofida birlashtiriladi. Misol uchun: ق ول و ق ل ل و ق ل و ق ق ل و bu oltita variantdagi со'zlarning ma'nosи «engil» va «tez» ma'nolari atrofida aylanadi. Mana shu til hodisasi katta ishtiqoq (الاشتقاق الأكبر) sanaladi [11: 133-134].

**Sakkokiy** yuqoridagi ta'rifga e'tiroz o'laroq: «Agar umumiyl ma'noga boshqa ma'nolar yuklansa, ma'lum tartib asosida uchta turli harflarni oltita ko'rinishga, to'rtta harfni yigirma to'rtta ko'rinishga va beshta turli harflarni bir yuz yigirma ko'rinishga solinsa, **bu ishtiqoq kabir** bo'ladi», deb yozadi [MU, 5a].

O'rta asr arab tilshunoslardan **Ibn Durayd** ishtiqoqni quyidagi **turlarga ajratadi**: «Ishtiqoq boshqa со'zdan ma'lum yangi ma'noga ega bo'lgan со'zni olish bo'lib, bu ikki со'z о'rtasida ma'lum munosabatlar orqali amalga oshadi. U uch xil bo'lib, harflari va undagi harakatlar tartib bilan olingan bo'lsa, bu **kichik**

**ishtiqoq** (misol: أَكْل «emoq» fe'lidan الْأَكْل «emish»); o'zak harflari tarkib bilan olinmagani bo'lsa, bu **katta ishtiqoq** (misol: جَبَد «sudramoq» fe'lidan الْجَبَد «tortish»); o'zakdan yangi so'z hosil qilish paytida yangi so'z talaffuzida bir-biriga yaqin harflarning almashish hodisasi bo'lsa, bu **eng katta ishtiqoq** bo'ladi: أَنْجَق «hangramoq» fe'lidan نَعْق «hangrash» hosil bo'ladi» [43: 31].

**Arab tili dunyo tillari ichida eng ko'p morfologik qolip orqali so'z yasaluvchi til hisoblanib, qadimgi lotin tili, somiy tillar tarkibiga kiruvchi ayrim tillar bu jihat bilan bu tilga o'xhash hisoblanadi** [37: 37].

Leksika doim harakatda bo'lib, uning rivojlanishi, boyish yo'llari har xil: boshqa tillardan so'z olish, so'z yasash, ma'lum bir morfologik qolip asosida yangi so'zlar hosil qilish. So'z yasash – turli vositalar, har xil usullar, ma'lum morfologik qo'shimchalar orqali amalga oshiriladigan tilning barcha sohalariga bog'liq hodisadir. Yangi so'zlarni hosil qilish yo'llarini, bu jarayonda ishtirok etuvchi morfologik qoliplarning xosliklarini, unda bo'ladigan o'ziga xos hodisalarni so'z yasalish bo'limi tekshiradi.

Taniqli arab tilshunosi Roji Asmar ishtiqoqqa quyidagicha ta'rif beradi: «Ishtiqoq – asldan ajrab chiqqan qism bo'lib, qism ajralib chiqqanda o'zakning harflari unda ham aks etishidir» [31: 139]. Ishtiqoq hodisasini ma'lum morfologik qolip tashkil qilishi yuqorida zikr qilindi. Bu morfologik qolipning asl va ziyoda harflari bo'ladi. Bu ham ma'lum qonuniyatlarga asoslangan holda amalga oshiriladi. Bu hodisadagi ma'lum bir qonuniyatlar tilning morfologik, semantik, fonetik jihatlariga bog'liq holda bo'ladi.

**Sakkokiy ishtiqoq va uning muhim belgilari** haqida shunday yozadi: «O'zakni tashkil qiluvchi asl harflar hodisasiga to'xtalsak, u o'zida ishtirok etuvchi harflarning me'yorini talab qilib, juz'iy ma'nolarning umumiyligi ma'noga qaytuvchi o'xhashlariga erishish hodisasiidir. Bu hodisa harflarni **o'zgartirish, tushirib qoldirish yoki orttirishni man qilish hodisasi** emas. Bularning bari ma'lum qonuniyatga asoslangan bo'ladi. **O'zgartirish o'zgartirish hodisasi kichik ishtiqoqda ham uchraydi.** Unda muayyan qoida amal qiladi. Bu muayyan qoidalarsiz so'z hosil qilinsa, to'g'ri bo'lmaydi. Bu qoidalalar harflar bo'lib, ular

o‘zak harflari deb nomlanadi. So‘zdagi o‘zak harflardan boshqalari ziyoda harflar deb yuritiladi. Agar o‘zak harflarni aniqlashtirish lozim bo‘lsa, ular morfologik shakl hosil qiluvchi ف ع bilan tartib bilan almashtiriladi. So‘z o‘zagi to‘rtta yoki beshta bo‘lsa, چ ziyoda qilinadi» [MU, 17].

Ta’rifda keltirilgan morfologik shakl hosil qiluvchi harflar boshqa olimlar tomonidan ham e’tirof etilgan. Ta’rif davomida olim: «So‘zning shakli iroda qilinsa, shu harflar bilan amalga oshiriladi. Shu harflardan tuzilgan shakl esa qolip deb yuritiladi», deb yozadi [MU, 17].

So‘zning morfologik qolipini bilish undagi ziyoda harflarni bilib olishga olib boradi. Misol uchun: مدرسة maktab so‘zining morfologik shakli yuqorida ta’kidlangan qolip harflari bilan almashtirilsa، مفعلة qolipi hosil bo‘ladi, Bundagi «mīm»م va «tā»ة harflari o‘zakdagi ziyoda harflar، درس esa o‘zakni tashkil etuvchi asl harflar. Bu morfologik qolip ishtiqoqda semantik, morfologik, fonetik jihatdan katta ahamiyat kasb qiladi. **Semantik jihatdan** bu qolip bir ish-harakat doimiy ravishda takrorlanadigan yoki biror predmet doimiy bo‘ladigan, unga xoslangan joy ma’nosini ifoda etadi. Shu jihatdan مدرسة so‘zi «o‘rganish» jarayoni ko‘p takrorlanadigan joy, ya’ni «maktab» dir. **Fonetik jihatdan:**

- a) o‘zak harflar tartib asosida joylashtirilmasa, yangi leksema hosil bo‘lmaydi;
- b) o‘zakdan tashqaridagi harflar bilib olinmasa, so‘z hosil bo‘lmaydi.

**Morfologik jihatdan** ziyoda harflar bilan asl harflar aralashib ketsa, so‘z hosil bo‘lmaydi. Bu hodisalarning bari morfologik qolip bilan bog‘liq til hodisalari hisoblanadi.

Morfologik qolipdagi ziyoda bo‘lgan, almashib kelgan, o‘zgarib kelgan harflarni bilish ishtiqoqning asosiy mezonlaridandir. Bu mezonlarni Sakkokiy «قوانين الاشتقاء»، deb talqin qiladi.

X yuzyillikda yashab ijod etgan **Ibn Jinniy** bu mezonlarni «**so‘z yasash turlari [hodisalari]**» (أضراب التصريف), deb atagan edi [16: 2]. Ishtiqoq muayyan tur bo‘ladimi, qonun bo‘ladimi, qat’i nazar, so‘z yasalishidagi tovushlar bilan bog‘liq mezonlarni qamrab oladi.

Ibn Jinniy **bu turlarning eng birinchisini «ziyoda»**, deb nomlaydi va bu turda quyidagi harflar o‘zakda ziyoda harf bo‘lib kelishini yozadi. Bu harflar: **الألف، والياء، الواو، والهمزة، والميم، والتاء، والنون، والهاء، والسين، واللام**. Ziyoda harflar doim ham ziyoda harf bo‘lib kelmasligi, o‘zakda ziyoda harf bo‘lmasligi, ziyoda harflar ham o‘zak harf bo‘lib kelishini aytadi [16: 3].

Ba’zan bir o‘zak faqat asli ziyoda harf bo‘lgan o‘zak undoshlardangina iborat bo‘ladi. Misol: **أويت** «panoh izladim» so‘zini tashkil qilgan harflarning bari ziyoda harf ham hisoblanadi. Ushbu misolda faqatgina «**تā**» ziyoda harf hisoblanib, qolganlari o‘zak undosh bo‘ladi. Buning bilish yo‘lini Ibn Jinniy: «Agar harfning ziyoda yoki asl ekanligini bilishda qiyinchilik bo‘lsa, ma’noga yuzlansin. Harflar ma’no anglatsa, demak asl harflar hisoblanadi. Qo‘srimcha ma’no yuklasa, ziyoda hisoblanadi», deb yozgan edi [16: 3].

Yuqoridagi misolda **تاء** «**تā**» ziyoda harf ekanligi aytildi, qo‘srimcha ma’nosida esa «izlamoq» fe’lining o‘tgan zamon I shaxs qo‘srimchasi hisoblanadi.

Sakkokiyning bu boradagi **birinchi qonuni** so‘zlarning asl harflari nechta bo‘lishiga qaratilgan [MU, 5b]. Olimning fikri basralik tilshunoslar fikrlariga tayanib, arab tilida o‘zak harflar so‘zlarda uchta, to‘rtta va beshta bo‘ladi deb hisoblaydi. Eng ko‘p tarqalgani uch undoshli o‘zaklar, so‘ng to‘rt undoshli o‘zaklar va eng kami besh undoshli o‘zakka ega so‘zlardir. Bu fikrga ko‘ra, olti va undan yuqori bo‘lgan undoshli o‘zakka ega so‘zlar juda ozdir.

Kufalik tilshunos olimlar esa so‘zning o‘zak undoshi uchta bo‘ladi deb hisoblaydi. Sakkokiy birinchi qonunni xulosalab, ishtiqoq ostiga kiruvchi so‘zlar basralik olimlar fikrlariga ko‘ra, uch, to‘rt va besh undoshli o‘zakdan, deb ta’kidlagan edi [MU, 5b].

Yuqorida ikki muktab tilshunoslarning qarashlari keltirildi. Bu qarashlar ishtiqoqdagi ilk qadam hisoblanuvchi qolipni aniqlab olib boradi, ya’ni arab tilshunoslari tomonidan morfologik usulda yangi so‘z hosil qiluvchi qolipni tashkil qiluvchi umumiy harflar ishlab chiqilgan bo‘lib, bu qolipda faqat uchta harf qatnashadi, so‘zdagi ziyoda bo‘lgan harf shu qolipda aks etadi. Bu uch harf tartib bilan birinchi o‘zak undosh o‘rnida **ف** «**fā**», ikkinchi o‘rnida «‘ayn», uchinchi

o‘rinda «lām» harflari bo‘ladi. Agar so‘zda o‘zak harflar to‘rtta yoki beshta bo‘lsa, mos ravishda «lām» orttiriladi (Bunga yuqorida misol keltirildi).

**Abulqosim ibn Muhammad:** «Bilib olish kerakki, ism va fe’llarda eng ozi uch undoshli o‘zak; ism va fe’l to‘rt harfdan iborat bo‘lib, unda ziyoda harf bo‘lmaydi; ism besh harfdan iborat bo‘lib, unda ham ziyoda harf bo‘lmaydi, fe’llarda esa besh harflisi uchramaydi», – deya yasamadagi ziyoda harflarni aniqlashtiradi [17: 360].

Ishtiqoqda **ziyoda** eng **birinchi hodisalardan** hisoblanadi. Bu haqda mashhur arab tilshunoslaridan Roji Asmar: «O‘zakka harf qo‘sish ziyoda hisoblanadi. Bitta so‘zda harflarni ziyoda qilish uchtagacha bo‘ladi. Ziyoda qilishning ikki turi bor: qaytariqli ziyoda, qaytarig‘i bo‘lmagan ziyoda. Qaytariqli ziyoda o‘zakdagi asl harf ikkilanishi bo‘lsa, qaytarig‘i bo‘lmagan asl harflarga ziyoda harf qo‘silishi hisoblanadi», deb yozadi [31: 275-276].

Sakkokiyning ishtiqoq qonunlarinidan ikkinchisi so‘zdagi ziyoda harflarni aniqlashga qaratilgan [qarang: MU, 5b]. Jumladan, bitta harf bir so‘zda ziyoda harf, yana boshqa so‘zda u ziyoda harf tushirib qoldirilishida bir necha qarashlar bor bo‘lib, bularga to‘xtalishdan oldin ziyoda harflarni bilib olish kerak, bulardan (أليوم تتساه) boshqa harflar ziyoda bo‘lib kela olmaydi. Bu harflarning ziyoda bo‘lishidagi bir shart: asl ham qaytarilsin yoki aslga ziyoda harflar qo‘silsin. Harflarning hukmi bir morfologik qolipda bo‘lsa, ulardagi ziyoda harf bir xil bo‘ladi. Misol uchun, **كتيف** «kichik yelka» bilan **رجيل** «kichik oyoq» so‘zleri bir xil morfologik qolipda bo‘lgani uchun (فعيل) **ياء** «yā» harfining hukmi ziyodalikdir. Umumiy shakl to‘g‘ri o‘lchovdan ortiq bo‘lsa, undagi barcha harflar asl harf hisoblanadi – قبعثرى (bu so‘zdagi hamma harflar asl, chunki umumiy o‘lchovda asl harflar soni beshtadan ortiq bo‘lmaydi). Harflar so‘zda o‘lchov zaruratidan kelib chiqib qatnashsa, u ziyoda harf hisoblanadi (اسم، اعرف) bu so‘zlardagi o‘lchov zarurati arab tilida so‘z undosh bilan boshlanmasligi). So‘zga yangi ma’no yuklanganda, undagi asl harf tushirib qoldirilishi mumkin, lekin ziyoda harfda bu kabi hodisa kuzatilmaydi. Kichraytirish, ikkilik, ko‘plik hosil qiluvchi marfologik qoliplardagi ziyoda harflar ma’no anglatgani uchun ham tushirib qoldirilmaydi.

Asl harflardan ko‘ra ziyoda harflarning morfologik qolipi saqlanib qoladi. Misol uchun, مسلمون (musulmonlar) yoki (ikki musulmon) so‘zlari oxiridagi ikkilik va ko‘plik ma’nolarini beruvchi qo‘shimcha tushirib qoldirilmaydi. Fe’llardan hosil bo‘luvchi ismlar: masdar, ismu foil, ismu maf’ul va boshqalarda ham ziyoda harflar tushirib qoldirilmaydi [qarang: MU, 5b].

Sakkokiy yana ziyoda harflar haqida to‘xtalib, uchinchi qonun to‘g‘risida ham so‘z yuritadi. Bir harf ham tushirib qoldirilsa, ham ziyoda qilinsa, bu kabi holatda o‘zak harflar e’tiborga olinadi. O‘zak harfning tushirilishi o‘zagi uch undoshdan iborat so‘zlardan boshlanadi. Bu holat odatda «vāv» واو و «yā» ياء harflari o‘zak harf bo‘lib kelganda kuzatiladi. Bu harflar fe’l tarkibida kelganida o‘zak harf bo‘lishiga qaramay tushirib qoldiriladi. Lekin aynan shu harflar so‘zga o‘zak harf sifatida emas, ziyoda harf sifatida qo‘shiladi. Bu fe’llarning shaxs-sonda tuslanishida kuzatiladi [qarang: MU, 6a].

Bir harfning ham ziyoda, ham tushirib qoldirilishi besh undosh o‘zakli so‘zlarda bo‘lmaydi. Bu kabi so‘zlarda kichraytirish ma’nosi hosil qilinganda, asl harf tushirib qoldirilib, boshqa ziyoda harf (aynan o‘zi bo‘lмаган) so‘z tarkibiga qo‘shiladi. Bu ziyoda harf qo‘shimcha ma’no anglatgani uchun ham tushirib qoldirilmaydi. Misol uchun سفر جل (behi), «kichik behi» ма’nosini ifodalash uchun beshinchi asl harf tushirilib, ikkinchi asl harfdan keyin ziyoda harf qo‘shiladi, ya’ni سفیر ج «kichkina behi».

To‘rtinchi qonun «Beqarorlik o‘rnida harfni o‘zidan boshqa harfga o‘zgarishi» deb nomlangan bo‘lib, o‘zgartirilgan harfga tegishli ishtiqoq orqali hosil qilingan, unga o‘xhash bo‘lgan so‘zlardagi ushbu hodisa ishtirokchisi bo‘lgan harfning eng oz miqdorida topish bilan beqarorlik o‘rnida harfning o‘zidan boshqa harfga o‘zgarishi topiladi. Masalan, و «vāv» harfining ۱ «alif»ga almashinuvini و «yuz» يۇز so‘zining turli ma’no anglatuvchi shakllaridan bilib olish mumkin. Buning ko‘pligi «yuzlar» so‘zining ikki xil varianti او جە و جوھ bor, bu o‘rinda yuqoridagi harflarning bir-biriga almashish hodisasi yuz berdi. Yoki aynan shu harf و «vāv»ning ت «tā»ga almashinuvi: وراث «meros» emas, تراث تراث hosil bo‘ladi. Bu qonunda bayon qilingan hodisa «almashish» البدل (deb

nomlanadi. Bu hodisada ishtirok etuvchilar «badal harflar (حروف البدل)», deb ataladi [qarang: MU, 6b], badal harflarning soni bo‘yicha fikrlar turli xil bo‘lib, Mahmud Zamaxshariy [41: 19] va Sakkokiy o‘n beshta ط ز أ ل م ص د ج ن س («ṭā», «zā», «lām», «hamza», «ṣād», «mīm», «vāv», «yā», «hā», «tā», «dāl», «jīm», «nūn», «sīn», «alif») deb ta’kidlaydilar [MU, 6b].

Morfologik qolip orqali so‘z yasalishining umumiy belgisi – yangi leksema hosil qilishdir. Bu leksema ma’lum bir qolipga asoslangan bo‘ladi. Bu yangi yasalgan so‘z o‘z motivini saqlashi - unga asos bo‘lgan o‘zak so‘z bilan bog‘langan bo‘lishi, ushbu bog‘lanish sezilib turishi kerak (علم «bilmoq» o‘zagidan فاعل morfologik qolip orqali عالم «biluvchi, olim» so‘zi yasalishi. Bu yasalgan so‘z asos o‘zak ma’nosidan farqli va ular o‘rtasida semantik bog‘liqlik, fonetik o‘xshashlik bor).

Demak, so‘z yasalishining birlamchi materiali tovush hisoblanadi. Bu tovushlarni ma’lum qoliplarga solish orqali yangi so‘z hosil qilinadi. Yangi so‘z hosil qilish ma’lum morfologik qoidalarga asoslangan bo‘ladi. Arab tilida so‘z yasalishi ma’lum morfologik shakllar orqali amalga oshiriladi. Bu tilda so‘z yasashning keng qo‘llanadigan eng unumli, yetakchi usuli morfologik qolip orqali so‘z yasash yo‘lidir. Bu yo‘l bilan yasalishda, birinchidan, semantik o‘zgachalik (misol, o‘zak hisoblanuvchi so‘z yasalgan so‘z ma’nosidan jiddiy farqlanadigan umumiy ma’nodan chiqib ketmaydigan yangi ma’noga ega bo‘lishi), ikkinchidan, morfologik-fonetik o‘zgachalik (o‘zak so‘zning qolipi yoki tovushlari yasalgan so‘znikidan farqlanishi) kelib chiqadi.

### Savollar:

1. Abu Ya’qub Sakkokiyning ishtiqoqdagi ilmiy yangiligi haqida ma’lumot bering.
2. Ishtiqoq va uning turlari qanday?
3. Ishtiqoqdagi fonetik hodisalar qaysilar?
4. So‘z yasalishiga asos turkum haqidagi ilmiy bahsning asosiy farqlari?
5. Tub so‘zning asos shaklini qanday harflar tashkil qiladi?

### 3.5. SO‘Z YASALISHIDA ASL VA ZIYODA HARFLARNING O‘RNI

**Reja:**

1. Asl va ziyoda harflar va ularagini morfonologik o‘zgarishlar.
2. Asl va ziyoda harflarning so‘zdagi o‘rinlari.
3. Asl harflarga oid fonetik hodisalar.

**Tayanch so‘z va iboralar:** asl harf, ziyoda harf, ism turkumi, fe’l turkumi, morfologik qolip.

So‘z yasalishida o‘zak harfning o‘rnini bilish so‘zning ma’nosini, gapda qanday vazifada kelayotganini bilib olishda katta ahamiyatga ega. Sakkokiy so‘zdagi asl harflarni aniqlab olishni qaysi harf qaysi o‘rinda asl harf bo‘lib kela olmasligidan boshladi. Birinchi boshlangan harf «vāv» dir. Chunki bu harf illatli bo‘lib, ziyoda, badal, idg‘om hodisalarida katta o‘rin tutadi. Olimning ta’kidlashicha, u til hodisalarining faol ishtirikchisi hisoblanib, so‘z boshida ziyoda harf sifatida kela olmaydi. Ibn Jinniy ushbu harf haqida: «vāv» harfi asl, ziyoda va badal harf bo‘lib kela oladi. O‘zak harf sifatida so‘zning boshi, o‘rtasi, oxirida keladi», deb yozgan. Demak, ushbu harf so‘z boshida kelsa, u o‘zak harf hisoblanadi.

Arab tilida so‘z yasalishi uzoq morfonologik jarayonlarni bosib o‘tgan. Bu jarayonlar badal, ziyoda, hazf, idg‘om kabi til hodisalarini o‘z ichiga olib, ularning har biri o‘zakni tashkil etuvchi harflar, ya’ni asl harflar atrofida sodir bo‘ladi. So‘z yasashdagi ushbu hodisalar ko‘pchilik olimlar e’tiboridan chetda qolmoqda. Sakkokiy bu hodisaga nisbatan alohida yondashib, tilshunoslikning o‘n ikki ilmini qamrab olgan «Miftahu-l-ulum» asarida «الفصل الأول في بيان مواضع الأصالة»، ya’ni «Birinchi fasl asl harf o‘rinlari bayonida» nomli mavzuni yoritgan. Ushbu til hodisasini yoritishda Basra maktabi namoyandalarining fikriga tayangan holda o‘z qarashlarini bayon qiladi. U aniq xulosalarga tayangan holda yozadi:

و هي الأول من كل كلمة لا تصلح لزيادة الواو، فواو ورنتل أصل، وهو والخشون منها للام، فلام نحو لهم وقلفع أصل و الآخر أيضا له إلا في عبد وزيدل وفحجل، وفي حيقل وطيسيل وفيشلة احتمال، وأما نحو: ذلك هناك و أولاك فليس عندي بمنظور فيه.

Mazmuni: «Har bir so‘zda o‘zakning birinchi asl harfi o‘rnida و ning ziyoda bo‘lib kelishi so‘z yasalishida to‘g‘ri emas. Quyidagi: ورنتل (falokat) so‘zida esa o‘zakning birinchi harfi «vāv» dir. Shuningdek, حشو (to‘lg‘azish) so‘zida «vāv» o‘zakning uchinchi harfi bo‘lib kelgan. – اللام «lām» harfiga kelsak, لهم (kesmoq), قلفع (suvi qurib, qotib qolgan loy) bu so‘zlaridagi ikkinchi harf bo‘lib kelayotgan «lām» o‘zak harfdir. So‘z oxirida kelayotgan «lām» harfi o‘zak harf bo‘lib keladi. عبدل (qul), فحجل (oyog‘i egri) so‘zleri bundan mustasno. Shunday so‘zlar ham borki, ulardagi ushbu harfning asl yoki ziyodaliligi tortishuvlidir. هناك (tuyaqush), ذلك (o‘sha, mz), طيسيل (maqtash), فيشلة (to‘p, jamlama), هيقن (o‘sha yerda), او لاك (o‘shalar) mening fikrimcha, ushbu so‘zlaridagi «lām» asl harf emas».

Ibn Jinniy so‘zning o‘zak harfi haqida: «So‘z hosil qiluvchilar qarashida so‘zning o‘zak harflari bir butunlikdir. Bu bir butunlik qolip asosida turli so‘zlar yasalishida ishtirok etadi va bu (butunlik) o‘zak harflar hisoblanadi. Yangi so‘z hosil qilinib, talaffuzi qiyin bo‘lib qolgan holda, ushbu o‘zak harflar tushib qolishi ham mumkin», deb yozgan edi.

Arab tilshunoslari orasida mashhur bo‘lgan Ibn Qatto Saqliy asl harflar borasida shunday yozgan edi: «Ism turkumi ikkiga bo‘linadi: الاسم المتمكن و غيره، ya’ni kelishikda turlanuvchi va kelishikda turlanmaydigan. Kelishikda turlanadigan ismda o‘zak harflari uchtadan oz bo‘lmaydi. Arab tilida uch undoshli o‘zakka ega so‘zlar ko‘pdir. To‘rt o‘zak harfdan ham iborat bo‘ladi, lekin bunday so‘zlar avvalgisidan oz bo‘ladi. So‘z besh o‘zak harfdan iborat bo‘ladi va bular to‘rt o‘zak harfdan iborat so‘zlardan ozdir. Arab tilida bundan ortiq ugoshli o‘zakka ega so‘z bo‘lmaydi. Ikki o‘zak harfli, uch o‘zak harfli, to‘rt o‘zak harfli so‘zlar ziyoda harflar bilan qo‘shilib kelganda yetti harfdan oshmaydi».

Keyingisi «lām» harfi bo‘lib, u so‘zda asl, ziyoda, badal harf bo‘lib kela oladi. O‘zak harf sifatida u so‘zning hamma o‘rinlarida kela oladi. Bu fikrga misol sifatida Ibn Jinniy quyidagi she’rni keltirgan:

لما رأى أن لا دعه ولا شبع مال إلى أرطاة حقف فالطبع

Johiliya davrida mansub mazkur she’rda bo‘ri ta’riflangan bo‘lib, ma’nosи shunday: «Rohat ko‘rmagan, och qolgan bo‘ri, yantoqdan boshqa hech narsa topolmay, uyquga chalindi».

Abu Ya’qub Sakkokiy فحجل، زيدل، عبد so‘zlarining oxirida kelgan «lām» هیقل طیسل، فیشلة، ذلك، هنالك، اولاك، o‘zak harf emasligini aytadi. Uningcha، هنالك، اولاك، so‘zlaridagi ushbu harf ziyoda yoki asl harf ekanligi bahslidir. Alloma Ibn Jinniy bu haqda: «lām» harfining ziyoda o‘rni ikkita bo‘lib, birinchisi kelishikda turlanmaydigan so‘zga qo‘shiladi va u bilan birlashib ketmaydi. Ikkinchisi ma’nosiga ko‘ra qo‘shiladi va so‘zning morfologik qolipida bo‘lmaydi. ذلك هنالك، اولاك، so‘zlardagi «lām» ikkala tilshunosning fikriga ko‘ra ham ziyodadir. Bu birinchi o‘rindagi ziyoda harflarga misoldir. Ikkinchisiga esa، زيدل، عبد فحجل، زيدل، عبد so‘zlari misol bo‘la oladi.

Sakkokiy هیقل(tuyaqush)، طیسل(to‘p, jamlama)، فیشلة(maqtav) so‘zlaridagi «lām» ni bahsli sanaydi. Ibn Jinniy esa bu so‘zlardagi «lām»ni ziyoda harf hisoblaydi.

XIII yuzyillikning mashhur tilshunosi Ibn Aqil ذلك اولاك، so‘zlariga bog‘liq bayt sharhida yozgan:

وبأولى أشر لجمع مطلقاً والمد أولى ولدى البعد انطقاً  
بالكاف حرفاً دون لام أو معه والام - إن قدمت ها - ممتنعه

Baytning ma’nosи: «Ula» so‘zi bilan mutlaq ko‘plikka ishora qil. Cho‘zish birinchidir. «lām» harfisiz «kāf» harfi bilan uzoqni ko‘zda tut yoki birgalikda. «lām» harfini «hā» dan oldin keltirsang, bu mumkin emas». Bu bayt ko‘rsatish olmoshlariga bag‘ishlangan bo‘lib, yuqorida keltirigan so‘zlar (ذلك اولاك،) yaqindagi, o‘rtacha masofadagi va uzoqdagi kimsa yoki narsani ko‘rsatishda qo‘llanadi. Yaqindagi kimsa yoki narsa bo‘lsa، ذا o‘rtacha masofadagi bo‘lsa، «kāf» bilan, ya’ni ذاك، uzoqdagi bo‘lsa، aynan biz bahs qilayotgan ma’no ifodalovchi

ziyoda harf «lām» harfi qo'shilishi bilan bo'ladi, ya'ni va ذلك أولاك Ushbu so'zlarning asli طيس، هيق، هيقل طيس، فيشلة، bo'ladi.

Sakkokiy ushbu mavzu davomida so'z turkumlari bo'yicha qarashlarini bayon qiladi. Birinchici, fe'l bilan bog'liq bo'limgan to'rt o'zak harfdan tashkil topgan ismga e'tibor qilinsa, bu kabi so'zlarda biror harfni ziyoda qilish to'g'ri bo'lmaydi [MU, 9b]. Masalan: مردقوش (za'faron) (Istaxar, shahar nomi) va اصطخر (ikkinci, fe'l bilan bog'liq bo'limgan ismlarda ikki harfdan biri ziyoda ekanligi bilinsa, ikkinchisini ziyoda qilish to'g'ri bo'lmaydi. Faqat kamdan-kam hollarda bu kabi holat kuzatilishi mumkin: (أتفحى juda qari, avishqa), (qartaygan), (takabbur). Bu misollar takibidagi «hamza» ziyoda harf emas, o'zak harfdir. «mīm» harfiga misol: منجنيق (palahmon, katapul'ta). Bu so'zdagi ikkinchi harf ziyoda bo'lsa, demak, «mīm» o'zak harfdir. Ikkinchi harf o'zak harf bo'limgani uchun ularning so'zlariga ko'ra (basralik tilshunoslar fikrlariga ko'ra) منجيقي «manjaniqlar» so'zida «nūn» ziyoda harf bo'lgani uchun tushib qolgan. So'zning birinchi harfi o'rniда ئىنى زىيودا قىلىشى كۆپ hollarda to'g'ri bo'lmaydi. Misol: ضئيل (falokat), تکرفا (tuk), برآل (qushning o'z bo'yin patini yulishi), (ko'p), حرم (sahro o'simligi), عظلم (juda qorong'u tun). Bu so'zlardagi «hamza» va «mīm» harflari o'zak harf bo'lib kelgan. Olim ئىنچىقا «hamza» va م«mīm» harflari ishtirok etgan so'zlarni qator keltirishiga sabab, yuqoridagi qoidadan chetga chiqish bo'lishi ham mumkinligini ta'kidlaydi.

«hamza» harfi so'z oxirida uch harf va alifdan keyin kelsa, shubhasiz ziyoda harf bo'lib keladi. Misol: براکاء = طرفاء – عاشوراء (Ashuro), (yov tezligi), جخادباء (katta, yashil, uzun oyoqli chigirtka) bu so'zlarda yuqoridagi shart topilgani uchun ham ئىنچىقا «hamza» ziyoda harfdir. «hamza» harfi qo'shma so'zning ikkinchi bo'lagida kelsa, ikkinchi qismda o'zak harf topilsa, u ziyoda harf bo'lmaydi. Masalan: ضوضاء (urushdagı odamlar ovozi).

«nūn» harfiga kelsak, bu harf fe'lning oxirida ziyoda harf bo'lishi to'g'ri bo'lmaydi. تهقىن (peshvo bo'lmoq), دشىطەن (yomon ish qilmoq) so'zlaridagi «nūn» harfi basralik olimlar fikrlariga ko'ra asl harflardandir. «nūn»ning ko'pchilik

tomondan o‘zak harf deyilishi aslga mos tushishidir. To‘rt undoshli o‘zaklarning ikkilanganida to‘rt o‘rinning birida biror harfnini ziyoda qilish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Shuningdek, وَعَوْصِيَةً (vovullamoq) (istehkom) so‘zlarida ziyoda harf yo‘q. Shuningdek, قُوقِيت (qaqilladi) so‘zida ي «yā» ziyoda harf emas [qarang: MU, 10a].

Ibn Usfur Ishbiliy «nūn» harfinining asl harf bo‘lish o‘rinlari haqida shunday yozadi: «nūn» harfi so‘z oxirida kelib, undan oldin «alif» va ikkita harf bo‘lsa, ushbu harf o‘zak harf hisoblanadi. Agar «nūn» فَعَالٌ morfologik qolipida ikkinchi harf bo‘lsa, bu o‘rinda ham o‘zak harf hisoblanadi». Shuningdek, Sakkokiyning «To‘rt o‘zaklilar ikkilanganida to‘rt o‘rinning birida biror harfnini ziyoda qilish to‘g‘ri bo‘lmaydi» [MU, 10a] degan fikrini qo‘llab-quvvatlagan holda Ishbiliy: «To‘rt o‘zaklarning ikkilanganidagi «nūn» ziyoda emas, o‘zak harfdir. Bu o‘rinda ziyoda harf keltirish to‘g‘ri bo‘lmaydi», deb aytadi [76: 174]. Sakkokiyning: «Bu harf fe’lning oxirida ziyoda harf bo‘lishi to‘g‘ri bo‘lmaydi. تدھقن (peshvo bo‘lmoq), تشیط (yomon ish qilmoq) so‘zlaridagi ن «nūn» harfi basralik olimlar fikrlariga ko‘ra asl harflardandir».

Sakkokiy harflarning o‘zakni tashkil qiluvchi undosh o‘rinlarida kelishi haqidagi qarashlarini davom ettirib, fe’llar bilan bog‘lanmagan ism turkumiga kiruvchi so‘zlarda «sīn» harfi ziyoda harf bo‘lib kelmaydi. Fe’llarning o‘zida o‘zak harf hisoblanuvchi «mīm» harfi ham ziyoda harf bo‘lib kelmaydi. Masalan: تمسكن (miskin bo‘lmoq), تمدرع (zirhli kiyim kiymoq), تمندل (ro‘molcha bilan artmoq). Ushbu misollardagi س va م harflari o‘zakni tashkil qiluvchi harf hisoblanadi. Shuningdek, تمغفر (shira chiqmoq), تمعدد (hisoblanmoq), اسمهر (qurimoq), احرنجم (yig‘ilmoq, to‘planmoq) so‘zlaridagi م harfi ziyoda harf emas, o‘zak harfdir.

Olimning «sīn» harfi ismlarda ziyoda bo‘lmasligi haqidagi fikrini qo‘llab quvvatlagan holda Abu Abbos Mubarrad: «Uch undoshli o‘zakdan iborat bo‘lgan ismlarda va morfologik qolipida ham uch harf bo‘lgan ism turkumida ziyoda harf bo‘lmaydi», deb aytgan edi. «mīm» harfi fe’llarda ziyoda harf bo‘masligiga Mubarradning: «ushbu harf ismlarning ziyoda harfi hisoblanadi, fe’llarniki emas», deb aytgan fikri dalil bo‘la oladi. Ushbu harf faqatgina ismlarda ziyoda bo‘lib keladi. Fe’llardagi ushbu harf doim o‘zak harf bo‘lib keladi. «mīm» harfi ism so‘z

turkumidagi so‘zlarning birinchi harfi bo‘lib kelmasa, qolgan o‘rinlarda asl harf bo‘ladi. Ko‘p hollarda uch o‘zak undoshli, to‘rt o‘zak undoshli fe’llardan hosil bo‘gan aniq nisbat sifatdoshi, majhul nisbat sifatdoshi, «mīm» harfi bilan boshlanuvchi harakat nomi, makon va zamonni ifodalovchi so‘zlarda «mīm» harfi ziyoda qilingan bo‘ladi. Ayrim hollarda «mīm» harfi ism turkumiga mansub so‘zlarning o‘rtasida, oxirida ziyoda qilinishi mumkin: (to‘q ko‘k), فَسْمٌ (ko‘kragi keng), مَصْدَرْ (yaltiroq). (Ushbu so‘zdagi «mīm» harfi Sibaveyhi va Mubarrad fikrlariga ko‘ra ziyoda harf hisoblanadi). Ba’zi arablar so‘z oxirida «sīn» harfini ziyoda qilishlari ham bor. Bu o‘rinda ziyoda qilishdan maqsad o‘zidan oldin kelayotgan birikma olmoshini aniqlashtirish bo‘ladi. Masalan: أَكْرَمْتُكَ [akramtuki] (seni ikrom qildim), ba’zi arablar ushbu kalomni أَكْرَمْتُكِسْ [akramtukis] tarzida talaffuz qiladi.

Sakkokiy keyingi harfga to‘xtalib: «hā» harfiga kelsak, Abu Abbas Mubarrad (Alloh rahmatiga olsin) bu harfni ziyoda harflardan chiqaradi. Agar men qisqa yozishga bog‘lanib qolmaganimda edi, u kishi aytgan gaplardan bu borada Imom ibn Jinniy keltirgan ma’lumotlar bilan g‘olib bo‘lardim. Lekin qanday qilib, asl yana aslga aylanadi?! در هم (ahmoq), هجر (dirham) so‘zlaridagi ushbu harf o‘zak harf hisoblanadi. To‘xtashdagi ◊ «hā»ga kelsak, mening fikrimcha, aslida e’tibordan uzoqdir».

Ushbu «hā» harfi ziyoda bo‘luvchi yoki ziyoda harf bo‘lmasligi borasida tortishuvli bahs bo‘lib, Mubarrad va Sibavayhi bir fikrdadir, ularning firklariga ko‘ra «hā» unlini aniqlashtirishdagina keladi, deb hisoblaydilar. Misol o‘laroq، وَفَيْ (vafo qilmoq) fe’lining buyruq shakli ف ning o‘zi bo‘ladi, lekin arab tilida bitta harf o‘zi gap bo‘lib kelmasligi e’tiboridan فـ tarzida yoziladi va talaffuz qilinadi. Yoki nudbada (marsiya) va nidoda (undalma) «alif» dan keyin keladigan «hā» ziyoda bo‘ladi. Masalan، وَأَغْلَامَه (voy xizmatchim!), (ey xizmatchi) kabi. Sibavayhi va Mubarrad shu o‘rindagina ziyoda harf bo‘ladi, deb hisoblaydi.

Qolgan olimlar, jumladan, Sakkokiy ibn Jinniyga qo‘shilgan holda boshqa o‘rinlarda ham ziyoda harf bo‘ladi, degan fikrda. Ibn Jinniy أَمْهَة so‘zidagi ushbu «hā» harfi ziyoda harfdir, chunki, bu مَ (ona) so‘zidir. Shuningdek، هَبْلَع (xo‘randa)

هركولة (odobi, xulqi, yurish-turishi yaxshi) so‘zlaridagi ushbu harf ziyoda harfdir. Dalil o‘laroq, quyidagi she’rni keltiradi:

هركولة فنق نیاف طلة لم تعد عن عشر و حول خر عب

(Odobi, xulqi, yurish-turishi yaxshi, boy-badavlat, hushbichim, iforli o‘zgarishga uchramagan, o‘n yoshga to‘lmagan qiz).

Demak, yuqorida keltirilgan misollardan bilish mumkinki, ushbu harf ziyoda harflar sirasiga kiradi. Nido, nudba o‘rinlarida ham ziyoda bo‘lish bilan bir qatorda fe’llar bilan bog‘liq bo‘lmagan أمهة هبلع، هركولة، so‘zlarining boshida va o‘rtasida ziyoda harf bo‘lib keldi. Sakkokiyning «hā» harfi to‘xtashda kelgan o‘rni e’tiborli emas, deb aytishi ma’no farqlashda yoki morfologik qolip o‘rnida ma’lum ahamiyat kasb etmasligi bilan bog‘liqdir. Tajvid ilmida oyat oxirida yoki bo‘lmasa, qori qaysi bir o‘rinda to‘xtasa, to‘xtagan so‘zi ♪ «tā» bilan tugagan bo‘lsa, uning o‘rnida «hā» bilan to‘xtaydi. Bu to‘xtash na bir ma’noga va na bir morfologik qolipga ta’sir etadi. Sakkokiy, Ibn Jinniy va boshqa «hā» harfini ziyoda harf deb hisoblovchi olimlarning dalillari kuchli bo‘lgani uchun ham ushbu harf ziyoda harflarning biridir. Ushbu harf aksariyat hollarda so‘z boshida, o‘rtasida, oxirida asl harf bo‘lib keladi. Bu fe’l so‘z turkumi yoki ism turkumiga bog‘liq yoki bog‘liq emasligiga aloqador hisoblanmaydi.

Sakkokiy الفصل الأول في مواضع الأصالة (Birinchi fasl asl harf o‘rinlari bayonida) deb morfoloyiyada asl harflarning so‘zdagi o‘rnini bayon qilishda tom ma’noda o‘ziga xos qarash bilan yangi bir uslub orqali tub so‘zlarda o‘zakni tashkil etuvchi harflarning so‘zdagi o‘rnini bayon qildi. Bundan burun o‘tgan katta tilshunoslar asarlarida bu kabi yondashuv yo‘q. Sibavayhi, Ibn Jinniy, Mahmud Zamaxshariy va boshqa olimlarning asarlarida bu kabi o‘ziga xos yondashuv kuzatilmaydi. Bu yondashuvda o‘zidan burun o‘tgan katta tilshunos olimlarning asarlaridan olingan xulosalarga tayanilgan. Ushbu mavzu ostida ziyoda harflarga kiruvchi «lām», «hamza», «vāv», «hā», «sīn» harflarining so‘zda o‘zak harf bo‘lib kelish o‘rinlari so‘z turkumlari bilan bog‘liq holda yoritildi. Aynan bu harflarning olinishi qolgan harflardan ko‘proq morfologik vazifalar bajarishi yoki bu harf borasida tortishuvli masala borligi asos hisoblanadi. Bahsli harflarda o‘z

qarashlarini boshqa olimlar fikriga tayangan holda bildiradi. Demak, fe'llar bilan bog'liq bo'lmanan, ya'ni ishtiqoqda fe'l bilan aloqasi yo'q so'zlar: turdosh ot, atoqli ot, sifat kabi so'zlar to'rt o'zak harfdan iborat bo'lsa, biror bir harf ziyoda qilish to'g'ri bo'lmaydi. Bu ziyodalik hodisasida lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar qo'shilishi nazarda tutilmagan. Fe'l bilan bog'lanmagan so'zlarda ikkita ziyoda harf bir so'zda kuzatilmaydi. «mīm» harfi asl harf bo'lib kelsa, undan keyingi harf ziyoda harf bo'lsa, shu so'zning ko'pligida tushib qoladi. «hamza» harfining ziyoda yoki asl bo'lishi so'zdagi o'rniga qarab belgilanadi. Agar bu harf so'z boshida kelsa, o'zidan tashqari uch harf bo'lsa, u ziyoda harf hisoblanadi. Bu kabi o'rinda «hamza» ishtirok etgan so'zlar arab tilida ko'p kuzatiladi. Masalan: أَبْجُر (أَبْجُر) (qorni katta), أَصْعَل (أَصْعَل) (kallasi kichik), (oq). So'z oxirida kelishi Sakkokiy fikrida bayon qilindi. «hamza» so'z boshida kelib, o'zidan keyin to'rt harf kelsa, bu o'rinda ham u ziyoda harf emas, o'zak harf hisoblanadi (bu kabi so'zlarga yuqorida misol keltirildi). Abduqohir Jurjoni: «Ushbu harf so'z o'rtasida ziyoda qilinmaydi», deb aytgan edi.

Demak, so'z o'rtasidagi hamza, agar bu mushtaq so'z bo'lmasa, o'zak harf hisoblanadi. «hamza» so'z oxirida kelib, o'zidan oldin ikkita harf bo'lsa, u asl bo'ladi. Masalan: قَارِئ (قَارِئ) (o'quvchi), مَالِي (خاطئ) (to'ldiruvchi), تَمَدْرِع (تَمَدْرِع) (adashgan). تَمْسَكْنَ، تَمْدَرْعَ، تَمْدَرْعَ، تَمْغَفَرَ، تَمْعَدَدَ، اسْمَهَرَ، احْرَنْجَمَ، aynan fe'l so'z turkumidaligi bilan uzviy bog'liq. Zero, fe'llarda «mīm» harfi ziyoda harf sifatida kelmaydi. Fe'llarda ikkinchi harf bo'gan «sīn» harfi asl harf hisoblanadi, ismlarda so'z boshida, o'rtasida, oxirida asl harf bo'lib keladi. Lekin, fe'llardagi استقْعَل morfologik qolipida bo'lsa, bu o'rinda «sīn» ziyoda harf hisoblanadi. Bu morfologik qolip orqali ishtiqoq qilingan hamma so'zlarda ushbu harf ziyoda harf sanaladi.

Arab tilida o'zlashgan so'zlardan tashqari barcha so'zlar ma'lum bir morfologik qolipga ega bo'ladi. So'z hosil qilishdagi ushbu morfologik qolip birlamchi o'ringa ega. Ayni paytda bu hodisaning arab tili bilan bog'liq o'ziga xos jihatlari bor bo'lib, u ziyoda harflar bilan bog'liqdir.

Morfologik qolipni tashkil etuvchi harflar vazifasiga ko‘ra ikki katta guruhga taqsimlanadi:

1. Morfologik qolipni tashkil etuvchi uch harf (ف ع ل) ning so‘zdagi ishtiroki.

2. Morfologik qolipdagi uch harfdan boshqa ziyoda qilingan harflarning ishtiroki.

Birinchi guruh harflar borasida klassik arabshunoslik vakillari ham, zamonaviy arabshunoslар ham yakdil. Bu borada bahsli munozaralar yo‘q. Ikkinci guruhni tashkil etuvchi ziyoda harflar borasida esa turli qarashlar mavjud.

Ziyoda bo‘luvchi harflarning soni o‘nta bo‘lib, ular quyidagilardir: ء ل ي و م ت ن س ا («lām», «hamza», «hā», «alif», «sīn», «nūn», «tā», «mīm», «vāv», «yā»,) Alifbodagi qolgan harflar ziyoda bo‘la olmaydi. Tadqiq etilayotgan muammolar: ushbu harflar faqatgina ziyoda yoki asl harf bo‘lib kelishi; ular ziyoda bo‘lib kelganda, so‘zdagi o‘rnini (so‘z boshi, o‘rtasi yoki oxirida bo‘lishini) o‘z ichiga oladi.

Bu harflarning so‘zdagi o‘rniga ko‘p ham e’tibor qaratilgan emas. Abu Ya’qub Sakkokiy bu harflarga jiddiy e’tibor qaratib, o‘z qarashlarini bildirgan. في بيان مواضع الزيادة في موضع الزيادة Chunonchi, u «Miftahu-l-ulum» asarining ikkinchi faslini (Ziyoda harflarning o‘rinlari bayoni haqida) deb nomlagan. Bu mavzuda tilshunos ko‘p yillik xulosalariga, o‘zidan oldin o‘tgan mashhur tilshunoslар qarashlariga tayangan holda fikr bildiradi. Har bir fikriga isbot o‘laroq misollar keltiradi.

Sakkokiy ziyoda harflar haqida shunday yozadi: «Uch o‘zak undoshdan iborat bo‘lgan so‘zda «hamza», «yā», «mīm» harflarining o‘zak undosh bo‘lib kelishi to‘g‘ri emas. Lekin ko‘p hollarda ziyoda harf bo‘lib keladi, biroq quyidagi so‘zlarda ushbu harflar asl harf bo‘lib kelgan: بارموق (barmoq), بيرinchilar (birinchilar), مذحج (Mazhaj, qabila nomi).»

Olim mavzuni yoritishni eng sodda holatdan boshladi. Uningcha, biron-bir so‘zda uchta ikkilanmagan harf bo‘lsa, demak, bu so‘zning ziyoda harfi yo‘q. Chunki, arab tilida ikki harfdan iborat so‘zning o‘zi mavjud emas.

Sibavayhi: «Agar ziyoda harflar so‘zning oxirida, to‘rtinchi harfi bo‘lsa, u albatta ziyoda bo‘ladi. Tub so‘zlarda ziyoda harf qatnashmaydi. Harfning ziyoda yoki asl ekanligi sukun bilan bog‘liqdir». Agar so‘z to‘rt harfli bo‘lsa, ulardan biri ziyoda harf bo‘ladi. Bu holatda istisnolar ham bor. Sakkokiy bularga **أوائل، اصبع، بغير مدخل،** so‘zlarini misol qilib keltiradi.

Abu Abbos Mubarrad: «hamza» so‘z boshida, siniq ko‘plikda, hosila bob fe’llarning boshida ziyoda bo‘lib keladi. Qolgan o‘rinlarda ziyoda bo‘lmaydi», deb aytadi.

Zamonaviy mashhur tilshunoslardan Muhyiddin Abdumajidning yozishicha, agar o‘zak uch undoshdan ortiq bo‘lsa, boshidagisi «yā» bo‘lsa, u ziyoda harf hisoblanadi. Masalan: **بغير - يلمع** (sarob); (tosh) so‘zlaridagi kabi.

Sibavayhi «mīm» harfining ziyoda o‘rinlari haqida: «Ushbu harf so‘z boshida ismlarda ko‘p hollarda ziyoda harf bo‘ladi. Ba’zan so‘z oxirida ham ziyoda bo‘ladi. Kamdan-kam holda so‘z o‘rtasida ziyoda bo‘ladi», deb fikr bildiradi.

Sakkokiy o‘z fikrida davom etib, quyidagilarni yozgan: «Yuqorida aytilganidek, aksariyat hollarda mazkur harflar («hamza», «yā», «mīm») ziyoda harf bo‘lib keladi. Yuqoridagi aytgan fikrimdan so‘zdagi asl harflarni bilish usuli: ulardan ziyoda harflarni chiqarish yoki ziyoda harflarning kelish o‘rinlarini bilib olish».

Olim bu o‘rinda muhim xulosani keltirib o‘tyapti. Bu so‘zdagi asl va ziyoda harf o‘rinlaridir. Agar so‘zdagi asl harflar ma’lum bo‘lsa, ziyoda harf o‘z-o‘zidan ajralib chiqadi. Ziyoda harf o‘rinlari bilib olinsa, asl harflar ma’lum bo‘ladi. Olim ayni harflarga e’tibor qaratganligi so‘z yasalishida ularning ahamiyati muhim ekanligidan dalolat beradi.

Arab tilida aksariyat so‘zning o‘zagi uch undoshli bo‘ladi, chunki uch undoshli o‘zakka ega so‘zlar juda ko‘p. Olim: «O‘zakning birinchi undoshi «vāv» bo‘lib kelishidan tashqari līn (cho‘zib talaffuz qilunuvchi «vāv» va «yā») harflarining o‘zak tarkibida kelishi to‘g‘ri emas. Misol: **كاهل**(elka), **غزال**(kiyik), **علقى**(alqo, har qachon yashil rangga burkanib turuvchi daraxt), **ضيغ**(jag‘i keng

sher), عەذىر (g‘ubor), خروع (tikanli buta), خەرۇچان (egiluvchan o‘simlik)», deb yozgan. Bu so‘zlardagi «alif» va līn harflari («vāv» va «yā») asl emas, ziyoda harflardir.

Sibavayhining «vāv» harfining ikkinchi, uchinchi, to‘rtinchi va beshinchi harf sifatida ziyoda bo‘lib kelishi haqidagi fikri. Sakkokiyning bu borada aytgan fikrini qo‘llab-quvvatlaydi. Shuningdek, Sibavayhi «vāv» uchinchi o‘rinda ziyoda qilinishi faqatgina ism va sifat so‘z turkumlarida bo‘lishini aytgan edi.

Sakkokiy «vāv», «yā», «alif» harflariga to‘xtalib, uch undoshdan iborat so‘zlarda ushbu harflar birinchi o‘zak harf o‘rnidan boshqa o‘rinlarda o‘zak harf bo‘lishi to‘g‘ri emasligini ta’kidlagan. Bunga misol sifatida: عذاقر (katta jussali sher), سرداح (baland bo‘yli urg‘ochi tuya), حبرى (bo‘yni yo‘g‘on kishi), سميدع (saxovatli), قبعترى (Firdavs), فدوکس (shiddatli sher), خزعبديل (gapdagι yolg‘on), عضرفوط (mayda nozik hayvon). Ushbu so‘zlarda yuqorida keltirylan harflar ziyoda harf hisoblanadi. Ularda o‘zak harflari uchtadan ko‘p bo‘lgani uchun, «vāv», «yā», «alif» birinchi harf bo‘lmagani uchun ham ziyoda harf hisoblanadi.

Harflarning ziyoda, asl, badal o‘rinlarini mukammal o‘rgangan tilshunos Ibn Jinniy «vāv» harfi bitta so‘zda birinchi o‘zak va uchinchi o‘zak undosh bo‘lib kela olmasligini aytadi [18: 596]. Shuningdek, Ibn Jinniy «alif» haqida «Tub so‘zlarda kelgan sukonli «alif», ya’ni so‘z oxirida kelgan ushbu harf asl harf hisoblanib, qolgan o‘rinlarda ziyoda harf bo‘ladi. Uɬ (yo‘q), ـما (nima), حتى (gacha ) singari so‘zlardagi «alif» o‘zak harfdir», deb aytgan edi. Yasama so‘zlardagi «alif» ning bari qaysi o‘rinda kelishidan qat’i nazar ziyoda harfdir.

Sakkokiy keyingi «nūn» harfiga to‘xtalib, so‘z oxirida kelgan «nūn» o‘zidan oldin «alif» va uchta harfdan keyin kelsa, bu holda «nūn» ziyoda harf bo‘ladi. ملukan (tuya yeydigan o‘simlik), سرحان (xayolchan), عرقان (chayon), جندمان (Jandaman, qabila nomi), غمدان (G‘imdan, qal‘a nomi), عثمان (Usmon), زعفران (za’faron). Ushbu so‘zlarda olim aytgan holatlar mavjudligi uchun ham «nūn» ziyoda harfdir.

Sakkokiyning bu fikrini XX yuzyillikning mashhur tilshunoslaridan Muhammad Muhyiddin Abdulmajid ham qo‘llab-quvvatlaydi: «Agar «nūn»dan

oldin «alif» bo‘lmasa (برىشنى - «tirnoq» so‘zidagi kabi), yoki «alif» bo‘lib, ikki harf kelsa (أمان - «tinchlik», زمان - «zamon», أوان - «vaqt» so‘zlar singari), «alif» kelib, undan oldin ikkilangan undosh kelsa (حسان - «juda chiroyli», عفان - «izdan chiqqan»), قبان - «katta tarozi» so‘zlaridagi kabi), bu o‘rinlarda «alif» bo‘lsa, demak, u ziyoda harf hisoblanadi. Yasalgan so‘zlarda tushib qolsa, asl harf hisoblanadi».

Yuqorida keltirilgan so‘zlardagi «nūn» so‘z qolipida tushib qoladi, demak, ularda «nūn» ziyoda emas, balki asl harfdir. Muhammad Abdulmajidning harflar asl yoki ziyoda ekanligini aniqlash haqidagi fikri to‘g‘ri ekanligini XIII yuzyillikning mashhur tilshunosi Sakkociyning fikri ham dalillaydi. Sakkociyning yozishicha: «So‘zdagi «nūn» va «tā» ning asl yoki ziyoda ekanligini so‘zning qurilishi aniqlab beradi». Asl harf o‘z o‘rnida kelgan bo‘lsa, morfologik qolipga tushmaydi. Ziyoda bo‘lsa, morfologik qolipda qoladi. Sakkociy fikrini davom ettirib, morfologik qolipda bo‘lsa, asl harf bo‘lishi to‘g‘ri bo‘lmasligini yozgan edi. Quyidagi so‘zlarda «nūn» va «tā» harflari ziyoda ekanligi aniq hisoblanadi: نرجس (nargiz), كنهبل (katta daraxt), ترتب (mustahkam ish), تخلف (tulki). Bu so‘zlarda «nūn» va «tā» harflarining ziyoda harf bo‘lishini Muhammad Abdulmajid ham ta’kidlangan edi. Ziyoda ekanligiga isbot o‘laroq, bunday morfologik qolip arab tilida mavjud emasligi keltiriladi [48: 48]. Shu o‘rinda ترتب (tarbiyat) so‘zining tilda mavjud morfologik qolipi فاعل (fa‘al) deb ko‘rsatiladi. Bu qolipda birinchi «tā» ning yo‘qligi ziyoda ekanligiga dalil bo‘ladi. Sibavayhi ham ushbu so‘zdagi «tā» harfining ziyoda ekanligini aytgan.

صعتر (sa’tar, o‘t nomi). Ushbu so‘zlarda kelayotgan «nūn» va «tā» harflari yuqoridagilarga qarama-qarshi o‘laroq asl harflardir. Bu so‘zlar yuqorida keltirilgan olimlar e’tiboridan chetda qolgan. Sakkociy aniq dalillarga suyangan holda barchasini keltirishga harakat qilgan. Lekin, ularning nima uchun asl harf bo‘lib kelishini aytmagan. Shuningdek, عذر (Antara) so‘zidagi bahs qilinayotgan har ikkala harf asl harflardir. Ba’zi so‘zlarda bu harflar asl yoki ziyoda harf bo‘lishi so‘zning qaysi turkumga mansubligi bilan bog‘liq. Chunki, asl bo‘lib kelgan so‘zlarga e’tibor qilsak, ular atoqli ot bo‘lyapti. Yoki bu so‘zlar avvaldan shunday talaffuz qilinib, ularning

boshqacha talaffuzli variantlari yo‘q bo‘lganligi bo‘lishi ham mumkin. «нүн» harfi sukunli bo‘lib, so‘zda uchinchi harf bo‘lib kelsa, masalan: عَقْدَل (qum aralashgan do‘ng tepalik), حَجْنَفْ (katta lab), شَرْبَثْ (katta panja) singari so‘zlarda ushbu harf ziyoda hisoblanadi. So‘zda bir yoki ikki o‘rinda bir undosh qaytarilgudek bo‘lsa, shuningdek, ularda o‘zakning uchala harfi ajralib tursa, qaytarilgan harflarning asl bo‘lishi to‘g‘ri emas. Masalan: قَرْدَدْ (tepalik), رَمَدَدْ (nozik), عَنْدَدْ (ulush), شَرْبَبْ (Shurbub, vodiy nomi), خَدْبَبْ (qari tuyaqush, mis), جَبِنْ=جَبَنْ (vazmin), قَطْعَهْ (kesmoq), اَقْشَعَرْ (qaltiramoq), مَرْمِيسْ (baxtsizlik), عَصْبَصْ (qattiq) [MU, 10a]. Keltirilgan so‘zlarning har birida uchta o‘zak harf bo‘lgani uchun qolganlari ziyoda harf hisoblanadi.

Yana shunday holat ham bo‘lishi mumkin: bir harf ikki o‘rinda kelib, biri asl, ikkinchisi ziyoda bo‘lish holati. Bunga yuqoridagi تَنْفَلْ تَنْفَلْ (so‘zleri misol bo‘la oladi. Yoki ikki asl harfning ana shunday harf bilan yondosh kelish holati: مَحْبَبْ (dona-dona), مَكْوَزَةْ (cho‘ziq kalla) so‘zlaridagi singari.

Sakkokiy o‘z asarida misol qilib keltirgan so‘zlarning ko‘pi hozirgi arab tilida unutilgan. Shuning uchun ham hozirgi arablar ularni ilg‘ab olishi qiyin. Ular klassik arab tiliga xos xususiyatlardir.

Yuqorida keltirilgan o‘quvchi uchun murakkab hisoblanuvchi holatlarga duch kelganda qanday yo‘l tutish kerakligini Sakkokiy o‘z tajribalariga tayangan holda bayon qiladi. Bu kabi holatda to‘g‘risini topish faqat bilimga asoslangan tajriba orqali bo‘lishi olim tomonidan alohida ta’kidlanadi. Eng to‘g‘ri deb bilishdagi qonun – bu avvalo ishtiqoqning o‘xhashiga e’tibor qaratishdir.

So‘ng asl harf deb topilgan harflarning bir butunligiga e’tibor berilib, keyin o‘xhash ishtiqoqlar o‘rtasida qarama-qarshilik bo‘lsa, qo‘srimchalariga qaraladi. أَرْطَى (qumda o‘suvchi daraxt), بَعْيَرْ أَرْطَوْرَاطْ (ushbu daraxt po‘stlog‘ini yeyuvchi tuyu), أَدْبَمْ مَأْرُوطْ وَمَرْطَى (ushbu daraxt po‘stlog‘i bilan oshlangan teri). Ushbu misolda birinchi so‘z qolgan so‘zlar hosil bo‘lishi uchun o‘zak vazifasini o‘taydi. Birinchi so‘zdagi hamma harflar «hamza» ham asl harfdir. شَيْطَانْ so‘zi o‘zaklarini ikki xil deb o‘ylash mumkin: شَيْطَنْ 2. ushbu holatda Basra tilshunoslik

maktabi namoyandalari fikriga ko‘ra eng to‘g‘risini topish faqat ularni o‘zaro solishtirish bilan bo‘ladi.

Yuqorida asl va ziyoda harflar va ularning o‘rinlari borasida fikrlar keltirildi. Ba’zi o‘rinlarda bir harf asl, ba’zan shu harf ziyoda bo‘lib kelyapti. Bu kabi holat qoidada chalkashlikni keltirib chiqarmaydi. Masalan: **اصطبل**(otxona) so‘zidagi hamma harflar asldir. Sakkokiy fikriga ko‘ra bu so‘zdagi harflarning asl bo‘lishi «lām» harfining ziyoda o‘rinlarida bu kabi holat yo‘qligi, ushbu harfning asl bo‘lishiga olib keladi. «lām» harfi asl harf bo‘lishi esa, «hamza» ning asl bo‘lishiga olib keladi [MU, 10a]. **بستعور**(misvok olinadigan daraxt) so‘zidagi «sīn» va «tā» hafrlari «yā» ning asl bo‘lishiga olib keladi. **آخرط** (tekis yerda o‘sadigan o‘simlik), **أدرون**(oxur) ushbu so‘zlardagi «alif» va «yā» harflari o‘zi bilan «hamza» ni ziyoda bo‘lishiga olib keladi. **عقدقل** so‘zida «nūn» harfining ziyoda harf bo‘lishi ikkilanuvchi harf bo‘lishiga olib keladi. **خفیدد** (xofyadid, rayhon turi) ushbu so‘zda «yā» ning kelishi harflarning ikkilanishiga olib keladi. **ضميران**. (ikkita vijdon) so‘zida «yā» ning ziyoda bo‘lishi «alif» va «nūn» harflarining ziyoda bo‘lishini taqozo qiladi.

Fikr yuritilganidek, qoidalar bir-birini taqozo qilib kelaveradi. Misol sifatida keltirilayotgan so‘zlarning aksariyati arab tilida kam uchraydigan so‘zlar bo‘lib, olim ular o‘rtasidagi ko‘p tilshunoslar e’tibor bermagan jihatni ohib bermoqda. Bu jihat harflar o‘rtasidagi o‘ziga xos bir-birini taqozo qilish munosabatidir. Yuqorida keltirilgan **birgina** **اصطبل** so‘zini olib ko‘rsak, «hamza» aksariyat holda so‘z boshida ziyoda harf bo‘lib kelishini hosobga olib, asl harflar sirasidan chiqarsak, to‘rt asl harf qoladi. «lām» harfining ziyoda o‘rinlari ikkita bo‘lib, bu so‘z o‘sha ikki o‘rinning hech biriga kirmaydi. Arab tilida **اصطبل** «otxona» ma’nosini beruvchi yoki shu ma’noga yaqinroq biron bir so‘z yo‘q bo‘lganligi uchun ham ushbu so‘zdagi «hamza» va qolgan harflar asl harf hisoblanadi.

Demak, arab tilida har bir so‘zning o‘ziga xos morfologik qolipi bor. Bu qolip asl va ziyoda harflardan iborat bo‘ladi. Arab tilida so‘zlardagi asl harflar soni ikkitadan kam bo‘lmaydi. Ziyoda qilingan harflar bilan yetti harfdan oshib

ketmaydi. Ziyoda bo‘luvchi harflar o‘nta bo‘lib, so‘zdagi ularni aniqlash, qaysi o‘rinda, qaysi harflar bilan kelganligiga bog‘liq bo‘ladi.

### Savollar:

1. Asl harflar va ularning so‘zdagi o‘rnini haqida ma’lumot bering.
2. Morfologik qolipda o‘zgaruvchi harflar qaysilar?
3. Sakkokiyning mavzuni yoritishdagi xos jihatini nima?
4. Ziyoda harflar soni va ular qaysi harflar?
5. So‘zdagi harfning asl yoki ziyoda ekanligini nima aniqlab beradi?

## 3.6. FE’LLARDAN YASALGAN ISMLAR

### Reja:

1. Fe’ldan hosil bo‘luvchi so‘zlar va ularning morfologik qoliplari.
2. Morfologik qolip va semantika o‘rtasidagi bog‘liqlik.
3. Masdardagi semantik jihatdan tasniflanish.
4. Illatli harflar sababli bo‘ladigan morfologik o‘zgarishlar.

**Tayanch so‘z va iboralar:** mutasarrif, ism, fe’l, fe’ldan yasalgan sifat, bir martalik masdar.

Arab tili so‘z yasalishi borasida o‘ziga xosliklarga ega. Shuning uchun u “mutasarrif” til sanaladi. Arab tilida so‘z yasalishi muayyan vaznlar (morfologik qolip) asosida kechadi. Vaznlar asosida so‘z hosil qilinishi تصریف tasrif deb ataladi. Buning keng tarqalgan turlaridan biri اشتقاق—ishtiqoq bo‘lib, unda so‘zdan yangi so‘z yasalishi tushuniladi. Ishtiqoq haqida olimlar orasida turlicha qarashlar mavjud.

Mahmud Zamaxshariy fe’ldan yasaluvchi so‘zlar haqida shunday yozadi:  
الأسماء المتصلة ثمانية أسماء: المصدر، اسم الفاعل، اسم المفعول، الصفة المتشبهة، اسم التفضيل،  
أسماء الزمان والمكان، اسم الآلة.

Fe'l bilan bog'liq so'zlar sakkizta bo'lib, ular: harakat nomi, aniq nisbat sifatdoshi, majhul nisbat sifatdoshi, sifat, ortirma darajadagi sifat, o'rinni va paytni bildiruvchi ism, ish quollarining otlaridir [41: 173].

Abu Yaqub Sakkokiy ham yuqoridagidek, so'z yasalishini sakkizta faslga birlashtirgan edi.

Birinchi faslni ”الفصل الأول في هيئات المصادر“ (harakat nomining shakllari haqida) deb nomlaydi. Sakkokiy ushbu mavzu doirasida ko'proq ilmiy xulosalarga tayanib, quyidagilarni aytadi: “Ziyodalardan holi bo'lgan uch o'zak undoshli fe'llarning masdar shakllari ko'p bo'lib, aniq soni yo'q. Agar o'timsiz fe'l bo'lib, hozirgi-kelasi zamonda o'rta undosh harakati “a” bo'lsa, harakat nomi فَعُول vaznida رَكْوَع -رَكْع “ruku qildi” hozirgi-kelasi zamon shakli بِرَكْع, bundan harakat nomi esa رَكْوَع -رَكْع “ruku qiluv”), fe'lning hozirgi-kelasi zamonda o'rta o'zak undosh harakati “i”, o'timli bo'lsa, harakat nomi فَعْل shaklida, o'rta o'zak undoshi “u” bo'lsa, فَعَالَة shaklida hosil bo'ladi. To'rt o'zak undoshli fe'lllar harakat nomi shakli ikkita bo'lib, ular فَعَالَة va hisoblanadi [MU, 52].

Mahmud Zamaxshariy uch o'zak undoshdan iborat fe'llarning 32 ta vazni bor ekanligini Sibavayhidan naql qiladi [41: 174]. Alloma Sakkokiydan farqli o'laroq, harakat nomining sintaktik vazifalariga ham to'xtalib o'tgan. Shuningdek, harakat nomidan hosil bo'luvchi اسم النوع –turni ifodalovchi ot, bir martalik masdarlarni shu mavzu doirasida yoritadi [qarang: 41: 178]. Sakkokiy esa, ularni alohida mavzular doirasida yoritgan.

Har ikkala olim فَعِيلَى va تَقْعِيل harakat nomi shakllari ma'noni kuchaytirish maqsadlarida qo'llanishini urg'ulaydilar.

Sibavayhi, Ibn Sarroj, Abu Qosim Zujajiy, Ali ibn Ismoil, Ibn Qobisiy, Ibn Ya'ish, Ibn Usfur, Ibn Molik asarlarida fe'lning semantik xususiyatidan kelib chiqib, ba'zi qoliplar keltirilgan. Ular masdar shakllari ko'p bo'lgan uch undoshli o'zak, ziyodadan xoli fe'llarga tegishlidir. Bular:

1. Fe'l hunar yoki boshqaruv sohasini ifodalasa, uning masdari فَعَالَة qolipida bo'ladi: زراعة (dehqonchilik qildi), امر (amirlilik qildi), إمارة (buyurish, amirlilik qilish).

2. Fe'l harakat va hodisalarni ifodalasa, uning masdari qolipida bo'ladi: فَعْلَانْ فعال (qaynadi) غلیان (qaynash), ثار (to's-to'polon ko'tardi) شوران (to's-to'palon ko'tarish).

3. Fe'l harakatlanishni ifodalasa, uning masdari qolipida bo'ladi: رَحْلَةْ فعل (jo'nadi) دب (jo'nash), رَحِيلْ دبیب (emakladi) دبیب (emaklash).

4. Fe'l norozilik munosabatini ifodalasa, uning masdari qolipida bo'ladi: فَعْلَاءْ جَمَاحْ (أَبِي) (qarshilik qildi) إباء (qarshilik qilish), جَمَاحْ (o'jarlik qildi) (o'jarlik qilish).

5. Fe'l biror kasallik bilan og'rishni ifodalab, فَعِلْ bobidan bo'lmasa, uning masdari فَعَالْ qolipida bo'ladi: زُكَامْ (shamollamoq) سعل (shamollah), (yo'talmoq) سعال (yo'talish).

Agar bobida bo'lsa, uning masdari فَعَلْ qolipida bo'ladi: وَرْمَ (shishdi) ورم (shishgan), وَجْعَ (og'rimoq) وجع (og'riq).

6. Fe'l ovoz chiqarish bilan bog'liq bo'lsa, uning masdari فَعِيلْ yoki ضَجَاجْ (qichqirish) نهیق (hangramoq) ضج (hangrash), ضجیح (qichqirdi) (qichqirish).

7. Fe'l rang-tus bilan bog'liq holatni ifodalasa, uning masdari فُعلَةْ bo'ladi: صَفَرَةْ (qizardi) حمر (qizarish), صَفَرْ (sarg'aydi) صفرة (sarg'ayish).

Masdarni semantik jihatdan uch turga bo'lib olish mumkin:

1. Umumiy masdar o'zi hosil bo'lgan fe'lning barcha o'zak harflarini qamrab olib, harakat va holatni ifodalaydi. Masalan: جَلْسَ (o'tirdi) fe'lidan (o'tirish) masdari. Harakat va holatni ifodalash bilan bir qatorda ularni nomlash xususiyatiga ega bo'lgan, shuningdek, ba'zi harflari (ziyoda yoki asl harflari) dan xoli bo'lgan masdarlar «masdar nomi (اسم المصدر)», deb ataladi. Masalan: وَاللَّهُ أَنْبَأَكُمْ مِنَ الْأَرْضِ نَبَاتًا (Alloh sizlarni yerdan o'stirib chiqaradi. Nuh surasi, 17-oyat). Fe'l masdar nomi نبات (o'stirish).

2. Bir martalik masdar (اسم الامر) fe'lidan anglashilgan harakat va hodisa bir marta sodir bo'lishini ifodalaydi. Buning qolipi: فُعلَةْ. Bu qolip ziyodadan xoli uch undoshli o'zak fe'llar uchun tegishli bo'lib, qolgan fe'llar uchun umumiyl

masdarning oxiriga muannaslik ҳ «tā» sini qo'shish orqali hosil qilinadi. Masalan: **فَنَظَرَ نَظَرًا فِي النُّجُومِ** (U yulduzlarga bir nazar soldi. Soffat surasi, 88-oyat).

3. Shabl va sifat masdari (**مُصْدَرُ الْهَيْئَةِ**) fe'lidan anglashilgan harakat va hodisa qanday amalga oshganligini ifodalaydi. Ushbu masdar qolipi: **فِعْلَةٌ**. Masalan: **وَإِذَا ذَبَحْتُمْ فَأَحْسِنُوا الْذَبْحَةَ**: (Jonliq so'yadigan bo'lsangiz, so'yishni oson holda qiling.

Morfologik jihatdan masdarni ikki turga bo'lib olish mumkin:

1. **مَفْعِلٌ** qolipida yasaluvchi masdar (**الْمُصْدَرُ الْمَيْمِيُّ**). Bunday masdar turi ziyoda harf bo'lgan «mīm» bilan boshlanadi [qarang: 13: 233]. Bunga misol: **ضَرَبٌ** - (urdi) fe'lidan ushbu turdag'i masdar (**مُضَرَّبٌ** urish).

2. **مَصْدَرُ الصَّنَاعِيِّ** so'zning oxiriga tashdidli «yā» va muannaslikni ifodalovchi ҳ «tā» qo'shish orqali yasaladi [qarang: 32: 162]. Bu qo'shimcha qo'shilgan so'z o'zakning belgi, xususiyatini ifodalaydi. Bunga misol: **إِنْسَانٌ** (inson) (**إِنْسَانِيَّةٌ**) (insoniyat).

Sakkokiy uch undoshli o'zaklar haqida yozganidan keyin o'zining prinsipi asosida fe'llarni tartiblab, ziyoda harfdan xoli bo'lgan to'rt undoshli o'zaklarning masdar shakllari haqida: «To'rt undoshli o'zak fe'llar harakat nomi shakli ikkita bo'lib, ular **فِعْلَةٌ** va hisoblanadi», deb bayon qilgan [MU, 19a]. Bunday fe'llarning morfologik tuzulishiga e'tibor qaratib, bir harfi ikki marta qo'llangan fe'lning silkindi (**فِعْلَلٌ** - silkindi) masdar shakli qolipi bilan bir qatorda **فِعْلَلَةٌ** da (**فِعْلَلَةٌ** - silkinuv) ham yasalishini yozadi [MU, 19a].

Fe'llarning masdar qoliplari harflar soniga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Birinchi uch undoshli o'zak ziyoda harfdan xoli fe'llarning masdarlari juda ko'p ekanligi Sakkokiy tomonidan aytildi. Bu borada ularning shakli qirqdan ortiq deb hisoblovchi tilshunoslar ko'pchilikni tashkil etadi. Mahmud Zamaxshariy uch undoshli o'zak ziyoda harfdan xoli fe'llarning 32 ta qolipi bor ekanligini Sibavayhidan naql qiladi [41: 174].

Sakkokiy ziyodadan xoli fe'llarning masdar qoliplarini aytgach, birinchi bo'lib, «hamza» harfi ziyoda qilingan **أَفْعَلٌ** bobidagi fe'l masdariga to'xtalib yozadi: «Ushbu bobdag'i fe'lning masdari **إِفْعَالٌ** qolipida hosil bo'ladi. Ajvaf fe'l (o'zakning

ikkinchi undoshi «vāv», «yā» bo‘lgan fe’l. «alif» ikki harf o‘rnida almashib ham keladi) bo‘lsa, إفالله qolipida hosil bo‘ladi» [MU, 19a]. Bu o‘rinda olim masdar hosil qilishning oddiy jarayonidan murakkab bo‘lgan jarayonga o‘tib, o‘zakning ikkinchi harfi illatli fe’llarga to‘xtalmoqda. Bu qolipdagi fe’llar o‘zagining birinchi harfi illatli bo‘lgani ham bor. Bu turdagи fe’l masdarlarida illatli harf «hamza» harakatiga mos bo‘lgan cho‘ziq unliga almashadi. Masalan: أوصل (etkazdi) masdari إوصال emas, إ يصل (etkazuv) shaklida bo‘ladi.

O‘zakning ikkinchi undoshi illatli bo‘lgan ushbu bob fe’li masdar shakli إفالله bo‘lib, bu qolipdagi ة «tā» tushirib qoldirilgan illatli harf bor ekanligini bildiradi. Bu hodisa عوض (evaz)» deb nomlanib, unda tushirib qoldirilgan illatli harf o‘rniga ة «tā» keladi [31: 304]. Sakkokiy buni izohlab deydi: «Agar o‘zakning ikkinchi harfi illatli bo‘lsa, fe’ldagi va qolipdagi «alif» kelib, ikkita sukun (harakatsizlik-ikki undosh unlisiz kelish hodisasi) jamlanib qoladi. Fe’l tarkibidagi «alif» tushirib qoldiriladi» [MU, 19a]. Masalan: أقام (to‘g‘riladi) ning asli إقامه avvalgi shaklga o‘zgarishi illatli harfga unli og‘irlik qilganligi uchun masdari إقامه emas, olim ta’kidlaganidek, إفالله qolipida (to‘g‘rilash) dir [MU, 19a].

Ushbu bobda va qolgan ayrim boblarda o‘zakning uchinchi undoshi illatli harf bo‘lsa, u «hamza» ga o‘zgaradi. Bu «Illatli harflarning «hamza» ga o‘zgarishi (قلب حروف العلة إلى الهمزة)», deb nomlanadi [31: 334].

Sakkokiy keyingi bob fe’llari masdarlarining qoliplariga to‘xtalib, quyidagilarni yozgan edi: «O‘zakning ikkinchi undoshi ikkilangan فعل fe’l bobining masdar qoliplari تفعيل ، مفعولة bo‘lib, ba’zan qolipida ham keladi» [MU, 19a].

Birinchi o‘zak undoshdan keyin «alif» ziyoda qilingan فاعل fe’l bobining masdar qoliplari فعال، مفعولة bo‘lib, ba’zan qolipida ham keladi. Ushbu masdar qoliplaridan o‘zakning birinchi undoshi «yā» dan iborat fe’llar faqat shu qolipda hosil qilinadi. Bu bobning noqis fe’llari uchun xoslangan qolip فعال bo‘lib, illatli harfi «hamza» ga almashadi.

O‘zakning birinchi undoshidan avval «tā» (ت) ziyoda qilingan fe’l bobining masdar qolipi تفعيل bo‘lib, ba’zan qolipida keladi. Ushbu bobning

noqis fe'llarida illatli harf tushib qolib, oxirgi undosh kasra [i] bilan keladi (kasralanadi).

Olim «hamza» ishtirok etgan boblar haqida: «أفعَلَ» bobidan boshqa barcha fe'l boblari birinchi harfi bo'lgan «hamza» vaslalidir. Ismlarda o'nta so'zgina vaslali «hamza» bilan boshlanadi. Bular: اسم (nom), است (orqa teshik), ابن - ابنم (o'g'il), امرأ (ayol), امرأة (ayol), اثنان-اثنتان (ikki), امرأ (erkak kishi), ايم-ايمن الله (Alloh nomi bilan qasam ichish)» [MU, 19a].

Masdar qoliplari xususida so'z yuritar ekan olim shunday yozgan edi: «تَفَعَّلَ» فعیلی harakat nomi shakllari ma'noni kuchaytirish maqsadlarida qo'llanadi» [MU, 19a]. Sakkokiyning bu fikrini Mahmud Zamaxshariyda ham kuzatish mumkin [41: 178].

*Aniq nisbat sifatdoshi* (اسم الفاعل) fe'lidan hosil bo'luvchi so'z hisoblanib, ساکوکيي bayonida bu mavzu ancha qisqa. Uch o'zak undoshli fe'llardan فاعل، فعال، مفعول، مفعول، يتفاعل، يتفاعل، يتفاعل، يتفاعل، يتفاعل شакллари qo'llanishini aytadi. Shuningdek, qolgan fe'l boblarida bu shaklni hosil qilishning oson usuli bor ekanligini yozib, u hozirgi-kelasi zamon shakllaridagi old zamon qo'shimchalari o'rniga unlisi "u" bo'lgan "mim" harfini qo'yishni, uchta: boblarida oxtirgi undoshdan oldin "i" kelishini aytgan edi. Zamaxshariy esa, aniq nisbat sifatdoshi mavzusini sintaktik vazifalaridan boshlab, substantivatsiyalashuv jarayonigacha bayon qiladi. Hosil bo'lish shakllarini eslamasa-da, gap tarkibidagi vazifalarini batafsil yozadi.

- اسم المفعول majhul nisbatdagi sifatdosh mavzusida har ikki tilshunos qisqa bayon qilish usulini tanlagan: Sakkokiy hosil qilish yo'llariga e'tibor qaratgan bo'lsa, Zamaxshariy uning sintaktik vazifalariga to'xtalgan. Sakkokiy illatli harf qatnashgan fe'llardan majhul nisbat sifatdoshi hosil qilishda Sibavayhidan iqtibos keltirib, illatli harflarning hazf qilinish (tushirish) hodisasini yoritadi قال “aytdi” fe'lidan yasalgan “aytilgan” sifatdoshining shakli مقول emas, مقول dir. Bu so'zning harfi hazf qilingan).

*Fe'lidan yasalgan sifat* (المُشَبَّهَةُ الصِّفَةُ). Buning so'zma-so'z tarjimasi “o'xshatilgan sifat” degan ma'noni anglatadi. Bunday deb nomlanishining sababi

unda fe'lning ayrim sintaktik vazifalari bor bo'lganligidadir. Bu haqda Mahmud Zamaxshariy: "O'xhatilgan sifat asliy sifatlardek bo'lmaydi. Asliy sifatga u jins, son kategoriyalarda o'zi aniqlab kelayotgan so'zga moslashishi bilan o'xshashdir" [41: 184].

Zamaxshariyning fikrini quyidagi misollar bilan quvvatlash mumkin: حَسَنٌ - "yaxshi bo'ldi" fe'lidan yasalgan حَسَنٌ - حَسَنٌ "yaxshi"; كَرْمٌ - "karamli bo'ldi" fe'lidan yasalgan كَرِيمٌ "sahiy". Bu turdag'i sifatlar ko'proq lafziy izofalarda o'zining fe'lidan o'zlashgan sintaktik xususiyatlarini namoyon qiladi. Masalan: الْبَنُو الْحَسَنِ الْخَلْقُ - "yaxshi xulqli" lafziy izofadir). Sakkokiy bu mavzu haqida: "O'xhatilgan sifat uch o'zak undoshli, ziyodadan holi fe'llardan yasalib, jins, son kategoriyasiga ega aniq va majhul nisbat sifatdoshlaridan boshqa fe'lidan hosil bo'lgan shakllardir," - deb yozgan edi.

*Fe'lidan yasalgan ortirma darajadagi sifat* (أَفْعَلُ التَّقْضِيل) har ikkala olim tomonidan ta'kidlanganidek, faqat uch o'zak undoshli, ziyoda harflardan holi bo'lgan fe'llardan yasaladi. Sakkokiy bu haqda qisqacha to'xtalib, ayb va rangdan boshqa ma'noni ifodalovchi so'zlardan hosil bo'lishini aytadi. Zamaxshariy mavzuni batafsil bayon qilib, uni qanday yasalishi, istisno holatlari, son kategoriyasi, xosliklarini yozadi. Bunga misol tariqasida quyidagi holatlarni keltirish mumkin: حَسَنٌ - "yaxshi bo'ldi" fe'lidan yasalgan حَسَنٌ - حَسَنٌ "yaxshi", bu fe'lidan hosil bo'lgan sifatning ortirma darajasi أَحْسَنٌ - "eng yaxshi"dir. Yasalishiga e'tibor qaratilsa, u darajama-daraja fe'lga bog'lanyapti, ya'ni avval fe'l, undan keyin mushabbaha sifat, oxiri ortirma darajadagi sifat.

*O'rin va paytni bildiruvchi ismlar* (أَسْمَاءُ الْمَكَانِ وَالْزَّمَانِ). Bu kategoriya boshqa tillarda kuzatilmaydi. Bu holda bitta so'z ikkita: o'rin va payt nomlarini ifodalaydi. Sakkokiy o'rin va payt nomlarini alohida mavzularda yoritib, ularning shakllarini keltirish bilan kifoyalanadi. Zamaxshariy esa, ikki mavzuni bir mavzuda berib, yasalish uslubini batafsil yoritadi. Sakkokiy o'rin va payt nomlari uch o'zak undoshlilarga xos deb aysa, Zamaxshariy uch o'zak undoshli, to'rt o'zak undoshli va uch o'zak undoshli ziyoda shakllaridan ham yasalishini misollar bilan batafsil

yoritib beradi. Har ikkala tilshunos ham مفعلة vaznida yasalgan o‘rin va payt nomlari ko‘plik ma’nosini ta’kidlash uchun qo‘llanishini aytadi.

*Ish qurollari otlari* (اسم الآلة). Har ikki olim bu mavzuni yoritishda vaznllarni keltirish bilan cheklanadi. Buning vaznlari: مفعل، مفعلة، مفعول lardir.

XII yuzyillikning ikki mashhur tilshunosi Mahmud Zamaxshariy va Abu Yaqub Sakkokiy mavzuni “الأسماء المتصلة بالفعل” deb nomlashlari Kufa tilshunoslik mактabi namoyandalarining fikrlarini qo‘llab-quvvatlaganini bildiradi. Ularning fikricha, ishtiqoqning asli fe’ldir. Ushbu mavzuni har ikki tilshunos o‘z uslublariga mos bo‘lgan tarzda yoritganlar. Zamaxshariy ushbu mavzuni nahv bo‘limida keltirganligi bois, ko‘proq sintaktik vazifalariga e’tibor qaratgan bo‘lsa, Sakkokiy ushbu mavzuni sarf bo‘limida keltirganligi bois ko‘proq yasalish vaznlariga e’tibor qaratdi. Ikki manba bir-birini to‘ldiradi. Shunga qaramay, avvalgi manba keyingisiga asos bo‘lib xizmat qilganini ta’kidlamoq zarur.

### Savollar:

1. Fe’ldan yasalgan ismlar qaysilar?
2. Masdar va uning o‘zgachaliklari nimalar?
3. Ism foilning morfologik qoliqlarini aytib bering.
4. Masdarning morfologik jihatdan tasniflanishidagi o‘ziga xoslikni aytib bering.
5. Shakl va sifat masdari arab tilidagi ifodasi qanday?

## 3.7. TURLANMAYDIGAN SO‘ZLARNING (المبنيات) SINTAKTIK TALQINI

### Reja:

1. O‘zgarmaslik hodisasi va uning o‘zgarmas shakllari.
2. Ism va fe’llardagi o‘zgarmas shakllar.
3. O‘zgarmas so‘zlarning yaxlit tizimi.

**Tayanch so‘z va iboralar:** naql, sima’, harf, undov so‘z, fe’lning buyruq shakllari.

Ko‘pchilik olimlarning fikriga ko‘ra, o‘zgarmaslik fe’l va harf so‘z turkumiga oid hodisadir. O‘zgarmaslik turlari to‘rtta bo‘lib, bular: sukun, fatha [a], kasra [i], damma [u] hisoblanadi. Ism, harflar turkumlaridagi o‘zgarmaslik ma’lum bir asosga ega hisoblanuvchi naql va sima’ (eshitish) asosida bo‘ladi.

Zamonaviy tilshunoslar, shu jumladan, Mustafo G‘alayaniy fikriga ko‘ra, o‘zgarmas so‘zlarga harf turkumining barchasi, o‘tgan zamon va buyruq fe’llari, hozirgi zamon fe’lining ta’kidni ifodalovchi «nūn» va muannas ko‘plikni ifodalovchi «nūn» qo‘shilgan shakllari va ba’zi ismlar hisoblanadi.

Sakkokiyning bu boradagi qarashi anchayin mukammal hisoblanib, o‘zgarmas so‘zlar batafsil bayon qilinadi.

Olim sintaktik vazifa natijasida o‘zgaruvchi so‘zlardan oldin o‘zgarmaydigan so‘zlarni o‘n to‘rt sinfga bo‘lgani holda keltiradi. Bular:

1. *Yordamchi so‘z turkumlari* (harf) (الحروف)

Sakkokiy yordamchi so‘zlarni nazarda tutgan holda, ularni o‘zgarmas so‘zlar tarkibiga qo‘shmoqda. Harf turkumi gapda boshqa so‘zlarga qo‘shilgan holda ma’no anglatadi.

2. *Ovozlar* (*oldindan Asosiy savollarlashtirmay*) *talaffuz qilinishi* *natijasi hosil bo‘lgan ovozlar* (الأصوات المحكية على قول من لا يجعلها حروف).

Bular taqlid so‘zlar hisoblanib, ma’lum bir sintaktik munosabatni bajarmaydi. Bu kabi so‘zlarda sintaktik o‘zgarishlar kuzatilmaydi. Olim bunday so‘zlarga misol o‘laroq quyidagilarni keltiradi: حس (ehtiyojmandga qaytariq javobi) (pisht!), و ي (taajjubni ifodalovchi so‘z), و ا (motamdagい voy), أ خ (yomon ko‘rgan narsasini ko‘rganda qo‘llaniladi), بخ (ishning hajmi juda kattaligidan ajablanishda qo‘llanadi) va shunga o‘xshashlar.

Taqlid so‘zlar ikki turli bo‘lib, biri olim ta’kidlaganidek, Asosiy savollarlashtirmay talaffuz qilingan tovushlar, ikkinchisi hayvonlarga taalluqli tovushlar. Bu tovushlarni ifodalovchilarining har ikki turi o‘zgarmas so‘zlar tarkibiga kiradi.

Mahmud Zamaxshariy nadomat va taajjubni ifodalovchi يوْنِي ham taqlid so‘zlardan deb aytadi. Alloh taolo so‘zidan quyidagi oyatni misol o‘laroq keltiradi. U oyat: وَيَكَذِّبُهُ لَا يُفْلِحُ الْكَافِرُونَ (Vojab, kofirlar najot topmaydiganga o‘xshaydi-ku. Qasos surasi, 82-oyatdan). Sibavayhi va Xalil ibn Ahmadlar ham birikmasidagi يوْتَأْجِبَ ma’nosida kelganligini ta’kidlaydilar. كأنه (unga o‘xhash) so‘zi o‘xhashlik ma’nosida emasligi, balki tasdiq, ta’kid ekanligini Ibn Ya’ish aytgan edi.

Ba’zan taqlid so‘z o‘zi tegishli bo‘lgan shu so‘z bilan nomlanishi ham mumkin. Masalan: غَرَاب (qarg‘a) so‘zi undan chiqadigan غَاق bilan nomlanadi [32: 148]. Taqlid so‘z otlashib kelganda, kelishiklarda turlanishi ham mumkin, misol uchun: رَأَيْتَ غَاقًا (qarg‘ani ko‘rdim).

Taqlid so‘zlar qanday eshitilgan bo‘lsa, shu shaklda o‘zgarmas hisoblanadi [41: 128]. Masalan: عَدْسٌ (urg‘ochi xachir baqirig‘i) so‘zi sukun bilan o‘zgarmas holda, sababi u shunday shaklda naql qilingan.

3. Bizningcha, *fe’lning o’tgan zamon va buyruq shakllari* (أمثال الماضي) (والامر).

Sakkokiy fe’lning buyruq va o’tgan zamon shakllarini o‘zgarmas shakllar sifatida keltiradi. O’tgan zamon fe’l shakli uchinchi shaxs muzakkarr birlikda fatha [a] bilan o‘zgarmas shaklda bo‘ladi, ya’ni shu o‘rinda u har qanday sintaktik jarayonda, umuman, o‘zgarmaydi. Fatha bilan o‘zgarmaslik so‘zda ko‘rinib turgan va taqdiran (farazan) bo‘ladi.

Fe’lning buyruq shakli ham o‘zgarmas fe’l shakllaridan biri hisoblanib, u sukun, illatli harf, shaxs-son qo‘sishimchalarini tushirib qoldirish bilan o‘zgarmas shakl holatiga keladi. Misol uchun: فَصَلٌ لِرَبِّكَ وَانْحَرْ (Bas, Robbingga namoz o‘qi va jonliq so‘y. Kavsar surasi, 2-oyat). Fe’lning buyruq shakli hozirgi zamon shaklidan hosil qilinadi. Buyruq shaklini hosil qilish uchun hozirgi zamonni ifodalovchi harflarni tushirib, fe’lning oxirini sukulnashtirish bilan bo‘ladi. Buyruq maylining ikkinchi shaxs birlik muannas (ياء التأديث), ikkilik muzakkarr va muannas (ألف الاثنين), ko‘plik muzakkarr (واو الجماعة) shakllari ular tarkibidagi «nūn»ni tushirib qoldirish bilan o‘zgarmas holda bo‘ladi. Oxirgi harfi illatli

bo‘lgan fe’llarning buyruq shakllari illatli harfni tushirib qoldirish bilan o‘zgarmas holda bo‘ladi.

O‘zgarmas shakl faqatgina harakatlar bilan emas, balki ziyoda harf, illatli harflarni tushirib qoldirish bilan ham hosil qilinadi.

4. «*Ismi fe’l*» (اسم الفعل). Arab tilida qolgan tillarda kuzatilmaydigan ma’nosi fe’l, shakli ism kabi bo‘ladigan so‘zlar bor bo‘lib, ular ham o‘zgarmas shaklga ega hisoblanadi. Bunday xususiyatga ega so‘zlar «*ismi fe’l*» (أسماء الأفعال) deb yuritiladi. Bu so‘zlarning o‘zgarmaslik holati faqatgina eshitib o‘rganilganligi bilan xarakterlidir. «*ismi fe’l*»ni qo‘llashdan maqsad qisqa va ma’noni kuchaytirib ifodalashdir. Bu so‘zlarda fe’llik xususiyati bo‘lsa-da, bir shaklda hamma shaxs-sonda turadi, qulay hisoblanadi.

Sakkokiy bularga quyidagilarni misol sifatida keltiradi. Ular: روپ ز پد (Zaydni sekinlat), روپك (sekinla), هَبْل (dushmanlik, bu ko‘p nusxalarda tushib qolgan so‘z), هَلْم (kel), هَتْ (ber) [eng to‘g‘risi meningcha bu so‘zlar «*ismi fe’l*» emas, bunga keyinroq to‘xtaniladi], دونك زيدا (ol), mana senga Zayd), حَيْهَل (To‘xta, Amr), حَذَرَك بَكْرَا (bo‘taloqdan ehtiyot bo‘ling), (ehtiyot bo‘ling), وَبِه عَلَيْك الْأَمْر (ber), (o‘z holiga qo‘y), صَهْ (jim bo‘l), مَهْ (bas qil), هَيَهَات (ijobat qil), أَمِين، أَمِين (kifoyalan), قَدْك وَقَطْلُك وَإِلَيْك (shoshil), هَيَا، هَلْ، هَيَتْ، هَيْك (qanchalar uzoqda bo‘lishdi), شَتَان (qanday farqli-ya!), سَرْعَان (tezlat), تَزْ (tez), وَشَكَان (bezor bo‘lyapman), أَوْه (og‘riyapman).

Mahmud Zamashshariy «*ismi fe’l*»ni ma’no jihatidan ikki turga bo‘ladi, biri buyruqni ifodalovchi va ikkinchisi ma’lum bir axborotni ifodalovchidir. Buyruqni ifodalovchi «*ismi fe’l*» ko‘pchilikni tashkil etadi. Ulardagi fe’l ma’nosiga ko‘ra o‘timli va o‘timsiz (المتعدد واللازم) buyruq ifodalovchi «*ismi fe’l*»ga bo‘lib olish ham mumkin. Sakkokiy birinchi bo‘lib misol sifatida keltirgan «*ismi fe’l*»i o‘zidan keyin to‘ldiruvchini keltirgani sababli o‘timli, صَهْ (jim bo‘l) «*ismi fe’l*»i o‘timsiz ma’nodadir. Bu jihat bilan shakli ism bo‘lsa-da, fe’llik xususiyati saqlanib qolganligini bilib olish mumkin.

هَلْم so‘zi Hijoz lahjasiga ko‘ra «*ismi fe’l*» bo‘lsa, Bani Tamim lahjasiga ko‘ra fe’lning buyruq shaklidir. Hijoz lahjasida bu so‘zning هَلْم shaklidan boshqa shakli

yo‘q. Birlik, ikkilik va ko‘plikda ham shu shakl o‘zgarmaydi. Bunga misol o‘laroq Ahzob surasidan 18-oyatni keltirish mumkin: ﴿وَالْقَاتِلُونَ لِإِخْرَانِهِمْ هُلْمٌ إِلَيْنَا﴾ (va o‘z birodarlariga «biz tomon kelinglar» deguvchilarni [bilur]). Ushbu oyatda «birodarlar» so‘zi ko‘plikda bo‘lsa-da, mazkur so‘z birlik shaklda turibdi. Shu va boshqa dalillar asosida Hijoz lahjasida bu so‘z «ismi fe’l» hisoblanadi. Bani Tamim lahjasida هُلْمٌ so‘zining birlik muannas (هُلْمِي), ikkilik muzakkarr va muannas (هُلْمَان), ko‘plik muzakkarr (هُلْمُوا), ko‘plik muannas (هُلْمَان) shakllari bor. Bu shakllarni hisobga olib, bu so‘zga fe’lgagina qo‘shiladigan muannaslik «yā»si e’tiboridan buyruq maylidagi fe’l hisoblanadi.

سَعْيٌ هَاتِئٌ va so‘zlarini ko‘pchilik nahvshunoslar «ismi fe’l» deb biladilar, shu jumladan Sakkokiy ham, lekin bu ikki so‘zda هُلْمٌ kabibi tuslanish xususiyati bor, shuningdek, fe’lgagina qo‘shiladigan muannaslik «yā»si ham qo‘shilgani e’tiboridan Jamoliddin ibn Hishom Ansoriy mazkur so‘zlarni buyruq maylidagi fe’l deb aytadi.

Sakkokiy bu so‘zlar borasida bahs qilmagan bo‘lsa-da, bu so‘zlearning ma’no e’tiboridan va shakl e’tiboridan «ismi fe’l»ga yaqin bo‘lganligi uchun shu so‘zlar sirasida yozgan.

5. *Olmoshlar* (المضمرات) bir necha turga ega bo‘lsa-da, ularning har biri o‘zgarmas so‘zlar tarkibiga kiradi. Fe’l tarkibidagi shaxs-son qo‘shimchalari, egalik qo‘shimchalari olmoshlardan hisoblanadi. Nahvshunoslar fikricha, olmosh turli sintaktik vazifalarda bir shaklda, o‘zgarmas holda keladi. Ularni quyidagicha guruhlab olish mumkin: so‘zlarga birikishi va birikmasligiga ko‘ra ضمير متصل (birikma olmosh), ضمير منفصل (kishilik olmosh yoki ای! so‘zi bilan qo‘shilgan olmosh), fe’l tarkibida shakliga ega bo‘lganligi va bo‘limganligiga ko‘ra ضمير بارز (fe’l «tarkibida ko‘rinib turgan» (shaxs-son qo‘shimchasi) olmosh), ضمير مستتر (fe’l yashiringan olmosh), gap tarkibida sintaktik vazifasiga ko‘ra ضمير مرفوع (fe’l tarkibida ega vazifasidagi olmosh), ضمير مذكور (tushum kelishigidagi ism o‘rnida kelgan olmosh), ضمير مجرور (qaratqich kelishigidagi ism o‘rnida kelgan olmosh).

Yettita turda jamlangan barcha olmosh o‘zgarmas bo‘lib, har qanday sintaktik jarayonda o‘zgarishga uchramaydi.

6. *Ko'rsatish olmoshlari* о‘zgarmas so‘zlardan biri hisoblanib, so‘z oxirida hech qanday o‘zgarishga uchramaydi.

Ko'rsatish olmoshining muzakkarr birlik shakli **إذَا** bo‘lsa-da, hozirgi arab tilida e’tibor jalg qilishni ifoda etuvchi «**هَاهُ**» bilan birikkan holda keladi, ya’ni **هذا** shaklida. Sakkokiy sanab o‘tgan barcha olmoshlarda ushbu qo‘shimcha birikib keladi. Shu bilan bir qatorda u ishora qilinayotgan shaxs yoki predmet yaqinda ekanligini ham ifodalab keladi. Sakkokiy yozgan ushbu **أولاً** (bular mz, mn) olmoshning **أولاً، أولى** shakllari ham mavjud bo‘lib, «bular, ana o‘shalar» ma’nosida shaxs va predmetlar uchun qo‘llaniladi. Misol uchun: **أولئك على هدى من** **أولئك على هدى من** (Ana o‘shalar Robbilari hidoyatidadirlar va ana o‘shalar najot topguvchilardir. Baqara surasi, 5-oyat).

Lekin ko‘pchilik hollarda olmoshning bu shakllari shaxslar uchun hisoblanadi. Odatta bu kabi o‘rinlarda predmetlar uchun ko‘plikda **ذلك** shakli qo‘llanadi. Masalan: **وَتَلْكَ الْأَيَّامُ نُذَارُهَا بَيْنَ النَّاسِ** (va shunday kunlarni odamlar orasida aylantirib turamiz. Oli Imron surasi, 140-oyat). Shuningdek, bu olmoshning **تاك** shakli ham bor.

Ba’zan e’tibor jalg qilishni ifoda etuvchi «**هَاهُ**» va mazkur olmosh o‘rtasiga ishora qilinayotgan kishilik olmoshi qo‘shilib kelishi mumkin va bu gapning balog‘at bilan ifodalanganligini bildiradi, misol uchun: **هَا أَنْتُمْ أُولَاءِ تُحِبُّونَهُمْ وَلَا يُحِبُّونَكُمْ** (Hoy, sizlar, ularni sevasizlar – u, ular sizlarni sevmaydilar. Oli Imron surasi, 119-oyat).

Ko‘rsatish olmoshlariga qo‘shimcha qo‘shilishi bilan ifodalayotgan ma’nosini ham ortib bormoqda. Bu ma’no masofaning uzoq-yaqinligi bilan bog‘liq bo‘lmoqda.

Yagona shaklli nisbiy olmoshlar haqida Sakkokiy ko‘p ma’lumot bermasada, ularni kitobida **اما، من، ذو الطائفة، ذا في مادا،** **أي** haqida o‘z qarashlarini o‘zidan oldin o‘tgan mashhur olimlar fikrlari bilan dalillaydi. Bu olmosh haqida: **«أَيُّهُمْ («ularning qay biri» so‘z birikmasidagi **أَي** - **أي** «qaysi?» so‘zi) Sibavayhi va unga ergashganlar fikrlariga ko‘ra to‘laligicha bog‘lovchi so‘zdir. **أية** (qaysi? mn) Xalil ibn Ahmad Faraxidiy fikriga ko‘ra holdir», deb yozgan edi.**

Sakkokiy bu olmoshni أَيُّهُمْ tarzida keltirishining boisi, biror olmosh bilan izofa holatida, ayni shu vazifada kelganida damma bilan o‘zgarmas holda bo‘ladi. Bunga quyidagi oyatni dalil sifatida keltirish mumkin, u: ثُمَّ لَتَنْزَلُ عَنِّي مِنْ كُلِّ شِبْعَةٍ أَيُّهُمْ أَشَدُ (So‘ng, har bir guruhdan Rahmonga eng osiy bo‘lganni sug‘urib olurmiz. Maryam surasi, 69-oyat). Zamonamiz mashhur olimlaridan Mustafo G‘alayaniy fikriga ko‘ra bu holatda ham kelishikda turlanishi mumkin. Sakkokiyning Sibavayhi fikriga tayangan holdagi qarashi bu so‘z o‘zgarmas so‘z hisoblanib, Sibavayhi uni harf turkumiga kiritganligini yozgan edi. O‘zgarmaslik qoidasiga ko‘ra arab tilidagi barcha harf turkumiga kiruvchi so‘zlar har qanday sintaktik vazifada o‘zgarmas hisoblanadi.

Bu so‘zdan tashqari من، ما، ذا، ذو yagona shaklli nisbiy olmoshlar hisoblanadi. Sakkokiy bular haqida to‘xtalmaydi. ذا so‘zi من so‘zlarini bilan birikib kelsa, so‘roq yuklamasi bo‘ladi, ya’ni من ذا (kim?) (nima?) shaklida. Bu o‘rinda so‘roq yuklamasi hisoblanadi. Ushbu olmosh so‘roq olmoshlaridan keyin kelib, qo‘shma so‘z hosil qilib, nisbiy olmosh vazifasida ham keladi. So‘roq olmoshlari bilan kelishini bildirgani holda Sakkokiy مَا تَرْكِيبِهِ ذَا tarkibidagi ذا deb yozgan edi. Qo‘shma so‘z hosil qilganda, albatta, so‘roq yuklamasiga qaytuvchi birikma olmoshi bo‘ladi, misol uchun: ما (الذى) ذا قرأت (هـ) (sen [uni] o‘qigan nima?) ni ham kabi ajratib yozish mumkin. So‘roq yuklamasi yoki nisbiy olmosh vazifasida kelsa ham, ushbu so‘z o‘zgarmas so‘z hisoblanadi.

nisbiy olmoshlarida ham bundan boshqa shakllari yo‘q bo‘lib, o‘zgarmas so‘zlardan hisoblanadi. Odatda من shaxslarga nisbatan qo‘llansa, ما predmetlarga qo‘llanadi. Ba’zan o‘rinlari almashib kelishi ham mumkin. Misol uchun: أَلَمْ تَرَ أَنَّ اللَّهَ يَسْجُدُ لَهُ مَنْ فِي السَّمَاوَاتِ وَمَنْ فِي الْأَرْضِ (Ko‘rmadingizmi, Allohga osmondagi va yerdagi narsalar sajda qiladi. Haj surasi, 18-oyat).

Sakkokiy ذا toiy zū (ذو الطائية) so‘zi «ذو» deb nomlashini boisi, ushbu nisbiy olmosh arablarning Toiy lahjasida mavjud ekanlidir. U ham avvalgi olmoshlar kabi yagona shaklli bo‘lib, jins va son kategoriyalariiga ega emas. Misol uchun: أَتَى إِلَيْيَ ذُو نَشْطٍ (Oldimga faol bo‘lgan kishi keldi); أَتَى إِلَيْ ذُو نَشْطٍ (Oldimga faol bo‘lgan ayollar keldi).

7. *Qo'shma so'zlarning birinchi bo'lagi* (صدور المركبات). Aksariyat arab tilshunoslarining fikriga ko'ra qo'shma so'zlarni tashkil qiluvchi birinchi bo'lak o'zgarmas hisoblanadi. Sakkokiyning qarashi ham shunday ekanligini quyidagi fikridan bilib olish mumkin: «بعلباك-حضرموت-Xadramavt, خمسة عشر-الحادية عشرة o'n *besh*, o'n *birinchi*, o'n *birinchi* (*mn*) o'zgarmasdir (kelishikda turlanmaydi)».

Sakkokiy bu qarashida qo'shma so'zlarning «qo'shilma bo'lgan birikma (المركب المجزي)» va o'nlik sonlarning tartib va sanoq turlarini bayon qildi. Sonlardan tashkil topgan biri ajraladigan bo'lsa, birga kelgandagi ma'nosи bermaydigan birikmaning bu turi «sonli qo'shilma (المركب العددي أو العدد المركب) deb yuritiladi. Bu birikmalarda ikki so'z qo'shilib bir ma'noni ifoda etadi. Qo'shilma bo'lgan (المركب المجزي) birikmalarda qanday ot bilan qo'shilganiga qarab ikki turga bo'lib olish mumkin. Biri atoqli ot ma'nosida, ikkinchisi atoqli ot bo'lмаган boshqa qo'shma so'zlar hisoblanadi. Sakkokiy atoqli ot bo'lgan qo'shma so'zlarga joy nomini bildiruvchi بعلباك-Ba'albakka (Suriya hudididagi joy nomi) va حضرموت-Xazramavt (Yamandagi joy nomi) so'zlarini keltirib, ularning birinchi bo'lagi (*Ba'al*) va حضر(*Xadra*) so'zleri o'zgarmas ekanligiga ishora qilgan. Bu so'zlarning birinchi qismi o'zgarmasligining sababi oldinda kelganligi uchun, deb ta'kidlaydi Mahmud Zamashariy. Bu birikmalarning ikkinchi qismi oxirida kelganligi boisidan damma [u] va fatha [a] ga o'zgarishi mumkin. Bu kabi qo'shma so'zlarning har ikkala qismi o'zgarmaslarini ham uchratish mumkin, misol uchun: بيت لحم-Baytalahma (Falastin hudididagi joy). Shuningdek, وبيل tugallangan qo'shma so'zlarning hammasi kasra [i] bilan o'zgarmas holda bo'ladi.

Sondan tashkil topgan qo'shma so'zlarning har ikkala qismi o'zgarmas bo'ladi, buni ta'kidlagan holda Sakkokiy: «الحادي عشر-خمسة عشر o'n *besh*, o'n *birinchi*, o'n *birinchi* (*mn*) o'zgarmasdir (kelishikda turlanmaydi)», deb yozgan edi [MU, 31b]. O'n birdan to o'n to'qqizgacha bo'lgan sanoq son va o'n birinchidan to o'n to'qqizinchigacha bo'lgan tartib sonlarning birlik va o'nlik xonalari kelishikda turlanmay, bir shaklda fatha bilan o'zgarmas holda keladi. O'n ikki soni (اثنا عشر, اثنتا عشرة) qolganlaridan farq qilib, qaratqich va tushum

kelishiklarida oxirgi harakat sukulni «yā»ga o‘zgarishiga ishora qilib Sakkokiy: «اَنْتَ عَشَرٌ - o‘n ikki soni yuqoridagi so‘zlardek emas», deb aytgan edi .

Buni sonlarning asli ikki qism o‘nlik va birlikdan tashkil topgan ya’ni «o‘n» va «bir» (عشر و أحد) bo‘lib, «vā» (و) bog‘lovchisi bilan ajratilsa, o‘n va birni o‘n bir ekanligida chalkashlik yuzaga keladi. Shuni hisobga olingan holda ikkala so‘z bir ma’noni ifoda etishi uchun اَحَدْ عَشَرْ shaklida qo‘shma so‘z hosil qiladi. Arablar orasida bu kabi sanoq sonlarni اَحَدْ عَشَرْ tarzida talaffuz qiluvchilar ham bor [20: 146]. Bu sonlarning tartiblisida ham o‘zgarmaslik qoidasi amal qiladi. Sanoq sondan farqli jihatni «al-» artiklini birlik xonasi qabul qilishidir. Bu sonlardan yuqori yoki kam sanoq va tartib sonlarda o‘zgarmaslik holati kuzatilmaydi. Birlik va o‘nlik xonalarini «vā» (و) bog‘lovchisi ajratib turadi.

8. O‘zgarmas so‘zlarning bu turida Sakkokiy olimlar tomonidan kam e’tibor berilgan sintaktik o‘zgarmas holatni bayon qilib, o‘z yondashuvi asosida alohida qarashlarini bayon qiladi. Bu borada olim Mahmud Zamashriy bilan hamfikr hisoblanib, har ikki olim buni «maqsadlar» deb ataydilar. Olim bu haqida: «Gap tarkibida aslida mudof bo‘lib, so‘ng unga bog‘langan so‘zni lafzda qisqartirib, mazmunda bo‘lgan o‘rni bu الغایات (maqsadlar) deb aytiladi», deb yozib, misol o‘laroq: أَتَيْتُكَ مِنْ قَبْلِ (Sening oldingga [bu so‘z غایة] (oldingga lafzda qisqartirilgan bo‘lak) oldin kelganman) keltirgan.

Bu mavzuni yoritgan olimlardan biri mashhur tilshunos Ibn Hishom Ansoriy hisoblanadi. U bu borada بَعْدَ (keyin, hali) so‘zleri damma bilan o‘zgarmas ekanligini aytgan edi. Olim bu so‘zlarning izofa bo‘lib kelgan, من (-dan) ko‘makchisi bilan birikkan, izofasini tanvin bilan kelgan shakllarini batafsil tushuntiradi.

Bu so‘zlar o‘rin va payt hollari bilan bog‘langanligi uchun «ko‘zlangan maqsadni ifodalovchi hollar» (ظروف الغایات), deb ham nomlanadi. Bu kabi so‘zlar qatoriga وراءُ (orqa), قادمُ (old), تحتُ (ost), فوقُ (ust), دونُ (-siz) so‘zlarni kiritish mumkin.

9. Sakkokiy quyidagi mavzuni ma’no bilan bog‘lagan holda bayon qiladi. U shunday boshlaydi: «So‘roq yuklamasi, أي (qaysi?) so‘roq olmoshiga

*javob bo'lmaydigan, yoki undan boshqa ma'nolarni o'z ichiga olgan go'zal ifodalangan birikma [o'zgarmas so'zlar sirasiga kiradi]». Misol: أَحد عشر - o'n bir (dan toki o'n to'qqizgacha), shuningdek, كِفة (qiyin vaziyatda), كِفة (yuzma-yuz), صحرَة بحْرَة (ikki kishi o'rtasida hech nima bo'limgan o'rinda qo'llanadigan birikma), bu ikki o'rtasida nizo bo'limgan o'rin uchun, شَغَرَ بَغَرَ (oyilib, sochilib), صبَاحَ مسَاءَ (shu vaqtarda), شَدَرَ مَذَرَ (ertayu kech), حَيْثَ بَيْتُ، حَاثَ (turli tomonlarga), خَدْعَ مَذَعَ (turli-tuman), حَيْثَ بَيْتُ، حَاثَ (turli tomonlardan).*

Yuqorida qo'shma so'zlarni ikki guruhga bo'lib olib, ikkinchi guruhini keyinroq bayon qilinishi yozilgan edi. Bu atoqli ot bo'limgan qo'shma so'zlar bo'lib, qo'llanishi ma'lum vaziyatlar bilan xoslangandir. Bu kabi qo'shma so'zlearning har ikkala qismi fatha bilan o'zgarmas holda bo'ladi. Ushbu birikmalar ma'no jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan yoki bir-birini taqozo qiladigan so'zlearning qo'shilishidan hosil bo'ladi. Bu so'zlearning asli ot, harakat nomi, o'rin holi (ظرف) (المكان) bo'lishi mumkin.

شَكْلِيда bo'lib, qisqa qilib ifodalash maqsadida ikkala so'z o'rtasidagi bog'lovchi tushib qoldirilgan. حَاصَ so'zi (qochmoq, hozirgi zamon shakli fe'lining harakat nomi bo'lib, shaklida kelmoqda. باصَ so'zi (o'tmoq, hozirgi zamon shakli fe'lining harakat nomi bo'lib, shaklida kelmoqda. Har ikkalasining ma'nosи «o'ta qiyin vaziyat». Misol uchun: صارت عليه الأرض حِيْصَ بِيْصَ (uning uchun yer tor [qiyinchilikka to'la]) bo'ldi. Bu qo'shma so'zning harakatlari alamashgan holda bir necha shakllari (حِيْصَ بِيْصَ، حِيْصَ بِيْصَ) bor.

Qanday so'zlardan tashkil topgan bo'lishiga qaramay qo'shma so'zlar bir ma'noni ifoda etib, gap oxirida biror sintaktik aloqaga kirishmay, o'zgarmas shaklda keladi.

10. فعل qolipidagi buyruq ma'nosidagi fe'l. Sakkokiy navbatdagi mavzuni avval o'tgan «ismi fe'l» tarkibiga kiruvchi, qolip asosida yasalgan (مُعْدُول) turi haqida bahs yuritadi. Misol sifatida quyidagilarni keltiradi: حَذَار (ehtiyot bo'ling), ترالٰك (tark eting).

Bu keltirilgan misollar buyruq ma’nosida bo‘lib, حذار qolipa solinmaganidagi shakli احذر (ehtiyot bo‘l) bo‘ladi. Har ikkala shakl bir ma’noni ifoda etsa-da, qolip asosida hosil qilingan shakl muloyim tarzda, ma’noni ta’kidli ekanligini ifoda etadi. Sakkokiy fikrini dalillagan holda: «Sibavayhi bu haqda hamma uch o‘zak undoshli, ziyodadan xoli fe’llardan ushbu qolipda yasaladi», deb aytadi. Bundan ma’lum bo‘ladiki, ushbu qolipda mazkur ma’no faqatgina uch undoshli o‘zakning ziyodadan xoli shaklidan hosil qilinadi. Mahmud Zamaxshariy bu fikrga qarshi o‘laroq to‘rt undoshli o‘zakdan ham hosil qilinishini قرار (gumburla) misoli bilan dalillaydi va Abu Najm Ajliy she’ridan bayt keltiradi, u quyidagicha:

قالت له ريح الاصبا قرار (Sabo [sharq tomondan esadigan shamol] shamoli aytdiki unga: Momaqaldiroq-la gumburla).

Sibavayhi yirik va kuchli tilshunos olimlardan biri hisoblanadi. Bu boradagi uning fikri uch undoshli o‘zakka ega bo‘lgan fe’llardan ushbu qolip asosida yasalishi ko‘p ekanligini bildirib kelmoqda. To‘rt undoshli o‘zakdan qolip asosida yasalish kam ekanligini Mahmud Zamaxshariy ham ta’kidlaydi. Olim keltirgan misolning qolipi bahs qilinayotgan فعال emas, hisoblanadi. Sibavayhi va Sakkokiyning bu boradagi fikrlari qolgan qarashlardan kuchli hisoblanadi.

Bu qolip faqatgina buyruq ma’nosida emas, balki: «Bu qolipdan masdar ismi يسار للميسرة [haralkat nomi] ma’nosi ham hosil bo‘ladi: لل مجرة فجر (gunoh qilish), engil, oson bo‘lish), حماد للحمدة (pishiqlik), لا مساس (maqtash); (surtingma), دعوني كفاف (meni o‘z holimga qo‘ying, yetar), لا عباب (nafas olmay ich), بلاء (intilma), بوار (falokat), (musibat) va bulardan boshqalar», deb Sakkokiy qolipining ikkinchi o‘ziga xosligini bayon qildi [MU, 32a]. Masdar ish harakat nomi hisoblansa, «masdar ismi» ham harakat nomi hisoblanadi. Masdar bilan masdar ismi o‘rtasidagi farq, masdar ismida o‘zi hosil bo‘lgan fe’lni tashkil qiluvchi harflarning hammasi bo‘lmaydi. Misol uchun: تكلم (gaplashmoq) fe’lining masdar ismi كلام (gaplashish) hisoblanadi. Fe’l bilan hosil bo‘lgan masdar ismi solishirilsa, yuqorida aytilgan qoida o‘z isbotini topadi ya’ni unda o‘zi hosil bo‘lgan fe’lning birinchi harfi bo‘lgan «tā» yo‘q. Bu harfning mavjud emasligi bu

so‘z masdar emas, masdar ismi ekanligini bildirib keladi. فعال ham masdar ismi hosil qiluvchi qoliplardan biri ekanligini Sakkokiy yuqorida keltirlgan misollar bilan bayon etmoqda. Bu qolip asosida yasalgan so‘z Sakkokiy, Mubarrad, Ibn Kison so‘zlariga ko‘ra o‘zgarmas so‘zlardan hisoblanadi. Sakkokiy fikriga ko‘ra فجار (fojirlik qilish) shu ma’nodagi فجرة (gunoh qilish) shaklining فعال qolipiga solingan shakli hisoblanadi. Bu fikrni Ibn Ya’ish ham qo‘llab-quvvatlaydi.

لا عباب دعني كاف (surtinma), (meni o‘z holimga qo‘ying, yetar), (nafas olmay ich), لا أباب (intilma), بلاء (musibat) kabi «ismi fe'l» asl ma’nosini saqlab qolgan.

Sakkokiy فعال qolipining ikkinchi xussusiyatini bayon qilgach, uchinchi jihatni haqida shunday yozgan: «Undalmaga tegishli sifatdan ushbu qolipda yasalgan so‘z: يار طاب (ey, yomon), ياخبات (ey, jirkanch), يفجار (ey, sassiq), يادفار (ey, fojira), يالكاع (ey, tuban), [shoir Abu Mulaykaning baytidan]

أطوف ما أطوف ثم آوي إلى بيت قعيدة لكايع

(Kezadiganimni kezib, so‘ng tuban xotin uyiga panoh so‘rab boraman) [MU, 32a].

Kam uchraydiganlarga misollar: يافساق (ey, fosiqa), ياخضاف (ey, hech bir yaxshiliqi yo‘q), ياخزاق (ey, badbo‘y), ياحباق (ey, ko‘p yel chiqaruvchi)».

Uchinchi xususiyat فعال qolipi asosida yuqoridagi so‘zlar hosil qilindi. Bu so‘zlarning asl qolipi فاعلة bo‘lib, muannaslikni ifoda etadi ya’ni فساق (fosiq ayol) ning asli يار طاب، فاسقة (ey, yomon) ning asli ياخبات (ey, jirkanch) ning asli يفجارة (ey, sassiq) ning asli يادفار، خبيثة (ey, fojira) ning asli يالكاع، فاجرة (ey, tuban) ning asli يالكعاء hisoblanadi.

Bu so‘zlar فعال qolipi asosida hosil qilingani uchun ham kasra [i] bilan o‘zgarmas holda bo‘ladi. Bu xususiyat undalma bo‘lganda qo‘llanadi, shuning uchun ham Sakkokiy ularning hammasini undalma yuklamasi «yāā» (حرف النداء) «yāā» bilan keltirmoqda.

Keyingi xususiyati undalma bo‘lmagan o‘rinda ham فعال qolipida hosil qilingan so‘zlar tegishli bo‘lib, ma’lum sifatlarni o‘z ichiga olgan, xos sifatlanmishi bilan bog‘langan ma’noga ega so‘zlarni hosil qilinishi bilan bog‘liq

hisoblanadi. Sakkokiy quyidagi misollarni keltiradi: «Undalmaga tegishli bo‘lmaidan yasalgan so‘zlar: براچ (yondiruvchi), كلاچ (qiyin, unumsiz), أذام (qahatchilik), طمار (baland joy), طبار (falokat ostidagi kishi), لزام (loyiq)».

Sakkokiy misollarni keltirish bilan kifoyalansa-da, xususiyatlarga ishora qilib qo‘ygandir. Quyidagi ishoralardan biri asli sifat bo‘lgan so‘zlarni فعال qolipiga solingani bo‘lib, sifatda turlanish bo‘lsa, bu qolipda o‘zgarish bo‘lmaydi. Shuningdek, ma’no muayyan bir sifatlanmish bilan xoslanganligi, bo‘rttirish bor ekanligini qamrab oladi. Masalan: براچ (yondiruvchi) so‘zi quyosh, كلاچ (qiyin, unumsiz), جداع (shiddatli), أذام (qahatchilik) so‘zlari yil, طمار (baland joy) o‘rin, طبار (falokat ostidagi kishi) shaxs, لزام («loyiq») so‘kish, haqoratga nisbatan qo‘llanadi.

Mazkur qolipning yana bir xususiyati muannas atoqli ismlarni hosil qiladi. Qolip ta’sirida kelishikda turlanmaydi. Ba’zi hollarda bu borada tortishuvli masalalar bor. Sakkokiy quyidagilarni bayon qiladi: ««فَاعلَةً» qolipidagi atoqli otlardan فعالدا yasalgan so‘zlar: حذام (Hazomi, ayol kishi ismi), قطام (Qatomi, ayol kishi ismi), بجان (Bahoni, ayol kishi ismi), سجاح (Sajohi, ayol kishi ismi), كساب (Kasobi, it urg‘ochisi laqabi), سکاب (Sakobi, ot laqabi), ظفار (Zafari, qishloq nomi), عرار (Arori, sigir laqabi) so‘zlaridir [MU, 32a].

Hijoz lahjasiga ko‘ra ushbu qolipda yasalgan atoqli otlarning hammasi kasra [i] bilan kelishikda turlanmaydi. Bani Tamim lahjasida bu borada ikki xil shakl mavjud. Ba’zilari bu kabi so‘zlarni kelishikda turlanuvchi so‘z kabi ikki kelishikda turlayveradilar. Ba’zilari Hijoz ahli kabi hamma kelishikda kasrali bilan keltiradilar. Bu haqda Sakkokiy: «Hijoz ahli bu so‘zlarni kasra bilan o‘zgarmas holda qo‘llasalar, Bani Tamim bu kabi holatda bo‘lishi uchun oxirgi harf «rā» (ر) bo‘lishini shart qiladilar», deb yozgan edi [MU, 32a]. Demak, Hijoz lahjasida mazkur qolip bilan yasalgan atoqli ot o‘zgarmas bo‘lsa, Bani Tamim lahjasida o‘zgarmas bo‘lishi uchun shart qo‘yilgan va u shart «rā» (ر) harfi bilan tugashidir. Shu sababli Sakkokiy ظفار - (Zafari, qishloq nomi), عرار - (Arori, sigir laqabi) misollarini keltirdi.

11. *Birikchi shaxs birikma olmoshi qo'shilgan ism, payt hollarining birikma shakllari* («*o'sha kunda*» kabi).

Sakkokiy bu mavzuda qaratqichli aniqlovchi bilan bog'liq masalani nazarda tutmoqda va shu bilangina chegaralanmoqda. Mavzuning birinchi qismi birikma olmoshlari bilan bog'liq bo'lib, bu haqida yuqorida batafsil yoritildi. Lekin birinchi shaxs birikma olmoshi (ياء المتكلم) haqida to'xtalmagan edi. Sakkokiy va boshqa barcha tilshunoslar ushbu birikma olmoshi qo'shilsa, qo'shilgan so'z kasra harakatini olgani holda «yā» bilan kelishikda turlanmaydi. Shu sababli Sakkokiy bu birikma olmoshi olgan so'zni o'zgarmas so'zlar tarkibiga kiritgan. Misol uchun: ينادي قلبي دائمًا ما أحبني إلى كل إنسان (Doim qalbim qilar nido: Ey nafs, har bir insonga qil yaxshilik).

Izofada mudof vazifasida kelganda kelishikda turlanishi harakatlar bilan emas, harflar bilan o'zgaruvchi beshta ismga ham ushbu birikma olmoshi qo'shiladi. Ushbu birikma olmoshi qo'shilgan alohida xususiyatli so'zlar ham kelishikda turlanmaydi, misol uchun: أبى وأمي مسبitan في معيشتي (ota-onam yashashim sababchilaridir).

Yuqorida keltirilgan barcha shakllarga to'xtashni ifodalovchi «hā» (هاء الوقف) qo'shilishi mumkin.

Mavzuning ikkinchi qismi bo'lgan payt hollarining birikma shakllari bo'lib, bu birikmaning birinchi bo'lagi fatha bilan o'zgarmas holda bo'ladi. Aynan fatha bilan o'zgarmas bo'lishi sababi payt holi bo'lganligidandir. Chunki odatda payt hollari arab tilida في (-da) ko'makchisi bilan qaratqichda bo'lsa, aksariyat holda ko'makchisiz tushum kelishigida keladi. Misol uchun: أذهب إلى العمل في الصباح (صباحا)- (ishga erta tongda (ertalab) boraman).

يومئذ، حينئذ، عندئذ، آنذاك kabibi payt holli birikmalar birinchi bo'lagi fatha bilan o'zgarmas shaklda bo'ladi, misol uchun: لتسألنَ يومئذ عن النعيم (O'sha kunda, albatta, sizlar ne'matlar so'ralasizlar. Takasur surasi, 8-oyat).

Demak, birinchi qism o'zgarmas holda ikkinchi qismga nisbatan mudof bo'lsa, ikkinchi qism mudof ilayh bo'lib, faqatgina qaratqich kelishida keladi.

12. *Atoqli ot undalma bo'lib kelsa, u ham o'zgarmas bo'ladi. Misol uchun:* يَا زَيْدٌ («ey, Zayd» kabi).

Undalma, albatta, o'z yuklamasi bilan yoki yuklama tushirib qolgan holda keladi. Bu o'rinda atoqli otdan tashqari bo'lgan so'zlar boshqa so'z bilan birikmay kelsa, o'zgarmas shaklga ega bo'ladi. Gap bo'laklari bilan biror sintaktik jarayonda bog'lanmaydi.

Atoqli otlar undalma yuklamasi bilan kelganda o'zgarmas so'zlar sirasiga kirsa, shu o'zgarmaslik bilan saqlanib qoladi. Atoqli ot ابنة اسأ (so'zlari) bilan sifatlanib kelsa va o'rtasida boshqa so'z ajratmagan bo'lsa, u fatha yoki damma bilan o'zgarmas shaklda bo'ladi, misol uchun: يَا مُحَمَّدَ بْنَ عَبْدِ اللَّهِ يَا مُحَمَّدَ بْنَ عَبْدِ اللَّهِ (ey, Muhammad ibn Abdullo). Atoqli ot bo'lganligi sababli ham Sakkokiy ta'kidlaganidek, damma bilan o'zgarmaslik shaklda bo'ladi. (qiz) بَنْتَ (so'zi) bilan sifatlanib kelgan atoqli ot faqatgina damma bilan o'zgarmas holda bo'ladi.

13. *Mutlaq inkor bo'lib kelayotgan ism. Misol uchun:* لَا رَجُل (hech kim yo'q).

Inkor bo'rttirib ifodalangani uchun ham bu «mutlaq inkor لا الجنس أو لا النافية» (الجنس)، deb nomlanadi. Sakkokiy yozganidek, bu yuklamadan keyin kelayotgan so'z ham o'zgarmas so'zlar tarkibiga kiradi. Bu so'z «al-» artiklini olmay, tanvinsiz fatha bilan o'zgarmas holda bo'ladi. Misol uchun: لَا شَرَفٌ فِيهِ (unda, umuman, yomonlik yo'q).

Shuningdek, inkor yuklamasidan keyin من (-dan) ko'makchisi kelib, ma'noni yanada kuchaytiradi, masalan: لَا مِنْ شَرٍّ فِيهِ (unda yomonlikdan hech bir narsa yo'q). Avvalgi shakldan farqli jihatni ma'noda bo'lgani kabi kelishikda ham o'zgarish sodir bo'lmoqda. Ko'makchi gapda qatnashganidan keyin o'zgarmas so'z hisoblanuvchi yuklamadan keyin kelayotgan so'z qaratqich kelishigida kelmoqda.

14. *Hozirgi-kelasi zamon fe'liga* نون جماعة النساء (muannas ko'pligini bildiruvchi «nūn») yoki نون التوكيد (ta'kidni ifodalovchi «nūn») qo'shilsa, bular o'zgarmas hisoblanadi.

Yuqorida bahs qilingan mavzularning deyarli barchasi ism turkumiga oid bo'lsa, oxirgi mavzu fe'l bilan bog'liqdir. Sakkokiy fe'lning hozirgi-kelasi zamon

نون التوكيد (muannas ko‘pligini bildiruvchi «nūn») yoki (ta’kidni ifodalovchi «nūn») bilan qo‘shilgan shakllar o‘zgarmas so‘zlar tarkibiga kiritmoqda. Barcha tilshunoslar ham aynan shu fikrdadirlar.

Fe’l va ta’kidning ikki «nūn»ni ajratish uchun ajratuvchi (فاصلة) vazifasida ikkilikda alif (يكتبأن) u ikkisi, albatta, yozadi) keladi, ko‘plikda «vāv»ga ishora qiluvchi damma (پرۇن - ular, albatta, o‘qiydilar) qoladi. Ikkinchi shaxs muannas birlikda tushirib qoldirilganda ishora qiluvchi kasra (تەھمەن كلامى - siz gapimni, albatta, tushunasiz) qoladi.

Fe’llarning o‘tgan zamon, buyruq shakllari to‘laligicha o‘zgarmas hisoblansa, hozirgi zamon shakli ikki o‘rinda o‘zgarmas bo‘ladi. Har qanday sintaktik vazifada ham hozirgi zamon shakldagi ikki o‘zgarmas holat saqlanib qoladi.

### Savollar:

1. O‘zgarmas qolip asosida hosil bo‘luvchi so‘z nima va uning xosliklari?
2. Fe’lning o‘zgarmas shakllari qaysilar?
3. Mutlaq inkor va undagi o‘zgarmas bo‘lak nima?
4. Olmosh va ularning turlari haqida aytib bering.
5. Ismi fe’lning so‘z turkumi jihatidan qanday turlarga bo‘lib olish mumkin?

## IV bob. MORFOLOGIYANING NAZARIY TUGUNLARI

### 4.1. ARAB TILIDA GRAMMATIK KATEGORIYA VA UNING TURLARI

#### Reja:

1. Son kategoriyasi.
2. Kelishik kategoriyasi.
3. Holat kategoriyasi.
4. Jins kategoriyasi.

**Tayanch so‘z va iboralar:** morfologiya, son, birlik, ikkilik, ko‘plik, kelishik, holat, jins, muzakkar, muannas.

Grammatik kategoriya deganda, asosan, morfologik kategoriylar (MK) anglashiladi. Grammatik kategoriya grammatik shakllarning oddiy arifmetik yig‘indisi emas, balki ma’lum turdag'i formalarning barqaror munosabatlari tizmasidan iborat bo‘lgan yangi bir butunlikdir. Shuning uchun grammatik kategoriya o‘zi uchun xos bo‘lgan umumiyligi ma’noga ega, bu ma’no shu kategoriya shakllarida ma’lum ko‘rinishlarda, turlarda parchalanib, aniqlanib voqelanadi.

Arab tilida birlik, ikkilik va ko‘plik son kategoriyalari mavjud.

Bundan tashqari arab tilida otlarning ko‘pligi ikki xil usulda to‘g‘ri; ya’ni muzakkardagi otlarga ون (bosh. k-k) (يَنْ) qo‘sishchalari, qo‘sib, muannas jinsdagi otlardan esa, noaniq holatda (ات) (اَتِ) qo‘sishchalari, aniq holatda qo‘sishchasi qo‘sib yasaladi.

O‘zbek tilida asli sifatdan yoki yaaslgan ot bo‘lib, ular faqat birlikda qo‘llaniladi. Masalan: go‘zallik, tezlik, tinchlik, vatanparvarlik, ozodlik, bolalik va hokazo.

Bundan tashqari o‘lchash mumkin bo‘lgan narsa, (moddalar) masalan: asal, yog‘, tuz, kumush, oltin, temir, choy, un va mavhum otlar: muhabbat, vijdon, chidam va boshqalar.

O‘zbek tilida ko‘plik –lar qo‘sishchasi hurmat-ehtiromni ifoda etish uchun ham qo‘llaniladi.

Arab tilidagi ikkilik soni o‘zbek tilida yo‘q. Uni o‘zbek tilida 2 so‘zi bilan ifodalanadi.

Arab tilida ikkilik otlarga ان (يَنْ) qo‘sishchasi qo‘sish orqali yasaladi.

Oxiri أ bilan tugagan otlardan ikkilik yasalganda و o‘rniga و qo‘yiladi.

Masalan:

حروان – حمراء

صحراء – صحران

ى - bilan tugagan ismlarda esa cho‘ziq ى qisqa ي ga aylanadi. Masalan:  
معنیان – معنی

Ikkilik soni arab tilida fe'llarda ham mavjud. O'tgan zamon fe'lining 2-3 shaxslarida ikkilik shaxs qo'shimchalari quyidagicha bo'ladi. 2-shaxs va 3-shaxsda fe'l boshiga pristavkalar 2-shaxsda ت، 3- shaxs muzakkari ي، muannasi ت fe'l oxiriga esa ان qo'shimchasi.

Ikkilik kategoriyasi ko'rsatish, nisbiy, kishilik, birikma olmoshlarida ham namoyon bo'ladi. Fe'llarda ikkilik faqat arab adabiy tilidagina qo'llanadi. Arab lahjalarida fe'lning ikkilik shakli yo'q.

Otlarning ikkilik shakli arab adabiy tilida to'liq namoyon bo'lsa, lahjalarda faqat tushum kelishigidagina qo'llanilishi mumkin.

**Son kategoriyasi.** Arab tilida uchta grammatik son bor:

1. Birlik. 2. Ikkilik. 3. Ko'plik.

**Ikkilik son.** Ikkilik son muzakkari yoki muannas jins, birlik sonda bo'lgan ismning oxiridagi tanvinini olib tashlab, o'rniga ئان (a:ni) qo'shimchasini qo'shib yasaladi. Bunda muannas jinsdagi so'zning ئى ( "ta marbuta" )si ت ("ta mamduha")ga almashtiriladi:

ikkita kitob	كتابان	←	kitob	كتاب
ikkita toliba	طالبان	←	toliba	طالب
ikkita mudarris	مدرسان	←	mudarris	مدرس

Ikkilik sondagi so'z oldiga الـ articli qo'yilganida ham, ئان qo'shimchasi o'zgarmaydi:

ألكتابان ← كتابان ← طالبان

Alif maqsura – ي bilan tugagan ismning ikkiligi hosil qilinganda, u ي ga o'zgaradi:

Ikkita xushxabar بشريان ← xushxabar بشرى

Hamza (ء) yoki alif (ا) bilan tugagan so'zlardan ikkilik son hosil qilinganda, ularning hamza yoki aliflari "wa:w" (و) ga o'zgarib ketadi:

ikkita go'zal حسنوان ← go'zal حسناء

Ikkilik sondagi so'zlar bosh va qaratqich-tushum kelishiklarida turlanadi:

**Ko'plik son.** Arab tilida so'zlarning ko'pligini hosil qilish ancha murakkabdir. U bir necha usulda yasaladi.:

1. Siniq ko‘plik yasash usuli; 2. To‘g‘ri ko‘plik yasash usuli.

Siniq ko‘plik. Ismdan siniq ko‘plik yasashda so‘zning o‘zagisi go‘yoki “sindiriladi” – ya’ni so‘z o‘zagini tashkil etuvchi undoshlarning unlilari o‘zgaradi, ko‘plik shakl yasovchi undoshlar kiritiladi. Natijada uning birlik shakli o‘zgaradi. Shuning uchun bunday ko‘plik yasash usuli “siniq ko‘plik” deb ataladi. Siniq ko‘plikdagi tanvin z(d)amma bilan tugagan ismlar uch kelishikda, d(z)amma bilan tugagan ismlar esa ikki kelishikda turlanadi:

bog‘ – bog‘lar حَدِيقَةٌ – حَدِيقَاتٌ dars – darslar دَرْسٌ – دُرُوسٌ

kitob – kitoblar كِتَابٌ – كِتَابَاتٌ xabar – xabarlar خَبْرٌ – أَخْبَارٌ

Qaysi so‘zning ko‘pligi to‘g‘ri ko‘plikda va qaysinisiki “siniq ko‘plik”da hosil bo‘lishini aniqlaydigan ma’lum bir “temir” qoida yo‘q. Buni aniqlash uchun bizga lug‘at kitoblari va o‘zimiz yod olgan so‘z boyligimiz qo‘l keladi.

To‘g‘ri ko‘plik. Ismdan to‘g‘ri ko‘plik yasashda uning oxiriga ko‘plik qo‘shimchasi qo‘shiladi. Bunda birlik shakli o‘zgarmay turadi. Muzakkarr jinsidagi to‘g‘ri ko‘plik shaxsni bildiradigan atoqli otlardan, ularning kasblarini bildiradigan so‘zlardan, ““ (“ta marbuta”) bilan tugamagan, ikkilik va to‘g‘ri ko‘plik qo‘shimchalaridan xoli bo‘lgan so‘zlardan hosil qilinadi.

Muzakkarr jinsdagi, odamni va uning kasb-korini bildiradigan so‘zlarning ko‘oligi uning oxiriga “- وْنَ ” va muannas jinsdagi so‘zning ko‘pligi uning oxiriga “- لَاثٌ ” qo‘shimchasini qo‘shib hosil qilinadi. Bu erda ham ة harfi ت ga aylanadi. Muzakkarr jins ko‘plikdagi so‘zlar ال artikli olganda qo‘shimchasi o‘zgarmaydi:

mudarrislar مُدَرِّسُونَ ← mudarris مُدَرِّسٌ + وْنَ

mudarrisalar مُدَرِّسَاتٌ ← mudarrisa مُدَرِّسَةٌ + لَاثٌ

To‘g‘ri ko‘plik, muannas jinsdagi ism ال artikli olganda tanvini tushib qoladi:

olimalar عَالِمٌ + لَاثٌ ← عَالَمَةٌ ← عَالَمَاتُ ← الْعَلَمَاتُ

tikuvchilar خَيَاطٌ + لَاثٌ ← خَيَاطَةٌ ← خَيَاطَاتُ ← الْخَيَاطَاتُ

To‘g‘ri ko‘plikdagi ismlar ikkita kelishikda turlanadi:

Odamni bildirmaydigan, muzakkarr va muannas jinsdagi aksariyat so‘zlarning ko‘pligi ham muannas jinsdagi to‘g‘ri ko‘plik shaklida hosil qilinadi:

hayvon – hayvonlar حیوانات ← حیوان

imtihon – imtihonlar امتحانات ← امتحان

Ko‘pincha odamni anglatgan bir so‘zning muzakkar jinsi to‘g‘ri ko‘plikda va muannas jinsi siniq ko‘plikda hosil qilinishi mumkin.

**Arab tilidagi otlarning siniq ko‘pligi.** Arab tili fiktiv tillar guruhiga kirishini yaxshi bilamiz. Shuning uchun ham arab tilida ko‘plikning ikki turi: to‘g‘ri ko‘plik va siniq ko‘plik mavjud.

To‘g‘ri ko‘plik xuddi o‘zbek tilidagidek so‘z oxiriga ma’lum qo‘sishmchalar qo‘sib yasaladi. Siniq ko‘plikda xuddi o‘zbek tilidagidek so‘z oxiriga ma’lum qo‘sishmchalar qo‘yib yasaladi. Siniq ko‘plikda esa, so‘zning ikki strukturasi undagi (undagi unlilar) undagilarning orasiga cho‘ziq unli va qisqa unlilar qo‘yish orqali yasaladi.

Arab tilida, ba’zi qolipdagi otlarning ko‘plik shaklini yashashning aniq morfologik qoidalari mavjud.chunonchi, فعلة va qolipidagi otlardan siniq ko‘plik yasaladi. Masalan دوله دول qolipida. To‘rt xarfli otlardan esa مفاعل فعل qoliqlarida yasaladi. Masalan مدارس مدرسة besh (o‘zakli) harfli so‘zlardan esa مفاعيل فعالل افاعيل افاعيل qoliqlarida yasalishi mumkin. Masalan سلطين سلطان . Chet tildan kirgan so‘zlar bo‘lsa, ulardan فاعيل فعالل yoki qolipidagi ko‘plik yasaladi. Masalan:

أساتيذةً – أستاذةً – أستاذ

نلاميذ – تلامذةً – تلميذ

Agar ot 5 dan ortiq harfdan tarkib topgan bo‘lsa, oxirgi 2 undosh olib tashlanib 4 harflik otlar yasaladigan qolipga solib ko‘plik yasaladi. Masalan:

عنادل – عندل – عندليب

**Arab tillarida kelishiklarning ifodalaniishi.** Arab tilida kelishiklar 3ta bo‘lib (bosh, tushum, qaratqich) ularning hammasi morfologik ko‘rsatkichga ega, ya’ni

Bosh kelishik ڦ -damma

Tushum kelishigi – fatha

Qaratqich kelishigi ڦ kasra.

Arab tilida bosh kelishik noaniq holatda tanvin damma, aniq holatda esa damma bilan ifodalanadi.

Qaratqich kelishigi noaniq holda tanvin kasra, aniq holatda kasra bilan ifodalanadi.

Tushum kelishigi noaniq holatda tanvin fatha bilan, aniq holda esa fatha bilan ifoda etadi.

Bundan tashqari to‘g‘ri ko‘plik muzakkar va muannasdagi otlarning kelishik ko‘rsatkichlari boshqacha ifodalanadi. Biz yuqorida to‘g‘ri ko‘plikdagi qo‘shimchalar ularning kelishik ko‘rsatkichlarini ham ifodalaydi.

Arab tilida bosh kelishik qaratqich kelishigi orqali, bosh, tushum, qaratqich kelishiklar 1ta tushum kelishigi shaklida ifodalanadigan holatlar ham mavjud. Masalan : **بَوْسَهُ وَقَارَطْقِيْقَهُ كَلِشِيْغِي** – قاضياً tushum kelishigi.

**الْمَسْتَشْفَى** – المستشفى – bosh, tushum, qaratqich kelishigi

**الْعَصَا** – العصا – عصا – bosh, tushum, qaratqich kelishigi

Ikki kelishikli otlarda tushum-qaratqich kelishigi bitta ko‘rsatkich (qo‘shimcha) orqali ifodalanadi (fatha bilan)

**الْمَسَائِلُ** – مسائل – tushum va qaratqich kelishigi.

Ikkilikda bosh kelishik ان ينْ ؟ – qaratqich kelishigi qo‘shimchalarini oladi.

Fe’llar ham arab tilida kelishik ko‘rsatkichiga ega. O‘tgan zamon fe’llari (3o‘zakli fe’llar, ikkilangan, to‘g‘riga o‘xhash, hamzali fe’llar) fathaga tugaydi. Hozirgi zamon fe’llar aniq daraja (xabar maylida) damma va istak maylida esa fathaga tugaydi.

Umuman, arab tilida kelishik kategoriyasi murakkab grammatik kategoriyalar qatoriga kiradi. Otlar turli omillar ta’sirida kelishik ko‘rsatkichlarini o‘zgartirishlari mumkin.

Arab tilida olmoshlarning turlari borki, ularni talqin qilar ekansiz ularning ba’zilari o‘zbek tilida egalik qo‘shimchalariga to‘g‘ri keladi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqadigan bo‘lsak arab tilidagi olmoshlarni to‘liq ko‘rib chiqish zarurati tug‘iladi.

Arab nahnchilar olmoshlarni alohida so‘z turkumi sifatida talqin etmaydilar, balki uni ism turkumida talqin etadilar va quyidagicha tasniflaydilar.

1. Shaxsiy olmoshlarni (الأَسْمَاءُ الْمُضَمِّنَةُ) deb ataydilar. (ya’ni nazarda tutuluvchi otlar مُنْفَصِلٌ ضَمِيرٌ)
2. Ko‘rsatish olmoshlari (الإِشَارَةُ إِلَى الْأَسْمَاءِ)
3. Nisbiy olmoshlari (الأَسْمَاءُ الْمُوَصَّلَةُ) birlashtiruvchi olmoshlari.
4. So‘roq olmoshlari (الأَسْمَاءُ الْمُسْتَهْمَةُ)

Bundan tash?ari ko‘rsatish va nisbiy olmoshlarni arab nahvchilar noma’lum ma’noli otlar مُبْهَمَةً أَسْمَاءً deb ataydilar. Birikma olmoshlarini esa kishilik olmoshlari toifasida talqin etadilar, ya’ni ضَمِيرٌ مُتَّصِلٌ, kishilik olmoshini esa deb ham ataydilar.

**Holat kategoriyasi.** Ism aniq yoki noaniq holatda bo‘lishi mumkin. So‘zlovchiga oldindan noma’lum bo‘lgan so‘zlar noaniq holatda, avvaldan ma’lum bo‘lgan so‘zlar aniq holatda ifodalanadi:

Men bir kitob(ni) o‘qidim. (noaniq)

Bu kitob juda foydali ekan. (aniq)

Quyidagi so‘zlar aniq holatda deb hisoblanadi:

1. artikli bilan kelgan so‘zlar: الْمَدْرَسَةُ ، الْوَلَدُ ، الْكِتَابُ ، الْبِنْتُ

.2 Bu artikl bo‘lmagan quyidagi ismlar:

a) atoqli otlar: مِصْرُ ، مَكَّةُ ، طَسْقَنْدُ ، أَحْمَدُ ، فَاتِّيَّةٌ kabi;

b) ko‘rsatish olmoshlari: هَذَا ، هَذِهُ ، ذَالِكَ ، تِلْكَ kabi;

c) kishilik olmoshlari: أَنَا ، أَنْتَ ، أَنْتِ ، هُوَ ، هِيَ ، تَحْنُ ، أَنْتُمْ kabi;

d) qaratqich – qaralmish shaklidagi (izofa) birikmaning 1- bo‘lagi: كِتَابُ الطَّالِبِ – طَالِبُ الْجَامِعَةِ kabi;

Tanvin bilan tugagan so‘zlar noaniq holatda deb hisoblanadi:

(bir) maktab – مَدْرَسَةٌ – (bir) qiz – بِنْتٌ – (bir) kitob – كِتَابٌ

**Jins kategoriyasi.** Arab tilida so‘zlar ikki xil: 1) muannas (qiz) va 2) muzakkarr (er) jinsida bo‘ladi. So‘zning muannas jinsda ekanligini bildiradigan yozilshidagi tashqi (morphologik) belgilari uchta:

1. So‘zning “ta marbuta” bilan tugagan bo‘lishi. Bunday so‘zlar ko‘p uchraydi:

hadya; ehson - هَدْيَةٌ - qiz - إِبْنَةٌ - amma - عَمَّةٌ

2. So‘zning ئە (alif va hamza) bilan tugashi. Bunday so‘zlar kam uchraydi:

davo - دَوَاعُ - sinov - بَلَاءُ - kasallik - دَاءُ

3. So‘zning ي (alif maqsura) bilan tugashi. Bunday so‘zlar juda kam uchraydi:

xushxabar - بُشْرَى - kasalxona - مُسْتَشْفَى

Qolgan muannas jinsdagi so‘zlar ular anglatgan mazmuniga qarab aniqlanadi:

A) Ayol kishini yoki ularning ismini bildiruvchi so‘zlar:

Qiz - بَنْتُ - ona - اُمُّ - Vidad (ism) - وَدَادٌ

B) Tananing juft a’zolarini bildiruvchi so‘zlar:

quloq - أَذْنُنْ - qo‘l - يَدُّ

C) Xalqlar, davlatlar, shaharlarning nomlari:

Livan - لِبْنَانُ - Liviya - لِيَبْرَيَا

D) Yaratilishiga ko‘ra yakka bo‘lgan narsalarning nomlari:

quyosh - شَمْسٌ - olov - نَارٌ

Qolgan so‘zlar muzakkar jinsga talluqli so‘zlardir. Ba’zi so‘zlar esa ikkala jinsga tegishlidir. Ularning ro‘yxati lug‘at kitoblarining oxirida beriladi.

Ushbu grammatik kategoriyalar bir necha jihatdan tasnif qilinadi:

1. Kategoriyadagi shakllarning ma’noviy tarkibiga ko‘ra.
2. Morfologik kategoriya (MK)larning so‘z turkumlari yoki gap bo‘laklariga xosligi jihatidan.

3. Morfologik kategoriya sintaktik qobiliyatlarining yo‘nalishlariga ko‘ra.

Endi shular ustida qisqacha to‘xtab o‘taylik. Birinchi tasnifga ko‘ra kategoriyalar sodda va murakkab kategoriyalarga ajratiladi. Son, qiyoslash, kelishik, nisbat, subektiv munosabat kategoriyalari sodda kategoriyalar jumlasidandir. Chunki ularda ma’no sodda bo‘lib, faqat bir kategoriya mansub bo‘lgan ma’noni ajratamiz. Chunonchi, son kategoriyasining ma’nosini

miqdoriy va sifatiy belgilarning ma'lum yig'indisidan iborat bo'lsa, kelishik kategoriyasi tobelikni ifodalaydi. Qiyoslash kategoriyasi belgining qiyosan ekanligini ko'rsatsa, nisbat kategoriyasi fe'l anglatgan bajaruvchining tavsifini ifodalaydi.

Murakkab kategoriyalarning formalarida ma'no murakkab bo'lib, ularda bir necha kategoriyalarga mansub bo'lgan ma'nolarni ajratish mumkin. Murakkab kategoriyalar sirasiga egalik, o'zgalovchi, kesimlik kategoriyalarini kiritish mumkin. Masalan, egalik kategoriyasida uch xil ma'no mujassamlangan bo'ladi:

- a) lisoniy va nolisoniy munosabatni ifodalash (egalik kategoriyasi uchun kategorial ma'no);
- b) shaxs ma'nosi (nokategorial ma'no);
- d) son ma'nosi (nokategorial ma'no).

Kesimlik kategoriyasi ham murakkab bo'lib, unda tasdiq-inkor, mayl-zamon, shaxs -son ma'nolari birlashgan bo'lib, ular bitta qo'shimchada yoki bir necha qo'shimchada ro'yobga chiqadi. Masalan, "Olmani ol" gapida "ol" so'zshakli tasdiq, buyruq mayli, hozirgi zamon, ikkinchi shaxs, birlik son ma'nolarini voqelashtirib kelmoqda va bu ma'nolar  $\{\emptyset\}$  bilan ifodalanmoqda . "Kitobni olmadingiz" gapida inkor ma'nosi [-ma] qo'shimchasi bilan , mayl-zamon ma'nosi [-di] bilan, ko'plik ma'nosi [-iz] bilan ifodalanmoqda.

O'zgalovchi kategoriya ham murakkab bo'lib, unda ravishdosh, sifatdosh va harakat nomi shakllari ma'nolari bir butunlikni hosil qiladi.

Morfologik kategoriyalarning so'z turkumlari yoki gap bo'laklariga xosligi jihatidan tasnifiga ko'ra Morfologik kategoriyalar ikkiga bo'linadi: leksik-morfologik va funksional - morfologik. Leksik - morfologik kategoriyalar so'zlarning ayrim guruhlari- turkumlariga xos. Bular sirasiga son, subektiv munosabat, qiyoslash, daraja, nisbat, o'zgalovchi kategoriyalar kiradi. Chunki son kategoriyasi, asosan, ot, olmoshlarga, qiyoslash, daraja kategoriyalari sifatlarga, nisbat, o'zgalovchi kategoriyalari fe'llarga xos leksik -morfologik kategoriyalar sifatida ajratiladi.

Funksional - grammatic kategoriyalarga kelishik, egalik, kesimlik kategoriyasi kiradi. Chunki kesimlik kategoriyasi gap markazi — kesimni shakllantirsa, kelishik uning boshqa bo‘laklarini shakllantiradi. Egalik kategoriyasi esa so‘z birikmasi qurilishini ta’minlash uchun xizmat qiladi.

### Savollar:

1. Arab tilida son kategoriyasining xususiyatlari qanday?
2. Arab tilida kelishik qanday ifodalanadi?
3. Arab tilida holat **va jins** kategoriyalarining qanday xususiyatlari mavjud?

## 4.2. KELISHIK KATEGORIYASI

### Reja:

1. Raf” (bosh kelishik);
2. Nasb (tushum kelishigi);
3. Jarr (qaratqich kelishigi);
4. Shart mayli (sukun).

**Tatanch so‘z va iboralar:** ism, fe’l, raf”, nasb, jarr, sukon.

Arab tilida so‘zlar turlanadigan va turlanmaydigan turlarga bo‘linishi ma’lum. Shulardan turlanadigan so‘zlar o‘z belgilariga ega.

Arab tilida so‘z fleksiyasining to‘rt turi bo‘lib, ular:

- 1) Raf” (bosh kelishik);
- 2) Nasb (tushum kelishigi);
- 3) Jarr (qaratqich kelishigi);
- 4) Shart mayli (sukun).

رأيت العلم نافعاً (bosh kelishik), nasb (tushum kelishik) إشتغلت بالعلم النافع (qaratqich kelishigi) harakatlari bilan o‘zgaradi. Yuqorida keltirilgan misollarga e’tibor beradigan bo‘lsak, turlanadigan ismlar oldidan turli xil ta’sir qiluvchi omillar kelishi bilan ularning harakatlari o‘zgarib bordi.

Turlanadigan fe'lning oxiri raf' (يكتب) (darak mayli), nasb (istak mayli) va shart mayli لُم يكتب ya'ni sukun harakatlari bilan harakatlanishi mumkin .

Bundan bizga ma'lum bo'ldiki, raf' (bosh kelishik) va nasb (tushum kelishik) harakatlari ismda ham fe'lida ham bo'ladi, lekin shart mayli (sukun) faqat turlanadigan fe'lga xos bo'lsa, jarr (qaratqich kelishigi) esa faqat turlanadigan ismga xos bo'ladi . Bu haqda rus arabshunos olimi V. Girgas shunday yozgan: Fleksiya – e'rob dEganda so'zlarning oxirgi bo'g'in unlisining o'zgarishi tushuniladi. Ismlardagi bu o'zgarish uning kelishigini, fe'llardagi (hozirgi zamon) o'zgarish esa uning maylini ifodalaydi, ya'ni raf' – ismlarda bosh kelishikni, fe'llarda darak maylini; nasb – ismlarda tushum kelishigini, fe'llarada istak maylini; jarr – ismlarda qaratqich kelishigini bildirsa, jazm – fe'llarda shart maylining ko'rsatgichi hisoblanadi. Fleksiya haqidagi ilm arab grammatik tizimining originalligini ta'kidlaydi.

Turlanadigan ismlarning belgilari harakat, harf yoki hazf qilish (ya'ni tushurib qoldirish) bilan ifodalanadi. Harakatlar uchta bo'ladi: damma, fatha va kasra. Turlanishni ifodalovchi harf to'rtta bo'ladi:

الالف، النون، الواو، الياء

Hazf bu –a) harakatning tushurib qoldirilishi (sukun deb nomlanadi), b) so'z oxirining tushurib qoldirilishi v) "nun"ning tushurib qoldirishidir.

1. Bosh kelishikning to'rtta alomati bor:

- damma (الضمة) – "u" belgisi

– يحب الصادق Sodiq yaxshi ko'radi

- vov (الواو) harfi

– أفتح المؤمنون iymon keltirganlar najot topdilar

- alif (الالف) harfi

– لينفق ذو سعة من سنته boy boligidan infoq qilsin

- nun (النون) harfi

– يكرم التلميذان المجتهدان ikki tirishqoq o'quvchi hurmat qilinadi

– تتطقون بالصدق rost gapiryapsizlar

2. Tushum kelishigining beshta alomati bor:

- fatha (الفتحة) – “a” belgisi
- alif (الالف) harfi
- yay (الياء) harfi
- kasra (الكسرة) – “i” belgisi
- nun harfining tushirib qoldirilishi (حذف النون).

Nun harfi - so‘z tushum kelishigida yoki sukun holatida bo‘lganda; hozirgi zamon fe’liga birlik, birinchi shaxs qo‘sishchasi qo‘silib kelganda; ko‘plik vovi yoki ikkilik alifi qo‘silib kelganida tushib qoladi. M:

- جانب الشر فتسأله  
- أعطِهُ الحقَّ حقهُ  
- يحبُ اللهُ المتقين  
- أكرِم الفتياتِ المجتهداتِ  
- لَنْ تَنَالُوا الْبَرَ حَتَّىٰ تَنْفُقُوا مَا تَحْبُّونَ

Yomonlikdan uzoqlashdi va taslim bo‘ldi  
Haqdorning haqqini ber  
Alloh taqvodorlarni yaxshi ko‘radi  
Tirishqoq o‘sipin qizlarni hurmat qil  
Yaxshi ko‘rgan narsangizni infoq qilmaguningizcha yaxshilikka yetolmaysizlar.

### 3. Qaratqich kelishigining uchta alomati bor:

- kasra (الكسرة) – “i” belgisi
- تمسُّك بالفضائل – yaxshi fazilatlarga ega bo‘l
- yay (الياء) harfi
- أطعْ أَمْرَ أَبِيكَ – otangning buyrug’iga itoat qil
- fatha (الفتحة) – “a” belgisi
- المرأةُ بِأَصْغَرِيهِ: قلبَهُ وَ لِسانَهُ – kishi qalbi va tili bilan .....

### 4. Jazmning uchta alomati bor:

- sukun (السكون) – “” belgisi
- من يفعَلُ خيراً يجدُ جيراً kim yaxshilik qilsa, yaxshilik topadi so‘z oxirining tushib qolishi (حذف الآخر)
- لا تدعُ إِلَّا اللَّهُ faqat Allohga duo qil

- حذف النون (nun harfining tushib qolishi)  
قولوا خيراً تعنموا، واسكنوا عن شر تسلموا Mashhur arab nahvshunos olim Abbas Hasan o‘zining asarida turlanish va turlanmaslikning turlari va belgilarini quyidagicha sharhlaydi:

Turlanishning asliy bo‘lib, ularning o‘rniga ishlatiladigan far’iy turlari ham bor.

A sliy turlari 4 ta:

I. Sukun. U uchta so‘z turkumiga kiradi:

1) Ismda bo‘ladi, m: مَنْ كُمْ

2) Yuklamada bo‘ladi, m: هُلْ قَدْ

3) Fe’lning 3ta turida bo‘ladi: a) birlikning va ko‘plikning birinchi shaxs, shaxs- son qo‘shimchalarining o‘tgan zamon fe’liga birikib kelishi ( مَا ، النَّاءُ ) muan. ( حضرْتُ )  
Masalan:

حضرْنَ، حضرْنَا ning fatxa, damma va kasra bilan kelishi, m: حضرْنَ، حضرْنَا ت

b) uch o‘zakli to‘g’ri fe’lning buyruq mayli, m: اكتُبْ، اجلسْ

v) muannaslik nuni birikkan hozirgi - kelasi zamon fe’li, m: الطالباتُ يتعلّمنْ يعْلَمْ

II. Fatha. U ham uchta so‘z turkumiga kiradi: 1. Ismda bo‘ladi, m: أينَ، كيفَ.

2. Yuklamalarda bo‘ladi, m: 3. سَوْفَ. Fe’lning 3 xil turida bo‘ladi: a) O‘tgan zamon fe’lining birinchi bobি m: نَصَرَ، كَتَبَ b) Oxirida ta’kid nuni kelgan buyruq fe’li v) hozirgi - kelasi zamon fe’li , m:

وَاللهِ لَا سَافَرَنَ فِي طَلْبِ الْعِمَلِ - Allohga qasamki, ilm talabida safarga chiqaman

سَافَرَنَ يَا زَمِيلَ فِي طَلْبِ الْعِمَلِ - Ey do‘st, ilm talabida safarga chiq

III. Damma. U yuklama va ismga kiradi, fe’lga emas. Ismga misol: حَيْثُ unda damma ko‘rinib turgan va taqdiriy ham bo‘lishi mumkin, m: سَيِّبُوهُ - so‘zi murojaat paytida: يَا سَيِّبُوهُ - u lafzan kasra bilan harakatlantirilgan va dammaga taqdiriy qilingan. Yuklamaga misol: مَنْدُ .

O‘tgan zamon fe’lining oxiridagi dammaga kelsak, misolida, u bob munosabatini ko‘rsatuvchi dammadir.

IV. Kasra. U ism va yuklamaga kiradi. Ismga misol: هُولَاءُ. Yuklamaga misol: بِكَ – dagi

A sliy belgilar o‘rniga keladigan far’iy alomatlarning eng mashhurlari 5 ta.  
Ular: 1. Oxiri illatlangan fe’lning buyruq mayli shaklida oxiridagi kasal xarfning

tushurib qoldirilishi sukunga o‘rindosh bo‘ladi, m: ارج، اخشن Buyruq mayli ikkilik sonda fe’lidagi nunni tushurib qoldirilishi ham sukunga o‘rindosh bo‘ladi yoki ko‘plik vovini yoki muxotaba yoy-ni ham tushurib qoldirish sukunga o‘rindosh bo‘ladi. M: اكتبا، اكتبوا، اكتبى.

2. لا – inkor yuklamasi tushgan muannas to‘g’ri ko‘plikda fatha o‘rniga kasra o‘rindosh bo‘ladi, masalan: لا مهملاٽ هنـا .

Turlanmaydigan muzakkar to‘g’ri ko‘plik va turlanmaydigan ikkilikda الفباء fathaga o‘rindosh bo‘ladi. Agar ularning birida لا - inkor yuklamasi kelsa ، masalan: لا غائـبـين، لا غـائـبـين

3. Turlanmaydigan ikkilikda alif harfi, agar nido qilingan bitta atoqli so‘zning o‘zi bo‘lsa, dammaga o‘rindosh bo‘ladi, m: يا محمدان يـا مـحمدـان yoki qasd qilingan noaniq holatdagi so‘z bo‘lsa, m: يا وافقـان اجلسـا يـا وـافـقـانـ

Agar turlanmaydigan muzakkar to‘g’ri ko‘plikda nido qilingan bitta atoqli so‘zning o‘zi bo‘lsa damma “vov” harfiga o‘rindosh bo‘ladi, m: يا محمدـون يـا مـحمدـون.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, turlanmaydigan so‘zda kasraga hech narsa o‘rindosh bo‘lmaydi. Sukunga ikkita narsa o‘rindosh bo‘ladi, fathaga ham, dammaga ham huddi shunday. Shuningdek, bilamizki, damma va kasra belgisi ism va yuklamada bo‘ladi, fe’lda bo‘lmaydi.

Turlanishning 4 turi bor:

1-raf’. U ism va hozirgi - kelasi zamon fe’liga tegishli, m: سعيدُ يَقُومُ 1-raf’.

2-nasb. U ism va hozirgi - kelasi zamon fe’liga oid, m:

- إِنَّ الْعَزِيزَ لَنْ يَقْبَلَ الْهُوَانَ - Haqiqatdan ham Aziz lagabardorlikni qabul qilmaydi.

- إِنَّ الشَّرِيفَ لَنْ يُقْدَمَ عَلَيْ صَغَارَ - Haqiqatdan ham Sharif kichiklarga bermaydi.

3-jarr. Faqat ismga tegishli, masalan:

- بِاللَّهِ أَسْتَعِينُ فِي كُلِّ أَمْرٍ Har bir ishda Allohdan yordam so‘rayman.

4-jazm. Faqat hozirgi kelasi zamon fe’liga tegishli , m:

- لَمْ أَتَأْخُرْ عَنِ إِجَابَةِ الْصَّارِخِ - Chaqiruvchining javobidan kechikmadim.

Demak raf’ va nasb harakati fe’llar va ismlarga oid, jarr ismga xos, jazm esa hozirgi kelasi zamon fe’liga tegishli ekan.

Bu to‘rt turning asliy alomatlari bo‘lib, far’iy alomatlar unga o‘rindosh bo‘ladi. Asliy alomatlar 4ta, ular: damma raf” holatda, fatha nasb holatda, kasra jarr holatda, sukun (ya’ni harakatsiz bo‘lganda) jazm holatda. Raf” holatdagi gapga سعید یقۇم misolidagi سعید so‘zi marfu’, uning raf” alomati damma, nasb holatidagi gapda ان علیا لەن يسافر misolida fe’l mansub, uning nasb alomati fatha, majrurda esa uning jarr alomati kasra. Shart maylida esa uning jazm alomati sukundir.

O‘sha asliy alomatlarga o‘rindosh bo‘ladigan far’iy alomatlarga kelsak, ular 10ta, ba’zida far’iy harakat asliy harakatga o‘rindosh bo‘ladi, ba’zida esa oxirgi harf asliy harakatga o‘rindosh bo‘ladi, ba’zida 3-harfning tushurib qoldirilishi sukunga o‘rindosh bo‘ladi ( sukun holatidagi hozirgi kelasi zamon fe’lining oxiridagi kasal harfi ham tushurib qoldiriladi, shuningdek beshta fe’lning sukun holatidagi nuni ham tushurib qoldiriladi).

O‘rindoshlar tushadigan o‘rinlar 7ta bo‘lib, “o‘rindosh turlanishlarning boblari ” deb nomlanadi, ular quydagilar:

1. Oltita ism.  
Иkkilik.
3. Muzakkar to‘g’ri ko‘plik.
4. Muannas to‘g’ri ko‘plik.
5. Turlanmaydigan ism.
6. Beshta fe’l.
7. Oxirgi illatli hozirgi kelasi zamon fe’li.

A sosiy qismlarga o‘rindosh o‘nta ikkinchi darajali qism quyidagicha yakunlanadi:

1. Dammaga uchta harf o‘rindosh bo‘ladi, ular: النون، الألف، الواو
2. Fathaga to‘rt narsa o‘rindosh bo‘ladi, ular:  
حذف النون، اليماء، الألف، الكسرة
3. Kasraga ikkita narsa o‘rindosh bo‘ladi, ular: اليماء، الفتحة
4. Sukunga harfning tushurib qolishi o‘rindosh bo‘ladi. Bunga sukulni illatlangan hozirgi - kelasi zamon fe’lining oxiridagi kasal harf, sukulangan beshta fe’lning oxiridagi nunning tushib qolishi misol bo‘ladi . Yuqoridagi

gaplardan ko‘rinib turibdiki, asliy alomatlarga o‘rindosh bo‘lib keladigan far’iy alomatlar ham mavjud ekan.

### **Savollar:**

1. Raf” (bosh kelishik) holatidagi so‘zlar qanday belgilarga ega?
2. Nasb (tushum kelishigi) dagi so‘zlar qaysi belgilarini bilan ajralib turadi?
3. Jarr (qaratqich kelishigi) dagi so‘zlar o‘ziga xos qanday belgilarga ega?
4. Shart mayli (sukun) dagi so‘zlarning qanday belgilarini bilasiz?

## **4.3. GRAMMATIK ZAMON KATEGORIYASI**

### **Reja:**

1. Fe’lning o‘tgan zamon shakli.
2. Fe’lning hozirgi-kelasi zamon shakli.

**Tayanch so‘z va iboralar:** zamon kategoriyasi, fe’lning o‘tgan zamon shakllari, fe’lning hozirgi-kelasi zamon shakllari.

Fe’l arablarning grammatikaga oid manbalarida markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. Sibavayhiyning asarida arab fe’lining ba’zi bir forma shakllariga nisbatan Xalilning bir nechta iqtiboslari saqlangan. Xususan bu iqtiboslar o‘tgan va hozirgi kelasi zamon forma, shakllarida tip unlilarining o‘zaro munosabatlariga oid, u birinchi va to‘rtinchi fe’l boblarining ma’nolarining o‘zaro munosabatini o‘rganadi. Bu borada mazkur boblarning qisman mos kelishi haqidagi fikr qiziqarlidir. Shunday qilib bu yerda og’zaki nutqda ko‘rsatilgan shakl, formalar anchadan beri aralashib ketganligi ta’kidlanadi. Xalil 12 bobni hodisaning ko‘p marotabaliligi, takroriyligi va umumiyligini ifodalovchi intensiv sifatida aniq tavsifni beradi.

Sibavahiy fe’lning 2 shaklini, ya’ni madin (o‘tgan zamon), mudoriy (hozirgi kelasi zamon aniq nisbat sifatdosh shaklli boshlang’ich shakl) va amr (buyruq mayli) bu shakllarga zamon tavsiflarini beradi, ya’ni o‘tgan zamon uchun “bo‘lgan

narsa”, hozirgi kelasi zamon uchun “nima haqida gapirilayotgan va u to‘xtamayogan” hamda buyruq mayli uchun “xali bo‘lman, ammo bo‘ladigan hodisa”. Davomida Sibavahiy fe’l turli kategoriyalarining batafsil tavsifini beradi, ya’ni o‘timlilik va o‘timsizlik nisbat, shaxs, son, jinsning ifodalanish, fe’l affekslarini sanab o‘tadi hamda o‘tgan zamonning va amr (buyruq) maylining shaklini leksiyaga ega emasligi hamda hozirgi kelasi zamon shakllari leksiyaga egaligi haqidagi holatni olg’a suradi.

Sibavahiy fe’lning barcha 15 bobini ma’no, shakllarini batavsil tahlil qiladi va ular ichidan intensiv – 2, 11, 12 boblar, kauzativ – 2, 4 bob, refleksiv 5, 7, 8 bob, qo‘shma harakat shakli 6 bob, iltimosni ifodalash 10 bob kabi shakllarni ajratib ko‘rsatadi. Bunda Sibavahiy fe’llarning u yoki bu fe’llari o‘rtasida semantik va funktsional bir xillik, o‘xhashliklarni va bir–birga mos kelishini bir necha marotaba ta’kidlaydi.

Asarining yakunida Sibavahiy o‘zakni hisobga olgan holda, 4 va 5 undoshli o‘zak fe’llarning yasalish tasvirini beradi, bunda o‘zak turi to‘g’ri va kuchsiz, bundan tashqari I kuchsiz o‘zakli fe’llar va bunda ular to‘g’ri gematsiya qilingan fe’llar kabi paradigmanti tashkil qilinishini ta’kidlab o‘tadi.

Arab grammatik tizimining asoschilari aniq va mantiqan to‘g’ri sxemani ishlab chiqishdi, bunda barcha so‘zlar undosh o‘zaklarga keltirilgan. O‘z tuzilmasi bo‘yicha bu me’yordan farqlanuvchi so‘zlarning morfologik xususiyatlari bir qator qoidalar ko‘rinishida talqin qilingan. Grammatistlar bunday o‘zakning vakili sifatida fe’lning birlamchi negizining perfekt birlik sonidagi 3 shaxs shaklini berishgan, ya’ni 1 bob fe’l shaklini. Bu fe’l shaklini barcha so‘zlarning manbasi hisoblangan, xattoki fe’l ismdan yasalganida yoki uning birlamchi negizi bo‘lmanida lug’atda birinchi o‘rinda fe’l beriladi, bunda mavjud shakli beriladi yoki sun’iy ravishda tiklangan shakli. Bunday turdagи belgilash o‘zining amaliy afzal tomonlariga ega, bu shaklda so‘zlarning o‘zagi eng aniq shaklda namoyon bo‘ladi, chunki qisqa unlilarni olib tashlasak, biz yuqorida tavsiflagan o‘zakka ega bo‘lamiz.

B.M.Grandening bergan tavsifiga ko‘ra, “o‘zak qachondir tilda mustaqil faoliyat yuritgani va undan so‘zlar yasalgan deb o‘yash noto‘g’ri. Aksincha, tilda muayyan so‘zlar mavjud, bu so‘zlar muayyan o‘zaklarga ega. Ulardan morfologik tahlil yo‘li bilan o‘zak ajratib olinadi, bu o‘zakni unda unlilar yo‘qligi tufayli talaffuz qilish mumkin emas. Shunga qaramasdan, gapirovotgan ongida o‘zakni tashkil qiluvchi undoshlar guruhi so‘zning moddiy, ya’ni grammatik bo‘lmagan ma’nosi bog’liq bo‘lgan tovushlar birligi sifatida idrok etiladi. Boshqa so‘zlar bilan aytganda, o‘zak so‘zning tarixiy qayd etilgan holati sifatida emas, balki so‘zning qandaydir aniq skeleti yoki bunday negizga mansub deb fikr bo‘ladi. Agarda semit tillari bo‘yicha adabiyotda so‘z mazkur o‘zakdan yasaladi deyilsa, bunda biz mazkur so‘zni faqatgina grammatik tuzilmasini tuushnamiz. Aslida o‘zak va so‘zning mutanosibligi bunday iborada mavjud bo‘lganga qarama– qarshidir, ya’ni morfologik tahlil yo‘li bilan o‘zak so‘zdan chiqarilad, so‘z o‘zakdan yasalmaydi” (11 b).

Zamaxshariy fe’l so‘z turkumiga o‘z asarining 2-bobini bag’ishlagan. Fe’lning asosiy belgisi uning fikricha, harakat vaqtiga ko‘rsatishga bo‘lgan qobiliyatidir. Fe’lning o‘ziga xos belgilari bu o‘tgan zamon uchun kad yuklamasini qo‘silishi kelasi zamon uchun sa va savfa yuklamalarini qo‘silishi, shart mayli yuklamalari hamda aniq olmoshlarning qo‘silishi, hamda o‘tgan zamonda muannas jinsning 3 shaxsida –m suffiksini qo‘silishidir.

O‘tgan zamonning shakli gapirovotgan paytdan oldin bo‘lgan harakatni ifodalaydi, bu shakl fleksiyaga ega emas va qisqa a bilan yakunlanadi. Bundan tashqari u suffikslar sifatida olmoshlarga ega bo‘ladi, bular fe’lning shaxs ko‘rsatichlari, bu borada qisqa a tushib qoldiriladi.

Hozirgi kelasi zamonning shakli xamza, n, t, y affikslari bilan boshlanadi, ular ma’lum shaxs shakllari bo‘yicha taqsimlanadi, bu affikslar hozirgi va kelasi zamonning barcha shakllari uchun umumiyyidir.

Fe’llar o‘z tuzilmasi bo‘yicha birlamchi va yasama bo‘lishi mumkin. Birlamchilar qatoriga 3 yoki 4 undoshli fe’llar kiradi, ularda yangi asosni tashkil

qiluvchi qo'shimcha unsur yo'. Ular qatoriga butun iboralardan tashkil topgan fe'l yoki ismdan yasalgan fe'llar ham kiradi. Masalan, talmaza yoki basmala.

Yasamalar qatoriga quyidagilar kiradi: 1) yasalgan fe'llar (2–15 boblar), 2) 3 undoshli fe'llaragarda ular oxirgi o'zak undoshi ikkilansa yoki n, w, j undoshlari qo'shilsa, masalan, gandala –gadala "erga ag'darmoq". Bu fe'llar 4 undoshli fe'llarga qo'shimcha deb ham nomlanadi, chunki ular 4 undoshli o'zaklar modeli asosida masdarlarni yasaydilar.

Zamaxshari Basriy tilshunoslari kabi asosiy shakl siftaida buyruq maylini ham ajaratadi, chunki bu mayl fleksiyaga ega emas, ya'ni yakuniy qo'shimchaga ega emas. Zamaxshariy va boshqa mualliflarning bunday tasnifi Sibavayxining majhul nisbat va o'timlilik va o'timsizlilik shakllarining talqiniga to'liq mos keladi.

Asosan yuklamalarning ta'siri natijasida fe'l yoki zamon mayl mazmunida o'z ma'nosini o'zgartiradi.

1. Yakunlangan zamon aksariyat hollarda o'tgan yakunlangan shakl belgilab beradi. Masalan: qatala – "u o'ldirdi", agarda undan oldin kana–"bo'lmoq" yordamchi fe'l yoki tasdiqlovchi qad yuklamasi, ba'zida esa kana va qad birgalikda qo'llansa, ancha oldin o'tgan zamon ma'nosi yasaladi.

2. Tugallanmagan, yakunlanmagan zamon bu berilgan zamonlarning har qandayini yasab beradi, ammo u bitmagan, yakunini topmagan ish bo'lishi mumkin. Masalan, "arkabu" bu rus tilida o'zbek tilidagi "ketayapman" ma'nosi mosdir, ya'ni bu o'tgan zamonga ham mos kelishi mumkin va bundan tashqari ham kelasi zamonga ham so kelishi mumkin. Masalan, "kelayotgan juma kuni ketayapman" ma'nosiga ham to'g'ri kelishi mumkin. Haqiqiy kelasi zamon ma'nosi savfa – "nihoyat" yoki uning qisqartma sa yuklamasi bilan ifodalanishi mumkin. Haqiqatda o'tgan zamon ma'nosini oldin keladigan kanna yuklamasi, bu yerda uzoq muddatlilik yoki odatiylik ma'nosi ham qo'shiladi. Masalan, kanayajlisu – "u odatda o'tirar edi", aslida yakunlangan, bitgan zamonga mos holda yakunlanmagan zamon ba'zida rus tilidagi ravishdoshga, ba'zida rus tilidagi noaniq mayliga mos keladi. Bu ayniqsa, boshlanish ma'nosini anglatadigan

fe'llardan bo'ladi. Masalan, axaza – “olmoq”, ja'la – “qo‘ymoq”, shara'a va tafiqa – “boshamoq”. Masalan, axaza yaf'alu – “u qilishni boshladi” va ma: barixa, ma: za:da, ma: fatia, ma: anfakka – “to‘xtamaslik”. Masalan, ma: barixa yaf'alu – “u qilishda to‘xtamas edi”. Shu tufayli yakunlanmagan zamon yaqinlik fe'llaridan so‘ng qo‘llaniladi. Masalan, xara: – “intilmoq”, 'asa: – “imkoniyatli bo‘lmoq”, qaraba va qa:da – “yaqin bo‘limoq”, vashuka(1 va 2 bob) – “bajarishga tayyor bo‘lmoq”. Masalan, qaraba yaf'alu – “u qilib qo‘yishiga sal qoldi”, va mavjudlik va bo‘lib yetishish fe'llaridan so‘ng, masalan, asbahayaf'alu – “u qilayotgan bo‘lib chiqdi”.

### **Savollar:**

1. O‘tgan zamon fe'llari qanday vaznlarga ega?
2. Fe'lning hozirgi-kelasi zamon shakli qanday yasaladi?

## **V bob. SINTAKSISNING NAZARIY TUGUNLARI**

### **5.1. GAP SINTAKSISI: GAP BO‘LAGI BO‘LA OLMAYDIGAN JUMLA**

#### **Reja:**

1. Tilning shakl va mazmun uyg‘unligi.
2. E’rob asosidagi sintaktik tahlil.
3. Jumla bo‘laklarining “mu’rab”yoki “mabniy”lik masalasi.

**Tayanch so‘z va iboralar:** ajratilgan bo‘laklar, undalma, kiritma, kirish so‘z va iboralar, qo‘shma gap, ergashgan gap, sintaktik tahlil, morfologik xususiyat, morfologiya va sintaksisning o‘zaro bog‘liqligi, i’rabu-l-mufradat, i’rabu-l-jumal,turlanuvchi yoki tuslanuvchi so‘zlar, o‘zgarmas so‘zlar.

Ma’lumki, XX asr o‘zbek tilshunosligi rus tilshunosligi orqali qabul qilingan Yevropa klassik tilshunosligi asosida shakllandı. Ushbu an'anaga ko‘ra gap sintaksisi deganda asosan sodda va qo‘shma gaplar tahlili nazarda tutiladi. Ba’zan bularga yana murakkab gaplarning o‘ziga xos xususiyatlari (ajratilgan bo‘laklar,

undalma, kiritma, kirish so‘z va iboralar) ham ilova qilinadi. Qo‘shma gaplar o‘z navbatida teng bog‘langan va ergashgan qo‘shma gaplarga ajratiladi. Bunday yondashuv ko‘pincha arab tilini o‘rganishga oid rus va o‘zbek tilidagi darslik va o‘quv qo‘llanmalarda, hattoki B.M.Grandening “*Kurs arabskoy grammatiki v sravnitelno-istoricheskem osveuqenii*” kabi fundamental asarlarida ham kuzatiladi. Ammo arab tilshunoslari masalaga butkul o‘ziga xos bir tarzda yondashadilar-ki, bizning nazarimizda, bunday o‘ziga xos yondashuvni arab tilini o‘rganayotgan talabalar bilib qo‘ysalar, foydadan xoli bo‘lmaydi.

Har bir til hodisasi shakl va mazmun uyg‘unligiga quriladi. Shu sababli turli zamon va makonda shakllangan elat va millatlar turlicha tilda gaplashadilar. Agar bir millat vakili o‘z tilini nazariy o‘rganishda o‘sha tilning o‘z mohiyatidan kelib chiqsa, undagi har bir unsurning shakl va mazmun uyg‘unligiga e’tibor qaratsa, shunda o‘ziga xos bir nazariy tizim yaratiladi. Arab tilshunoslari shuning uddasidan chiqa olishgan. Jumladan, ularning yondoshuvida morfologiya bilan sintaksis bir-biri bilan chambarchas bog‘liqlikda olib qaraladi.

Arab tilshunoslari qarashlariga ko‘ra jumla tarkibidagi so‘zlar ikki holatda bo‘lishi mumkin:

1) Ba’zi so‘zlarning oxirgi bo‘g‘inidagi unlilar ularning gapdagi vazifasiga qarab o‘zgaradi. Bunday so‘zlarni arablar معرب (turlanuvchi yoki tuslanuvchi so‘zlar) deb nomlashadi. Ular 4 xil holatda bo‘ladi: الرفع (*dammali* holat), النصب (*fathali* holat), الجر (*kasrali* holat), الجزم (*sukunli* holat).

البَلْبَل مفرد Misollar: (الجر, النصب, الرفع) – *Bulbul sayraqi (qushdir)*.

– دارهاقیقات – ان الصدق حمید. – *Darhaqiqat, to‘g‘ri so‘zlik (rostgo‘ylik) maqtovga sazovodir.*

بالعلم يتحقق التطور. *Ilm bilan rivojlanish amalga oshadi.*

يجلس. لن يجلس . Misollar: (الجزم, النصب , الرفع) Fe’llarda ham 3 holat kuzatiladi . لم يجلس.

2) Boshqa bir turdag'i so'zlarda oxirgi unli hech bir holatda o'zgarishga uchramaydi. Bunday so'zlarni arablar مبني (o'zgarmas so'zlar) deb nomlashadi. Misollar: سيروا، هؤلاء، رح، حيث، أنت

Yevropa klassik tilshunosligida, yuqorida eslab o'tganimizdek, gapning sintaktik tahlili, asosan, sodda va qo'shma gaplar doirasida olib borilsa, arab tilshunoslari gapning sintaktik tahlilini ham so'zlarning morfologik xususiyatiga tayangan holda, ya'ni ularning e'robi asosida amalga oshiradilar. Bunda tahlil ikki usulda olib boriladi:

اعراب المفردات 1

اعراب الجمل 2.

Masalan, Halab universitetida uzoq yillar arab tilidan dars bergen ustoz Ahmad Uslaning "المفید فی اللغة و النحو و العراب" asarida ayrim oyat va she'riy satrlar mazkur ikki usulda tahlil qilinadi.

Uning birinchi tahlil usuli اعراب المفردات deb atalib, unda jumlaning har bir bo'lagi qanday so'z turkumi bilan ifodalangani, u "mu'raba" yoki "mabniyya" ekani hamda u qanday gap bo'lagi bo'lib kelib, *raf*, *nasb*, *jazm* yoki *jarr* holatida turgani, bu so'z nihoyasidagi *damma*, *fatha*, *kasra* yoki *sukunda* namoyon bo'layotgani ko'rsatiladi. Uning ikkinchi tahlil usuli esa اعراب الجمل bo'lib, unda ergash gaplar gapdagi vazifasiga ko'ra qanday gap bo'lagi o'rnida kelayotgani kabi masalalar tahlil qilinadi.

Arab tilshunosligida *e'rob* ikki xildir.

ذات محل (1)

غير ذات محل (2)

E'rob aslida *mufrad* (yagona) so'zlarga xosdir. Chunki jumla yoki so'z birikmasi asl holida e'robga tushmaydi. Ularning e'robdagi o'rnini aniqlash uchun ushbu jumla yoki so'z birikmasini mazmunan ularning o'rnini bosishi mumkin bo'lgan biror bir yagona so'z (*mufrad*) bilan almashtiriladi.

Shundan kelib chiqib, agar biror bir jumla o'miga bir so'zni ishlata olsak va bu so'z gapdagi vazifasiga qarab o'zgarmas unli bilan tugasa, ya'ni النصب، الرفع، جملة لها محل من الجزم الْجَزْمُ holatlaridan birida o'zgarmas bo'lsa, demak, bu jumla

الأعراب bo‘ladi. Va bu e’rob pillapoyasida o‘zining muhim, o‘zgarmas o‘rniga ega bo‘lgan juma deb so‘zma-so‘z tarjima qilinsada, biz bu jumlalarning gapdagi vazifasi haqida fikr yuritib, “gap bo‘lagi bo‘la oladigan jumla” deb tarjima qildik.

Agar jumlani bir so‘z bilan almashtirib bo‘lmasa (ta’vil qilib bo‘lmasa) yoki ta’vil qilinsa ham **الجملة لا محل لها من الأعراب** (الجر, النصب, الرفع) yoki larda o‘zgaruvchan bo‘lsa, ya’ni biror bir gap bo‘lagiga tobe’ bo‘lib, u o‘zgarsa, buning ham aniqlovchi singari o‘zgarishi shart bo‘lsa, uni arab tilshunoslari sarlavhaning so‘zma so‘z tarjimasi , garchi u e’rob pillapoyasida o‘zining muqim, o‘zgarmas o‘rniga ega bo‘lgan jumla bo‘lsa, ham biz uni “gap bo‘lagi bo‘la olmaydigan jumlalar” deb nomladilar. Mazkur Bu toifa jumlalarni “gap bo‘lagi bo‘la olmaydigan jumla” deb tarjima qildik.

Kirish qismida aytilganidek, ba’zi toifa jumlalar o‘rniga *mufrad*, yagona so‘zni joylashtirib bo‘lmaydi, ya’ni jumla ma’nosini bir so‘z orqali *ta’vil* qilib bo‘lmaydi. Bunday jumlalar e’rob pillapoyasida muqim bir o‘ringa joylasha olmaydi.

Bu toifa jumlalar quyidagi turkumlarga bo‘linadi:

الجملة الابتدائية (1)

الجملة الاستئنافية (2)

الجملة المعترضة (الاعتراضية) (3)

الجملة التقسيرية (4)

جملة جواب القسم (5)

الجملة الواقعية جوابا لشرط غير جازم و لم تقترن بالفاء و لا باذا الفجائية(6)

جملة الصلة الواقعية صلة لاسم و لحرف (7)

الجملة التابعة لجملة لا محل لها من الأعراب (8)

### Savollar:

1. So‘zlarning oxirgi bo‘g‘inidagi unlilar nima sababdan o‘zgaradi?
2. Qanday so‘zlarni arablar “mu’rab” deb nomlaydilar?
3. Qanday so‘zlarni arablar “mabniy” deb nomlaydilar?
4. Arab tilshunosligida e’rob necha xil bo‘ladi?

5. E'rob qanday so'zlarga xos?
6. Jumlaning e'robdagi o'rnini aniqlash uchun nima qilish kerak?
7. Jumlani "ta'vil qilish" deganda nimani tushunasiz?
8. "Turlanuvchi" yoki "tuslanuvchi" so'zlar arab tilida qanday ataladi?

## GAP BO'LAGI O'RNIDA BO'LA OLADIGAN JUMLA

### **Reja:**

1. "E'robda o'z o'rniga ega bo'lgan jumlalar" tushunchasi.
2. Jumlani masdarga aylantirish.
3. Jumlani sifat yoki sifatdosha aylantirish.
4. Jumlani fe'lga aylantirish.

**Tayanch so'z va iboralar:** gap bo'lagi o'rnida bo'la oladigan jumlalar, e'robda o'z o'rniga ega bo'lgan jumlalar, turlanish va tuslanish qo'shimchalari, aniq va majhul daraja sifatdoshi, sifat, ergashtiruvchi bog'lovchi, masdar, fe'l.

Agar jumla mazmunan birgina ism yoki fe'l bilan almashtirilganda ushbu so'z gapdagi vazifasiga ko'ra muayyan bir turlanish yoki tuslanish qo'shimchalariga (*raf'*, *nasb*, *jarr*, *jazm* kabi e'rob harakatlariga) ega bo'lsa, bu jumla **جملة لها محل من الأعراب** deyiladi.

Arab nahvshunoslari "*e'robda o'z o'rniga ega bo'lgan jumlalar*"ni, ya'ni mazmunan e'robga tushadigan so'z bilan almashtirish mumkin bo'lgan jumla turlari haqida ikki xil fikr bildiradilar. Ba'zilar bunday jumlalarni 7 turga ajratsalar, boshqalari 9 turi haqida yozadilar.

Muhimi shuki, bu turdag'i jumlalarni qanday harakatga mos kelishini aniqlash uchun ularning kesimi quyidagi uch so'z turkumidan biriga aylantiriladi:

(وَسَبِّحْ بِحَمْدِ رَبِّكَ حِينَ تَقُومُ - المَصْدُر (52, 48) - (Ey, Muhammad), siz Parvardigoringizning hukmiga (ya'ni mushriklarni darhol azobga duchor qilmaganiga va sizni turli mashaqqatli sinovlar bilan imtihon qilishiga) sabr qiling. – Zotan siz shak-shubhasiz Bizning ko'z o'ngimizda (ya'ni hifzi-

*himoyamizda)dirsiz.—Va (tongda uyqudan) turgan paytingizda Parvardi-goringizga hamdu sano aytish bilan (U zotni barcha ayb-nuqsonlardan) poklang!*

القيام تقوم o‘rniga uning fe’lidan yasalgan masdar ni qo‘yib, حین القیام - jumlesi o‘rnida kelayotganini aniqlaymiz حین القیام -

Bunda “*al-qiyami*” so‘zi kasra bilan harakatlangani uchun uning e’robidagi o‘rni “*al-jarr*” hisoblanadi. Demak, “*hiyna taqumu*” jumlesi “*fi mahalli jarri mudof ilayhi*” deb ataladi, ya’ni ushbu jumla qaratqich kelishigidagi izofaning ikkinchi bo‘lagi vazifasida kelmoqda deb talqin qilinadi.

2-المشتق ( ya’ni fe’ldan yasaladigan aniq va majhul daraja sifatdoshi va sifatlar. Masalan: **إِنَّ الَّذِينَ يَرْمُونَ الْمُحْصَنَاتِ الْغَافِلَاتِ الْمُؤْمِنَاتِ لَعْنَوْا فِي الدُّنْيَا وَالآخِرَةِ** (ملعونون) (24, 23) – *Albatta (buzuq niyatlardan) bexabar, pokiza, mo ‘mina ayollarni badnom qiladigan kimsalar dunyoda ham, oxiratda ham la’natga duchor bo ‘ladilar, ular uchun ulug‘ azob bordir.*

Bu misoldagi “ ” jumlasini “ ” لعنوا ملعونون“” majhul daraja sifatdoshiga almashtirib, jumlaning kesim vazifasida ekanligini bildik.

- جاؤوا أباءهم عشاء يبكون (باكين) *Xufton vaqtি o‘z otalari oldiga yig‘lagan holda kirib keldilar.*

- فمن تبع هدای فلا خوف عليهم و لا هم يحزنون (حزينون) *Hech qanday qo‘rqinch yo‘q va ular hazin bo‘lmaydilar (Qur’ondan)*

جملة حالية يكون يبكون sifatdoshi vazifasida kelayotgani uchun jumlesi حال حالیه باکین dir.

جملة لا هم يحزنون خبر vazifasida kelayotgani uchun sifatdoshi حزینون خبریه dir.

3- الفعل ( جواب الشرط *ko‘pincha bog‘lovchisi bilan kelgan* الفاء *etsa, sodir bo‘ladi. Masalan: فمن يعطى الدنيا قرينا كمثالها*

فذلك في عيش الحياة سعيد

*Kimga u ayolga o‘xshash umr yo ‘ldosh nasib etsa,  
U hayoti davomida baxtlidir.*

Ushbu misoldagi ف bilan boshlangan jumla o‘rniga hozirgi kelasi zamon fe’lining shart mayli shaklini qo‘ysa bo‘ladi. Demak, dan الفاء ( ذلك سعيد = يسعد)

keyingi jumla bo‘lgani uchun uni “*laha mahall mina-l-i’rab*” toifasiga kiritamiz va u فی محل جزم جواب الشرط فی محل جزم جواب الشرط

Yuqorida zikr qilganimizdek, الجملة التي لها محل من الأعراب, larning soni haqida turlicha ma’lumotlar bor.

Biz quyida ko‘pchilik tomonidan tan olingan murakkab jumlalarni shu bob avvalida berib, babs-munozaraga sabab bo‘ladigan va lekin ko‘p iste’molda bo‘lib, boshqa tillarda ergash gapli qo‘shma gaplar sirasiga kiradiganlarini asosiy qism oxirida kichik sarlavhalar bilan ajratgan holda berishni ma’qul topdik, toki o‘quvchilarimiz bu tur murakkab jumlalarning ishlatalish qonun va qoidalari bilan tanishib chiqsinlar.

Ergashgan qo‘shma gap tarkibidagi har bir gap mazmunan mustaqildir. Mazkur mustaqil gaplar bir-birini to‘ldiradi, aniqlaydi, izohlaydi. Ergash gap bosh gapga ergashadi, bosh gap mustaqilday ko‘rinsa ham, aslida unda ergash gap tomonidan izohlanish ehtiyoji mavjud bo‘ladi. Ergash gap bosh gapga turli vositalar: bog‘lovchilar, yuklamalar, bog‘lovchi so‘zlar, kelishik qo‘shimchalari, paytni bildiruvchi otlar, nisbiy so‘zlar, bog‘lovchi so‘zlar orqali birikadi.

Ergashgan qo‘shma gapdagi komponentlar ergashtiruvchi bog‘lovchilar orqali bog‘lanadi. Rus va o‘zbek tillarida ergashtiruvchi bog‘lovchilar hech qanday gap bo‘lagi bo‘lmay, ergash gap bilan bosh gapning grammatik aloqasini ko‘rsatuvchi vosita sanaladi.

Arab tilshunoslari bu masalaga o‘zgacha nazar bilan qaraydilar. Keyingi mavzularimizda bu haqida to‘liq ma’lumot berishga harakat qilamiz.

### Savollar:

- “E’robda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan jumlalar” deb qanday jumlalarga aytiladi?
- “E’robda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan jumlalar” necha turga bo‘linadi?
- Bunday jumlalarning kesimini qaysi so‘z turkumlari bilan almash-tirish mumkin?
- Ergash gap bosh gapga qaysi vositalar yordamida bog‘lanadi?

5. Ergashgan qo'shma gapdagi komponentlar qanday bog'lovchilar orqali bog'lanadi?

6. Ergashgan qo'shma gap tarkibidagi mustaqil gaplar o'zaro qanday aloqada bo'ladi?

### **5.3. EGA VA FE'LIY GAPNING EGASI VAZIFASIDA KELUVCHI JUMLA**

#### **Reja:**

1. Ega ergash gapning funksiyasi.
2. Ega vazifasida kelishi mumkin bo'lgan jumla.
3. Fe'liy yoki ismiy jumla bilan ifodalangan fo'il.
4. Fe'liy yoki ismiy noibi fo'il.

**Tayanch so'z va iboralar:** ega ergash gap, "jumla laha mahall fi-l-i'rab", ismiy jumla, qo'shma gap, ega o'rnida kelgan jumla, fe'liy jumla, "ان و أخواتها" "كَانَ وَ اخْوَاتِهَا" ega, fe'l-kesim, ismiy kesim, fo'il, noibi fo'il, raf" holati, murakkab jumla, laha mahall fi-l-i'rab.

Ega ergash gap bosh gapda tushib qolgan eganing funksiyasini bajarib keladi. Bunday qo'shma gaplarda ko'pincha ergash gap – egasi tilga olinmagan to'liqsiz bosh gapning kesimiga nisbatan ega funksiyasini bajaradi.

1. Ega vazifasida kelgan ergash gap - الجملة الواقعة مبتدأ - tarkibiga ko'ra "kesim-ega" tartibida bo'lib, ikki turga bo'linadi, ya'ni ular bosh gapga "أن" "أُن" yoki "raf" bog'lovchilari yordamida bog'lanadi. "أن" "raf" bog'lovchisidan keyin qoidaga ko'ra nasb shaklidagi fe'l ishlatiladi, ammo ba'zi holatlarda o'tgan zamon fe'lining darak mayli ham qo'llanishi mumkin.

Arab tilshunoslari ega vazifasida kelgan ergash gapni tahlil qilar ekanlar, u فِي محل رفع مبتدأ deb, uni "jumla laha mahall fi-l-i'rab"ga taalluqli deydilar. Buni so'zma-so'z tarjima qilsak, ismiy jumlaning "raf" holatidagi egasi, u har doim

“raf”da bo‘lgani uchun uni “e’robda maxsus o‘rni bor, ya’ni raf’ holatida” degani bo‘ladi. Masalan:

على العاقل أن يبدأ بنفسه (1) - *Oqil kishi o‘zidan boshlashi kerak.*

Mazkur jumla qo‘shma gap. Undagi على العاقل jumlasi bo‘lib, fe’liy jumla. Undan keyin esa bilan boshlangan hozirgi kelasi zamon fe’li - أن يبدأ بنفسه kelayapti. أن يبدأ بنفسه - yuklamasi bilan birga kelgan fe’l o‘rniga shu o‘zakdan yasalgan masdarni ishlatish mumkin va u quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi : على العاقل بدؤه بنفسه . Jumladagi so‘zi raf’ holatidagi ega (*mubtada*) bo‘lgani uchun, uning ko‘rinishini ham, ya’ni jumlasini ham “raf” holatidagi “*mubtada*” o‘rnidagi jumla deb ataymiz.

جملة اسمية Mazkur jumla ism bilan boshlangani sababli uni ismiy jumla – جملة اسمية deymiz. Gapning ikkinchi qismi “kechikkan ega” - مبتدأ مؤخر hisoblanadi.

أن يهذب العالم نفسه أفضل من تهذيب غيره (2) - *Olim kishining o‘z odob-ahloq va madaniyati haqida qayg‘urishi o‘zganing odob-ahloq va madaniyati haqida qayg‘urishidan yaxshiroq.*

ال فعل المضارع Ushbu qo‘shma gap أن المصدريя bilan birga kelgan bilan boshlanib, uning o‘rniga shu o‘zakdan yasalgan masdarni qo‘llash mumkin va u quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi تهذيب العالم نفسه أفضل من تهذيب غيره :

Demak ning o‘rniga raf’ holatidagi ism ni qo‘yish orgali mazkur jumla ega o‘rnida kelayotganiniko‘rish mumkin. Shuning uchun uni الجملة لها محل فى الأعراب deb فى محل رفع مبتدأ تهذيب العالم لـ *Olim kishi o‘z aybi bilan o‘zgani ayblamaydi.*

ليس للعالم خبر bilan boshlangan so‘z birikmasi qo‘shma gapning i bo‘lib, “al-jumla al-murakkaba” ning boshida kelmoqda. Ega esa أن yuklamasi bilan fe’liy jumla sifatida أن يعيب غيره بعيب نفسه shaklida kelgan va uning fe’li o‘rniga masdar masdar qo‘yish mumkin va u quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi: ليس للعالم عيب غيره بعيب نفسه

Ya’ni bu jumla raf’ holatidagi ega o‘rnida kelgani uchun uni ”الجملة لها محل فى الأعراب“ toifasiga kiritamiz.

4-ان من واجب الإنسان أن يحتم عن طلب المستحيل *Chindan ham iloji yo 'q narsani talab qilmaslik inson burchlaridandir.*

Ushbu qo'shma gap ham ismiy jumla bo'lib bilan boshlangan. Bunda yuklamasining من واجب الإنسان i خبر egadan oldin kelgan. Ega esa fe'liy jumla shaklida bo'lib, uning fe'l-kesimini masdarga aylantirsak, u quyidagi ko'inishda bo'ladi: ان من واجب الإنسان الأحجام عن طلب المستحيل *Demak*. ان من واجب الإنسان **ال المستحيل** jumlesi masdar shaklidagi ega vazifasida kelgan ekan. Shuning uchun ham uning holati الرفع dir va u "laha mahall fi-l-i'rab" sirasiga mansubdir.

Demak, ega vazifasida haqiqiy, to'liq bir jumla kelishi mumkin. U ikki xil shaklda bo'ladi:

1. – ان bilan bog'langan fe'liy jumla shaklida. Masalan:
  - a) - أن تنتبهوا إلى الدرس اتفع لكم *Darsga e'tibor berishingiz siz uchun manfaatliroqdir.*
  - b) - اجر بك أن تفك في مستقبلك . *Kelajaging haqida fikr yuritishing senga zarurroqdir.*
2. – ان bilan bog'langan ismiy jumla shaklida. Masalan: فى ظنى أن أباك قادم *Menimcha, otang ertaga keladi.*

Agar qo'shma gapning kesimi bo'lsa, ega vazifasidagi ergash gap undan keyin qo'yiladi. Masalan:

من امانى أن أتجول فى العالم – *Dunyoga sayohat qilish mening orzuimdir.*  
من خصائص هذا العصر أن العلم مستمر التقدم – *Bu dunyoning xususiyatlaridan biri ilmning beto 'xtov rivojlanishidir.*

”ان و أخواتها“ “Ega ergash gap ismiy yoki fe'liy bo'lishidan qat'iy nazar, u yoki “ lar bilan boshlangan bo'lsa, u qo'shma gapning kesimidan keyin turadi. Masalan:

- 1- ليس جديرا بالمرء أن يخلف الوعد(1) – *Va'dasiga xilof qilishlik erkak kishiga munosib emas.*
- 2- كان عليك أن تصل في الوقت(2) – *O'z vaqtida kelishing kerak edi.*
- 3- صار من المنتظر أن الإنسان واصل إلى القمر بعد سنوات (3) – *Insonning bir necha yillardan keyin Oyga chiqishi kutilgan edi.*

4 - لعل فى امكانك ان تفوق اقرانك Balki o‘z tengdoshlaringdan yuqorilab ketishga imkoning bordir..

5 - ان فى اعتقادى ان اباك مسافر Menimcha, otang safarda, yuribdi.

Quyida keltirilgan oyati karimani tahlil qilib ko‘ramiz:

سَوَاءٌ عَلَيْهِمْ أَنذَرْتَهُمْ أَمْ لَمْ تُنذِرْهُمْ لَا يُؤْمِنُونَ إِنَّ الَّذِينَ كَفَرُوا  
– (2, 6) – “Kufr yo ‘lini tutgan kimsalar esa xoh (Alloh azobidan) qo ‘rqiting, xoh qo ‘rqtit mang, ularga barobardir – iymon keltirmaydilar” oyatidagi أذرتهم jumlesi raf’ holati o‘rnidagi va ان الذين كفروا أذارهم و عدم أذارهم سواء i egadan oldin kelgan خبر dir. Aslida shaklida bo‘lishi mumkin.

2. Kesimi fe’l bilan ifodalangan qo‘shma gapning egasi jumla bilan ifodalanishi mumkin va uni arablar الجملة الواقعه فاعلا deb nomlaydilar. Bunday jumlada ega, ya’ni fe’liy jumla ham, ismiy jumla ham bo‘lishi mumkin. Masalan:

Fe’liy: يلذ لى ان اتجول فى العالم – Dunyo bo‘ylab safar qilish menga huzur bag‘ishlaydi.

Do ‘stlaringdan g‘azablanmasliging kerak ينبغى الا تغضب اصدقائك

Ismiy: بلغنى انك شغوف بالرياضة – Sening sportga qiziqishing menga ma’lum bo ‘ldi (etib keldi)

يلذ لى ان اتجول فى العالم يلذ لى fe’l-kesimi bilan boshlangani uchun uning egasi fe’liy jumlesi ataladi. ان اتجول فى العالم فاعل deb ega vazifasida kelayotgan jumladir. Buni anglash uchun fe’lini تجول shaklidagi masdarga almashtiriladi. Shunda gap يلذ لى التجول في العالم so‘zi raf’ holatidagi ega bo‘lgani uchun ega vazifasidagi ان اتجول فى العالم fe’liy jumlanı deydilar va u الجملة لها محل فى الأعراب bo‘ladi.

Xuddi shuningdek ينبغى الا تغضب اصدقائك murakkab jumladagi ismiy jumlesi ham raf’ holatidagi ega o‘rnida bo‘lib الجملة لها محل فى الأعراب guruhiga kiradi.

انك شغوف فاغل murakkab jumlasidagi ismiy jumla بلغنى انك شغوف بالرياضة bilan ifodalangan. Shu bois mazkur jumla deb talqin qilinadi.

Shuningdek gapning <sup>27</sup> نائب فاعل ham fe’liy yoki ismiy bo‘lishi mumkin.

Masalan:

يستحسن ان تمشى راجلا كل يوم - *Har kuni yayov yurishing tahsinga loyiq.*

مشيك masdariga aylantirsak, uning *raf'* holatidagi نائب فاعل o‘rnida kelganini ko‘ramiz.

للحظ ان الامتحان سهل - *Bu imtihon osonligi ko ‘rindi.*

ان الامتحان سهل murakkab fe’liy jumlaning *noibi fo’ili* لحظ ان الامتحان سهل jumlesi ham bo‘lib فى محل رفع المبتدأ “*laha mahall fi-l- i ’rab*” hisoblanadi.

**Savollar:**

1. Ega ergash gapning funksiyasi nimadan iborat?
2. Qanday jumla ega vazifasida kelishi mumkin?

## **GAPNING KESIMI VAZIFASIDA KELUVCHI JUMLA**

**Reja:**

1. Kesim ergash gapning turlari.
2. Kesim ergash gapning “anna ” yuklamasi vositasida birikishi.
3. Kesim ergash gapga “fa” yuklamasining qo‘shilishi.
4. Jumlaning kesim vazifasida keladigan o‘rinlari (holatlari).

**Tayanch so‘z va iboralar:** Kesim ergash gap, fe’liy gap, ismiy gap, raf’ holati, masdar, “anna yuklamasi”, qo‘shma gap, laha mahall fi-l-i’rab, ot-kesim, “الباء olmoshi, olmoshi, qaytuvchi olmosh.” الفاء

Kesim ergash gap shaxs yoki predmet ma’nosini anglatuvchi eganing belgisini, xususiyatini, harakatini ko‘rsatadi. Shunday gaplarning egadan keyin kelgan turini arablar خبر deb ataydilar. Shu vazifada kelayotgan gapni esa “الجملة الواقعه خبرا” deb nomlaydilar.

<sup>27</sup>Кесими мажхул даража феъли билан ифодаланган жумланинг эгаси дейилади.

egaga nisbatan kesim bo‘lib kelayotgan bu ergash gap, tarkibiga ko‘ra, ikki xil bo‘lishi mumkin:

- 1.Fe’liy - الصدق ينجى صاحبه – *To ‘g‘rilik – o‘z sohibini (yomonlikdan) asraydi.*
2. Ismiy - البغى عاقبته وخيمة – *Adolatsizlik – uning oqibati ayanchlidir.*

Bu ikki qo‘shma gaplardagi عاقبته وخيمة va ينجى صاحبه ergash jumlalari ega عاقبته وخيمة va ينجى صاحبه (خبر المبتدأ) bo‘lgani uchun mazkur jumlalar hisoblanadi. Birinchi gapdagi الصلة في محل رفع خبر الربط olmoshi bo‘lsa, ikkinchi gapdagi الربط ya’ni bog‘lovchi الهاء “damir mustatir”dir.

Agar jumlaning fe’l-kesimini masdarga aylantirish mumkin bo‘lsa, kesim vazifasida kelayotgan fe’liy jumla egaga أن yuklamasi vositasida birikadi . Masalan:

- المطلوب منك أن تقوم بواجبك - *Sendan talab etilayotgan narsa o‘z burchingni bajarishingdir*

Masdarga aylantirilgan قيامك *raf* holatidagi so‘z birikmasi kesim o‘rnida kelgani uchun arablar uni في محل رفع خبر *raf* holatidagi “xabar” o‘rnida kelayotgan jumla deb “*laha mahall fi-l-i’rab*” sirasiga kiritadilar.

Bu misoldan kesim vazifasida kelayotgan jumla mazmuniga ko‘ra bir so‘zga aylantirilsa, u faqat رفع holati, ya’ni bosh kelishikdagi ism o‘rnida turishi ko‘rinadi. Demak, bunday jumlaning e’robdagi o‘rni ham u -رفع bosh kelishika turishidir.

Agar ergash gapning kesimini masdarga aylantirish mumkin bo‘lsa, kesim vazifasida kelayotgan ismiy jumla gapning egasiga “anna” yuklamasi orqali birikadi. Masalan:

- اعتقادى ان الجيش منتصر - *Ishonchim komil bu armiya zafar quchuvchidir*  
اعتقادى انتصار الجيش - *Bu armiya g‘alabasiga ishonchim komil*

Mazkur qo‘shma gapdagi الجيش منتصر ega ga nisbatan kesim vazifasida, ya’ni dir. Shuning uchun mazkur murakkab ismiy jumla لها محل dir. فـ bo‘lib, uning o‘rni في محل رفع خبر المبتدأ dir. فـ الأعراب

Ega jumla yoki bir so‘z bilan ifodalanishidan qat’iy nazar, agar undan oldin “amma اما” bog‘lovchisi kelgan bo‘lsa, kesim vazifasida kelayotgan jumlaga “ف” qo‘shilib keladi . Masalan:

خرجنا للنزة اما حامد فبقى في المنزل - *Biz sayrga chiqdik, Homid esa uyda qoldi*  
كثرت البقول في السوق اما الفواكه فقليلة - *Poliz ekinlari bozorda mo‘l bo‘ldi, mevalar esa kamdir.*

لَكَ ان تدافع عن رأيك اما ان تعاند فليس ذلك بلا نفع - *Sen o‘z nuqtai nazaringni himoya qilishing kerak, qaysarlik qilish esa senga yarashmaydi.*

Ibn Hishomning fikricha, bu singari jumla bir necha o‘rinlarda kesim vazifasida kelishi mumkin.

– زيد يشرب الماء مبتدأ (1) *ga nisbatan raf’ holatidagi* خبر bo‘lib, masalan: *Zayd suv ichayapti.* زيد يشرب الماء مبتدأ bo‘lmish ga nisbatan raf’ holatidagi kesim مستتر dir. Bog‘lovchi sifatida esa fe’lidagi ضمير hisoblanmish البياء ishtirok etmoqda.

مبتدأ قام ابوه Zayd –uning otasi olimdir qo‘shma gapda jumlesi زيد قام ابوه bo‘lmish ga nisbatan raf’ holatidagi kesimdir ( ). خبر في محل رفع Bog‘lovchi sifatida esa tarkibidagi “ه” qo‘llanilgan.

أبوه عالم زيد أبوه عالم ismiy jumlesi Zayd –uning otasi olimdir qo‘shma gapidagi ابوه bo‘lmish ga nisbatan kesim(خبر) dir. Bog‘lovchi sifatida tarkibidagi “ه” kelgan.

Alloh taolonning (7, 26) - (Hamasidan) yaxshiroq libos taqvo libosidir oyati karimasidagi ذلك خير مبتدأ bo‘lmish

لباس ga nisbatan raf’ holatidagi kesimdir. Bog‘lovchi sifatida ga ishora qiluvchi ذلك olmoshi qo‘llanilgan.

القارعة ما القارعة (101,1-2) -(O‘z dahshatlari bilan kishilar qalbini) qattiq qoquvchi (Qiyomat)! U qattiq qoquvchi nedur?! - oyatidagi birinchi bilan ifodalangan القارعة مبتدأ ga nisbatan raf’ holatidagi kesim (خبر) dir. lafzining takror qaytarilishi bog‘lovchi sifatida bo‘lib, ضميرni taqazo qilmaydi.

الْحَاقَةُ مَا الْحَاقَةُ (69, 1-2) - *Ro 'y berishi aniq* (*Qiyomat*) ... *O'sha ro 'y berishi aniq nimadir?* - oyati karimasidagi *raf* holatidagi خبر ما الحافة dir. ning takror qaytarilishi bog'lovchi "damir"ni talab qilmaydi.

Demak, yuqorida "kesim ergash gap" ga keltirilgan misollar "raf' holatidagi kesim" o'rnida kelayotgan jumlalardir. Shuning uchun ular deb الخبر في محل رفع kelayotgan kesim ham "raf'" holatida bo'ladi va unga ham في محل رفع الخبر ان deb ajratiladi va "laha mahall fi-l-i'rab" sirasiga mansub bo'ladi.

ان و اخواتها "lar bilan boshlangan egadan keying kelayotgan kesim ham "raf'" holatida bo'ladi va unga ham في محل رفع الخبر ان deb qaraladi. Masalan:

– ان زیداً أخوه ناجح  
*Darhaqiqat, uning akasi Zayd muvaffaqiyatga erishuvchidir.*

Bu gapda أخوه ناجح jumlesi "ان" yuklamasidan keyin *raf'* holatida turishi kerak bo'lgan ot-kesim o'rnidadir, ya'ni u . فى محل رفع الخبر ان Bu gapda bog'lovchi أخوه so'zidagi "هـ" olmoshidir.

Yana bir misol: (أَلَا إِنَّهُمْ هُمُ الْمُفْسِدُونَ وَلَكِنْ لَا يَشْعُرُونَ) (2, 12) - *Ogoh bo 'lingizkim, ular albatta buzg'unchilardir.* Misol tariqasida keltirilgan Allohning ushbu so'zida jumlesi "ان" yuklamasidan keyin bosh kelishikda kelishi kerak bo'lgan kesim o'rnidadir. Abu-l-Barakot al-Anbariy bu xususda shunday deydi: "Bu jumlada هـ - المفسدون - ot kesim. Bu gapda bog'lovchi ega - هـ ning qaytarilishi (takrorlanishi) bilan hosil qilinadi. Ya 'ni انهم ning kesimi ma'no jihatidan ikkinchi "هم" dir".

(أَلَا إِنَّهُمْ هُمُ السُّفَهَاءُ) (2, 13) – *Ogoh bo 'lingizkim, ularning o'zлари tuban kimsalardir* - oyati karimasidagi السفهاء jumlesi "ان" yuklamasidan keyin keladigan bosh kelishikdagi ot-kesim o'rnida kelmoqda. Ba'zida bunday jumlalarda "damir a'id" bo'lmasligi mumkin. Unda ضمير 28 – المبدأ gapning egasi الله اهل الشأن bilan ifodalangan bo'ladi. Masalan, (112, 1) oyati karimasida اَنَّهُ هُوَ اللَّهُ اَحَدٌ oyati karimasida bosh kelishikda kelishi kerak bo'lgan kesim o'rnidadir.

Xuddi shuningdek, kesim ergash gap o'mida kelayotgan jumla fe'liy bo'lishi ham mumkin. Masalan:

<sup>28</sup> هو ضمير يأتي أول الكلام وبعد جملة تفسره - ضمير الشأن

ان زیدا يلعب فی الشارع - *Darhaqiqat, Zayd, ko 'chada o 'ynayapti'*<sup>29</sup> mazkur misolda fe'liy jumlesi ان يلعب فی الشارع ga nisbatan "raf" holatidagi kesim o'rnidadir.

إِنَّ اللَّهَ وَمَلَائِكَتَهُ يُصَلِّونَ عَلَى النَّبِيِّ (33, 56) – *Alloh taolo ham, Uning farishtalari ham payg 'ambarga duoyu salovat ayturlar.*

Ikkinchi misol qilib berilgan oyati karimadagi jumlesi ham ”ان“ yuklamasidan keyin raf' holatida kelishi kerak bo'lgan kesim o'rnida kelayapti.

Arablarda qandaydir so'zga urg'u berib, unga e'tibor qaratish uchun sodda yoyiq gaplarni insho (ritorika) san'ati usullaridan mohirona foydalanib, ularni kesim ergash gapli qo'shma gaplarga aylantirib qo'llash odat bo'lgan. Bu albatta الرَّازِيَّةُ وَالرَّازِيَّيُّ فَاجْلَدُوا كُلَّ وَاحِدٍ مَنْهُمَا مِنْهُمْ جَلَدٌ (24, 2) - *Zinokor ayol va zinokor erkak borki – ulardan har birini yuz darra uringlar.* Mazkur misoldagi فاجلدوا كل واحد منها منه جلدة jumlesi buyruqni ifoda etib, raf' holatida bo'lishi kerak bo'lgan خبر o'rnidadir. Shuningdek والسَّارِقُ وَالسَّارِقَةُ (5, 38) – “O'g'ri erkakni ham, o'g'ri ayolni ham qilmishlariga jazo bo'lsin uchun qo'llarini kesinglar” oyati karimasidagi فاقطعوا ايديهم jumlesi ham buyruqni ifoda etib, raf' holatida bo'lishi kerak bo'lgan خبر o'rnidadir, shu bois u فى محل رفع خبر dir.

Shuningdek ergash gap mutlaq inkor bilan ifodalangan ism (ega) uchun لا مجرم يفلت من العدالة - kesim vazifasida kelishi mumkin. Masalan:

*Adolatdan qochib qutula oladigan jinoyatchi yo'q.* Bu jumlada ergash gap bosh gapga يفلت fe'lidagi “damir mustatir” bilan bog'lanayapti.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, jumla shaklida ifodalangan خبر , ya'ni (ergash gapning) kesimi turli shakllarda kelishi mumkin ekan. Masalan:

1. Bir so'z bilan ifodalaniishi – النَّمَلَةُ عَزَمَهَا ثَابَتٌ – *Chumoli, unig azm – qarori qat'iy .*

<sup>29</sup> Таржимада “ўйнаяпти” феъли Зайдга нисбатан феъл кесимдир. Шу сабабли ўзбек тилшунослари уни содда гап дейди. Араб тилшунослари يلعب في الشارع لعب دеб, кесими دеб, бу сўзни эга ва кесимдан иборат бўлган жумла деб хисоблайдилар.

2. Fe'liy jumla bilan ifodalanishi – النملة عزمها لا يفتر – *Chumoli, uning azm-qarori o 'zgarmaydi.*

3. Ismiy jumla bilan ifodalanishi الطبيب رايه أن مرضى عضال – *Tabib, uning fikricha kasalim tuzalmasdir.*

4. Jumla bilan ifodalangan kesim hech qachon buyruq, savol va inkor holat-larda boshlanmaydi.

5. Jumla bilan ifodalangan خبر bir lafz bilan ifodalangan kesim (خبر) dan keyin kelib, birinchi خبر ma'nosini tushuntirib kelishi mumkin. Masalan:

محمد كريم يحسن الى القراء – *Muhammad sahiydir, faqirlarga yaxshilik qiladi.*

محمد معتن عمله متقن طول السنة – *Muhammad g'amxo 'rdir va uning ishi yil bo 'yi.*

3) Egaga nisbatan "nasb" holatidagi خبر ham mavjud bo'lib, ular odatda lardan keyin keladi. Masalan: – كان زيد صديقه مظلوم *Zayd, uning do 'sti mazlum edi.*

الجملة الأسمية في محل نصب خبر كان و الرابط هو الضمير الهاي

Jumla حرف ناسخ yoki larga ) kesim bo'lib kelishi mumkin. Masalan: – كان زيد صديقه مظلوم *Zayd, uning do 'sti mazlum edi.*

كان ismiy jumlesi fe'lidan keyin tushum kelishigida kelishi kerak bo'lgan o'rnidida kelayapti. Uni arab tilshunoslari deb tahlil gapidagi fe'liy jumlesi fe'lidan keyin holatida keluvchi خبر o'rnidadir. Bog'lovchi sifatida الهاي damiri qo'llanilgan.

كان زيد يقود السيارة – *Zayd, mashinani uning o'zi boshqarayapti" qo'shma* خبر fe'liy jumlesi fe'lidan keyin نصب holatida keluvchi o'rnidadir.

### Savollar:

1. Kesim ergash gapning qanday turlari mavjud?

2. Jumla qanday o'rnlarda kesim vazifasida keladi?

## 5.5. HOL VAZIFASIDA KELUVCHI JUMLA

### **Reja:**

1. Jumla holiyya haqida umumiyl tushuncha.
2. “Al-jumla al-holiyya”ning shartlari.
3. Hol ergash gapdagagi fe'l-kesimning zamonlari haqida.

**Tayanch so‘z va iboralar:** “al-jumla al-holiyya”, fi mahalli nasb hol, hol ergash gap, ismiy gap, sohibu-l-hol, sifatdosh bilan ifodalangan hol.

Arab tilshunoslarining fikricha, “*laha mahall fi-l-i’rab*” turkumiga mansub bo‘lgan jumlalardan yana biri **الجملة الحالية** “*al-jumla al-holiyya*” dir.

*Mufrad holatidagi*, ya’ni sodda gaplardagi hol tushum kelishigida turgani uchun “*jumla holiyya*”ning o‘rniga qarab “*nasb holatida*”gi jumla (tushum kelishigida turgan hol vazifasidagi jumla) **فی محل نصب حال** (mحل نصب حال) deb ataydilar. Masalan: **انسابت الحية و قد آلمتها الضربة** - “*Ilon zarba og‘rig‘i jon-jonidan o’tgan holda yo‘rmalab qoldi*” murakkab jumladagi **قد آلمتها الضربة** ergash gapi sifatdosh bilan ifodalangan holga **متألمة من الضربة** tenglashtiriladi. Demak, ergash gapi **نصب holatidagi sifatdosh bilan ifodalangan hol vazifasidadir**, ya’ni **فی محل نصب حال** dir .

“*Kishi afsuslanib (afsuslangan holda), dedi:...*” **قال لها الرجل و هو نادم** فقل لها **و هو نادم** degan jumlani ham bir so‘z bilan ifodolasak ergash gapi ham **الرجل نادم** bo‘ladi. Demak, ergash gapi **فی محل نصب حال** dir.

“*al-jumla la-holiyya*” bo‘lishi uchun quyida keltirilgan ikki shartdan biri bo‘lishi zarurdir.

- 1) unda *hol sohibiga* mos keluvchi **ضمير** ” ning bo‘lishi yoki
- 2) uning **و او الحال** deb atalmish dan keyin kelishi.

Ibn Ya’ish aytadiki, “*Bilamanki, butun bir jumla hol vazifasida kelib, ismiy yoki fe’liy bo ‘lishi mumkin*. Masalan :

**مررت بزيد على يده باز** – *Men qo ‘lida lochin tutgan Zaydning yonidan o ‘tdim.*  
**جاء زيد و سيفه على كتفه** – *Zayd yelkasida qilichi osilgan holoda keldi.*  
ya’ni Zayd keldi va bu uning kelgan paytidagi holatidir.

Mazkur misollardagi سیفه على کتفه va باز على يده مبتدأ خبر va dan tashkil topgan. Demak, hol ergash gap ismiy jumla bilan ifodalanishi mumkin ekan.

Hol vazifasida kelayotgan jumlaga “ضمير عائد” qo’shilishi ham, qo’shilmasligi ham mumkin. Masalan:

ا قبل محمد و يده على رأسه - *Muhammad qo’lini boshiga qo’ygan holda yaqinlashdi*

- جاء اخوك و ثوبه نظيف *Akang ko ‘ylagi toza holda keldi.*

- جاء زيد و عمرو ضاحك *Amr kulayotganda Zayd keldi.*

- و اقبل بكر و خالد يقرأ *Xolid o ‘qiyotganda Bakr yaqinlashdi.*

Birinchi toifa jumlalarga “*sahibu-l-hol*” ga mos keluvchi “ضمير” qo’shilgan bo’lsa, ikinchi toifa jumlalarda “ضمير” mavjud emas. Demak, “*sahibu-l-hol*”ga mos keluvchi “ضمير” bo’lmasligi ham mumkin ekan. Bunda hol ergash gapning egasi “*sahibu-l-hol*”ning bir qismi, bo’lagimi yoki unday emasmi, shunga e’tibor qaratiladi. Yuqoridagi مرت بزيد على يده باز jumlasida mavjud bo’lib, و او الحال ضمير va larning mavjud emas. Demak, ta’kid uchun ikkalasining, ya’ni mavjud bo’lishi ham mumkin va ulardan birigina qo’llanilishi ham mumkin. Lekin ikkalasidan birining ishlatilishi shart.

Masalan، ا قبل محمد على رأسه فلنسوة، “*Muhammad boshida bosh kiyimi kiygan holda keldi*” jumlasida ضمير hisoblanmish الهاء mavjudligi bilan ergash gap bosh gapga bog’landi. Ammo ا قبل محمد على عبد الله فلنسوة jumlasida ikkala shartring birortasi ham mavjud emas. Shu bois ikkinchi jumla holni ifodalamaydi, chunki ergash gapni bosh gapga bog’laydigan bog’lovchi yo‘q. Arab tilshunoslari bu ko‘rinishdagi ikkinchi jumlanı الجملة الاستأنفية deb ataydilar.

Bundan tashqari “*jumla holiyya*” bo’lishi uchun “*sahibu-l-hol*” aniq holatda, ya’ni “*ma’rifat*” bo’lmog‘i shart. Uning noaniq holatda bo’lishi uchun esa ilojsiz sabab bo’lishi kerak.

Alloh taoloning ushbu oyatlari “hol” ga misoldir:

لا تقربوا الصلاة و انتم سكارى - *Ey mo ‘minlar, toki gapirayotgan gaplaringizni bilishingiz uchun mast holingizda namozga yaqin kelmang* (4, 43)- oyatidagi

– و انتم سكارى ismiy jumla bo‘lib tushum kelishigidagi hol vazifasini bajarib kelmoqda.

تکتمون ismiy jumlesi (2,42) قال تعالى: **وَتَكْتُمُوا الْحَقَّ وَأَنْتُمْ تَعْلَمُونَ** - *Haqni botilga almashtirmanglar va bilgan holingizda haqni berkitmanglar* – оятидаги исламий жарнамасының 2,42 маддесінде айта берилген жаңы мәселе.

جملة اسمية في موضع نصب على الحال في مضرم jumlasini و انتم عاكفون في المساجد مرفوع في تباشرون deb talqin qiladilar.

(2) قوله تعالى : هُنَّ عَسِيَّثُمْ إِنْ كُتِبَ عَلَيْكُمُ الْقِتَالُ أَلَا تَقَاتِلُوا قَالُوا وَمَا لَنَا أَلَا نُقَاتِلُ فِي سَبِيلِ اللَّهِ (2, 246) - “Agar sizlarga urush farz qilinsa, ehtimol urushmassiz?-dedi (payg ‘ambar). Ular aytdilar: “Diyorimizdan haydalib, bolalarimizdan (ajralib) turibmiz -ku, nega Alloh yo ‘lida urushmas ekanmiz? ”.

الله لا إله إلا هو الحي القيوم (3, 2) - *Alloh (yagona) hech bir tangri yo ‘q. Faqat Uning o‘zi bor. U tirik va abadiy turguvchidir* - ояти каримасидаги исламий жарнамасының 3, 2 маддесінде айта берилген жаңы мәселе.

- قال الرسول عليه السلام : أقرب ما يكون العبد من ربه و هو ساجد (معنى الليب 459) mazkur hadisidagi исламий жарнамасының 459 маддесінде айта берилген жаңы мәселе.

الجملة الحالية fe’liy bo‘lishi mumkin.

- انسابت الحياة و قد آمنتها الضربة Ilon zarba og‘rig‘i jon-jonidano ‘tgan holda yo ‘rmalab goldi.

– نزل أخوان واديا و قد اقبل الليل Tun tushgan paytda aka-uka bir vohada to ‘xtadilar.

- كيف لذى العيش و انا انظر الى قاتل اخي Akamning qotiliga qarab turib hayotdan qanday lazzatlanishimmumkin.

Yuqorida keltirilgan murakkab jumlalardagi ergash gaplar fe’liy jumlalardan tashkil topgan bo‘lib, ularning fe’l-kesimlari har xil zamon va shakldadir.

- “*jumla holiyya*” ning fe’l-kesimi o‘tgan zamonda bo‘lsa, unga ҳадду yoki inkor yuklamalaridan biri qo‘shiladi.

<sup>30</sup> Эътиқоф - маълум муддатни ният қилиб масжид ёки уйдан чикмай рўза тутган ҳолда ибодат қилиш.

– حللت بالمدينة وقد فتحت الأسواق – *Bozorlar ochilganda men shaharda to 'xtadim.*  
 استيقظت و ما زال الظلام مخيما - *Tun hali o'z pardalarini ko 'tarmasdan uyg 'ondim.*

- “*jumla holiyya*” ning fe'l-kesimi kelasi zamon shaklida bo'lsa, bog'lovchi lozim bo'lmaydi. Bunday bog'lanishni “ma 'noviy” deb ataydilar.

– قام الشاعر ينشد قصيده *Shoir o'z qasidasini o'qigan holda (o 'rnidan) turdi.*

- agar “*jumla holiyya*” او ayiruvchi yuklamasi bilan ajratilgan ikki o'tgan zamon fe'llarini o'z ichiga olsa واو الحال *tushib* qoldiriladi.

– اذكر صديقك بخير غاب او حضر – *Do 'stingni xoh u (yoningda) bo'lsin, xoh bo 'lmasin yaxshilik bilan esla, yod et.*

- agar “*jumla holiyya*” ” حصر“ ” *holatida* bo'lsa, *tushib* qoldiriladi.

– ما قرأت القرآن الا استفدت منه *Qur'oni o'qib undan faqat manfaat topdim.*

Agar “*jumla holiyya*” ning fe'l-kesimi hozirgi kelasi zamon shaklida bo'lib yuklamasi bilan kelsa واو الحال *albatta qo'yiladi.*

– لماذا لا تشارك في السباق وقد تنتصر *Nima uchun musobaqada ishtirok etmaysan, balki g'alaba qozonarsan.*

Odatda “*jumla holiyya*” quyidagi holatni ifodalashi mumkin:

1) ظرف (ravish) ma'nosini

– قدم القائد و حوله جنوده *Qo'mondan o'z askarlari qurshovida keldi.*

– وصلت الى المدينة وقد انتصف النهار *Kun yarimlaganda shaharga yetib keldim.*

2) Sabab ma'nosini

– لا استطيع ان اخرج من بيتي و المطر متهاطل *Yomir quyayotganda men uydan ko 'chaga chiqa olmayman.*

3) Xohish, istak ma'nosini

– كتبت الى ابي استخبره عن حالته *Otamga uning holadan xabar olish maqsadida yozdim.*

4) To'siqsizlikni

– عجز المستعمر عن قهر الشعب و له وسائل القمع المختلفة *Mustamlakachi, unda turli qiynash vositalari bo 'lsa ham, halqni qiynashga ojizlik qildi.*

“Jumla holiyya” ajablanishni ifoda etish shaklida bo‘lsa, u ma’nosini beradi. Masalan:

- تقدم الى الاً متحان و ما أبعده عن النجاح *Muvaffaqiyatdan qanchalar uzoq bo‘lsa ham, u imtihonga keldi.*

### Savollar:

1. Qanday jumla jumla holiyya deyiladi?
2. “Al-jumla al-holiyya”ning shartlari qanday?

## 5.6. GAP BOLAKLARI:

### SODDA GAP BOSH BO‘LAKLARINING TURLANISHI

#### Reja:

1. Kesimi mavjud ega.
2. Atributiv bog’lanish.

**Tayanch so‘z va iboralar:** gap tuzilishi, ega, kesim, atributiv bog’lanish.

Arab tilida kelishiklar so‘zlarning gapdagi vazifasini ham belgilab beradi. Yoki boshqacha aytsak har bir gap bo‘lagi muayyan kelishikka ega. Arab tilida ot kesimli gapning egasi doimo bosh kelishikda bo‘ladi. M:

فَازَ الْمُجتَهِدُ - Tirishqoq yutdi

الْحَقُّ مُنْصُورٌ - Haqiqat g’alaba qozongandir

كَانَ عُمُرُ عَادِلًا - Umar odil edi

Faqat yoki uning sheriklaridan keyin kelsa , u tushum kelishigida bo‘ladi.

M: إِنَّ عَمَرَ عَادِلٌ haqiqatda Umar odil

Arab tilida ot kesimli gapning egasi haqida Mustafo G’alayiniy quyidagi fikrlarni bildiradi:

يَنْقَسِمُ الْمُبْتَدَأُ إِلَى قِسْمَيْنَ:

مُبْتَدأ لَهُ خَبْرٌ: وَ هُوَ غَيْرُ الوَصْفِ الْأَتِي مِثْلُ: الْعِلْمُ نُورٌ، وَ الشَّمْسُ سَاطِعَةٌ، وَ زَيْدٌ عَذْرَمْ اعْتَذَرَ. -

فَزَيْدٌ: مُبْتَدَأ، عَذْرٌ: خَبْرٌ، وَ مَنْ اعْتَذَرَ مَفْعُولٌ لِعَذْرٍ.

- Ega ikki turga bo‘linadi:

1. Kesimi mavjud ega. Bu holatda ega hech qanday aniqlovchilarsiz keladi.

M: العلم نور – bilim nurdir

– الشَّمْسُ ساطعةٌ – quyosh yorug’dir

– زَيْدٌ عَذَرْمَنْ اعْذَرَ – Zayd, kim kechirim so‘rasa, kechiruvchidir

Izoh: Uchinchi misolda – زَيْدٌ ismiy jumlaning egasi, so‘zi ismiy jumlaning kesimi, – منْ اعْذَرَ (زَيْدٌ) ga nisbatan kesim bo‘lib kelyapti.

و مبتدأ له مرفوع سد مسد الخبر، و هو الوصف و يشترط في الوصف المكتفي، ثلاثة شروط: -  
الاول أن يكون معتمدًا على استفهام او نفي (و هذا مذهب البصريين الا الاخفش) : أَمْقِيمُ الضَّيْفَانُ؟ و ما  
غائب الشاهدان ، فان لم يعتمد الوصف على نفي او استفهام لم يكن مبتدأ عند البصريين

2. Kesim vazifasini bajaruvchi bosh kelishikdagi ism bilan birga kelgan ega va bu holat atributivlikdir. Atributiv bog’lanish bo‘lishning 3 sharti bor:

1. Atributiv aloqa so‘roq olmoshiga yoki inkor yuklamasiga tayangan bo‘lishi kerak. (Bu Axfashdan boshqa Basra maktabidagi barcha olimlarning fikridir.) Masalan:

– أَمْقِيمُ الضَّيْفَانُ؟ ikki mehmon qoladimi?

– ما غائب الشاهدان – ikki guvoh yo‘q

Basraliklarning fikricha, atributiv munosabat so‘roq olmoshiga yoki inkor yuklamasiga tayangan bo‘lmasa, u holda u ismiy jumlaning egasi bo‘lmaydi. Bunga misol qilib, “قَائِمٌ مُحَمَّدٌ” Muhammad turuvchidir” jumlasini keltirsak. Bu yerda قائم avval kelgan kesim, so‘zi esa kechikkan egadir .

ان تكون النكرة في أسلوب عطف، و يشمل ذلك اربعة انواع هي -

ان تكون النكرة معطوفة على معرفة، مثل: محمد خادم مسافران (1).

ان يعطى عليها معرفة، مثل: خادم و محمد مسافران (2).

ان تكون معطوفة على موصوف، مثل: رجل طويل و صديق امام البيت (3).

ان يعطى عليها موصوف، مثل: رحل و امراة طويلة في البيت (4).

- Agar ega biror so‘z bilan uyushib kelgan bo‘lsa, u holda ega noaniq holatda kelishi mumkin. Bu quyidagi 4 holatni o‘z ichiga oladi:

1. Agar ega aniq holatdagi otga bog’langan bo‘lsa, u noaniq holatda keladi.

M: محمد و خادم مسافران – Muhammad va xizmatchi safar qiluvchilardir.

2. Agar aniq holatdagi otga egaga bog'langan bo'lsa, ega noaniq holatda kelishi mumkin. M: خادم و محمد مسافران – Xizmatchi va Muhammad safar qiluvchilardir.

3. Agar ega aniqlanmishga uyushib kelsa, u holda ega noaniq holatda keladi. M: رجل طويل و صديق امام البيت – uzun bo'yli kishi va do'st uy oldidalar.

4. Agar aniqlanmish egaga uyushib kelsa, u holda ega noaniq holatda keladi. M: رحل و امراة طويلة في البيت – kishi va uzun bo'yli ayol uydadir.

Agar ot-kesim ism bo'lsa, u ham bosh kelishikda bo'ladi. M:

السابق فائزٌ إنَّ الْحَقَّ غَالِبٌ o'tib ketuvchi yutuvchidir, haqiqatda haq g'olibdir.

Faqat, agar yoki uning sheriklaridan keyin tursa, unda tushum kelishigida bo'ladi, m: كان علىٰ باب مدينة العلم. Ali ilm shahrining eshigi edi.

Agar ot kesim fe'l bo'lsa va u o'tgan zamon fe'li bo'lsa, uning harakati doimo o'zgarmas fatha bo'ladi. M: إِنْتَصَرَ g'alaba qozondi

Agar unga ko'plik vovi qo'shilsa, u dammaga o'zgarmas bo'ladi yoki harakatlangan raf' olmoshi bilan kelsa, unda o'zgarmas sukun bilan turlanmaydigan so'z bo'ladi . M: إِنْتَصَرُوا، إِنْتَصَرْتُ، إِنْتَصَرْتُمْ g'alaba qozondilar, g'alaba qozonding, g'alaba qozondinglar.

Agar hozirgi zamon fe'li bo'lsa, u doimo damma harakatiga tugaydi. M:

يَنْصُرُ g'alaba qozonadi.

Faqat, agar undan oldin tushum kelishigida turishini talab qiluvchi yuklama kelsa, albatta tushum kelishigida bo'ladi. M:

لَنْ تَبْلُغَ الْمَجَدَ إِلَّا بِالْجَدِ yuksaklikka faqat harakat bilan erishasan.

لَمْ يَلِدْ وَ لَمْ يَوَدْ – tug'madi va tug'ilmaydi.

Agar unga ta'kid nunlaridan biri birikib kelsa, o'zgarmas fatha harakati bo'ladi. M: يَجْتَهَدُونَ ، يَجْتَهِدُ harakat qiladi.

Yoki muannaslik nuni birikib kelsa, o'zgarmas sukun harakati bo'ladi, o'spirin qizlar harakat qiladilar.

Agar buyruq maylidagi fe'l bo'lsa, u doimo sukun harakati bilan o'zgarmas bo'ladi. M: أَكْتُبْ ، أَدْخُلْ yoz, kir.

Agar fe'lning oxirgi o'zagi illatli harf bo'lsa, uni tushurib qoldirish kerak bo'ladi. M: دعا مشي va امّش، اُذْعَ chaqir, yur. Aslida o'zak مشي edi.

Ikkilik sonining alifi, ko'plik sonining vovi va II shaxs muannas jinsining qo'shimchasi birikib kelsa, nun harfini tushurib qoldirish lozim bo'ladi. M: أكْتُبَا، أكْتُبُوا، أكْتُبُنَّ. siz ikkingiz yozing, sizlar yozinglar, yoz (mn).

Fe'l kesimga ta'kid nunlaridan biri birikib kelsa, fatha harakati bilan o'zgarmas bo'ladi . M: أكْتُبَنَّ، أكْتُبُنَّ.

Ma'lumki, fe'l e'roblarining o'zgarishi natijasida mayllar ifodalanadi. Fe'l mayllari ham e'rob masalalariga oid mavzular turkumida bayon etiladi. Fe'llarning hammasi o'zgarmasdir. Ularning faqat ismga o'xshaganlari turlanadi, u muannas jinsning nuni va ta'kid nunlari qo'shilmagan hozirgi - kelasi zamon fe'llaridir. Bu o'xshashlik aniq daraja sifatdoshi va uning o'rtasida kelib, u ma'no va lafz jihatidan bo'ladi.

Lafz jihatiga kelsak, u ikkisi sukun, harakatlar va harflar soniga ittifoq qilishadi. يَكْتُبُ fe'li (كاتب) مَكْرُمٌ vaznida fe'li (مَكْرُمٌ) vaznida bo'ladi.

Ma'no jihatiga kelsak, ular hozirgi va kelasi zamon uchun bo'ladi, bu o'xshashlikning turlanishi fe'lga o'xshaydigan deb nomlanadi. Albatta المضارعة – ning ma'nosи المشابهة dir, ya'ni o'xshashlik .

Agar fe'lga ta'kid nuni yoki muannaslik nuni birikib kelsa, o'zgarmas bo'ladi, chunki bu nunlar fe'llar xususiyatlaridandir. Ularning birikib kelishi ismi fo'il bilan uning o'xshashligini uzoqlashtiradi va fe'llarning aslidagi o'zgarmaslik harakatiga qaytadi.

O'tgan zamon fe'li oxiri o'zgarmaydigan fatha harakati bo'ladi va bu uning asl o'zgarmas holatidir. M: دَخْلَ كَتَبَ.

Agar o'tgan zamon fe'lining oxiri رَمَى va دَعَا fe'llariga o'xshash illatli alif bilan turlangan bo'lsa, unda oxiri taqdiriy fathaga o'zgarmas bo'ladi. Agar muannas jinsining ت si birikib kelsa, uning oxiri tushurib qoldiriladi, sababi ikkita sukun bir joyda kelishi mumkin emas. Masalan: دَعْتُ، دَعْتُ رَمَتُ.

Aslida esa دَعْتُ رَمَتُ va ko'rinishida bo'ladi. Uning o'zgarmasligi tushurib qoldirilgan alif ustiga taqdiriy fatha bo'ladi. (muannaslik ت dan oldingi harakat,

harakat emas, balki bu yerda o‘tgan zamon fe’lining o‘zgarmas harakati fathadir, chunki u turlanishning harakatidek bo‘ladi. Faqat so‘zning oxirgi harflari bo‘ladi. Bu yerda oxirgi harf ko‘rib turganimizdek tushurib qoldirilgan.

Agar fe’lning oxiri الیاء va الواو harflari bilan illatlangan bo‘lsa, oxiri to‘g’ri, sog’lom fe’lga o‘xhash bo‘ladi va aniq ko‘rinib turgan fatha harakati bilan o‘zgarmas bo‘ladi.

نحو: سَرُوتْ، رَضِيَّةٌ  
Masalan:

Agar o‘tgan zamon fe’liga ko‘plik vovi birikib kelsa, damma harakati bilan o‘zgarmas bo‘ladi, chunki u madd harfi va o‘zidan oldin jinsdosh harakat bo‘lishini taqozo qiladi va “vov” harfi borligi sababli damma harakati bilan turlanmaydigan so‘z bo‘ladi. Masalan: نحو: كَتُبُوا، دَخَلُوا

Agar oxiri alif harfi bilan illatlangan bo‘lsa, ikki sukun bir joyda kelgani uchun tushurib qoldiriladi va vov harfidan oldin fatha harakati bo‘lib qoladi .  
نحو: رَمَوا، دَعَوا  
Masalan:

Shunda tushurib qoldirilgan alif harfiga taqdiriy damma harakati o‘zgarmas bo‘ladi.

Vovdan oldingi belgi harakat emas. O‘tgan zamon fe’lining harakati turlanmas fathadir, chunki o‘tgan zamon fe’li ko‘plik vovi bilan birga damma harakati bilan turlanmaydigan so‘z bo‘ladi. Albatta oxirgi harfning harakati bo‘ladi, lekin bu yerda tushurib qoldirilgan.

Agar fe’lning oxiri vov yoki yoy harflari bilan illatlangan bo‘lsa, uning oxiri tushurib qoldiriladi va bitta oldin turgan harf ko‘plik voviga mos bo‘lishi uchun gammali bo‘ladi.

نحو: دُعُوا، سُرُوا، رَضُوا

Aslida دُعُيُوا، سُرُوَوا، رَضِيُّوا bo‘ladi.

“Vov” va “yoy” harflariga damma og’irlik qilgani uchun tushurib qoldiriladi, ko‘plik vovi va illat harfi kelib, ikki sukun bir joyda bo‘lib qolgani uchun illat harfi tushurib qoldirildi. So‘ng ko‘plik vovidan oldingi harfning harakati unga mos bo‘lishi uchun damma harakati bilan harakatlantiriladi. Albatta u tushurib qoldirilgan illatli harfga taqdiriy dammadir. Bu yerda vovdan oldingi

o‘tgan zamon fe’lining harakati dammaga emas, balki u oxirgi harfning tushurib qoldirilganidan keyin vovga mos bo‘lgan harakatdir.

Agar shaxs - son qo‘shimchalari fe’lga birikib kelsa, sukun harakatini olib turlanmaydigan so‘z bo‘ladi .

نحو: كتېت، كتبت، كتبىت: Masalan:

Agar oxiri alif harfi bilan illatlangan fe’l shaxs son qo‘shimchalari bilan kelsa, uning to‘rtinchi yoki uchinchi harfining asli yoy bo‘lsa alif harfi yoyga aylanadi. Masalan: نحو: أَعْطَيْتُ، إِسْتَحْيَيْتُ، أَتَيْتُ

Agar uchinchi o‘zak harfning asli vov bo‘lsa o‘z asliga qaytadi, نحو: عَلَوْتُ، سَمْوُتُ

Agar oxiri vov yoki yoy harflari bilan illatlangan bo‘lsa, o‘z holida o‘zgarmasdan qoladi, نحو: سَرَوْتُ، رَضِيَتُ

Buyruq maylidagi fe’l sukunga o‘zgarmas bo‘ladi va bu holat uning asl o‘zgarmasligidir. Muannaslik nunining birikib kelishi, m: اكتېن yoki oxirgi o‘zak harfi so‘g’lom bo‘lsa va hech nima qo‘shilmagan bo‘lsa, m: أكتېب kabi holatda bo‘ladi.

Agar fe’l oxiri illatli harf bilan tugagan bo‘lsa, oxiri tushurib qoldiriladi va fe’l oxiriga hech narsa birikmaydi. M: إِسْعَ، إِرْجِم

Agar ikkilik sonining belgisi “alif”, ko‘plik sonining qo‘shimchasi “vovi” yoki ikkinchi shaxs qo‘shimchasi “yoy” birikib kelgan bo‘lsa, “nun” harfi tushurib qoldiriladi .

### Savollar:

1. Kesimi mavjud ega qanday belgiga ega?
2. Atributiv bog’lanishning qanday xususiyalari bor?

## 5.7. GAP VA UNING TURLARI HAMDA TARKIBGA OID MASALALAR

**Reja:**

1. Gap va uning turlari
2. Tarkib.

**Tayanch so‘z va iboralar:** nahv, sarv, sintaksis, morfologiya, jumla, ismiy va fe’liy jumla, mutbado, xabar, fe’l, foil.

Har bir til grammatikasi so‘z shakllarini, so‘z yasalishining morfologik hususiyatlarini va so‘zlarning birikib gap hosil qilish usullarini o‘rganadi. Grammatika ikki bo‘limdan: morfologiya va sintaksisdan iborat. So‘zning tarkib nuqtai nazaridan o‘rganish morfologiyaning vazifasidir. Morfologiya so‘zlarning shakli va ma’nosidagi umumiylukka asoslanib tasnif qiladi. Sintaksis so‘zlarning birikuv qoidalarini, so‘z birikmalarini va gaplarning tuzilishini, ularning turlarini o‘rganadi.

Sintaksis tilning sintaktik qurilishini, ya’ni sintaktik birliklar hamda ular orasidagi o‘zaro aloqa va munosabatlarni o‘rganadi. Sintaktik aloqa - gaplarda so‘zlarning va so‘z birikmalarining o‘zaro grammatik boqlanishini bildiradi.

Sintaktik munosabat esa so‘z birikmasi va gapdagi so‘zlarning bir-biriga nisbatan qanday grammatik ma’no va vazifada qo‘llanishini bildiradi.

So‘zlarni gap vazifasida qo‘llash qoidalari va gapda so‘zlarning so‘z birikmalariga birikuv qoidalari u yoki bu til sintaksisining asosini tashkil qiladi. Hulosa qilib aytganda sintaksisning vazifasi tilning sintaktik qurilishini o‘rganishdir. Sintaksis so‘zlarning bir-biriga boqlanishini, ya’ni so‘z birikmalarini, gaplar va gaplardagi so‘zlarning bir-biriga nisbatan bajargan vazifalarini o‘rganadi.

Gapdagi so‘zlar bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan bo‘lib, bu so‘zlarning har biri gap tarkibida biror grammatik vazifani bajaradi. Gap bo‘laklari sintaktik kategoriya bo‘lib, gapdagi so‘zlarning o‘zaro munosabatini, bu so‘zning gapdagi rolini ko‘rsatadi.

Gapdagi so‘z o‘zining grammatik tabiatiga muvofiq faqat grammatik ma’nolarni ifodalabgina qolmasdan, sintaktik munosabatlarni ifodalash vazifasini ham bajaradi. Gap bo‘laklarini tasnif qilish sintaksisning qiyin va muhim muammosidir. Gap bo‘laklarini ajratishda sintaktik munosabatlarning harakteri, muayyan joylashish holati, shuningdek, ularning bir-biri bilan sintaktik boqlanganlik darajasini asosiy mezon qilib olish mumkin.

Gap bo‘laklari gapni tashkil qilishdagi roliga qarab ikki hil bo‘ladi: bosh bo‘laklar va ikkinchi darajali bo‘laklar. Bosh bo‘laklar gapning mazmun jihatidan ham, shakliy jihatidan ham o‘zaro boqlangan ikki uyuştiruvchi markazi bo‘lib, ular o‘zaro predikativ aloqa orqali tutash bo‘ladi. Bu predikativ yadro, konstruktiv markaz ikki markazli gapning asosidir. Ikki markazli gaplarda har bir markazning grammatik hokim so‘zi birlilikda gapning bosh bo‘laklarini tashkil qiladi. Gapning ikkinchi darajali bo‘laklari - ikki markazning hokim elementlaridan boshqa bo‘laklari.

Demak, gapning bo‘laklari ma’lum grammatik qoidalar asosida bir-biri bilan bog‘lanib turli sintaktik guruhlarni - butunlikni hosil qiladi.

Arab tilida ham huddi o‘zbek va rus tillari kabi gap bo‘laklari ikki hil bo‘ladi - bosh bo‘laklar va ikkinchi darajali bo‘laklar. Ikkinci darajali bo‘laklar yo egaga, yo kesimga bog‘lanib, yo ega markazini, yo kesim markazini hosil qiladi, ya’ni ega va kesim markazi ikki markazli gapning strukturasini tashkil qiladi.

Gapning bosh bo‘laklari gapni sintaktik va semantik tashkil qilishda asosiy rol o‘ynaydi va gapning butun strukturasini belgilaydi. Demak, ega va kesim gapning asosiy markazi hisoblanadi. Gapdagi qolgan bo‘laklar esa ikki markazdan biriga boqlanadi. Bu markazga bog‘langan elementlar shu bo‘lakka tobe bo‘ladi. Demak, ega va kesim o‘ziga bog‘langan so‘zlar ustidan hokim bo‘ladi. Bular hech qanday bo‘lakka tobe emas.

Bosh bo‘lakning birinchi darajali sanalishi uning boshqa elementlarni tobe etishidan qat’iy nazar o‘zicha mustaqillikka, bir butunlikka ega bo‘lishi gapning

asosini tashkil qilishidandir. qolgan bo‘laklar esa bosh bo‘laklarga ergashib yuradi, shunga ko‘ra ular ikkinchi darajali hisoblanadi.

Darajalarni faqat tobelikka qarab belgilasak, kesimni ham ikkinchi darajali sanash lozim bo‘lar edi, chunki kesim egaga tobedir. Holbuki, u birinchi darajali bo‘lak hisoblanadi. Chunki ega va kesim boshqa bo‘laklarsiz bir butunlikni tashkil qila oladi. Ikkinchi darajali bo‘laklarda esa bu hususiyat yo‘q.

Ma’lumki, grammatika morfologiya va sintaksisni o‘z ichiga oladi. Morfologiya so‘zlarning tuzilishi, yasalishi, turlanishi, tuslanishini o‘rgansa, sintaksis so‘zlarning va gaplarning o‘zaro bog‘lanish qonun-qoidalarini, ularning xillarini o‘rganadi.

Hozirgi kunda dunyoda keng tarqalgan filologik (til va adabiyotga tegishli) ilmlarning asosida qadimgi yunon olimi Arastu tuzgan qadimgi yunon tili va adabiyotiga oid “Grammatika”, “Ritorika”, “Poetika” kabi asarlar yotadi. Arab tilshunos olimlari esa arab tiliga oid ilmlarni mutlaqo mustaqil tarzda, boshqa tillarga bog‘lamagan holda yaratganlar. Masalan, rus filologiyasini tashkil qiluvchi grammatika, stilistika Arastu yaratgan tizimlar asosida XVIII, XIX, hatto XX asrlarda shakllana boshlagan bo‘lsa, arab filologiyasini tashkil qilushi ilmlar VIII, IX asrlarda shakllangan va X asrdayoq kamoliga etgan.

Arab tili grammatikasida mavzularning yoritilishi, tizimga solinishi ham boshqa tillar grammatikasidan katta farq qiladi, ya’ni unda cheklov, maf’uli mutloq (o‘z-o‘zini to‘ldiruvchi), maf’ul ma’ahu (birgalik to‘ldiruvchisi) va boshqa shu kabi faqat arab tilgagina xos bo‘lgan grammatik categoriyalarning mavjudligi hamda sintaksis va morfologiyani alohida ajratmasdan, yonma-yon bayon qilinishi bu tilning o‘ziga xosligini ko‘rsatadi. “So‘z turkumlari”, “Kelishik kategoriyasi”, “Zamonning ifodalanishi” va boshqa ba’zi mavzularni banyon qilish jarayonida morfologiya bilan birga albatta sintaksis ham yoritiladi. Chunki, arab tili grammatikasida bu ikki bo‘lim alohida yoritilmaydi. Evropa va o‘zbek arabshunoslari arab tilini o‘rganayotgan talabalarga tushunarli bo‘lishi uchun arab tili grammatikasini o‘z ona tillariga muqoyosa qilib yoritganlar va morfologiya hamda sintaksisni iloji boricha alohida bayon qilganlar. Biz ham ushbu sokkfyvda

arab tili sintaksisi va uning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatib berishga harakat qilamiz.

Arab tili grammatikasida o‘zbek tilidan farqli o‘laroq so‘z birikmasi va gap sintaksisning alohida grammatik hodisasi sifatda ikkiga ajratilib o‘rganilmaydi, balki bir nom, ya’ni “al-murakkabat-murakkab birikmalar” nomi bilan atalib shu bo‘limning ichida o‘rganiladi. Endi arab nahvchi olimlarining bu boradagi fikrlariga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, jumladan mashhur olim shayx Mustafo al-G‘alayini unga o‘zining جامع الدروس العربية nomli asarida quyidagicha ta’rif beradi:

المركبات وأنواعها و إعرابها

المُرْكُبُ: قولٌ مؤلفٌ من كلمتين أو أكثر لفائدة، سواءً أكانت الفائدة تامةً، مثل: "النجاة في الصدق"، أم ناقصة ، مثل: نور الشمس الإنسانية الفاضلة. إن تُقِنَ عَمَلَكَ".

و المركبات أنواع: إسناديٌ و إضافيٌ و بيانيٌ و عطفيٌ و مرجعيٌ و عدديٌ.

Nutq va jumla ikki va undan ortiq tugal ma’noni anglatuvchi so‘zlardan iborat bo‘lib, bu murakkab birikmalar deb ataladi. Ular “Najot to‘g‘rilikkadir” murakkab birikmadagi kabi tugallangan bo‘lishi, “quyosh nuri”, “fozil inson (aniq)” yoki “o‘z ishingni ustasi bo‘lsang...” kabi tugallanmagan bo‘lishi mumkin.

Murakkab birikmaning oltita turi mavjud. Bular: isnodiy (predikativ, ya’ni ega-kesim munosabati) birikma, izofiy, izohlovchili, bog‘lovchili birikmalar, qo‘shma so‘zlar va oltinchisi miqdoriy (yoki son bilan bog‘liq) birikmalardir.

Ko‘rinib turibdiki murakkab birikmalarning birinchisini tashkil qiluvchi isnodiy birikma ona tilimizdagи jumлага to‘g‘ri kelar ekan va unga arab nahvchi olimlari quyidagicha ta’rif beradilar:

١- المركب الإسنادي أو الجملة

و المركب الإسنادي (ويسمى جملةً أيضًا) : ما

تألفَ من مَسْنِدٍ و مُسْنِدٍ إِلَيْهِ ، نَحْوُ "الْحَلْمُ زَيْنٌ . يُفْلِحُ الْمَجْتَهُدُ".

Isnodiy (predikativ) birikmalar yana jumla deb ham nomlanib, ega va kesimdan iborat bo‘ladi. Masalan: *Yaxshilik bezakdir. Tirishqoq (kimsa) muvaffaqiyat qozonadi*. Birinchi jumlada الحلم—*yaxshilik*, ega vazifasida, زين—*bezakdir*, kesim vazifasida, ikkinchi jumlada المجتهد—*tirishqoq* ega, يُفْلِح—*muvaffaqiyat qozonadi* kesim vazifasida kelayapti. Sintaktik munosabatlar so‘z

formalari, yordamchi so‘zlar, so‘z tartibi kabi yo‘llar bilan ifodalananadi. Bu yo‘llar so‘z birikmasi hosil qilishda, gap qurishda qo‘llaniladi. Arab tilida gapning asosiy tarkibi, ya’ni “sintaktik birlikning strukturasi fe’liy va ismiy bo‘lishiga” ko‘ra jumla ikki xil bo‘ladi: ismiy va fe’liy. Demak, yuqorida keltirilgan misollarning birinchisi, **يُفْلِحُ الْمُجْتَهُدُ - الحَلْمُ زَيْنٌ** - *Tirishqoq (kimsa) muvaffaqiyat qozonadi*, ismiy, ikkinchisi, fe’liy jumladir. Shu o‘rinda arab tili grammatikasiga xos bo‘lgan yana bir ma’lumotni berib ketish kerak, bu fe’liy jumla borasidagi qarashlarning boshqa tillardan farq qilishi. Agar kesim fe’l bilan ifodalansa-yu, jumla ot bilan boshlansa, arab nahvchilari uni ismiy jumla, deb nomlaydilar. Jumla fe’liy bo‘lishi uchun kesim fe’l bilan ifodalaniishi hamda jumlaning boshida turishi kerak.

Ismiy jumlaning egasi *mubtado*, kesimi *xabar* deb nomlanadi va unga arab nahvchilari quyidagicha ta’rif beradilar: Mubtado [ya’ni ismiy jumla egasi]ning xabari [ya’ni ushbu jumlaning kesimi] to‘rt xil bo‘lishini bilib oling, ular: ism, fe’l, zarf, ya’ni hol va birinchi ega qayd etilgan gap. Ismiy jumlaning kesimi ism bo‘lgan gapga misol: زید قائم so‘zi ega, قائم زید. Ismiy jumlaning kesimi fe’l bo‘lganiga misol: زید قام - Zayd turdi, قام زید - Zayd turadi. ega uning kesimi fe’l bilan ifodalangan. Ismiy jumlaning kesimi hol bo‘lgan gap: زید فی الدار - Zayd hovlida, عندك زید - Zayd huzurinda. Keltirilgan birinchi misolda ismiy jumlaning egasi فی الدار ismiy jumlaning kesimi[, ya’ni predlogli kesim]. Ismiy jumlaning kesimi jumla[dan iborat] bo‘lgan gapga misol: زید أبوه قائم - Zaydning otasi tik turuvchi(tik turibdi). Bu [ismiy] jumlada زید so‘zi birinchi ega, أبوه - ikkinchi ega, قائم esa ikkinchi egaga kesim bo‘lib jumla bosh kelishikda[gi ismlardan iborat], ikkinchi ega o‘zining kesimi bilan birinchi egaga kesimdir. Unda birinchi egani eslatadigan kishilik olmoshi bor.

Fe’liy jumla haqida ma’lumot beradigan bo‘lsak, o‘zbek va rus arabshunoslari o‘z ona tillaridan kelib chiqib, kesim qaerda turmasin, agar u fe’l bilan ifodalangan bo‘lsa jumla fe’liy bo‘ladi, deya ta’rif beradilar. Agar fe’l kesim egadan oldin kelsa u birlikda, ammo ega bilan jinsda moslashgan holda turadi. Fe’l kesim egadan keyin kelsa u bilan ham sonda, ham jinsda moslashishi kerak

bo'ladi. Shuningdek, arab nahvchilari ham ayrim hollarda fe'l kesim egadan keyin kelishi mumkin deb aytadilar. Jumladan mashhur nahvchi olim Dariri shunday deydi: Agar fe'l egadan oldin kelsa birlik shaklda bo'ladi, u ikkilik yoki ko'plik qilinmaydi. Agar ega oldinda kelib fe'l keyin kelsa ikkilik yoki ko'plik qilinadi. Misol: قعدا ni egadan oldin kelgani uchun birlikda, ni egadan keyin kelgani uchun ikkilikda kelitrdingiz. جاء فدخلوا عليه ham shunga o'xshash. جاء ni egadan oldin kelgani uchun birlik دخلوا ni egadan keyin kelgani uchun ko'plik shaklida keltirdingiz.

Arab tilida gapning “ikkinchi darajali bo'laklari”, degan tushuncha yo‘q. Fe’liy jumladagi ikkinchi darajali bo'laklar fe'lga tobe bo'lgan “qo’shilmalar” hisoblanib, ular jumlanai faqat kengaytirishga xizmat qiladi. Qo’shilmalarga vositasiz to‘ldiruvchi ham mansub bo‘lib, fe'l bildirgan ish-harakatning ta’siri unga o’tadi va uni tushum kelishigida boshqaradi. Bunday to‘ldiruvchi arab tilida مفعول به – *maf’ul bihi*, deb ataladi. Yana bir mashhur arab tilshunos olimi Hifni Nosif o‘z asarida fe'lga tobe bo'lgan bunday gap bo‘lagi haqida المفعول به – “vositasiz to‘ldiruvchi” mavzuida shunday deydi:

Fe’liy jumlaning egasi doimo bosh kelishikda, vositasiz to‘ldiruvchi hamisha tushum kelishigida turadi. Masalan: ضرب زيد عمروا - *Zayd Amirni urdi*. so‘zi fe’liy jumlaning egasi bo‘lganligi uchun bosh kelishikda, عمروا so‘zi vositasiz to‘ldiruvchi bo‘lganligi uchun tushum kelishigida turibdi. Agar vositasiz to‘ldiruvchi aniq bo‘lsayu egasi noma’lum (ya’ni kesim majhul nisbatda) bo‘lsa, masalan: ضرب زيد - *Zayd urildi*, kabi, unda زيد so‘zi bosh kelishikda bo'ladi. Chunki bu gapning egasi noma’lum. Agar vositasiz to‘ldiruvchi ikkita bo‘lib, ularning egasi noma’lum bo‘lsa, bunday holda birinchi to‘ldiruvchi bosh kelishikda, ikkinchisi tushum kelishigida bo'ladi. Misol: أعطى زيد درهما - *Zaydga dirham berildi*. زيد so‘zini egasi noma’lum bo'lgan birinchi to‘ldiruvchi bo‘lgani uchun bosh kelishikda so‘zini vositasiz to‘ldiruvchi bo‘lgani uchun tushum kelishikka qo‘yamiz.

Fe’liy jumladagi “qo’shilmalar”dan yana biri “Mutlaq to‘ldiruvchi”dir. Bu to‘ldiruvchi masdar bajaradigan sintaktik funksiyalarning o‘rinlaridan biri bo‘lib, u

fe'lning o'zagi yoki ma'nosi bilan bir xil bo'lgan tushum kelishigidagi ismdir. Daririyl bu kabi to'ldiruvchini "Masdar haqidagi bob"da quyidagicha bayon etgan:

Bilingki, masdar [mazkur holatda] doimo tushum kelishikda bo'ladi. Misol: ضربت ضربا - *Qattiq urdim*. جاءنى زىد راكبا - *Zayd mingan xolda menga keldi*. راكبا so'zini hol bo'lgani uchun tushum kelishikda qildingiz.

Arab tilida sintaktik aloqalarni ifodalashda qo'llaniladigan yordamchi fe'llar mavjud bo'lib, ularni arab tilshunoslari o'z asarlarining "Noqis fe'llar" mavzusida bayon qiladilar. Bu fe'llarning noqis deb atalishi, ularning semantik xususiyatidan kelib chiqqan. Ularning ma'no jihatidan "noqisligi" yordamchi fe'l vazifasida kelganida namoyon bo'ladi. Shuningdek, bu fe'llar mustaqil holda ishlatilganda "to'liq" ma'noga ega bo'ladilar. yordamchi fe'l vazifasida kelganda, ular ismni ham, fe'lni ham boshqaradilar.

Ismni boshqarib kelgan yordamchi fe'llar va ularning ta'siri haqida shunday ma'lumotlarni keltirishimiz mumkin:

صار، ما دام، كان، أضحي، ليس، أمسى، ما فتئ، أصبح، ما برح، بات، ما زال، ظل. Bu fe'llar va ulardan yasalgan [hozirgi-kelasi zamон] fe'l shakllari ham ismlarni bosh kelishikda, ot-kesimlarni tushum kelishikda boshqaradi. Masalan: - كان زيد قائما *Zayd tik turgan edi*. زيد قائما ning ismi bo'lgani uchun bosh kelishikda, so'zi uning kesimi bo'lgani uchun tushum kelishikda turibdi. Qolgan fe'llar ham shunga o'xshash.

Ma'lumki, gap tarkibida istisno uchraydi. Arab nahvida istisno so'zni gapda qo'llanishiga oid quyidagi ma'lumotlarni uchratamiz:

Agar bir ismni keltirib undan boshqa bir ismni istisno qilsangiz istisno qilingan ismni tushum kelishigiga qo'yasiz, masalan: - جاءنى القوم إلا زيدا Menikiga Zayddan bo'lak qavm (barchasi) keldi. Bu jumlada زيدا so'zini istisno bo'lgani uchun tushum kelishigida o'qiysiz. Bu holat jumla faqat bo'lishli bo'lsagina uchraydi. Masalan: -رأيت القوم إلا زيدا Zayddan bo'lak qavmni ko'rdim (ya'ni

Qavmni ko‘rdim faqat Zaydni ko‘rmadim) – مرت بالقوم إلا زيدا – Qavm bilan uchrashdim Zayddan bo‘lak ( qavm bilan uchrashdim faqat Zayd bilan uchrashmadim). Yuqoridagi ikki jumla ham bo‘lishli bo‘lgani uchun ham istisno qilinayotgan “Zayd” so‘zi tushum kelishigida turibdi.

Agar istisno inkor gap tarkibida kelsa istisno so‘zning kelishigi turlicha bo‘lishi mumkin. Bu haqida tilshunos olim Daririy shunday ma’lumotlarni keltiradi: ismni bo‘lishsiz holda keltirib so‘ngra undan biror so‘zni istisno qilsangiz agar istisno qilinadigan so‘z ko‘rsatilgan bo‘lsa tushum kelishikda qilish ham mumkin, izohlovchi qilish ham. Bu ixtiyoriy, masalan: ما خاءنى القوم إلا زيدا – جاعنى القوم إلا زيدا Menikiga qavm kelmadi, faqat Zayd keldi. Bu jumla inkor ma’nosida va istisno qilinayotgan so‘z bu “qavm”dir, shu sabab istisno so‘z “Zayd” birinchi gapda tushumda kelgan bo‘lsa, ikkinchi jumlada bosh kelishikda turibdi.

Agar istisno qilinadigan so‘z ko‘rsatilmagan bo‘lsa istisno so‘zga, u haqli bo‘lgan munosib harakatni beramiz, masalan: ما زيد ما جاعنى إلا زيد so‘zini fe’liy jumlaning egasi bo‘lgani uchun bosh kelishikda keltirdik. ما مرت va ما رأيت إلا زيدا misollari ham yuqoridagiga o‘xhash, ya’ni birinchi jumlada istisno qilinayotgan so‘z “Zayd” vositasiz to‘ldiruvchi bo‘lgani uchun uni tushum kelishigiga qo‘ydik, ikkinchisida vositali to‘ldiruvchi bo‘lgani uchun predlogdan keyin qaratqich kelishigida beramiz.

لا يكون ليس مدخلا ماعدا حاشا خلا عدا سوى غير إلا. Daririy istisno yuklamalariga ليس ni ham qo‘shadi.

so‘zining vazifasi xuddi إلا ga o‘xshaydi, farqli tamoni shundaki bu so‘z o‘zidan keyingi so‘z bilan izofada turadi. “g‘ayrun” so‘zi ishtirok etgan jumlalarda undan keyin istisno qilinayotgan so‘zning harakati emas, balki uning o‘zining harakati qanday bo‘ladi, shunga e’tibor berishimiz kerak. Unga إلا dan keyin kelgan ismga beriladigan harakat beriladi, masalan: - Zayddan bo‘lak qavm keldi, bu jumlada “g‘ayrun”ning harakati fatha bo‘ladi. ما جاعنى القوم غير زيد ما مررت بغير زيد Yuqoridagi ikki jumlalarda ham “g‘ayrun”ning kelishigi “illa”dan keyingi so‘z kelishigi bilan bir xilda bo‘layapti. Yana bir istisno yuklamasi سوى

dan keyin kelgan so‘z qaratqichda bo‘ladi. Misol: جائنى القوم سوى زيد خلا حاشا . جائنى القوم سوى زيد خلا حاشا . عادا dan keyin kelgan so‘zlar qaratqich yoki tushum kelishigida bo‘ladi. Misol: جائنى القوم سوى زيد ، لا يكون . جائنى القوم خلا زيدا | زيد ، جائنى القوم عدا زيدا | زيد ، القوم حاشا زيدا | زيد . ماعدا ، ليس ، لا يكون . جائنى القوم خلا زيدا | زيد ، جائنى القوم عدا زيدا | زيد ، القوم حاشا زيدا | زيد . جائنى القوم ما ، جائنى القوم ماعدا زيدا | زيد ، جائنى القوم عدا زيدا | زيد . ماحلا، faqat tushum kelishigida boshqaradi. Misol: جائنى القوم ما ، جائنى القوم ماعدا زيدا | زيد ، جائنى القوم عدا زيدا | زيد . جائنى القوم لا يكون بكرى ، جائنى القوم ليس خالدا ، خلا عمراء .

Gapning bosh bo‘laklari vazifasini nisbiy olmoshlar bilan kelgan fe’liy yoki ismiy jumlalar ham bajarishi mumkin. Bunday gaplar ega yoki kesim ergash gapli qo‘shma gaplarni ifoda etadi. Nisbiy olmoshlar الذى، من، ما، أى. Bu ismlar o‘zlaridan keyin keluvchi so‘z, ya’ni *sila* va qaytuvchi olmosh bo‘lgandagina to‘liq bo‘ladi. Uning silasi 3 narsadan biri, ya’ni fe’l, hol va ismiy jumla bo‘ladi, masalan: - جائنى الذى يقوم (tik) - جائنى الذى قام Turgan (kimsa) menikiga keldi, Turayotgan (kimsa) menikiga keldi. Bu ikki jumla fe’liyga misoldir. جائنى الذى -، عندك Sening huzuringdaga (kimsa) menikiga keldi, silasi holli bo‘lgan gapga misol va nihoyat جائنى الذى أبوه قائم . – otasi turgan (kimsa) menikiga keldi. Bu jumlada sila ismiy jumladir. الذى ismi *mavsula* undan keyingi so‘z *sila* hisoblanadi.

### Savollar:

1. Arab tili sintaksisining qanday nazariy masalalari mavjud?
2. Arab tilida gap bo‘laklarining o‘zaro bog‘lanish masalasi.
3. Ega va kesim orasidagi munosabat.
4. Aniqlovchi va aniqlanmish munosabati.

## 5.8. SO‘Z BIRIKMALARI

### Reja:

1. Tugallangan birikma.
2. Tugallanmagan birikma.

**Tayanch so‘z va iboralar:** nahv, sarv, sintaksis, tugallangan birikma, tugallanmagan birikma jumla, aniqlovchi, moslashgan aniqlovchi, aniqlanmish.

Arab tili grammatikasida o‘zbek tilidan farqli o‘laroq so‘z birikmasi va gap sintaksisning alohida grammatik hodisasi sifatda ikkiga ajratilib o‘rganilmaydi, balki bir nom, ya’ni “al-murakkabat-murakkab birikmalar” nomi bilan atalib shu bo‘limning ichida o‘rganiladi. Endi arab nahvchi olimlarining bu boradagi fikrlariga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, jumladan mashhur olim shayx Mustafo al-G‘alayini unga o‘zining جامع الدروس العربية nomli asarida quyidagicha ta’rif beradi:

المركبات و أنواعها و إعرابها

المُرْكَبُ: قولٌ مؤلَّفٌ من كلمتين أو أكثر لفائدة، سواءً أكانت الفائدة تامةً، مثل: "النجاة في الصدق"، أم ناقصة ، مثل: نور الشمس الإنسانية الفاضلة. إنْ تُتَقِّنْ عَمَلَكْ .  
و المركبات أنواع: إسناديٌ و إضافيٌ و بيانيٌ و عطفيٌ و مرجعيٌ و عدديٌ.

Nutq va jumla ikki va undan ortiq tugal ma’noni anglatuvchi so‘zlardan iborat bo‘lib, bu murakkab birikmalar deb ataladi. Ular “Najot to‘g‘rilikdadir” murakkab birikmadagi kabi tugallangan bo‘lishi, “quyosh nuri”, “fozil inson (aniq)” yoki “o‘z ishingni ustasi bo‘lsang...” kabi tugallanmagan bo‘lishi mumkin.

Murakkab birikmaning oltita turi mavjud. Bular: isnodiy (predikativ, ya’ni ega-kesim munosabati) birikma, izofiy, izohlovchili, bog‘lovchili birikmalar, qo‘shma so‘zlar va oltinchisi miqdoriy (yoki son bilan bog‘liq) birikmalardir.

Ko‘rinib turibdiki murakkab birikmalarning birinchisini tashkil qiluvchi isnodiy birikma ona tilimizdagи jumлага to‘g‘ri kelar ekan va unga arab nahvchi olimlari quyidagicha ta’rif beradilar:

١- المركب بالإسنادي أو الجملة

و المُرْكَبُ الإسنادي (ويُسمى جُمْلَةً أَيْضًا) : ماتَأْلَفَ مِنْ مَسْنِدٍ وَمُسْنِدٍ إِلَيْهِ ، نَحْوُ: "الْحَلْمُ زَيْنٌ. يُفْلِحُ الْمَجْتَهُدُ".

Isnodiy (predikativ) birikmalar yana jumla deb ham nomlanib, ega va kesimdan iborat bo‘ladi. Masalan: *Yaxshilik bezakdir. Tirishqoq (kimsa) muvaffaqiyat qozonadi*. Birinchi jumlada *الْحَلْمُ—yaxshilik*, ega vazifasida, *زَيْنٌ—bezakdir*, kesim vazifasida, ikkinchi jumlada *المَجْتَهُدُ—tirishqoq* ega, *يُفْلِحُ—muvaffaqiyat qozonadi* kesim vazifasida kelayapti. Sintaktik munosabatlar so‘z formalari, yordamchi so‘zlar, so‘z tartibi kabi yo‘llar bilan ifodalanadi. Bu yo‘llar so‘z birikmasi hosil qilishda, gap qurishda qo‘llaniladi. Arab tilida gapning asosiy

tarkibi, ya’ni “sintaktik birlikning strukturasi fe’liy va ismiy bo‘lishiga” ko‘ra jumla ikki xil bo‘ladi: ismiy va fe’liy. Demak, yuqorida keltirilgan misollarning birinchisi, زین - الحلم Yaxshilik bezakdir, ismiy, ikkinchisi, تیرشقاوq - يُفْلِحُ الْمَجْهُدُ Tirishqoq (kimsa) muvaffaqiyat qozonadi, fe’liy jumladir. Shu o‘rinda arab tili grammatikasiga xos bo‘lgan yana bir ma’lumotni berib ketish kerak, bu fe’liy jumla borasidagi qarashlarning boshqa tillardan farq qilishi. Agar kesim fe’l bilan ifodalansa-yu, jumla ot bilan boshlansa, arab nahvchilari uni ismiy jumla, deb nomlaydilar. Jumla fe’liy bo‘lishi uchun kesim fe’l bilan ifodalanishi hamda jumlaning boshida turishi kerak.

Ismiy jumlaning egasi *mubtado*, kesimi *xabar* deb nomlanadi va unga arab nahvchilari quyidagicha ta’rif beradilar: Mubtado [ya’ni ismiy jumla egasi]ning xabari [ya’ni ushbu jumlaning kesimi] to‘rt xil bo‘lishini bilib oling, ular: ism, fe’l, zarf, ya’ni hol va birinchi ega qayd etilgan gap. Ismiy jumlaning kesimi ism bo‘lgan gapga misol: زید قائم so‘zi ega, قائم زید kesim. Ismiy jumlaning kesimi fe’l bo‘lganiga misol: Zayd turdi, - زید قام - Zayd turadi. زید ega uning kesimi fe’l bilan ifodalangan. Ismiy jumlaning kesimi hol bo‘lgan gap: - زید فی الدار - Zayd hovlida, زید عندك - Zayd huzurinda. Keltirilgan birinchi misolda زید ismiy jumlaning egasi فی الدار ismiy jumlaning kesimi[, ya’ni predlogli kesim]. Ismiy jumlaning kesimi jumla[dan iborat] bo‘lgan gapga misol: - Zaydning otasi tik turuvchi(tik turibdi). Bu [ismiy] jumlada زید so‘zi birinchi ega, أبوه ikkinchi ega, قائم esa ikkinchi egaga kesim bo‘lib jumla bosh kelishikda[gi ismlardan iborat], ikkinchi ega o‘zining kesimi bilan birinchi egaga kesimdir. Unda birinchi egani eslatadigan kishilik olmoshi bor.

Fe’liy jumla haqida ma’lumot beradigan bo‘lsak, o‘zbek va rus arabshunoslari o‘z ona tillaridan kelib chiqib, kesim qaerda turmasin, agar u fe’l bilan ifodalangan bo‘lsa jumla fe’liy bo‘ladi, deya ta’rif beradilar. Agar fe’l kesim egadan oldin kelsa u birlikda, ammo ega bilan jinsda moslashgan holda turadi. Fe’l kesim egadan keyin kelsa u bilan ham sonda, ham jinsda moslashishi kerak bo‘ladi. Shuningdek, arab nahvchilari ham ayrim hollarda fe’l kesim egadan keyin kelishi mumkin deb aytadilar. Jumladan mashhur nahvchi olim Dariri shunday

deydi: Agar fe'l egadan oldin kelsa birlik shaklda bo'ladi, u ikkilik yoki ko'plik qilinmaydi. Agar ega oldinda kelib fe'l keyin kelsa ikkilik yoki ko'plik qilinadi. Misol: قعدا ثم قعدا قام أخواك جاء فدخلوا عليه ni egadan oldin kelgani uchun birlikda, ni egadan keyin kelgani uchun ikkilikda kelitrdingiz. ham shunga o'xhash. جاء دخلوا ni egadan oldin kelgani uchun birlik دخلوا ni egadan keyin kelgani uchun ko'plik shaklida keltirdingiz.

Arab tilida gapning “ikkinci darajali bo'laklari”, degan tushuncha yo‘q. Fe’liy jumladagi ikkinchi darajali bo'laklar fe'lga tobe bo'lgan “qo’shilmalar” hisoblanib, ular jumlanishi faqat kengaytirishga xizmat qiladi. Qo’shilmalarga vositasiz to‘ldiruvchi ham mansub bo‘lib, fe'l bildirgan ish-harakatning ta’siri unga o’tadi va uni tushum kelishigida boshqaradi. Bunday to‘ldiruvchi arab tilida مفعول به – *maf’ul bihi*, deb ataladi. Yana bir mashhur arab tilshunos olimi Hifni Nosif o‘z asarida fe'lga tobe bo'lgan bunday gap bo‘lagi haqida المفعول به – “vositasiz to‘ldiruvchi” mavzuida shunday deydi:

Fe’liy jumlaning egasi doimo bosh kelishikda, vositasiz to‘ldiruvchi hamisha tushum kelishigida turadi. Masalan: ضرب زيد عمروا - *Zayd Amirni urdi*. so‘zi fe’liy jumlaning egasi bo‘lganligi uchun bosh kelishikda, عمروا so‘zi vositasiz to‘ldiruvchi bo‘lganligi uchun tushum kelishigida turibdi. Agar vositasiz to‘ldiruvchi aniq bo‘lsayu egasi noma’lum (ya’ni kesim majhul nisbatda) bo‘lsa, masalan: ضرب زيد - *Zayd urildi*, kabi, unda زيد so‘zi bosh kelishikda bo‘ladi. Chunki bu gapning egasi noma’lum. Agar vositasiz to‘ldiruvchi ikkita bo‘lib, ularning egasi noma’lum bo‘lsa, bunday holda birinchi to‘ldiruvchi bosh kelishikda, ikkinchisi tushum kelishigida bo‘ladi. Misol: أعطى زيد درهما - *Zaydga dirham berildi*. زيد so‘zini egasi noma’lum bo‘lgan birinchi to‘ldiruvchi bo‘lgani uchun bosh kelishikda درهما so‘zini vositasiz to‘ldiruvchi bo‘lgani uchun tushum kelishikka qo‘yamiz.

Fe’liy jumladagi “qo’shilmalar”dan yana biri “Mutlaq to‘ldiruvchi”dir. Bu to‘ldiruvchi masdar bajaradigan sintaktik funksiyalarining o‘rinlaridan biri bo‘lib, u fe’lning o‘zagi yoki ma’nosi bilan bir xil bo‘lgan tushum kelishigidagi ismdir. Daririyl bu kabi to‘ldiruvchini “Masdar haqidagi bob”da quyidagicha bayon etgan:

Bilingki, masdar [mazkur holatda] doimo tushum kelishikda bo‘ladi. Misol: ضربا - *Qattiq urdim*. جاءنى زىد راكبا - *Zayd mingan xolda menga keldi*. so‘zini hol bo‘lgani uchun tushum kelishikda qildingiz.

Arab tilida sintaktik aloqalarni ifodalashda qo‘llaniladigan yordamchi fe’llar mavjud bo‘lib, ularni arab tilshunoslari o‘z asarlarining – الافعال الناقصة “Noqis fe’llar” mavzusida bayon qiladilar. Bu fe’llarning noqis deb atalishi, ularning semantik xususiyatidan kelib chiqqan. Ularning ma’no jihatidan “noqisligi” yordamchi fe’l vazifasida kelganida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, bu fe’llar mustaqil holda ishlatilganda “to‘liq” ma’noga ega bo‘ladilar. yordamchi fe’l vazifasida kelganda, ular ismni ham, fe’lni ham boshqaradilar.

Ismni boshqarib kelgan yordamchi fe’llar va ularning ta’siri haqida shunday ma’lumotlarni keltirishimiz mumkin:

صار ما دام، كان، أضحي، ليس، أمسى، ما فتئ، أصبح، ما برح، بات، ما زال، ظل - كان زيد قائما، زيدا، قائمًا. Bu fe’llar va ulardan yasalgan [hozirgi-kelasi zamon] fe’l shakllari ham ismlarni bosh kelishikda, ot-kesimlarni tushum kelishikda boshqaradi. Masalan: Zayd tik turgan edi. زيدا ning ismi bo‘lgani uchun bosh kelishikda, so‘zi uning kesimi bo‘lgani uchun tushum kelishikda turibdi. Qolgan fe’llar ham shunga o‘xhash.

Ma’lumki, gap tarkibida istisno uchraydi. Arab nahvida istisno so‘zni gapda qo‘llanishiga oid quyidagi ma’lumotlarni uchratamiz:

Agar bir ismni keltirib undan boshqa bir ismni istisno qilsangiz istisno qilingan ismni tushum kelishigiga qo‘yasiz, masalan: - جاءنى القوم إلا زيدا Menikiga Zayddan bo‘lak qavm (barchasi) keldi. Bu jumlada زيدا so‘zini istisno bo‘lgani uchun tushum kelishigida o‘qiysiz. Bu holat jumla faqat bo‘lishli bo‘lsagina uchraydi. Masalan: - رأيت القوم إلا زيدا Zayddan bo‘lak qavmni ko‘rdim (ya’ni Qavmni ko‘rdim faqat Zaydni ko‘rmadim) مررت بال القوم إلا زيدا - Qavm bilan uchrashdim Zayddan bo‘lak ( qavm bilan uchrashdim faqat Zayd bilan

uchrashmadim). Yuqoridagi ikki jumla ham bo‘lishli bo‘lgani uchun ham istisno qilinayotgan “Zayd” so‘zi tushum kelishigida turibdi.

Agar istisno inkor gap tarkibida kelsa istisno so‘zning kelishigi turlicha bo‘lishi mumkin. Bu haqida tilshunos olim Daririy shunday ma’lumotlarni keltiradi: ismni bo‘lishsiz holda keltirib so‘ngra undan biror so‘zni istisno qilsangiz agar istisno qilinadigan so‘z ko‘rsatilgan bo‘lsa tushum kelishikda qilish ham mumkin, izohlovchi qilish ham. Bu ixtiyoriy, masalan: **ما خاءنى القوم إلا زيدا** yoki **ـ جاءنى القوم إلا زيد** Menikiga qavm kelmadi, faqat Zayd keldi. Bu jumla inkor ma’nosida va istisno qilinayotgan so‘z bu “qavm”dir, shu sabab istisno so‘z “Zayd” birinchi gapda tushumda kelgan bo‘lsa, ikkinchi jumlada bosh kelishikda turibdi.

Agar istisno qilinadigan so‘z ko‘rsatilmagan bo‘lsa istisno so‘zga, u haqli bo‘lgan munosib harakatni beramiz, masalan: **ما زيد جاءنى إلا زيد**. so‘zini fe’liy jumlaning egasi bo‘lgani uchun bosh kelishikda keltirdik. **ما مررت مارأيت إلا زيد** misollari ham yuqoridagiga o‘xshash, ya’ni birinchi jumlada istisno qilinayotgan so‘z “Zayd” vositasiz to‘ldiruvchi bo‘lgani uchun uni tushum kelishigiga qo‘ydik, ikkinchisida vositali to‘ldiruvchi bo‘lgani uchun predlogdan keyin qaratqich kelishigida beramiz.

Istisno harflari 10ta, ular: **لايكون ليس ماخلا ماعدا حاشا خلا عدا سوى غير إلا**. Daririy istisno yuklamalariga **ليس ni ham qo‘shadi**.

so‘zining vazifasi xuddi **ـ إلا** ga o‘xshaydi, farqli tamoni shundaki bu so‘z o‘zidan keyingi so‘z bilan izofada turadi. “g‘ayrun” so‘zi ishtirok etgan jumlalarda undan keyin istisno qilinayotgan so‘zning harakati emas, balki uning o‘zining harakati qanday bo‘ladi, shunga e’tibor berishimiz kerak. Unga **ـ إلا** dan keyin kelgan ismga beriladigan harakat beriladi, masalan: **- جاءنى القوم غير زيد** Zayddan bo‘lak qavm keldi, bu jumlada “g‘ayrun”ning harakati fatha bo‘ladi. **ـ ما جاءنى القوم غير زيد**. Yuqoridagi ikki jumlalarda ham “g‘ayrun”ning kelishigi “illa”dan keyingi so‘z kelishigi bilan bir xilda bo‘layapti. Yana bir istisno yuklamasi  **سوى** dan keyin kelgan so‘z qaratqichda bo‘ladi. Misol: **ـ جاءنى القوم سوى زيد**: **ـ حاشا خلا**, **ـ جاءنى القوم سوى زيد**: **ـ عدا** dan keyin kelgan so‘zlar qaratqich yoki tushum kelishigida bo‘ladi. Misol: **ـ جاءنى**

ماعدا , ليس , لا يكون . جاءنى القوم خلا زيدا | زيد , جاءنى القوم عدا زيدا | زيد , جاءنى القوم ما , جاءنى القوم ماعدا زيدا faqat tushum kelishigida boshqaradi. Misol: جاءنى القوم لا يكون بکرا , جاءنى القوم ليس خالدا , خلا عمرا .

Gapning bosh bo‘laklari vazifasini nisbiy olmoshlar bilan kelgan fe’liy yoki ismiy jumlalar ham bajarishi mumkin. Bunday gaplar ega yoki kesim ergash gapli qo‘shma gaplarni ifoda etadi. Nisbiy olmoshlar الذى, الذى من, ما, أى. Bu ismlar o‘zlaridan keyin keluvchi so‘z, ya’ni *sila* va qaytuvchi olmosh bo‘lgandagina to‘liq bo‘ladi. Uning silasi 3 narsadan biri, ya’ni fe’l, hol va ismiy jumla bo‘ladi, masalan: - جاءنى الذى يقوم (tik) - جاءنى الذى قام Turayotgan (kimsa) menikiga keldi, Bu ikki jumla fe’liyga misoldir. جاءنى الذى عندك - Sening huzuringdaga (kimsa) menikiga keldi, silasi holli bo‘lgan gapga misol va nihoyat جاءنى الذى أبوه قائم – otasi turgan (kimsa) menikiga keldi. Bu jumlada sila ismiy jumladir. الذى ismi *mavsula* undan keyingi so‘z *sila* hisoblanadi.

### Savollar:

1. Arab tili sintaksisining qanday nazariy masalalari mavjud?
2. Arab tilida gap bo‘laklarining o‘zaro qanday bog‘lanadi?
3. Ega va kesim orasidagi munosabat.
4. Aniqlovchi va aniqlanmish munosabati.

## **5.9. SINTAKTIK MUNOSABAT TURLARI: “FA” YUKLAMASINING IMKONIYATLARI**

### Reja:

1. Zamonaviy arab tilshunosligida “fa” yuklamasi haqida.
2. Mumtoz arab nahvida “fa” yuklamasi haqida.

**Tayanch so‘z va iboralar:** ko‘makchilar, turli yuklamalar, bog’lovchilar, al artikli, biriktiruvchi bog’lovchilar, juft bog’lovchilar.

"الفاء" bog'lovchisi haqidagi nisbatan to'liq ma'lumotni B.M. Grande bergan . Jumladan shunday deydi: "الفاء" – biriktiruvchi bog'lovchi ( حروف العطف ) hisoblanadi va quyidagi holatlarda ishlataladi:

1. Ketma-ket sodir bo'lgan ikki ish-harakatni yoki ketma –ket kelgan ikki jumlan i fodalash uchun. M-n: – دخل فسلم عليه –U kirdi va unga salom berdi. – تعلم فعلم U o'qidi , keyin o'qitdi.

2. Ba'zi birikmalarda ikki so'zni bog'lash uchun. M-n: – يوماً فيوماً – Kundan kunga.

3. Ikki fe'lni bog'lash uchun. Bunda ularning ikkinchisi birinchi fe'lning harakatidan kelib chiqqan natijani bildiruvchi harakatni ifodalaydi. M-n: سقط فما ت – U yiqildi va [buning natijasida] o'ldi.

4. Shart ergashgan gaplarda bosh gap tarkibida:

A) bu natija buyruq, man' etish yoki tilakni bildirsa, m-n:

ان لقيته فقل له – Agar uni uchratsang, unga ayt.

ان كنت عادلا فلا تخف – Agar odil bo'lsang, unda qo'rqma.

B) fe'ldan oldin - قد , سوف , لن , ما , س - yuklamalari bor bo'lsa, m-n:

ان يسرق فقد سرق اخ له من قبل [ham] o'g'irlik qilsa, oldinroq akalaridan biri [ham] o'g'irlik qilgan.

ان فعلت ذلك فسوف تندم – Agar sen buni qilsang, afsuslanasan.

من توانى فى عمله فلن يفلح – Kim ishidan xursand [mamnun] bo'lmasa, muvaffaqiyatga erishmaydi.

و ان توليتם فما سالتكم من اجر Sizlar [mendan] yuz o'giryapgiz, [biroq] men sizlardan xaq so'ramadim-ku!

V) natija ismiy gap bilan ifodalangan bo'lsa, m-n:

ان اراد ان يهلكنى فلن مفر من الموت – Agar u meni halok qilishni istasa, o'lim muqarrardir.

G) ba'zida boshqa holatlarda fe'l shart maylida bo'lib, gapning natija qismida o'tgan zamon ma'nosiga ega bo'ladi. M-n:

مهما طلب فناله – Nimaga harakat qilgan bo'lsa, [hammasiga] erishgan.

5. "الفاء" ikki gapni bog'lash uchun ham ishlatiladi. Bunday gaplarda esa ega jonli predmetni ifodalaydi, 2-gapda esa ega yoki harakatlanuvchi shaxs o'zgaradi. M-n: – جاء الى فاجسلته عندى – U mening yonimga keldi, lekin men uni oldimda o'tqizib qo'ydim.

6. Agar gapning boshida biror bir gap bo'lagi اما yuklamasi bilan ajratib ko'rsatilgan bo'lsa, "الفاء" bog'lovchisi o'sha ajratib ko'rsatilgan gap bo'lagidan keyin qo'yiladi. M-n: اما اصناف الفواكه فالاندلس اسعد البلاد بكثرتها – Mevalarning turli xiliga kelsak, Ispaniya ularning ko'pligi bo'yicha eng baxtli davlat.

7. Odatda "الفاء" bog'lovchisi darak maylida turgan fe'lning mayliga ta'sir qilmaydi. Ammo bordiyu birinchi gap buyruq, man' etish, iltimos, tilak yoki savolni anglatsa, keyingi gap birinchi gapdagi sub'ektning xohish - irodasiga bo'ysingan ma'noni yoki natijani anglatsa, "الفاء" bog'lovchisidan keyin fe'l istak maylida qo'yiladi. M-n: زرنى فازورك – Meni ziyorat qil, men seni ziyorat qilishim uchun.

– اين بيتك فاجىء اليك Sening uying qaerda, men sening yoninga borsam?

8. Kelasi zamon ma'nosidagi o'tgan zamon fe'l shart gaplarning shartni ifodalovchi 1-qismida, shuningdek, natijani bildiruvchi 2-qismida ham ishlatiladi. Agar shart gap o'tgan zamonga tegishli bo'lsa, o'tgan zamondagi fe'l lining o'tgan zamon shakli va "الفاء" yuklamasi bilan birgalikda keladi. M-n: ان كنت اجرمت كان لـ fe'lining o'tgan zamon "الفاء" bog'lovchisiz hammasi uchun, va "الباء" bog'lovchilarida tartib bor. "ثم" ma'nosiga ko'ra "الباء" va "حتى" ga nisbatan (vaqtga nisbatan) sal keyinroq sodir bo'lgan [ish-harakat yoki voqeа – hodisa] ini bog'laydi .

Arab tilshunosligida "الباء" bog'lovchisi "حروف العطف" deb ataladi va unga اللام للجمع بلا ترتيب و "الباء" و "ثم" له مع الترتيب و في "ثم" ترافق "الباء" و "دون" "الباء" و "حتى" بمعنى الغاية" – "او "الباء" و "حتى" ga nisbatan (vaqtga nisbatan) sal keyinroq sodir bo'lgan [ish-harakat yoki voqea – hodisa] ini bog'laydi .

Mumtoz arab nahvida bu haqida batafsil ma'lumot berilgan. Ya'ni, fe'l nasb holatida besh yuklama- "حتى ان" va "اللام الى" ma'nosidagi ، birgalikni ifodalovchi "الباء" va (وأو) "الباء" - dan keyin turadi, deb tushuntirilgan. Va yana "الباء" olti narsaning javobida ishlatiladi", deyilgan. Ular:

1. Buyruq – اتىنى فاكرمك – Mening oldimga kel, men seni hurmatlayman.
2. Man' etish – و لا تطعوا فيه فيحل عليكم غضبى – Unga [nisbatan]adolatsizlik qilmanglar, mening sizlarga g'azabim haqlidir [bordir].
3. Savol, so'roq – و هل استلأك فتجينى ؟ – Men sendan [menga] javob ber, deb so'radimmi?
4. Tilak – و ليتى عندك فافوذ فوذا عظيما – Qani endi sening yoningda bo'lginimda ko'p narsa yutar edim.
5. Taklif – ولا تنزل بنا فتصب خيرا – Biznikiga tushmayapsan, tushganingda yaxshi bo'lar edi.
6. Inkor – و ما تاتينا فتحدثنا – Biznikiga kelmading, [kelganingda] suhbatlashardik.

Zamonaviy arab tilshunosligida "فاء السببية" "الفاء" bog'lovchisini "fa"- sabab bog'lovchisi" deb atashadi va uning sakkiz holatda qo'llanishini ta'kidlaydilar. Jumladan,

1. Buyruq – الامر – Shukr qil, rizqing ko'payadi اشكر فيزداد رزقك
2. Buyruq "lomi" – لام الامر – Rozi bo'lib yashasang, baxtli bo'lasan – يكن الرضا لديك فتسعد
3. Man' etish – النهى – Unga [nisbatan]adolatsizlik qilmanglar, mening sizlarga g'azabim haqlidir [bordir] – و لا تطعوا فيه فيحل عليكم غضبى
1. So'roq, savol – الاستفهام – Seni unutibman, menga hamrohlik qilasanmi? – هل تصحبني فأنس بك؟
2. Taklif – العرض – Mening sovg'amni qabul qilmayapsan, [olganingda] xursand bo'lardim – أ لا تقبل هد يتي فأسر
3. Undash, da'vat qilish – التحضيض – ..... لو لا تصل الرحمة فتنا

ب

4. Tilak – التمنى – Qani endi odamlar [barchalari] mo'min bo'lganlarida, baxtli bo'lar edilar – ليت الناس آمنون فيسعدوا
5. Iltimos, so'rash – الترجى – Balki extiyot bo'lsang, beshikast bo'larsan – لعلك تتroxى الحذر فتسلم .

Zamonaviy va mumtoz arab tilidagi "الفاء" bog'lovchisiga oid qonun – qoidalarini qiyosiy tahlil qilib, "Qachon "الفاء" bog'lovchisi shart ergashgan gapning javobi bo'lib kelayotgan bosh gapga qo'shiladi? " degan savolga biz shunday javob beramiz:

1. Agar shart ergashgan gaplarda bosh gap ismiy jumla bilan ifodalangan bo'lsa, m-n: – ان بخلت فانت المذ موم Agar sen xasis bo'lsang, xaqoratga loyiqsan.

2. Agar shart ergashgan gaplarda bosh gap fe'liy jumla bilan ifodalangan bo'lsa va u quyidagilardan biri bilan boshlansa, ya'ni

a) buyruq maylidagi fe'l bilan boshlansa, m-n: – اذا أصا بك مکروه فاصبر Agar senga yomonlik [bal] etsa , sabr qil [sabrli bo'l!]

b) inkor yuklamasi bilan boshlansa, m-n: – من زار المريض فلا يطل Kim kasalni ziyorat qilsa, cho'zilmaydi. (ya'ni kasalni ko'rgani kelgan odam uzoq qolib ketmaydi).

v) so'roq olmoshi bilan boshlansa, m-n: – ان كنت راعيا فهل تهمل رعيتك؟ Agar sen cho'pon bo'lsang, podangni nega qarovsiz qoldirding [tashlab qo'yding]?

g) tilak bilan boshlansa, m-n: – من كان ذا مال فليته يتصدقn Qani edi [har bir] badavlat odam xayr qiluvchi [sadaqa beruvchi] bo'lsa!

d) o'zgarmas fe'l bilan boshlansa, m-n: – من كفر فليس له من الله مهرb Kim kufr keltirsa, Allohdan unga boshpana [panoh] bo'lmaydi.

من عق والديه فقد باء ye (قد) yuklamasi bilan boshlangan fe'liy gapda, m-n: – بغضب من الله Kim ota-onasiga bo'ysunmasa, Allohdan unga g'azab qaytaveradi.

من سوف سـ yo (سوف) yoki " سوف " yuklamalari bilan boshlangan fe'liy gapda, m-n: – يتواضع فسيحترمه الناس Kim murosa qiluvchi (itoatkor) bo'lsa, odamlar uni hurmat qiladilar yoki (Bir xil tarjima qilinadi, ya'ni shuning o'zi).

ان أدبت ما (لن) j) yoki " لن " yuklamalari bilan boshlangan fe'liy gaplarda, m-n: – الزكاة فما قصرت حق الفقراء Agar zakot to'lasang [bersang ham], faqirlar xaqqini kamaytira olmaysan yoki – ان تفعل خيرا فلن تحرم ثواب الله Agar yaxshilik qilsang, Allohning ajridan bebahra bo'lmaisan [ya'ni mukofot olasan].

لَنْ اصَابَكَ مَكْرُوهٌ فَرِبٌ ضَارَةٌ نَافِعَةٌ 3. “رب” yuklamasi bilan boshlangan gapda, m-n: – Senga balo [yomonlik] etmagan bo‘lsa, balki [bu] Allohdandir.

مَنْ قَتَلَ نَفْسًا بِغَيْرِ نَفْسٍ أَوْ فَسَادٍ كَانَ 4. yuklamasi bilan boshlangan gaplarda, m-n: – فِي الْأَرْضِ فَكَانَمَا قُتِلَ النَّاسُ جَمِيعاً Kimki o‘z joniga qasd qilsa yoki er yuzida buzg’unchilik qilsa, [gunohi] barcha odamlarni o‘ldirgan kabi bo‘ladi.

– اَذَا اَعْتَدْتَ عَلَى اللَّهِ فَوَاللهِ لَنْ يَخْذُلَكَ 5. Qasam bilan boshlangan gapda, m-n: Allohga e’tiqod qilgan odam, Allohga qasamki, yordamsiz qolmaydi.

6. Ismiy gapda, m-n: – مَنْ بَغَى فَالْبَغْيَ مُرْتَدٌ عَلَيْهِ Kim axloqsizlik qilsa, axloqsizlik uning uchun dindan qaytishlikdir.

Qiyosiy tahlilimizga xulosa yasab aytadigan bo‘lsak, "الفاء" bog’lovchisi 14 holatda istifoda etiladi. Ularni guruhlaydigan bo‘lsak,

A) gapning uyushiq bo‘laklarini bir – biriga bog’laydi;

B) juft bog’lovchilar va zidlovchi bog’lovchilar vazifasida keladi;

V) shart ergashgan gapdan keyin kelgan bosh gapni bog’laydi;

G) fe’llarni shart maylida turishini talab etadi.

"الفاء" yuklamasining bunday funksiyalarni bajarishi, uning shu turkumdagি boshqa bog’lovchilarga nisbatan faolligiga ishora qiladi.

### Savollar:

1. “Fa” bog’lovchisi haqida B.M. Grande qanday ma’lumot bergen?
2. Mumtoz arab nahvida “fa” bog’lovchisi imkoniyatlari qanday belgilangan?

## VI BOB. MUTAXASSISLIK SOHASIDAGI ILMYQ QARASHLAR

### 6.1. ARAB TILSHUNOSLIGI B'YICHA ILG'OR NAZARIYOTCHILAR VA ULARNING NAZARIY QARASHLARI:

#### ARAB TILSHUNOSLIGIDA TASRIF - SO'Z YASALISHI HAQIDA

##### Reja:

1. Klassik davr tilshunoslarining tasrif haqila ta'riflari va ularning o'zgachaliklari.
2. Arab tilida tasrif-so'z yasalishining o'ziga xos jihatlari.
3. Ibn Usfur Ishbiliy tasrifning turi haqida qarashlari.

**Tayanch so'z va iboralar:** sarf, so'z yasalishi, tasrif, harf ziyoda bo'lisi, o'zak harf .

So'z yasalishi - so'z larning yasalishini, yangi so'z hosil qilishning qonun-qoidalarini, vaznlarni, vazndagi asl va ziyoda, badal harflarni, vositalarni, shu bilan bog'liq holda, so'z larning strukturasini tekshiradi. Bu arab tilshunosligida "sarf" deb yuritiladi. Sarf so'zlar hosil bo'lish jarayonida qanday jarayonlar ro'y bersa, shularning hammasini o'rganadi. So'zdagi tovushlar tushishi, ortishi, almashishi kabi fonetik hodisalarni ham o'rganib, tahlil qiladi.

Imom Sakkokiy o'zining "Miftahu-l-ulum" asarida so'z yasalishi bilan shug'ullanuvchi ilm sarf fani haqidagi ta'rifi mantiqiylikka, aniqlikka, o'ziga xos yondashuvga ega. Berilgan ta'rif til sohiblari ta'riflaridan, qarashlaridan boshqachaligi, o'zgachaligi bilan ajralib turadi. Ta'rif quyidagicha:

اعلم ان الصرف هو تتبع اعتبارات الواضع في وضعه من جهة المناسبات والاقيسة ونعني بالاعتبارات وافرضها الي ان تتحقق انه اولا جنس المعاني ثم قصد لجنس جنس منها معينا بازاء كل من ذلك طائفة من طائفه من الحروف ثم قصد لتتويع الاجناس شيئا فشيئا متصرفها في تلك الطوائف بالتقديم والتأخير والزيادة فيها بعد او النقصان منها مما هو كاللازم للتتويع وتکثير الامثلة ومن التبديل لبعض تلك الحروف لغيره لعارض و هكذا عند تركيب تلك الحروف من قصد هيئة ابتداء ثم من تغيرها شيئا فشيئا ولعلك تستبعد هذه الاعتبارات إذ ليس طريق معرفتها عندك لكن لا يخفي عليك ان وضع اللغة ليس الا تحصيل اشياء منتشرة تحت الضبط فإذا امعنت فيه النظر وجدت شأن الواقع اقرب شيء من شأن المستوفى الحاذق وانك

لتعلم ما يصنع في باب الضبط فينزل عنك الاستبعاد ثم انك ستقف على جلية الامر فيه مما يتلى عليك عن فريب .

Bilginki, sarf ilmida so‘z hosil qilayotganning nuqta’i nazari, ya’ni bor e’tibori so‘z hosil qilishdagi me’yorlarga, ma’lum bir munosabatlarga asoslangan bo‘ladi. U asosli me’yorlar, so‘z hosil qilish uchun dastlab, turdosh ma’nolarni to‘g‘ri bo‘lib chiqishni hisobga olish, so‘ng bulardan har birini ro‘parama-ro‘para bo‘lishi uchun ma’lum bir harflar toifasi muayyan turdosh so‘z uchun turdosh so‘z ko‘zda tutiladi. Turdosh so‘zlarni turli shaklga solish uchun biron bir narsani qasd qilib, undagi harflarni ziyoda qilish, kechiktirish yoki oldin keltirish bilan turlanuvchi shakl ko‘zda tutiladi. Misollarni ko‘paytirish, turli shaklga solish kerak bo‘lganidek, yasash uchun asos so‘zning harflardan biri kamaytiriladi. Asl o‘zak o‘rnida boshqa harf kelayotganini bildirish uchun harflar almashtirilishi mumkin. Shunday qilib, bu harflarni bir-biri bilan biriktirish boshlang‘ich shakldan kelib chiqadi. So‘ng so‘zni o‘zgartirishdan alohida-alohida so‘z qasd qilinadi. Bu nuqtai-nazardan o‘quvchi uzoqda bo‘lishi yoki bularni mumkin emas deb hisoblashi o‘zidagi bularni anglash yo‘lini yo‘q qiladi. Lekin sir emaski, til shakli aniq bo‘lgan, yoyilgan narsalarni o‘rganish bilangina emas. Agar o‘quvchi bor diqqatini voqealikka qaratsa, mohir yig‘uvchi ishiga yaqin bo‘lgan voqealikni topadi. Darhaqiqat, o‘quvchi aniq ravishda biror so‘zni hosil qilishni bilsa, unday bo‘lishi mumkin emas deb hisoblash yo‘qoladi. So‘ng o‘quvchi yaqindan o‘zida kelib chiqadigan ishning mohiyati oldida to‘xtab qoladi [MU,13].

Muhammad ibn Molik “Alfiyyatu ibn Molik” asarida sarf ilmi haqida: “Tub fe’llardagi va o‘zgarmas ismlardagi harf va uning o‘xshashi tuslanishdan xolidir. U ikkovidan boshqalar tuslanishga loyiqdir,” deb yozgan edi (حرف و شبهه من الصرف ).

Abdulloh ibn Solih ushbu asarning sharhida shunday yozadi, “Tasrif- so‘z yasash ilmi bo‘lib, bunda so‘zdagi harflarning asl o‘zak harfi, qo‘sishimcha harflar, to‘g‘ri va illatli harflar va shunga o‘xshash hodisalar bilan bog‘liq ilmdir. So‘z yasalishida so‘zdagi harflarning, unlilarning, sukunlarning soni ham e’tiborlidir. Tasrifdan ko‘zlangan maqsad – so‘zlarning shaklini bilish, ularning harflarini

o'rganish, ulardag'i asl va noasl harflarni bilish, undagi tushirib qoldirilgan, almashtirilgan harflarni bilish. Bularning bari ma'no bilan bog'liq emas. Ma'no bilan bog'liq so'zning shakllari, so'zlarni kichraytirish, siniq ko'plik hosil qilish, sintaktik jihatdan bog'liq bo'lgan masalalar tasrifda emas, nahv boblarida o'rganiladi“ [45: 413].

Jamoliddin Usmon ibn Umar ibn Hojib “Ashshofiyatu” asarida: “Tasrif-sintaktik vazifada bo'limgan so'zlarning qurilish hollarini o'rganuvchi ilm”, - deb yozadi [25: 59].

Usmon ibn Jinniy “Muxtasar At-tasrif” asarida sarf haqida shunday yozgan edi:

معنى التصريف هو أن تأتي إلى حروف الأصول - وسنوضح قولنا «الأصول» - فنصرف فيها  
بزيادة حرف، أو تحريف بضرب من ضروب التغيير، فذلك هو التصرف فيها والتصريف لها، نحو  
قولك: ضرب، فهذا مثال الماضي، لأن أردت المضارع قلت يَضْرِبُ، أو اسم الفاعل قلت: ضارب، أو اسم  
المفعول قلت: مضروب ، وإن أردت أن الفعل كان أكثر من واحد على وجه كثرة الضرب وكراه قلت:  
ضرب وعلى هذا عامة التصريف في هذا النحو من كلام العرب، فمعنى التصريف هو ما أريناك من التلعب  
بالحروف الأصول لما يراد فيها نت المعاني المفادة منها

Tasrif - asl o'zak harflarga kelish bo'lib, so'zda ma'lum o'zgarishlar, harflarni ziyoda qilish, qaysidir harfni ikkilantirish tasarruf ,ya'ni sarfdir. Misol uchun, “urdi” bu fe'l o'tgan zamonda, buni hozirgi zamonga o'zgartirish uchun ي ni ziyoda qilish kerak. Natijada ي ضرب “uryapti” so'zi hosil bo'ladi. Ushbu fe'lning ish bajaruvchi kerak bo'lsa, ضارب “uruvchi”, majhul nisbat sifatdoshi “urilgan”, bu ish harakat ma'nosi ta'kidlanib takrorlanib keladigan bo'lsa, ضرب ikkinchi o'zak undoshni ikkilantirish orqali amalga oshiriladi. Shularning bari arablarning sarfi bo'ladi. Sarf harflarni o'ynatib foydali ma'noga ega so'zlarning hosil qilish ilmidir [16: 2].

Sarf صرف fe'lining harakat nomi bo'lib, o'ziga qaytarish, o'zgartirish, almashtirish ma'nolarini ifodalaydi. Sarf ilmi arab tilining eng muhim ilmlaridan hisoblanadi. Bu ilmda qiyos katta ahamiyatga ega. Sarfda qiyosni bilmagan arab tilini o'rgana olmaydi. Qiyos tovush tushishi, ortilishi, almashishi kabi fonetik

hodisalarda; so‘zdagi o‘zak hafrlar, ziyoda bo‘lgan harflarni aniqlashda ham eng muhim hisoblanadi.

Abduqohir Jurjoniy “Miftahu-s-carf” kitobida, “Tasrif “sarf” so‘zining ”تعabil“ vazniga solingan bo‘lib, murakkab bo‘lmagan so‘zlardan turli so‘zlar va farqli ma’nolar hosil qilish ilmi,”- deb yozadi [35: 26].

Sarf ilmi yasalgan so‘z va o‘zak o‘rtasidagi bog‘liqliklarni o‘rganadi. Ikkita so‘z o‘xhash bo‘lsa-yu, ma’no doirasidan chiqib ketsa, ularning asli bir o‘zak emasligi, bular o‘rtasida sarfning qoidalari yo‘qligi ma’lum bo‘ladi. Bu o‘xhashliklarda boshqa tillardan farqli ravishda arab tilida faqat undosh o‘zak harflariga e’tibor qaratiladi. Arab tilida sarfning asosiy materiali undosh harf hisoblanib, unli harf bu jarayonda ishtirok etmaydi. Har bir yasalgan so‘z ortida boshqa so‘z yotmaydi va bu yasalish ma’lum vaznga ko‘ra biror yo‘l, usul bilan yuzaga kelgan bo‘ladi. Har bir yasalishda ikki xil munosabat bor, yasashga asos bo‘lgan vazn va shu vaznda yasalgan so‘z.

Ibn Usfur Ishbiliy “Mumti’ kabir fi tasrif” asarida sarfni ta’riflab quyidagilarni yozadi, ”Tasrif ikki qismga bo‘linadi, 1. So‘zni turli ma’no anglatuvchi shaklga solish. Masalan، ضرور urish so‘zining turli ma’no anglatuvchi shaklga slish، ضرر kabi. Bu so‘zlarning hammasi harflaridan tashkil topgan. Ushbu harflardan turli shakldagi so‘zlar va farqli ma’nolar hosil qilindi. 2. So‘zning asl o‘zak harflarining o‘zgarishi. Masalan، قول قال ga o‘zgarishi kabi. So‘zdagi bu o‘zgarish ma’noga ta’sir qilmaydi. قول ham قال ham “ aytmoq” ma’nosida” [23: 33]. Yuqoridagi Ishbiliy bergan ta’rifi boshqalarda takrorlanmaydi. “Aytmoq” so‘zi borasida aytligan fikrga qo‘sishimcha o‘laroq، قول “aytmoq” ma’nosida so‘zlashuvda ishlatilmaydi. قول قال so‘zi “aytmoq” ma’nosida ishlataladi. « قول » so‘zi aytmoq so‘ziga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqorida berilgan ta’riflar ichida keng o‘ziga xos yoritilgan ta’rif Imom Sakkokiyning sarfga tilshunos sifatida bergan, mantiqiy izchillikka ega ta’rif deb hisoblash mumkin. Olim sarf so‘zining lug‘aviy, istilohiy ma’nolariga e’tiborni qaratmay, bu ilmda nima qanday o‘rganilishi, nimaga asoslangani, so‘z hosil qilishda qanday hodisalar yuz berishi, bu qanday jarayon ekanligini batafsil bayon

qiladi. Ta’rifdagi “Bilginki, sarf ilmida so‘z hosil qilayotganning nuqta’i nazari, ya’ni bor e’tibori so‘z hosil qilishdagi me’yorlarga, ma’lum bir munosabatlarga asoslangan bo‘ladi”. Bundan bilib olish mumkinki, so‘z yasamoqchi bo‘lgan ma’lum darajada bilimga ega bo‘lmay, bu ishni bajara olmaydi. Chunki, so‘z yasash jarayoni ma’lum bir qonun-qoidani qamrab oladi. Xohlagan so‘zdan yoki undosh tovushdan so‘z hosil qilish mumkin bo‘lмаган ish hisoblanadi.

“U asosli me’yorlar, so‘z hosil qilish uchun dastlab, turdosh ma’nolarni to‘g‘ri bo‘lib chiqishni hisobga olish, so‘ng bulardan har birini ro‘parama-ro‘para bo‘lishi uchun ma’lum bir harflar toifasi muayyan turdosh so‘z uchun turdosh so‘z ko‘zda tutiladi.” Arab tilining boshqa tillardan morfologiyadagi xos jihatlaridan biri bu – so‘z hosil qilishda faqat undosh tovushlar ishtirok etishi; so‘z o‘zagi faqat undosh harflar tashkil qilishi. Bu o‘ziga xos jihat sarfda juda kata ahamiyat kasb etadi. Ta’rifdagi jumlani ushbu misol orqali osonroq tushunish mumkin, ضرب dan iborat o‘zak ma’nosи “urdi”. Bu o‘zakdan ish harakat bajaruvchisini yasash kerak. Buning uchun unga turdosh bo‘lgan عالم degan so‘zni (biluvchi) olib, so‘zni arab tilshunos olimlari tomonidan joriy qilingan vazn harflari bo‘lgan ف ع ل ga tarkib bilan almashtish orqali vazni hosil bo‘ladi. Yuqoridagi o‘zagni ushbu qolipga solinsa, so‘zi “uruvchi” hosil bo‘ladi. Turdosh so‘zlar, ضارب va عالم ف ع ل harflari.

“Turdosh so‘zlarni turli shaklga solish uchun biron bir narsani qasd qilib, undagi harflarni ziyoda qilish, kechiktirish yoki oldin keltirish bilan turlanuvchi shakl ko‘zda tutiladi.” Yuqoridagi o‘zakdan majhul nisbat sifatdoshini yasash uchun o‘zakni tashkil qiluvchi undoshlarga muayyan undoshlar ziyoda qilish kerak. Demak, so‘z hosil qilishda faqatgina o‘zak harflari emas, o‘zakdan tashqarida bo‘lgan harflar ham ishtirok etadi. Bu undoshlar ziyoda harflar deb yuritiladi. Ko‘zda tutilgan ma’noni ifodalovchi muayyan toifadagi harflar tashkil topgan vazn مفعول dir. Yuqoridagi o‘zakni shu shaklga solsak, مضرورب “urilgan” so‘zi hosil bo‘ladi. Bu so‘zning strukturasida ڦ va ڻ ziyoda qilindi. Bu hosil bo‘lgan so‘zda ikkinchi o‘zak undosh so‘zdagi harflar tartibida uchinchi bo‘lib,

kechiktirildi. Uchinchi o‘zak undosh ۋ dan oldin ziyoda harf hisoblanuvchi ۋ keltirildi.

“Misollarni ko‘paytirish, turli shaklga solish kerak bo‘lganidek, yasash uchun asos so‘zning harflardan biri kamaytiriladi. Asl o‘zak o‘rnida boshqa harf kelayotganini bildirish uchun harflar almashtirilishi mumkin”. ضرب o‘zagidan ushbu so‘zning harakat nomini hosil qilinsa, bu ضرب “urish” bo‘ladi. Ko‘rinishdan bir xil, aslida bir xil emas, biri “doroba”, ikkinchisi “dorbun”. Demak, alohida ma’nolar harakatlar yordamida ham ifodalanishi mumkin. و هب “berdi” o‘zagidan harakat nomi hosil qilsak, بة “berish” bo‘ladi. e’tobor qaratilsa, yasashga asos bo‘lgan o‘zak harflaridan biri kamaytirildi. Yuqorida zikr qilingan قول o‘zagidan “aytdi” ma’nosini ifodalovchi قال hosil qilindi. Asl o‘zak harf ۋ bu o‘zak undosh borligini bildirish uchun u ٰ bilan almashtirildi.

“Shunday qilib, bu harflarni bir-biri bilan biriktirish boshlang‘ich shakldan kelib chiqadi.” Yuqorida hosil qilingan so‘zlarga diqqat qilinsa, ularning hammasi boshlang‘ich shaklga borib taqaladi. “So‘ng so‘zni o‘zgartirishdan alohida-alohida so‘z qasd qilinadi.” Bir necha so‘z hosil qilingan bo‘lsa, o‘zagi bir bo‘lsa-da, alohida ma’noga ega yangi so‘zlar hosil bo‘ldi. Bu oddiy jarayon emas ekanligi, o‘rganuvchi buni uddalay olmayman degan xulosaga kelmasligi uchun Imom Sakkokiy dalda, nasihat o‘laroq shunday deydi, “Bu nuqtai- nazardan o‘quvchi uzoqda bo‘lishi yoki bularni mumkin emas deb hisoblashi o‘zidagi bularni anglash yo‘lini yo‘q qiladi. Lekin sir emaski, til shakli aniq bo‘lgan, yoyilgan narsalarни o‘rganish bilangina emas. Agar o‘quvchi bor diqqatini voqealikka qaratsa, mohir yig‘ivchi ishiga yaqin bo‘lgan voqealikni topadi. Darhaqiqat, o‘quvchi aniq ravishda biror so‘zni hosil qilishni bilsa, unday bo‘lishi mumkin emas deb hisoblash yo‘qoladi. So‘ng o‘quvchi yaqindan o‘zida kelib chiqadigan ishning mohiyatini oldida to‘xtab qoladi”.

### Savollar:

1. Abu Ya’qub Sakkokiyning tasrif haqidagi ta’rifi o‘zgachalaiklarini aytib bering.

2. Ibn Usfur Ishbiliy taqsimotidagi asosiy unsur nima?
3. Tasrifning o‘zgachaliklari nimalardan iborat?
4. Muhammad ibn Molik ta’rifida «harf» qanday ma’noda qo‘llangan?
5. So‘zlarning strukturasini tekshiradigan ilm nima?

## **6.2. MUTAXASSISLIK SOHASIGA OID ILMIY MARKAZALAR: KUFA VA BASRA MAKTABLARINING VAKILLARI**

**Reja:**

1. Kufa maktabi vakillari.
2. Basra maktabi vakillari.

**Tayanch so‘z va iboralar:** Kufa maktabi, Basra maktabi, Aralash maktab, tilshunos-ekletiklar, Bag‘dod shahri, o‘qituvchilik faoliyati, ikki maktab qarashlarini aralashtirish.

762-yili Bag‘dod shahriga asos solinib, uni Abbosiylar davlatining poytaxti deb e’lon qilinganligidan<sup>31</sup> keyin madaniy hayot ham o‘sha yerga to‘plana boshladi. Arablarning ilm va madaniyat markazi Iroqning yana bir taraqqiyot (madaniyat) markazi bo‘lmish Bag‘dod shahriga ko‘chdi. Endi har sohadagi olimlar, jumladan, nahvshunoslар ham Bag‘dod tomon intila boshladilar. Kufa va Basra maktablarining vakillari o‘z faoliyatlarini Bag‘dodda davom ettira boshladilarki, buning natijasida arab tilshunosligining yangi markazi tashkil topdi. Ya’ni ular sa’yi-harakatlari Bag‘dod grammatika maktabining yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Bag‘dod maktabi vakillarining aksariyatini kufalik va basralik tilshunoslар tashkil qilgan. Biroq ularning izlanishlari Bag‘dodda kechganligi sababli ham ular Bag‘dod maktabi namoyandalari bo‘lib tanilganlar. Bag‘dod maktabi vakillari ba’zida basraliklarning, ba’zida esa kufaliklarning fikrlarini qo‘llab quvvatlashganliklari sababli Basra va Kufa maktablari o‘rtasidagi ixtiloslar susaya boshladi va bu ikki maktab yo‘qlikka yuz tutdi. Biroq bu maktablardan

---

<sup>31</sup> История лингвистических учений. Средневековый Восток. –Л., 1981. –С. 56.

keyin faoliyat olib borgan tilshunoslik maktablari nahv ilmiga unchalik ahamiyatga molik yangilik olib kirishmadi, balki ikki ustoz maktabning qilgan izlanishlari va asarlarini sharhlash bilan cheklandilar. Bu haqida Xanna Faxuriy shunday degan edi: «Basra va Kufa olimlari tomonidan yig‘ilgan ma’lumotlar shunchalik mukammal va yetarli ediki, ulardan keyingi avlod ulamolari, birinchi galda Bag‘dod tilshunoslariqa faqat nahvga oid mavjud qarashlarni sharhlash va yoritish vazifasigina qolgan edi, xalos»<sup>32</sup>.

Yangi tashkil bo‘lgan Bag‘dod maktabida dastlab uchta guruh shakllangan. 1-guruhga kufalik tilshunoslardan ta’lim olgan, ularning fikr va qarashlariga ergashgan tilshunoslari kirgan. 2-guruh esa al-Mubarrad tashkil qilgan to‘garaklarda va boshqa basralik olimlarda nahvni o‘rgangan tilshunoslardan iborat bo‘lib, ular Basra maktabining qarashlariga, fikrlariga ergashganlar va ular tutgan yo‘ldan yurganlar. Bag‘dod maktabining 3-guruhi dastlab Sa’labning to‘garagida, keyin al-Mubarrad tashkil qilgan to‘garaklarda ilm o‘rganlar va natijada ikki maktab qarashlarini aralashtirib yuborganlardan iborat bo‘lgan<sup>33</sup>.

Birinchi guruh vakillari: Abu Muso al-Homid - to‘liq ismi Abu Muso Sulaymon ibn Muhammad ibn Muhammad ibn Ahmad. Nahv ilmini Abu-l-Abbos As-Sa’labdan olgan. 40 yil uning ketidan qolmay ilm o‘rgangan. O‘z do‘satlari, zamondoshlaridan ilgarilab ketgan. Basraliklardan ham ilm o‘rgangan. Basra va Kufa nahvchilarini aralashtirib yuborgan. Basraliklarga qarshi chiqqan. Muso al-Homiddan esa Abu Amr al-Zohid va Naftuvayhning g‘ulomi Barzuvayh nomi bilan mashhur bo‘lgan Abu Ja’far Isfahoniy naql qilganlar.

Abu Muso al-Homid ko‘ngli tor, badxulqli, qo‘pol odam bo‘lganligi uchun «Al-Homid», ya’ni «nordon» degan nom olgan. O‘ta tejamkor, baxil, xasis kishi bo‘lgan. Abu Ali Ismoil ibn al-Qosim Qoliy rivoyat qilib shunday deydi: «Ba’zi birodarlarimiz menga shunday aytib bergen edilar, ya’ni Abu-l-Abbos Ahmad ibn Yah’yo As-Sa’lab vafot etganida unga nomoz o‘qish uchun Abu Muso al-Homid

---

<sup>32</sup> Ханна ал-Фахури. История арабской литературы. – М., 1950. – С. 222.

<sup>33</sup> Muhammad at-Tantoviy. Nashatu an-nahvi va tarixu ashhuri an-nuhhati. – Misr, 2005. – В. 170

oldinga o'tganida Ibn al-Hoiq undan jahli chiqib «Sen yovuz odamsan, Abu-l-Abbosga namoz o'qishga maslaging ham to'g'ri kelmaydi», – degan».

Al-Homid kufaliklarning ashaddiy muxlisi, ya'ni tarafдори bo'lган. Sa'lab Salmaning so'zlaridan rivoyat qilib, «Al-Farro vafot etganida boshining tagida Sibavayhining «al-Kitob»i bo'lган екан», – desa, Al-Homid As-Sa'labning yoniga kelib, «Ha, undan (kitobdan) hech ajralmagan, chunki u uning xato va kamchiliklarini o'rgangan», – deydi.

Al-Homid o'zidan keyin adabga oid bir necha yaxshi asarlar qoldirgan. Ular:

1. Kitab xulqu al-insan 4. Kitab al-vuhush
2. Kitab as-sabaq va an-nidal 5. Kitab muxtasar fi an-nahv
3. Kitab an-nabat.

Al-Homid 305/917 y. olamdan o'tgan va Bag'dod mahallalarining biridagi «Babut-tabin» maqbarasiga dafn etilgan. Abdulloh ibn Ahmad ibn Hanbal qabri yaqiniga qo'yilgan.

Ibn Anbariy – Abu Bakr Muhammad ibn Abi Muhammad al-Qosim ibn Muhammad Anbariy 271/884y. Bag'dodda tug'ilgan bo'lib, asli al-Anbardan. Dastlabki ilmlarni o'z otasidan olgan. Nahv ilmini esa Sa'labda o'qigan. Kuchli xotiraga ega bo'lган, hozirjavob, daftar, kitobga qaramasdan eshitgan zahoti yodda saqlab qoladigan kishi bo'lган. U o'z zamondoshlarini o'tkir xotirasi bilan xayratga solgan. Abu Ali Qoliyning aytishicha, u 300000 she'rni yod bilgan екан. Ularni Qur'onning ayrim joylarini tushuntirishda misol tariqasida keltirar екан. Aytishlaricha, Anbariy 120ta Qur'on tafsirini isnodlari bilan yoddan bilgan. Anbariy o'zining ajoyib iqtidorini bir qator asarlarida namoyish qilgan. Ular nahv, lug'at, adab, Qur'on qiroati, payg'ambar hadislari, arab she'riy devonlariga yozilgan sharhlardan iborat. Filologik nuqtai nazardan biz uchun qiziqarli bo'lган asarlaridan biri – qarama-qarshi (teskari) ma'noli so'zlar haqidagi «Kitab al-addad» nomli yirik asaridir. O'z tarkibiga turli dialektlarni birlashtirgan boy arab leksikasi haqiqatda ham ayrim so'zlarni turli dialektlarda turli ma'noni, ba'zida qarama-qarshi ma'nolarni anglatishga olib keladi. Anbariyning bu asari ayrim

leksik birliklarni dialektlarda ishlatalishda qo'llanma sifatida tafsinga sazovor.

Nahvgalid asarlari:

1. Kitab al-addad
5. Kitab al-vadih
2. kitab az-zahir
6. Kitab al-muvaddah
3. Kitab al-kafiy
7. Kitab al-muzakkar va al-muannas.
4. Kitab al-maqsur va al-mamduh

Tilga oid asarlari:

1. Kitab al-alg‘ab
3. Kitab al-lamat
2. Kitab al-hija
4. Kitab al-ha’at fi Kitab Alloh.

Ibn Anbariy 328/ 939y. vafot etgan va o‘z hovlisiga dafn etilgan.

Al-Axfash al-Asg‘ar – Abu al-Hasan Ali ibn Sulaymon ibn al-Fadl – u «al-Axfash» nisbalik uchta mashhur tilshunosning kichigi<sup>34</sup>. U nahv ilmini Sa’lab, al-Mubarrad, Yazyidiy, Abu Aynai va boshqalarda o‘rgangan. O‘z bilimini oshirish maqsadida avval Misrga, keyin Halabga safar qilgan.

Al-Axfash al-Asg‘ar nahv va lug‘atga oid asarlar yozib qoldirgan. Ulardan

1. Sharh kitab Sibavayh
4. Kitab al-muhazzab fi an-nahv
2. Tafsir risala kitab Sibavayh
5. Kitab al-jard
3. Kitab at-tasniyya
6. Kitab al-anva.

Al-Axfash al-Asg‘ar 316/928 y. to‘satdan olamdan o‘tgan.

Ikkinci guruh vakillaridan Az-Zujaj<sup>35</sup> – Abu Ishoq Ibrohim ibn Muhammad ibn Sirriy ibn Sahl az-Zujaj avval Sa’lab boshchilik qilgan Kufa to‘garagida, keyin esa Basra maktabi vakili al-Mubarrad boshqarayotgan to‘garakka qatnaydi. Uning qarashlarida ikki maktabning ham ta’siri bo‘lgan. Hikoya qilishlaricha, bir kuni az-Zujaj Sa’labning uyiga boradi va u yerda Abu Muso al-Homidni ham uchratadi. Suhbat asta-sekin al-Mubarrad, Sibavayhi va Yunus ibn Habiblarni tanqid qilish, yomonlashga yetadi. Sa’lab Sibavayhining «al-Kitob» asaridagi xatolarni ayta boshlaganda az-Zujajning jahli chiqib ketadi va Sa’labning o‘zini ham «al-Fasih» kitobida xato qilganlikda ayblaydi.

---

<sup>34</sup>Kattasi- Abdu-l-Hamid ibn al-Majid, o‘rtanchasi – Sa’iyd ibn Mus’ada.

<sup>35</sup>Oyna kesish bilan shug‘ullangan.

Az-Zujaj nahv, sarf, lug‘at, aruz, Qur’on ilmlariga oid juda ko‘p kitoblar yozib qoldirgan. Masalan:

1. Kitab maoniy al-Qur‘an
2. Kitab al-ishtiqaq
3. Kitab al-qavafiy
4. Kitab al-arud
5. Sharh abyat kitab Sibavayh
6. Kitab an-navadir
7. Kitab muxtasar fi an-nahv
8. Kitab fa’altu va af’altu
9. Kitab ma yansarif va ma la yansarif
10. Kitab al-anva.

Ibn Qiftiy u haqida shunday yozadi: «Fazl va din ahlidan, go‘zal e’tiqod va ajoyib asarlar muallifi bo‘lgan». Az-Zujaj 311/923 y. vafot etgan.

